XVI asr oxirlarida Angliyada kapitalistik taraqqiyot bir qancha muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. "G'ov tutish" oqibatida dehqonlar yerdan mahrum qilindi, manufakturalar va savdo jadallik bilan o'sdi. Ingliz burjuaziyasi va yangi dvoryanlar yanada boyib, mustahkamlandi. Endi ular kuchli qirol hokimiyatining yordamiga muhtoj emasdilar. Shu bilan birga ingliz qirollari bundan keyin ham cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lish va boshqarishni orzu qildilar. Buning uchun ular parlamentning ruxsalisiz soliq yig'ish va katta armiyaga ega bo'lish lozimligini tushundirdilar. Chunki bu vaqtda fransuz va ispan qirollari shunday vakolatga ega edilar. Ammo Angliya tarixi boshqacha rivojlandi. Ingliz parlamentida burjuaziya va yangi dvoryanlarning vakillari ko'pchilikni tashkil qilar edi. Ularning har ikkalasi savdo va sanoatning taraqqiyotidan bir xilda manfaatdor edilar. Qirol o'z-o'zicha soliq yig'ish huquqiga ega bo'lmaganligi uchun boshqa yo'llar bilan mablag' topishga harakat qildi. Hukumat boshqa davlat bilan savdo qilish huquqini, savdo kompaniyalariga monopoliya sifatida, katta pullar evaziga sola boshladi. Burjuaziya va dvoryanlar bundan norozi edilar, chunki monopoliyalar boshqa savdogarlarni raqobatda siqib qo'ygan edi. Parlamentning noroziligi dastlab qirolicha Elizaveta davrida boshlangan edi. Ammo dono qirolicha parlament bilan kurashdan cheklandi. Toj va parlament o'rtasidagi ziddiyat Yakov I Styuart hukmronligi davrida yangidan boshlandi. U Angliyada absolyutizm boshqaruvini o'rnatilishiga harakat qilgan edi. Biroq Angliyaning xo'jalik va ijtimoiy taraqqiyoti bunga yo'l qo'ymasligini u tushunmadi. Absolyutizm uchun kurashni ingliz ruhoniylarining bir qismigina qo'llab-quvvatladi. Yakov I o'zining absolyutistik orzularini amalga oshirish uchun parlament bilan nizo chiqarib, uni siyosiy sahnadan tushirishga urindi. Parlamentning noroziligini ayniqsa qirolning moliyaviy tadbirlari va tashqi siyosati kuchaytirdi. Ingliz xalqi va parlament Ispaniyani Angliyaning dengiz va mustamlakalardagi asosiy raqibi deb bilgan bo'lsalar, qirol hukumati muxohifatga qarshi kurash uchun Ispaniya bilan yaxshi munosabatda bo'ldi.

Shunday qilib, qirol va parlament o'rtasidagi kurash Angliyani inqilobga olib keldi. Qirol Karl I (1625-1649) davrida bu kurash nihoyatda jiddiy tus oldi. Angliyaning Ispaniya va Fransiya bilan olib borgan urushlari uchun ingliz hukumatiga ko'p miqdorda pul kerak edi. Qirolning tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatsizliklaridan norozi bo'lgan parlament uning hukmronligini uchinchi yilida "Huquqlar to'g'risidagi iltimosnoma" ni imzolashga majbur qildi. Unga ko'ra, har qanday soliqlar faqat parlamentning ruxsati bilan yig'ilishi va har qanday hibsga olishlar qonuniy asosda bo'lishi kerak edi. Iltimosnoma imzolanganidan keyin ham qirol parlamentning ruxsatisiz soliqlar yig'ishni davom ettirdi. Bunga qarshilik ko'rsatgan parlamentni tarqatib yubordi va 1629 yildan to 1640 yilgacha mamlakatni parlamentsiz boshqardi.

Qirolning eng yaqin maslahatchisi bo'lgan graf Strafford, absolyutizm tarafdori bo'lib, qirolning siyosiy dushmanlariga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Qirolning yana shunday tarafdorlaridan biri Kenterberre Sobori arxiyepiskopi Lod, hukmron ingliz cherkoviga qarshi bo'lganlarni ta'qib qilish uchun "Oliy komissiya" deb nomlangan cherkov sudini boshqardi. Lod shafqatsiz ravishda dahriylar, puritanlar va lyuteranlarga qarshi kurashdi.

Qirol xazinasini to'ldirish uchun hukumat 1635 yilda "Kema solig'ini yig'ishga kirishdi. Bu soliq o'tmishda normanlarning talonchiliklariga qarshi kurashish uchun aholidan yig'ilgan soliq bo'lib, lining qaytadan joriy qilinishi umumiy norozilikka sabab bo'ldi.

Inqilobning boshlanishi va fuqarolar urushi

1637 yilda Shotlandiyada xalq qozg'oloni ko'tarildi. Qozg'olonni Karl I ning ingliz absolyutizmi tartiblarini joriy qilish, Shollandiya ingliz cherkovini kiritish va Shotlandiya parlamenti huquqlarini cheklashga bo'lgan urinishi keltirib chiqardi. Shotlandiya katta harbiy kuchga ega edi. Shotlandiyaliklar Angliyaning shimoliy qismini egallab oldilar. Karl I ning ularga qarshi kurashish uchun na armiyasi va na

mablag'i bor edi. Shuning uchun u-parlamentni chaqirishga majbur bo'ldi. 1640 yilning aprelida 11 yillik tanaffusdan so'ng yana parlament chaqirildi. Ammo bu parlament shotland isyonchilariga qarshi kurashish uchun qirolga pul bermadi va yana huquqlar to'g'risidagi iltimosnomada keltirilgan talablarni bajarilishini rad etdi. Karl I bir necha hafta o'tgandan so'ng parlamentni larqatib yubordi, shuning uchun u " qisqa parlament" deb nom oldi.

Shotlandiyada qo'zg'olon kengayib boraverdi. 1640 yil noyabrda yangi parlament chaqirildi. Bu oldingisidan ham qaysarroq chiqdi. Shotlandiyaliklarning g'alabalaridan va qirolning qiyin ahvolidan foydalangan parlament uning oldiga o'z talablarini qat'iy qo'ydi., Qirol parlamentni tarqatib yuborishdan qo'rqib, uning talablarini qabul qilishga majbur bo'ldi. Bu parlament 12 yildan ziyodroq faoliyat ko'rsatdi, shuning uchun u "uzoq parliament" deb nom oldi. Parliamentning talabi bilan lord-kantsler Strafford va arxiyepiskop Lod o'limga mahkum qilindi. Parlament siyosiy ishlar bo'yicha oliy qirol sudi bo'lgan "Yulduzli palata" ni va cherkov sudi bo'lgan "Oliy komissiya" ni tugatdi, "Kema solig'i" bekor qilindi. 1641 yil noyabrda parlament "Buyuk remonstratsiyani" qabul qildi. Unga ko'ra qirolning qonunga zid bo'lgan harakatlari birma-bir sanab o'tilib, davlatning barcha muhim lavozimlariga parlamentning ishonchli vakillari qo'yildi. Remonstratsiyani qabul qilishda asosan qirolning yakka hokimligidan aziyat chekayotgan yirik burjuaziya ko'pchilik ovoz berdi.

Qirol muxolifatni qarshiligini tugatish maqsadida quyi palataning daholarini hibsga olish uchun qurolli otryad yubordi. Ammo ular yashirinishga ulgurdilar. 1642 yil yanvarida qirol mamlakatning feodal tuzum kuchliroq bo'lgan shimoliy hududlariga chekinishga majbur bo'ldi. Parlament ham kurashga tayyorlanib, armiya tashkil qila boshladi. 22 avgustda qirol parlamentga urush e'lon qildi.

Shimoliy va g'arbiy grafliklar qirol tarafida bo'ldilar. Ular iqtisodiy va siyosiy qoloq rayonlar bo'lib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan janub,i-sharq, shimol va markazning sanoatlashgan rayonlari va flot parlament tomonida turdi. Qirolga qarshilik ko'rsatish markazi London shahri bo'lib qoldi.

Ingliz cherkovi qirol tomonida, puritanlar esa parlament tomonida turdilar. Asosan dvoryanlardan tashkil topgan qirol tarafdorlari " kavalerlar" deb, parlament tarafdorlari esa "yumaloqboshlilar" deb ataldi. Kurash boshida qirol tarafdorlari ustunlikka ega edilar., parlament armiyasi nihoyatda yomon tashkil qilingan edi. Bundan tashqari parlament tarafdorlari o'rtasida yakdillik yo'q edi. Parlamentda asosiy rol presviterianlarga tegishli bo'lib, ular boy savdogarlar, monopolistlar, bankirlar va yangi dvoryanlardan chiqqan yirik yer egalari iborat edi. Ular inqilobning dastlabki yillarida qo'lga kirilgan yutuq va muvaffaqiyatlarini saqlab qolishni istar edilar. Shuningdek parlament tomonida independentlar ham turdilar. Ularning kuchini asosan o'rta hoi burjuaziya, o'rta va mayda dvoryanlar tashkil qildi. Bu toifa parlamentda hokimiyatni qo'lga kiritish uchun siyosiy islohotlar o'tkazishga harakat qilayotgan edi. Independentlarga o'rtahol va o'ziga to'q dehqonlar - yomcnlar, mayda savdogarlar va hunarmandlar ham qo' shildi.

Parlamentning qirolga nisbatan qat'iy bo'lmagan siyosati va parlament qo'shinining muvaffaqiysizliklari ingliz jamiyatining radikal doiralarida norozilik uyg'otdi. Norozi bo'lganlar independentlar partiyasi atrofida birlashdilar. Independentlarning daholaridan biri ingliz inqilobining yirik arbobi-Oliver Kromvel edi. Dvoryan oilasida tug'ilgan Kromvel 1640 yilda parlamentga saylandi. 1644 yil Kromvel harbiy islohotlar o'tkazib, temir intizomli "Yangi namunadagi armiya" tuzdi. Natijada qo'shinga rahbarlik markazlashtirildi, ofitser va askarlarga doimiy ravishda maosh tayinlandi, ular qurol-yarog' bilan ta'minlandi. 1645 yil iyunida Nesbi yaqinida Kromvel armiyasi qiro! qo'shinlarini tor-mor qildi. Natijada qirol parlament bilan kelishish to'g'risida muzokaralar boshlashga majbur bo'ldi. Ammo lining boshqa davlallardan inqilobni bartaraf etish uchun yordam olish to'g'risidagi iltimosi xalq orasida umumiy norozilikni tug'dirdi. 1646 yil mart oyida esa qirol qal'asi parlament qo'shini tomonidan egallangach, qirol Shollandiyaga qochib ko'di. 1647 yil yanvarda shotlandlar 400 ming funt sterling evaziga qirolni inliz parlamentiga tutib berdilar.

Urush ketayotgan bir davrda parlament qo'shining muvaffaqiyatlariga tayangan parlament yirik burjuaziya manfaatiga mos keluvchi tadbirlarni amalga oshirishga shoshildi. U qirol, yepiskoplik va feodal yerlarini konfiskatsiya qilib sola boshladi. 1646 yilda ritsarlarning mulklarini va g'ov tutishga qarshi bo'lgan barcha qonunlarni bekor qildi. Fransuz inqilobi hech qanday to'lovsiz feodal mulklarni tugatgan va uni burjua muiki deb e'lon qilgan bo'lsa, ingliz inqilobi bunday qilmadi. Chunki unda burjuaziya yangi dvoryanlar bilan birgalikda monarxiyaga, dvoryanlarga va hukmron cherkovga qarshi kurashdi, 1789-1794 yillardagi Frantsuz burjia inqilobida esa burjiazia xalq bilan monarxiyaga,

dvoryanlar va hukmron cberkovga qarshi kurashgan.

Presviterianlar va ular bohqarayotgan parlament uchun inqilob tugadi. Qirol absolyutizmi sindirildi, hokimiyat parlament qo'liga o'tdi, feodal institutlari tugatildi, ammo xalq omrnasi hech narsaga ega bo'lmadi. Parlament xalqning siyosiy huquqlarini va diniy erkinligini kengaytirishga yo'l qo'ymadi, aksincha uning soliq siyosati xalq ommasining ahvolini og'irlashtirdi. Xalq ommasi endi independentlardan uzoqlashib, levellerlar (tenglashtiruvchilar) partiyaiga ergasha boshladilar. Bu partiya rahbari Jon Lilburn edi, Yangi partiya asosan shahar va qishloq mayda burjuaziyasidan iborat edi. Ular umumsaylov huquqini joriy qilishni, qirol hokimiyatini esa bekor qilishni, lordlar palatasi o'rniga bir palatali parlament joriy qilishni va qishloq jamoalariga g'ov tutilgan yerlarni qaytarib berishni talab qila boshladilar. Armiyadagi askarlarning ko'pchiligi bu partiyaning qo'llab-quvvatladilar. Partiyadagi askarlarning vakillari "Xalq bitimi" deb nomlangan talabnoma bilan chiqdilar. Bu bitim umumsaylov huquqini joriy qilishni, davlatning din ishlariga aralashnasligini va majburiy xizmatni bekor qilishni talab qildi.

1647 yil oktyabr-noyabr oylarida London yaqinidagi Pyotnida armiya konferensiyasi chaqirilib, unda armiyaning yuqori doiralari-grandlar va levellerlar uchrashdilar. Konferensiyada asosan umumsaylov huquqi to'g'risidagi talab muhokama qilindi, ammo qamashuvchilar bir qarorga kela olmadilar. Shunda umumqo'shin kengashi tarqatib yuborilib, uning o'rniga ofitserlar kengashi tuzildi. Ofitserlar bilan askarlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Shunday bir vaqtda qirolning qochganligi to'g'risida xabar tarqaldi.

Respublikaning e'lon qilinishi

1647 yil oxirida parlament armiyasi ta'qibidan Uayt oroliga qochgan qirol Shetland reaksionerlari bilan yana hokimiyatni tiklash to'risida bitimni imzoladi. 1648 yil bahorida shimoldan Angliya 20000 kishilik Shollandiya qo'shinlari bostirib kirdi. Ammo inqilobiy armiya shotlandlarni tor-mor elib, qirolni asir oldi. Kromvelning buyrug'iga ko'ra, polkovnik Prayd parlamentni qirol bilan munosabat o'rnatishga tayyor turgan presviterian deputatlardan tuziladi, 140 ta deputat parlamentdan quvg'in qilindi. Hndi parlamentda independentlardan iborat deputatlar qoldi. Angliya respublika, deb e'lon qilindi.

Parlamentga qirolni sudga tortish haqida talabnomalar tusha boshladi. Shunda umumpalatasi "Oliy sud"ni ta'sis etdi. 1649 yil 30 yanvarda qirol liran, qolil va davlatning dushmani sifatida o'lim jazosiga hukm qilindi va u qatl etildi. Angliya yana bir marta respublika deb e'lon qilindi.

Fuqarolar urushi mamlakat xo'jaligini izdan chiqardi, qurg'oqchilik, ochlik va epidemiyalarga sabab bo'ldi. Hukumat bar yili urushlar olib borib, soliqlar miqdorini oshirdi. Xalq ommasini ahvoli og'irlashdi. Shotlandiyada saqlanib qolgan presviterianlar royalchilar (qirol hokimiyati tarafdorlari)ning bosh shtabini tashkil qildilar. U yerda qall o'lgan Karl Ining o'g'li Karl II o'zini Shotlandiya qiroli, deb e'lon qildi va Angliya-bostirib kirish uchun qo'shin tayyorlay boshladi. Bu Angliyada inqilobiy harakatlarni yangidan kuchaytirib yubordi. Xalq va armiya safida norozilik lo'qlarlari ko'tarila boshladi. Levellerlar o'rasidan ancha qat'iy bo'lgan yangi oqim "Haqiqiy levellerlar" yoki "diggerlar" (qazuvchilar) ajralib chiqdi. Diggerlar yerni umummulk bo'lishini va har bir kishini unda hech qanday ijara pulini to'lamasdan raehnat qilishni talab qilib, o'z-o'zicha bo'sh yerlarni egallab olib, yerlarni dehqonchilik uchun tayyorlay boshladilar. Haqiqiy levellerlarning agrar dasturi Jerard Uinstenlining "Ozodlik qonuni", deb atalgan pamfletida o'z aksini topgan. Unda Uinstenli jamiyatni ideal ravishda tashkil qilish rejasini tuzib bergan. Levellerlar qo'zqolonini bostirgan Krombel Irlandiyani zabt etishga kirishdi. Unung jazo ekspeditsiyasi koplav begunoh aholini qirg'in qildi. Kromvel Irlandiya qo'zg'lonini bostirgandan so'ng Shotlandiyaga yurish qilib, Karl II qo'shinini tor-mor etdi. 1654 yilda Angliya, Shotlandiya va Irlandiya yagona davlatga birlashganligi lo'g'risida qonun e'lon qilindi.

Respublika o'zining eng qudratli va yuksalgan darajasiga etdi. Chel davlatlar Angliya bilan diplomatik va savdo munosabatlarini tikladilar. Mamlakat ichida o'zining dushmanlarini tor-mor etgan ingliz burjuaziyasi endilikda tashqi dushmanlar va raqobatchilar bilan kurashga otlandi. 1651 yil parlament "Navigatsion akt"ni e'lon qildi, unga ko'ra Angliya kiritilayotgan tovarlar ingliz kemalarida yoki o'sha tovarni ishlab chiqqan mamlakatning kemalarida keltirishi lozim edi. Bu akt birinchi navbatda Angliyaning dengizdagi raqobatchisi bo'lgan Gollandiyaga qarshi qaratilgan bo'lib, Gollandiyaga Amerikadagi ingliz koloniyalari bilan savdo qilish ham taqiqlandi.

Kromvel protektorati

Kromvel o'z faoliyati davomida asosan yangi dvoryanlar va burjuaziya manfaatini himoya qilishga

harakat qildi. Endilikda u inqilibni yanada chuqurlashishini xohlanasdan, 1653 yilning aprelida Kromvel uzoq parlamentni tarqatib yubordi. Bir necha oydan keyin independentlardan tashkil topgan Kichik parlament - konvent tuzildi. Bu parlamentning radikal tadbirlari hukumatni tashvishga soldi va tezda u ham tarqatib yuborildi.

1653 yil 16 dekabrda Kromvel Angliya respublikasining umrbod lord-protektori, deb e'lon qilindi. Mamlakatda qattiq senzura joriy qilindi, diktaturaga qarshi bo'lganlar hibsga olindi. Qirol tomonidan turib kurashganlarning barchasiga yillik daromadning 10 fbizi miqdorida soliq sohndi. Mamlakat 10 ta harbiy okrugga bo'linib, ularni keng politsiya vakolatlariga ega bo'lgan general-mayorlar boshqardi.

1654 yil Angliya navigasion aktga qarshi chiqqan Gollandiyani urushda mag'lubiyatga uchratdi. Natijada Gollandiya ushbu akti tan oldi va kontributsiya to'lashga majbur bo'ldi.

Kromvel vafotidan (1658) keyin Angliyada hokimiyat ofitserlar qo'lida qoldi. Endi burjuaziya va yangi dvoryanlarga inqilob davrida qo'lga kiritilgan huquqlarni himoya qiladigan va inqilobning yanada chuqurlashishini oldini oladigan kuchli hokimiyat kerak edi, ular monarxiyani tiklashga qaror qildilar.

1660 yilda yig'ilgan parlament hukumatni qirol, lord va jamoalarga tegishli bo'lishi kerakligi to'g'risida qaror chiqardi. Karl II Angliya qiroli deb e'lon qilindi. Styuartlar sulolasi hokimiyatining tiklanishi va ularning boshqargan davri "reslavratsiya" (tiklanish) davri deb ataladi.

Angliyada Styuartlar hukmronligining tiklanish davri va burjua tuzumining o'rnatilishi

Karl II O'yuart Angliyada hokimiyatga qaylgandan keyin eski tartiblar to'liq liklanmadi. Qirol fuqarolar urushining qatnashuvchilariga avf e'lon qildi va inqilob davrida konfiskatsiya qilingan yerlarni o'z egalariga qoldirish to'g'risida farmon chiqardi. Davlatning soliq va moliyaviy ishlarini parlament olib boradigan bo'ldi. Qirolga parlament maosh tayinladi. Mamlakalni, asosan, parlament boshqardi. Lckin avf e'lon qilinishiga qaramasdan respublikachilar ta'qib ostiga olindi. Kromvel va boshqa inqilob arboblarning murdalari qabrdan chiqarilib, dorga osildi va so'ngra boshlari olindi.

Xo'jalikning barcha tarmoqlarida kapitalistik munosabatlar taraqqiy etdi. Kapitalistik fermerlar soni oshdi, g'ov titish va dehqonlarning yerdan mahrum qi'inishi kuchaydi. sanoat katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Angliyaning Flindiston bilan savdosi natijasida 600 000 funt foyda olina boshlandi. Muslamlakaiaarning boyliklari talandi.

Karl II burjuaziya tabaqasining manfaatlari bilan kam hisoblasha boshladi. Ayniqsa. qirolning tashqi siyosati ularning noroziliklariga sabab bo'ldi. U hokimiyatga kelguncha ham Fransiya dan qarz ola boshlagan edi. Taxtga o'tirgach, yana Fransiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Karl II frantsuz qiroli Lyudovik XIV dan olgan katta pul evaziga ingliz tovarlari ucbun frantsuz bozorlarini yopib qo'yilishiga o'z roziligini berdi. Shundan keyin u 5 000 000 frank evaziga Fransiya ga Kromvel davrida Ispaniyadan tortib olingan Dyunkexenni ham soldi.

Qirol bilan parlament o'rlasidagi kurash Angliyaning siyosiy hayotida 2 ta siyosiy partiya -- tori va vigilarini tashkil toptirdi. Torilar partiyasiga yirik yer egalari va ingliz' ruhoniylaridan iborat qirol hokimiyati tarafdorlari a'zo boldilar. Vigilar partiyasiga esa yirik moliyachilar va bir qism yirik yer egalari kirdiir. Ular qirol hokimiyati hisobiga parlament huquqlarini kengaytirishga harakal qildilar.

1685 yilda taxtga Karl II ning ukasi Yakov II o'tirdi. U mamlakatda absolyutizm va katolik dinini tiklashni o'zining asosiy vazifasi, deb bildi. Torilar va vigilar bundan tashvishga tushdilar. 1688 yilning iyunida tori va vigilar Angliya taxtiga Yakov II ning kuyovi Qo'shma provinsiyalar (Gollandiya) shtatgalteri Vilgelm Oranskiyni takiif qildilar. Noyabr oyida hech qanday qarshilikfarsiz Oranskiy Angliya taxtini egalladi, Yakov II Fransiya ga qochdi.

Vilgelm Oranskiy taxtga o'tirish arafasida parlament unga "Huquqlar to'g'risidagi deklarasiya"ni qabul qilish shartini qo'ydi. Unga ko'ra qirol qonunlarning harakatini to'xtatish vakolatidan mahrum qilinib, soliqlarni joriy qilish huquqi faqat parlament ixtiyoriga berildi. Doimiy armiyani tuzish va ta'minlash ham parlamentning ruxsati bilan amalga oshiriladigan bo'ldi. 1701 yilda qabul qilingan qonunga ko'ra bar qanday qabul qilingan qonunlar nafaqat qirol imzolagandan keyin, balki parlament oldida mas'ul bo'lgan vazirlar mahkamasining boshlig'i imzolagandan so'ng kuchga kirishi belgilab qo'yildi.

1688 yil voqialarini ingliz burjuaziyasi "Shonli inqilob"deb nomladi. Chunki u hech qanday qon to'kishsiz Angliyada burjua parlamenlar tuzumini mustahkamladi.

XVIII asr va XIX asrning boshlarida Angliyaning Ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti

XVII asr burjua inqilobi Angliyada boshqarishning feodal-mustabid tizimini tugatdi va bu bilan kapitalizmning bundan keyingi taraqqiyotiga xalaqit berib turgan eng asosiy to'siqni bartaraf etdi. Shuning uchun ham XVII asrning oxiri va butun XVIII asr Angliya uchun ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sish davri bo'ldi, bu esa pirovard natijada ayni shu mamlakatda ishlab chiqarishning yangi shakllarini yaratishga-mashinalashgan yirik kapitalistik ishlab chiqarishning g'alabasiga olib keldi. Dunyo mamlakatlari orasida dastlab Angliyada kapitalistik fabrika bunyod qilinishi, bu fabrika undan oldin o'tgan mahufakturaga qaraganda kapitalistik xo'jalikning xiyla etuk va rivojlangan ko'rinishi edi. Ammo Angliya tarixida XVIII asr boshqa jihatdan ham muhim bo'ldi. XVIII asrda ingliz parlamentar tizimi, ya'ni yangi zamondagi burjua davlatiga xos shakli tashkil topdi. Bu hukumatning oldida mas'uliyatli ekanligida, umumpalatasida qaysi siyosiy partiya ko'pchilikka ega bo'lsa, o'sha siyosiy partiya rahbarlaridan ministrlar tayinganligida o'z ifodasini topdi. Keyinchalik ministrliklarning parlament oldida javobgarligi prinsipini Yevropadagi hamda dunyoning boshqa qit'alaridagi burjua mamlakatlarining ko'pchiligi biror shaklda qabul qildilar.

Nihoyat, XVIII asrda Britaniya mustamlaka imperiyasi vujudga keldi. XVIII asr oxirlarida Angliya juda ko'p mustamlakalarga ega bo'lib, bu mustamlakalar yuzining barcha qit'alariga yoyilib yotar edi. U o'zining mustamlakachilik sohasidagi eski raqiblari -Ispaniya, Portugaliya va Gollandiyani orqada qoldirib ketdi. Angliya agrar sohada ham yangi va eng xavfli raqibi Fransiyadan ko'ra tez rivojlandi. XVIII asr lendlordlari odatda xo'jalik ishlari bilan o'zlari shug'ullanmasdan, yerlarni yirik ijarachi fermerlarga uzoq muddat bilan (ko'pincha 99 yilga) ijaraga berar edilar. Bunday yirik ishlab chiqarish korxonalari haqiqiy kapitalistik korxonalar edi. Fermer takomillashgan mehnat qurollarini va yerga ishlov berishning ilg'or usullarini qo'llab, juda ko'p yollanma qishloq xo'jalik ishchilarini ekspluatatsiya qildi, zotli mollarni boqib ko'paytirdi hamda hosildorlikni ancha oshirishga erishdi. Sanoatni zarur xom-ashyo bilan, sanoat shaharlari va posyolkalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turgan fermerchilik kapitalistik xo'jaligi mamlakatda kapitalizmning umumiy rivojlanishiga mos kelar edi.

Agrar to'ntarishning ikkinchi oqibati, dehqonlarni ekspropriatsiya qilish natijasida bo'shab qolgan ishchi kuehlari bilan o'sib kelayotgan kapitalistik sanoatning ta'minlanishi, bu ham sanoat uchun katta ahamiyatga ega edi. Yerdan mahrum qilingan dehqonlarning bir qismigina fermadan o'ziga ish topa olar edi. Yerdan ayrilgan dehqonlarning ko'pchilik qismi esa shaharlarga ketar va shu tariqa ishsizlar armiyasini bunyodga keltirar edi. Bu ishsizlar armiyasi esa manufaktura va fabrikalarni doimiy ishchi kuchi bilan ta'minlar edi.

Dehqonlarning yeridan mahrum qilinishi va agrar inqilob

Angliyada sanoat to'ntarishini tayyorlagan eng muhim sharoitlardan biri "agrar to'ntarish" yoki "agrar inqilob" bo'ldi. Angliyada dehqonlarning yerga jamoa bo'lib egalik qilishi juda barvaqt yemirila boshladi. Jamoa yerlarining va dehqonlarga tegishli chek yerlarning lordlar tomonidan tortib olinishi XV asrning 60-yillarida keng qo'llanilib, XVI-XVII asrlarda ayniqsa avj olib ketdi.

1688-yilgi davlat to'ntarishi qiroli yerlarining xususiy shaxslar (birinchi galda vigi-dehqon zodagonlarga hamda qisman London bankirlari va savdogarlariga mansub bo'lgan shaxslar) qo'lga o'tib qolishiga sabab bo'ldi. Angliya qirollari qo'lida bunday yerlar hatto XVII asrning 2-yarmida, burjua inqilobidan keyin ham juda ko'p saqlanib qolgan edi. Yangi yer egalari zodagonlar va burjuaziya qadimdan davom etib kelayotgan dehqon yer egaligi bilan sira hisolashmas edi.

Bunday sharoitda dehqonlarning yerdan mahrum etilishi, XVII asrning 2-yarmidan avj olib ketgan edi. Ingliz statisti Gregori King ma'lumitiga ko'ra aholining eng kambag'al toifasiga 3 000 000 ga yaqin kishi, 3 - loifadagi dehqonlarga (frigolderlar, kopigolderlar va Biroq agrar to'ntarishi yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlari bilan kapitalizmning rivojlanishiga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning oqibatida Angliyada hukmron lendlordlar tabaqasi saqlanib qoldi. Lendlord-dvoryanlar yer rentasi tariqasida juda katta o'lpon olar edi, biroq bu o'lpon endi kapitalistik renta ko'rinishiga ega bo'lgan edi.

Sanoat to'ntarilishi va uning oqibatlari

XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada yirik kapitalistik ishlab chiqarishning bunyodga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud edi: Bu vaqtda ingliz kapitalistlari qo'lida mustamlakalarni talash va Yevropadan boshqa qit'alaridagi turli mamlakatlar bilan dengiz osha savdo-sotiqdan behad ko'p foydalanish natijasida juda katta miqdorda Fransiyadan uning Osiyo va Amerikadagi yaxshi mustamlakalarini tortib olib, unga qaqshalqich zarba berdi. Ingliz mustamlakachilari XVIII asrda juda keng miqyosda misli ko'rilmagan vahshiylik, shafqatsizlik va makkorlik ishlarida mustamlakalarni talashi, dastlabki

jamg'arilish, deb ataladigan jarayonning nihoyasiga yetganligini bildirar cdi, bu jarayonga XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmidayoq geografik kashfiyotlar bilan asos solingan edi.

Bo'sh yerlarni egallash, dchqonlarni yersizlantirish, mustamlakalarni talash hisobiga kapital to'plab olgan savdo-sanoat burjuaziyasi ko'poq foyda olish uchun mashinalashgan yirik ishlab chiqarish zarurligini tushundi. Ana shundan so'ng ular har qanday texnika sohasidagi kashfiyotlarga jiddiy e'tibor berdilar va tan-texnika yangiliklarini qo'llash bilan birga uni yaratgan kishilarni rag'batlantira boshladilar.

Ip-gazlama sanoatida birinchi ko'zga ko'rinarli takomillashtirish to'quvchilik ishida amalga oshirildi. Mexanik injener Key 1733 yilda maxsus arg'amchi yordamida harakatlanuvchi uchuvchu moki ixtiro qildi. Uchuvchi moki to'qish jarayonini tezlashtirdi. Ip yigiruvchilar ip etkazib bera olmay qoldilar. Endi ipga talab ko'paydi. Ip tanqisligi kapitalistlarni ip yigirish ishida ham texnikaviy takomillikni qidirishga majbur etdi. 1761 . yilda "Mahoratni va sanoatni rag'batlantirish jamiyati" maxsus murojaatnoma chiqarib, unda mexanik ip yigiradigan charx ixtiro qilgan odamga mukofot e'lon qildi. 1765 yilda lo'quvchi Jeyms Xargrvs qo'l bilan harakatga keltiriladigan mexanik ip yigiruvchi charx ixtiro qildi va unga qizining nomini berib "Jenni" deb atadi. Yigiruvchilik texnikasida bu ixtiro katta sakrash edi. Bu endi haqiqiy mashina bo'lib, u ishni kishi barmoqlarini yordamisiz yigiraverar edi. Yangi ixtiro ilgari o'zining oyoq charxida bitla duk bilan ip yigirib kelayotgan ko'pdan-ko'p hunarmandlarning o'rnini bosdi. "Jenni"da bir yo'la 16-18 duk bilan ishlash mumkin edi. Ammo uning yigirgan ipi ingichka va zaif bo'lib, charx hali kishi qo'li bilan harakatga keltirilar cdi. Ammo yigiruv sohasida takomillashtirish ishlari davom etdi. 1769 yilda tcxnik Richard Arkrayt suv dvigateli bilan harakatga keltiriladigan yangi dastgoh loyhasini taqdim etdi. 1799 yilda Samyucl Krompton ip yigiruv mashinasini takomiflashtirdi. U "Myul-mashina" degan mashinani ixtiro qildi. U "Jenni" singari ingichka, biroq Arkraytning suv mashinasi singari pishiq ip berar edi.

Arkraytga qadar ham 1760 yilda rus korchaloni Rodion Glinkov dunyoda birinchi mexanik yigiruv fabrikasini qurgan edi. Bu fabrika o'rnatilgan suv parragi yordamida o'zi yigiruv mashinani harakatga kellirar, mashina esa 9 kishining ishini qilar edi. O'sha zamonlarda Rossiyada hukm surgan feodal-krepostnoylik tuzumi sharoitida Glinkovning buyuk tashabbusi qo'flab quwatlanmadi. Uning nomi uzoq vaqtgacha unutilib ketdi, vanolanki, u ip yigiruv korxonasini mexanizatsiyalashni haqiqatan boshlab bergan dastlabki shaxs edi.

Yangi ip yigiruv mashinalarining qo'llanilishi natijasida endi to'qimachilik ishi orqada qolib ketdi. Endi Keynning uchar mokisini takomillashtirish kerak edi. Bu muammoga Endmund Karlayt 1785 yilda ixtiro qilgan mexanik to'quv stanogi barham berdi. Muayyan vaqt ichida 40 ta to'quvchi qo'l kuchi bilan qancha mato to'qib chiqarsa, Kartrayt stanogi ham shuncha mato to'qib chiqarar edi. Ammo Kartrayt stanogi XIX asrda qo'shimcha ravishda takomillashtirilgandan so'ng qo'lda to'qishni keng ko'lamda siqib chiqara boshladi.

Dasllabki yirik mashinalarning dvigateli sifatida asosan suv kuchidan foydalanildi. Fabrikalarning kopchiligi katta yo'llardan va bozorlardan uzoq bolsa ham, odalda, daryolarga yaqin joylarga qurildi. Rivojlanib kelayotgan mashina sanoati uchun yangi, universal dvigatel zarur edi. Bu xildagi dvigatel bug' mashinasi tarzida angliyalik Jems Ualt tomonidan ixtiro qilindi. U bug' mashinasi uchun patentni birinchi marta 1769 yilda, ikki tomonlama bug' beradigan mashinasi uchun 2-patentni 1784 yilda oldi. Bug' dvigateli bilan ishlaydigan birinchi ip yigiruv fabrikasi ham 1784 yilda qurilgan edi.

XVIII asr ingliz sanoatida metallurgiya yirik sanoatga aylanishiga yordam bergan boshqa bir qancha ixtirolar qilindi. 1735 yilda Abraqam Derbi cho'yan critish uchun toshko'mirdan foydalanish usulini ochdi. 1750 yilda Benjamin Xentsman mineral yonilg'i bilan po'lal eritish usulini ixtiro qiSdi. Sanoatga mashinalarning joriy qilinishi mehnat unumdirligini oshirdi. 1720 yilda Angliyada 18 ming tonna, 1802 yilda esa 250 ming tonna cho'yan ishlab chiqarilgan. Yirik fabrika sanoalining rivojlanishi Angliyaning iqtisodiy gcografiyasini keskin o'zgartirib yubordi. Agar ilgari mamlakalning aholosi zich va savdo-sotiq cng rivojlangan qismi janubi-sharq bo'lgan bo'lsa, sanoat to'ntaruvi jarayonida ishlab chiqaruvchi kuchlarning ko'p qismi u erdan shimoli-g'arb tomonga ko'chib o'tdi. Manchester, Birmingem, Liverpul, Glazgo kabi shaharlar asosiy sanoat markazlariga aylandi.

Fabrikalarda mehnat og'ir bo'lib, ish vaqti sutkasiga 14-18 soalni tashkil qilar edi. Yangi mashinalarning ixtiro qilinishi koplab ishi kuchlarini keraksiz qilib qo'ydi, o'rtaacha ish haqining kamaytirilishiga, ayollar va bolalarning arzon mchnatidan foydalanishni csa kengaytirilishiga olib keldi. Ularning hammasi ishchilar o'rtasida norozilikni kcltirib chiqardi. Bu norozilik masinalarni buzish, mehnat qurollarini

sindirish ko'rinishida ro'y berdi. 1769 yilda parlament mashinalarni buzganlar uchun o'lim jazosi berish to'g'risida maxsus qonun qabul qildi. Mashinalarni buzuvchilar - ludchilar - deb (birinchi stanokni buzgan afsonaviy Hed Lud nomi bilan) ataldi. Dastlabki paytlarda ishchilarning mashinalarga qarshi keskin kurashi tabiiy hoi edi. Sanoat to'ntarishi davrida mashinalarni sindirish va majaqlab tashlash, ishchi g'alayonlarining o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib, bu davrda ishchilar o'z kulfatlarining haqiqiy sababi kapitalistik munosabatlarning o'zida ekanligini hali tushinib etmagan edi. Ludchilar harakati keyinchalik, XV111 asrning 2-yarmidan ishchilarning ish tashlash harakati shaklini oldi. Sanoat inqilobi 1825 yilda J.Stefenson tomonidan paravozning ixtiro qilinishi bilan nihoyasiga etdi. Mamlakatda temiryo'l qurilishi avj olib, 1850 yilda butun mamlakat temiryo'l to'ri bilan o'rab tashlandi va ularning umumiy uzunligi 50 ming km.ga etdi. Temiryo'l qurilishi metallurgiya, mashinasozlik, tog'-kon qurilishi ishlariga turtki berdi. 20 yil ichida cho'yan eritish 3 barobarga etib, 2 million tonnadan oshib ketdi.

Temiryo'llar qurilishi paravoz va vagonsozlikka ham keng yo'l ochdi. Sanoat to'ntarishi katta ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar keltirib chiqardi. Yirik fabrika ishlab chiqarishning g'laba qilishi natijasida Angliyada sanoat ishchilari paydo bo'ldi. Sanoat to'ntarishi oddiy, qo'l bilan harakatlanadigan qurollarni mashinalarga, ustaxonalarni fabrikalarga, hunarmandlarni ishchilarga, sobiq yirik savdogarlarni fabrikantlarga aylantirdi.

Sanoat to'nlarush shunday qilib, kapitalistik jamiyat taraqqiyotida muhim marra edi. Bu ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi borasidagi juda katta sakrash va ayni paytda kapitalizm ishlab chiqarilishi munosabatlarining shakllanishida yangi bosqich edi.

XIX asrning boshlarida Angliyaning ijtimoiy-siyosiy ahvoli

Angliyada XIX asr boshlarida mayda burjuaziya va ishchilar siyosiy tu/ummi demokratlashtirishni va umumiy saylov huquqtni joriy qilinishini talab qilmoqda edi. Ko'p yillik kurashdan so'ng ishchilar 1824 yilda ishchi tashkilotlarini tuzishni taqiqlivchi qonunni bckor qilishga erishdilar. Bu qonun 1799 yilda joriy qilingan edi. Endi tezda ishchlar ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalarida o'zlarining kasaba uyushmalari (Tred-yuniontar)ni tuzdilar. Biroq, kapitalistlar tred-yunionchilik harakatidan tashvishga tushib, 1825 yilda "Ishchilarning ittifoqlari haqida qonun"ni qabul qilinishiga erishdilar. Mazkur qonun, mehnat sharoitlarini yaxshilanishini talab qilib chiqqan ish tashlashlar va namoyishlar o'tkazishni man qildi.

1825 yilda Angliyada birinchi marta ortiqcha ishlab chiqarish oqibatida iqtisodiy inqiroz yuz berdi. U sanoatning barcha sohalarida, ayniqsa to'qimachilik sohasida ancha kuchli tarzda namoyon bo'ldi. Ko'plab sanoat korxonalari yopildi, yoki to'liq bo'lmagan ish kuniga o'tkazildi. Mamlakatda ommaviy ishsizfik hukm surdi. U bilan birga oziq-ovqat mahsulollarining narxi oshib ketdi. Inqiroz aholining norozilik harakatlarini kuchaytirdi.

20-yillarning oxiridan Angliyada mayda burjuaziya, sanoat burjuaziyasi va ishchilarning parlament islohotlari uchun kurashi kuchaydi. Sanoat burjuaziyasining iqtisodiy qudrati tez o'sdi, ammo uning parlamentdagi (a'siri oldingiday suslligicha qolmoqda edi. Xalq ommasi saylov huquqlariga ega emas edi. Angliyaning 20 mln. kishilik aholisidan faqal 220 ming kishi saylov huhuqiga ega edi. Parlamentda yirik ycr egalari,

savdo va sanoat burjuaziyasi hukmronlik qilar edi. Lendlordlarning siyosiy ta'sirining ustunligi saylov masalasida yaqqol ko'rinqmoqda edi. Aholisi 400 ming kishidan iboral bo'lgan 30 ta "rutubatli joylar" umum palatasiga 22 tadan, Manchester, Birmingem, Lids, Shefflld va London shaharlarining 1,5 mln. kishilik aholisi parlamentga bor yo'g'i 4 ta deputat saylash huquqiga ega edi. Sanoat burjuaziyasi o'zining parlamentdagi siyosiy ta'sirini kuchaytirish uchun ishchilarning parlament isiohotlarini talab qiluvchi kurashidan foydalandi.

"Sving" harakati va parlament islohotlari

Angliyada siyosiy kurash 1830 yilda keskin tus oldi. Xalq ommasi Fransiyadagi iyul inqilobi haqidagi xabardan junbushga keldi. 1830 yilda Angliyaning janubidagi qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchilar orasida "Sving" ("arg'amchi" yoki "dor") nomi bilan ataluvchi norozilik harakati boshlandi. Kent grafligidagi bunday harakatlarda qatnashgan ishchi batraklar ish haqi miqdorini oshirilishini talab qilib, qishloq xo'jalik mashinalarini vayron qildilar, g'alla va boshqa mahsulotlar saqfanadigan omborlarga o't qo'ydilar. Qishloq aholisi joylarda fermerlar, yer egalari bilan ish haqi va boshqa majburiyatlar bo'yicha shartnomalar imzolagan. Bunday shartnomalarni tuzishdan bosh tortgan lendlordlarga "Sving" yoki

"Kapitan Sving" imzosi bilan tahdidli xatlar bitilgan. Hukumat "Sving" harakatini bostirish uchun qo'shin va artilleriya safarbar etdi. Maxsus sudlar joriy qilinib, aybdorlar jazoga hukm etildi. Harakatning yirik namoyondalari bo'lgan Kuper, Kuk va yana 7 kishi dorga osildi. Boshqa faol ishtirokchilardan 457 kishi Avstraliya va Tasmaniya oroliga surgun qilindi, yuzlab kishilar qamoqqa olindi.

1831 yilda parlamentning umumpalatasi islohotlar to'g'risidagi qonun qabul qildi, ammo lordlar mazkur qonunni rad etdilar. Bunga javoban mamlakatda yangidan inqilobiy harakatlar boshlandi. 1832 yilda lordlar islohotlar haqidagi qonunni qabul qilishga majbur bo'ldilar.

Parlament islohoti to'g'risidagi qonun 56 ta "rutubatli joylar"ni parlamentda vakillik qilishini tugatdi. 30 ta "rutubatli joylar" endi parlamentga 2 tadan emas, balki 1 tadan deputat yuboradigan bo'ldi.

Yirik sanoat shaharlari parlamentda o'z vakillariga ega bo'lish huquqini qolga kiritdilar. Saylov huquqi bir yillik daromadi 50 ming funt sterliogdan kam bo'lmagan barcha yer egalari berildi. Saylovchilarning soni 670 ming kishiga oshirildi. Saylov huquqlari uchun kurashgan mayda burjuaziya va ishchilar bunday huquqlarga erishmadilar. saylov okruglarining notengligi va saylovda ochiq ovoz berish saqlanib qoldi.

1831 yilgi parlament islohoti sanoat burjuaziyasining parlamentdagi vakilligini ta'minladi.

XIX asrning 30-40-yillarida Angliyada sanoat to'ntarishi nihoyasiga etdi. Sanoat taraqqiyoti bo'yicha Angliya hamon dunyoda birinchi o'rinni egallashda davom etdi. 1840 yilda Angliyaning dunyo bo'yicha sanoat ishlab chiqarishdagi hissasi 45% ni tashkil etdi. To'qimachilik sanoatda ishlab chiqarishning etakchi sohasi bo'lib qolaverdi.

30-yillarning boshlarida ishchilar harakati ingliz burjuaziyasining mo'ʼtadil fabrika qonunlarini chiqarishga majbur etdi. 1831 yilda 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlarni tunda mehnat qilishini, 1833 yilda esa 9 yoshgacha bo'lgan bolalarni zavod va fabrikalarda mehnat qilishni ta'qiqlovchi qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga 1832 yildagi parlament islohotlari natijasida jamoa palatasida o'z mavqicini mustahkamlab olgan burjuaziya kapitalist mulkdorlardan kambag'al qashshoqlar uchun olinadigan soliqlarni to'lashdan ozod bo'lishga urindilar. Bu bilan ular kambag'allarni diniy qavmlar orqali berilib turgan

yordamdan mahrum etib, ularni yanada kamroq miqdordagi maoshlar uchun ishlashga majbur etmoqda edilar.

1834 yilda qabul qilingan kambag'allar to'g'risidagi qonun ana shu maqsadni ko'zda tutgan edi. 1601 yildayoq joriy qilingan qonunga ko'ra kambag'allarga, ya'ni, ishsizlar, xonavayron bo'lgan mayda hunarmandlar va dehqonlarga diniy qavmlar tomonidan berilib kelayotgan yordam puli keskin qisqartirildi, mulkdorlardan kambag'allar uchun olinadigan mazkur soliq tugatildi. 1834 yilda parlament tomonidan kambag'allar to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi ishchilarga saylov huquqi uchun kurashni kuchaytirish lozimligini ro'y-rost ko'rsatdi. Bu kurashning kuchayishiga iqtisodiy inqirozlar ham katta ta'sir qildi.

Chartistlar harakati va ularning talablari

1836-1838 yillarda Angliya iqlisodiyotida yana ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi yuz berdi. Mahsulotlarning bahosi va aktsiyalarning kursi tushib, mahsulot ishlab chiqarish qisqardi. Inqiroz to'qimachilik, kemasozlik, metallurgiya, metallni qayta ishlash va ko'mir sanoatiga jiddiy ta'sir qildi. Natijada inqiroz ingliz ishchilarining ish haqlari hajmini tushib ketishi va ommaviy ishsizliklarni keltirib chiqardi. Bu esa Angliyada ishchilarning siyosiy harakati bo'lgan chartistlar harakatini paydo qildi.

1836 yil "London ishchilarining assotsiatsiyas" tashkil qilindi. Uni duradgor Uilyam Lovett boshqardi. Assotsiatsiya 21 yoshga etgan va mazkur hududda 6 oydan kam bo'lmagan muddatda yashayotgan barcha erkaklar uchun umumiy saylov huquqi joriy qilish, parlament deputatligiga nomzodlar uchun mulkiy senzni bekor qilish, saylov okruglari va ulardan korsatiladigan deputatlar sonini o'zaro tenglashtirish, har yili parlament saylovlarini o'tkazish, deputatlar mehnatini taqdirlash, yashirin ovoz berish kabi talablarni ilgari surmoqda edi.

Bu 6 ta talab ishchilar orasida juda mashhur edi.¹ Chunki ishchilar umumsaylov huquqini qo'lga kiritib, o'ziarining mehnat va turmush sharoitini o'zgartirishga umid qilmoqda edilar. Ishchilarga umumiy saylov huquqi tub ijtimoiy o'zgarishlarni qonuniy tarzda amalga oshirish uchun kerak edi.

London ishchilari assotsiatsiyasining talablarini amalga oshirish uchun 1837 yilda irlandiyalik advokat Fergys O'Konnor boshchiligidagi Lids shahrida tashkil o'lingan "Katta simoliy iltifoq" a'zolari faol qatnashdilar. Ishchilar bilan birga siyosiy tuzumni demokratlashtirish kurashida burjua liberallari (murosachilar) ham qatnashdilar. Birmingemda umumiy saylov huquqi uchun liberal-bankir T.Atvud

boshchiligidagi "Siyosiy ittifoq" kurash olib bordi.

Harakat qatnashchilari o'zlarining talablaridan iborat iltimosnoma (talabnoma)ni parlamentga taqdim etishga qaror qildilar, U xalq xartiyasi (chailer-bitim) to'g'risidagi iltimosnoma deb, bu harakat esa "chartistlar harakati" deb ataldi. Chartistlar harakatini muvofiqlashtiruvchi organ - Milliy konvent tuzildi. Uning rahbarligida 1839 yil chartistlar xalq xartiyasi to'g'risidagi birinchi milliy iltimosnomani ishlab chiqdilar. U asosan, ishchilarning "London assotsiyatsiyasi" ilgari surgan mazkur 6 ta talabdan iborat bo'lib, iltimosnoma hukumatni ozchilikning manfaatiga xizmat qilayotganlikda aybladi.

1839 yilning iyunida 1 mln. 280 ming kishi imzolagan chartistlarning xalq xartiyasi haqidagi 1-iltimosnomasi tantanali ravishda parlamentga taqdim etildi. Butun mamlakatda xartiyani parlament tomonidan qabul qilinishini talab qiluvchi namoyishlar boshlanib ketdi. 1839 yil 12 iyulda parlament umum palatasi xalq xartiyasi to'g'risidagi talabnomani rad etdi. Milliy konvent 3 haftalik ish tashlash e'lon qildi. Hukumat qatag'on siyosatini, kuchaytirdi. Chartistlarning Milliy konventi tarqatilgach, asta-sekin chartistlar harakati ham so'naboshladi.

Chartistlarning kurash usullari

1839 yil boshida Londonda chartistlar s'ezdi - Milliy konvent chaqirildi. Unda xalq xarriyasining parlamentda qabul qilinishiga erishish uchun olib boriladigan kurash usullari muhokama qilindi. Konventda U.Lovett tarafdorlari kopchilik bo'lib, ular kurashning zo'rlik, ya'ni kuch ishlatish usullarini rad etib, tinch vositalar yoki "ruhiy kuch" bilan kurashish lozimiigini talab qildilar. Kurashning "ruhiy kuch" usuli tarafdorlari may da burjuaziya kayfiyatini aks ettirgan edi. T. Atvud boshchiligidagi burjua-liberalchilar ham ushbu kurash usulini yoqladilar. Yirik sanoal korxonalarining ishchilari esa, kurashning inqilobiy, zo'rlik, ya'ni, jismoniy kuch ishlatish usulini talab qildilar. Bu kurash tarafdorlarini Julian Garni boshqardi. O'Brayen ham ushbu oqimning mashhur vakillaridan bo'lib, u xalq ommasi qashshoqligining bosh sababi sifatida lenlordlarning katta-katta yer mulklariga ega ekanligi, deb bildi. U hallo yer mulklariga merosxo'rlik huquqini bekor qilib, erlarni davlat ixloriga o'tkazishni taklif qildi. Uning fikricha davlat bunday yerlarni ma¹ turn to'lovlar evaziga ijarachilarga berishi shart bo'lib, ijarachilardan olinadigan summani davlat mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga yordam, sanoatchilarga esa kredit-ssuda sifatida berishni ma'lum qiladi. O'Breyen mayda burjuaziya manfaatim himoya qilgan, chunki u zavod va fabrikalarni davlat ixtiyoriga o'tkazish haqida hech so'z demaydi. 40-yillardan boshlab O'Breyen chartist laming zo'rlik usullari bilan kurashishiga qarshi chiqadi. Jismoniy kuch ishlatish tarafdorlari dan bo'lgan O'Konnor, 1837 yildan "Shimol yulduzi" nomli gazeta nashr qila boshladi. Keyinchalik bu gazeta chartistlarning bosh matbuol organiga aylandi.

Chartistlar harakatining keyingi bosqichlari

XIX asr 40-yillaming boshida chartistlar harakatining yangidan kotarilish davri boshlandi. 1840 yil iyulida chartistlarning "Milliy assotsiyatsiyasi" tashkil qilindi. U saylanuvchi ijroiya komitetiga va joylarda o'zining 400ga yaqin bo'limlariga ega cdi. Milliy assotsiyatsiyada "jismoniy kush" ishlatish tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun isschilaming London assotsiyatsiyasi va mayda burjua padikallari chartistlardan uzoqlasha boshladi.

1842 yilda Angliyada yana orliqcha ishlab chiqarish inqirozi boshlandi. Inqiroz to'qimachilik, metallurgiya, kemasozlik kabi sohalarni qamrab oldi.

Chartistlar harakatining oqibatlari

Chartistlar harakati Angliyada xalq norozilik harakatining yangi bir ko'rinishi bo'lib, bu harakatni hukumatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va mamlakatni sanoat ishlab chiqarishiga o'tishiga munosabati kabi holatlarni yuzaga kellirdi. Shuningdck, chartizm hukumatning ichki siyosatiga va siyosiy tafakkuriga katta ta'sir qilgan ishchilar haralati sifalida ahamiyatlidir.

Chartistlar harakali natijasida 30-yillarning oxirlaridan sanoat burjuaziyasi va lendlordlar o'rtasida g'alla haqidagi qonun borasida kurash keskinlashdi. Sanoatchilar proteksionizm o'rniga erkin savdo (fritred)ga o'tishni talab qilayotgan edilar. Chunki Angtiya endi sanoat, savdo va mustamlakalar bo'yicha dunyodagi eng qudratli davlat bolib, u bilan raqobat qila oladigan xavfli raqib yo'q edi.

1846 yil g'alla to'g'risidagi qonun, keyinroq boshqa soliq va to'lovlar ham bekor qilindi. Angliya fritred tizimiga o'tdi. Erkin savdo ingliz sanoat burjuaziyasi uchun yangi bozorlarni egallash imkoniyatini berdi. Chartistlar harakati hukmron doiralarni bir qator islohotlar o'tkazishga va ishchilarga yon berishga

majbur qildi. Parlament 1847 yilda 10 soatlik ish kuni haqida qonun qabul qildi.

Chartistlar harakatini inqirozga yuz tutishining bir qancha sabablari mavjud. XIX asrning 50-yillariga kelib ingiliz sanoati va savdosining ancha davomli yuksalish davrining boshlanishi bilan ishsizlar soni tez qisqardi. Savdo va sanoat rivojidan juda katta foyda olgan ingiliz burjuaziyasi foydaning ma'lum bir qismini malakali ishchilarning moddiy ahvolini yaxshilashga sarflab, ishchilar orasida bo'linishni yuzaga keltirdi. Angliyadan mustamlakalarga ayniqsa, Kaliforniyadagi oltin konlarining ochilishi bilan AQSHga ishchilarning ommaviy emigratsiyasining kuchayishi ham 50-yillarda chartistlar harakatining tushkunlikka ychrashiga sabab bo'ldi. Bu hoi va bo'lib o'tgan iqtisodiy inqirozlar, narx-navo, eksport va ish haqini tushib ketishiga olib keldi. Inqiroz chartistlar harakatini yangidan ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 1842 yil may oyida chartistlar parlamentga 3 mln. SOOming kishi imzolagan xalq xartiyasi to'g'risidagi 2-iltimosnomani taqdim etdilar. Bu iltimosnomaga ham asosan oldingi iltimosnomadagi 6 ta talab kiritildi. Ammo, undan farqli ravishda kcyingi iltimosnoma ijtimoiy tengsizlikka, ish haqining pastligiga qaliy qarshi chiqib, kambag'allar to'g'risidagi qonunni bekor qilishni talab qildi. Biroq, parlament 2-iltimosnomani ham qabul qilmadi.

40-yillarning o'rtalarida chartistlar harakati yangidan jonlandi. 1845 yil "Chartistlarning agrar jamiyati" tuzildi. Uning asosiy maqsadi yer islohotini o'tkazish edi. Yer islo'hoti lendlordlarga tegishli yerlarni davtat tomonidan sotib olinishini va bu yclarni ishchilarga mayda yer mulklari siiatida berilishini ko'zda tutgan edi. Ammo, bu rejalarning hayoliy ekanligi, qolaversa. 1848 yilda jamiyatning moliyaviv bankrotga uchrashi natijasida ushbu jamiyatning ishchilar orasidagi ta'siri tushib ketdi.

1847 yil Angliyada eng kuchli savdo-sanoat inqirozi yuz berdi. Angliyaning sanoati rivojlangan rayonlaridan biri bo'lgan Lankashirdagi fabrikalarning aksaiyati butunlay to'xtatildi. 1848 yil boshlarida mamlakatdagi ishsizlar soni 4 mln. ga yaqin edi.

1847 yilgi inqiroz va 1848 yildagi inqilob yana chartistlar harakalini kuchayishiga sabab bo'ldi. 1848 yil aprelida chartistlarning Milliy konventi ochildi. U parlamentga 3-iltimosnomani berishga qaror qildi. Iltimosnomani parlamentga berish uchun 10 aprelda Londonda ommaviy xalq namoyishini uyushtirish rejalashtirildi. Biroq, bundan xabar topgan hukumat tezda poytaxtga ko'p sonli qo'shin kiritib ommaviy namoyishga yo'l qo'ymadi. Chartistlarning maqsadi amalga oshmadi. 1848 yil yozida parlament 3-iltimosnomani ham rad etdi. Chartistlarga qarshi ta'qib va qatag'onlar bu harakatning susayishiga olib keldi.

Nazorat uchun savollar

1. Inliz burjua inqilobining shart-sharoitlari.
2. Qirol va parlament o'rtasidagi kurash.
3. Inqilobning boshlanishida 1637 yilda Shotlandiya qo'zg'olonining o'rni yoki tarixiy ahaityati.
4. "Buyuk remonstrasiya"ning ahamiyati
5. Jon Lilberh va levellerlar partiyasi.
6. "Prayd tozalovi" va respublikaning e'lon qilinishi.
7. "Haqiqiy levellerlar" oqimi va uning asosiy talablari.
8. 1651 yilda e'lon qilingan "Navigatsion akt"ning mohiyati.
9. Protektoratlik davrida Angliyaning ichki va tashqi siyosati
10. Styuartlar hukmronligining tiklanishi
11. Angliyada burjua tuzumining qaror topishi. "Shonli inqilob".
12. XVIII arsdan Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli
13. Britaniya mustamlakachilik imperiyasining vujudga kelishi
14. Agrar to'ntarishning shart-sharoitlari.
15. Agrar to'ntarish va uning oqibatlari
16. Angliyada umumiy saylov huquqi masalasi va uning dolzarbligi
17. Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari va ularning oqibatlari.
18. "Sving" harakati, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlari
19. Parlament islohotlari haqidagi qonunning ahamiyati
20. "London ishchilari assotsiyatsiyasi" va uning asosiy talablari
21. Chartistlarning London se'zdi.
22. Chartistlarning agrar jamiyati va uning maqsadi

23. Chartistlar harakatining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
24. Charlistlar harakalining inqirozi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq." 1998.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat." 2008.
3. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston." 2009.
4. Zakonadatelstvo angliyskogo revolyutsii .1640-1660 gg. (Sost. N.P. Dmitrievskiy, M., L., 1946)
5. Kudryavsev A.E. Velikaya angliyskaya revolyutsiya. L., 1925.
6. Lavrovskiy V.N. Sbornik dokumenlov po istorii angliyskoy burjuaznoy revolyutsii XV11 v. M., 1973
6. Angliyskaya burjuaznaya revolyutsiya XVII v. (Pod red. E.A.Kosminskogo i Ya. A. Levinskogo. V 2 t. M., 1954, t. 1-2.
7. Barg M.A. Kromvel i yego vremya. M., 1960
8. Porshnev B.V. Fransiya, Angliyskaya revolyutsiya i evropeyskaya politika v seredene XVII v.M., 1970.
9. Novaya istoriya v dokumentax i matcrialax (Pod. Red. N.M. Lukina, V.M. Dalina.) M, 1935. Vip.II
11. Xrestomatiya po istorii mejdunarodnix otnosheniy. M., 1963.Vip. I
12. Morton A.L., Tcyt Dj. Istoriya angliyskogo rabocheho dvijeniya. 1770-1920. M., 1959
13. Poulsen Ch. Angliyskie buntari. M., 1987.
14. Ryude D.J. Narodnie nizi v istorii. 1736-1848. M., 1984.
15. Erofeev N.A. Chartistkoe dvijenie. M., 1961.

Mavzu: XVII asr o'rtalari va XIX asrlarda AQSH

Reja;

1. Shimoliy Amerikaning mustamiakaga aylantirilishi.
2. Mustaqillik urushining sabablari va urushning boshlanishi.
3. Mustamlakalarning Angliyadan ajralib chiqishi va "Mustaqillik Deklarasiyasi".
4. Urush barakatlarining borishi va uning yakunlari.
5. XIX asrning birinchi yarmida Amerika Qo'shma Shtatlari
6. AQSH da fuqarolar urushi.

Tayanch iboralar:

Amerikadagi ingliz mustamlakalarining xo'jalik xususiyatlari. Mustamlakalarning boshqaruv tizimi. Metropoliya va mustamlakalar o'rtasidagi raqobat. Gerb solig'i. Taunsend akti. "Boston choyxorligi". Kvebek to'g'risidagi akt. Kontinental kongresslar. Bigilar va torilar. Tomas Peynning "Sog'lom fikr" pamtleti. Mustaqillik dcklaratsiyasi. "Konfederasiya moddalari". "Qurolli betaraflik". Boshqa davlatlarning urushga kirishi. 1787 yilgi konstitutsiya. Mustaqillik urushining oqibatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari. Rezervatsiyalar. Sanoal taraqqiyoti. Qishloq, xo'jaligi. Ishchilarning norozilik harakatlari va talablari. Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari. Siyosiy partiyalar. Dcmokratlar partiyasi. Frisoylerlar partiyasi. Quidorlik xo'jaliklarining rivoji. Missuri kelishuvi. Abolitsion harakat. Hat Turner. Missuri kelishuvi. Angliya bilan urush. Monro doktrinasi. Meksika bilan urush. AQSH tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari. Iqtisodiy taraqqiyot. Gomsted. "Kanzas - Nebraska" qonuni. Jon Braun. 1860 yilgi prezident saylovlan. Janub konfederasiyasi. Urushning boshlanishi. Ycvropa davlatlarining urushga munosaballari. Kuchlar nisbati va harbiy taktikalar. Urushning birinchi bosqichi Mak - Kleyyan. Inqilobiy urush. Linkoln hukumatining tashqi siyosati. Lotin impcriyasi. Qayta liklash davri. "Ku-kluks-klan". "Qora kodekslar". Linch sudi. Urushning tarixiy ahamiyati.

Shimoliy Amerikaning mustamlakaga aylantirilishi

Tarixchilarning taxminicha, Amerikaning dastlabki aholosi hozirgi indeetslar va eskimoslarning bundan 20-25 ming yilcha oldin Osiyodan kelgan avlod-ajdodlari bo'lgan. Kolumb Amcrikani ochgandan keyin ko'p o'tmay, qit'a muntazam tarzda mustamiakaga aylantirila boshlandi va mustamlakalarni egallash uchun Yevropa davlatlari o'rtasida kurash qizib ketdi.

XVII asrning boshida Ispaniya Shimoliy Amerikada Florida, Texas, Kaliforniya, Meksikani, bulardan ham oldinroq (Portugaliya egallab olgan Braziliyadan tashqari) bulun

Markaziy va Janubiy Amerikani bosib otdi. Fransuzlar Kanadada (1604 yildan boshlab), Missisipi daryosi havzasida Luizianada (1699 yildan boshlab) o'rtnashib oldilar. Gollandlar (1609 yildan boshlab) Gudzon daryosi havzasida Yangi Gollandiya mustamlakasiga asos soldilar.

Shimoliy Amerikaga XVI asr oxirlarida kelgan inglizlar uzoq tura olmadilar. Doimiy mustamlakaga aylantirish 1607 yildan ya'ni Birginiya deb atalgan mustamlaka (qirolicha Elizaveta sharafiga sbunday deb nomlangan) barpo qilingandan keyin boshlandi. "May guli" kemasida kelgan mustamlakachi puritanlar 1620 yilda "Nyu-Plimutga, 1622 yilda Nyu-Gempsher, 1628 yilda Massachusetts, 1634-1637 yillarda Konnektikut, 1636-1643 yillarda Rod-Aylend va Nyu-Gevenga asos soldiar. Ular 1664 yilda Massachusettsga qo'shib olindi. Bu mustamlakalar Yangi Angliya deb ataldi. Mustamlakachilar ichki boshqaruv ishlarida mustaqillikni saqlagan holda Yangi Angliyaning birlashgan mustamlakalari degan nom ostida ittifoq tuzdilar. Markaziy rayonda Nyu-Jersi, Pensilvaniya, janubda Merilend. Shimoliy Karolona va Janubiy Karolina va Jorjiya degan mustamlakalar tashkil topdi.

1760 yilda Sharqda Atlantika okeanining qirg'og'i bo'ylaridan to Farbda Appalachi tog'larigacha bolgan territoriyadagi 13 ta ingliz mustamlakalarida indecslar (bindular)dan tashqari, 1,6 millionga yaqin aholi yashar edi. Oq tanli aholi asosan inglizlar, irlandlar, shotlandlar, nemislar, gollandlar va boshqalardan iborat edi. Aholining soni tez o'sib, 1775 yilda 2,6 million kishiga etdi.

Amerikada ingliz mustamlakalarini xo'jaligiga ko'ra 3 ta guruhga ajratish mumkin edi. Yangi Angliya, deb atalgan Shimoliy mustamlakalarda asosan fermer va ijara qishliq xo'jaligi, qisman hunarmandchilik va manufaktura sanoati taraqqiy etdi. Shimoliy mustamlakalarning markazi Boston shahri edi.

O'rta mustamlakalar rayoni g'alla xo'jaligiga moslashtirilgan bo' lib, unda yirik kapitalistik fermerlar mavjud edi. Pensilvaniya, Nyu-Jersi va Nyu-York rayonlarida g'allachilik fermalari bilan birga sanoat korxonalari va savdo rivoj topdi.

Janubiy mustamlakalar, asosan, tamaki plantasiyalari ko'pchilik bo'lgan quldorchilik. xo'jaliklaridan iborat edi.

XVIII asrning 70 - yillarida paxta ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega emas edi. Paxta yetishtirish va uni mashina bilan ishlov berishga e'tibor 90 - yillarda boshlandi. 1793 yilda paxta tozalash mashinasi Hay Uayten tomonidan ixtiro qilingandan so'ng, quldorlik plantasiyalarida keng ravishda paxta ekila boshlandi. .

Mustaqillik urushining sabablari

XVIII asrning so'nggi choragida ko'pchilik mustamlakalar Angliya qirolining boshqaruvi ostida edi. Konnektikut va Rod Aylend mustamlakalari qiro'l tomonidan tasdiqlanuvchi saylangan gubernatorlar tomonidan boshqarilar edi. Pensilvaniya, Delaver va Merilend alohida kishilarga tegishli edi. Barcha mustamlakalarda maslahat organiga ega bo'lgan saylangan vakillarning palatalari mavjud edi. Mustamlakalarda din katta rol o'ynar edi. Amerikada ko'plab diniy sektalar mavjud bo'lib, ularning ichida puritanlik cherkovi ustun mavqeiga ega edi.

Inqilob arafasida mustamlakalarda 8 la kollej (oliy maktablar) mavjud bo'lib, ularning asosiy maqsadi puhoniylarni tayyorlash edi. XVIII asrning oxirlarida dunyoviy bilimga ega bo'lgan malumotli kishilar Amerikada ko'pchilikni tashkil qila boshladi. Shunday kishilardan biri Benjamin Franklin (1706-1790) edi. Franklin Amerika jamiyatining hayotida katta tashabbuskorlik faoliyatini ko'rsatdi. u tipografiya, jamoat kutubxonasi, kasalxona va akademiyaga asos soldi. Mustamlakalarning ajralib chiqishi uchun kurashining muhim sabablaridan biri mustamlakalar va metropoliya o'rtasidagi savdo va sanoat sohasidagi raqobat edi.

Mustamlakalarda XVIII asr boshidanoq sanoat tez taraqqiy topdi. Mustamlakachi dehqonlar bir vaqtning o'zida temirchi-chilangar va to'quvchi edilar. Shishasozlik, charmgarlik, kemasozlik, temirchilik kabi yirik manufakturalar XVIII asr o'rtalaridan boshlab keng taraqqiy etdi.

XVIII asr ingliz hukumatining hujjatlarida mustamlakalarda manufakturalar qurishni taqiqlovchi ko'plab hujjatlarni topish mumkin. Mustamlakalarda savdo cheklab qo'yildi yoki umuman taqiqlandi. Navigasion

aktlar mustamlakalarni Angliyadan tashqari har qanday davlat bilan savdo va sanoatini bo'g'ib qo'yishga qaratilgan edi.

Metropoliyaning g'arbiy hududlarga aholining ko'chib kelishmi taqiqlash siyosati janubiy quldor plantatorlarning manfaatiga jiddiy salbiv ta'sir ko'rsatdi. Chunki virtqich plantatsion xo'jalikka yangi-yangi unumdor hududlar zarur edi. 1763 yilgi aktdan keyin Birginiya aholosi Amerika mustamlakalaridagi xalqlarni ingliz qiroli o'zining fuqarolari deb sanashga haqli emasligi to'g'risidagi shiorlar bilan chiqdi.

1765 yil ingliz hukumati "Gerb solig'i to'g'risida" qonun e'lon qildi. Mustamlakadagi barcha savdo va sanoat korxonalarida bu soliq joriy qilindi. Hisob-kitoblar, shartnomalar, tilxatlar, ro'znomaning har bir soni, universitet diplomlari va boshqa barcha hujjatlar gerb solig'iga tortildi. Ingliz pariamenti bu soliqni mustamlakalarning aholisidan so'ramasdan mustamlakalarda joriy qildi. Bunga javoban mustamlakalarda namoyishlar bo'lib, unda Angliyaga qarshi norozilik chiqishlari yangradi. Shu yili Nyu-York shahrida mustamlakalarning vakillari ishtirokida kongress chaqirildi. Kongress mustamlakalar faqat ularning roziligi bilangina soliqlarga tortilishini talab qilib chiqdi va ingliz tovarlariga boykot e'lon qildi.

Boykot natijasida metropoliyaning mustamlakalar bilan savdosiga katta zarar o'di. London savdogarlari umumpalatasiga savdoning qisqarib ketganligidan zarar ko'rayolganligini ma'lum qiluvchi va gerb sofig'ini bekor qilishni so'rovchi talabnomalar taqdim etildi. Parlament gerb solig'i to'g'risidagi aktni 1766 yilda bekor qilishga majbur bo'ldi. 1767 yil iyunida parlament Taunsend, deb nomlanuvchi aktni e'lon qildi. Taunsend 1767 yildan boshlab Brilaniya moliyasini boshqardi. Uning nomi bilan ataluvchi aktga ko'ra, Amerika mustamlakalarni soliq to'lashga majbur qilish maqsadida Amerikaga keltirilgan ingliz choylari katta miqdordagi boj solog'idan ozod qilinib, uncha katta bo'lmagan soliqqa tortildi. Ingliz pariamenti Amerika xalqi narxi arzonlashtirilgan choyni tez xarid qiladi, deb o'ylagan edi. Ammo Amerika vatanparvarlari bunday tuzoqqa tushmadilar. Ingliz choylariga boykot e'lon qilindi, mustamlakalarda vaqtincha choy iste'mol qilish to'xtatildi. Boston savdogarlari mahalliy fuqarolar orqali kemalardagi ingliz choylarini suvga tashlatishga muvaffaq bo'ldilar. Bu tarixda "Boston choyxo'rligi" deb ataladi.

1774 yil Ogayo va Missisipi shtatlari orasidagi hududlarni Kvebek provinsiyasiga berish to'g'risidagi mashhur akt e'lon qilindi. Bu akt vakillik organiga ega bo'lmagan, katolik dini hukmron bo'lgan ushbu mustamlaka Kvebek hududining kengaytirilishini anglatar edi. Bu akt Birginiya, Massachusetc va Konnektikut mustamlakalarining ular hududini shimoliy-sharqqa tomon kengaytirish to'g'risidagi talablariga zid kelmoqda edi.

Massachusetts va Virginiya mustamlakalarining tashabbusi bilan mustamlakalarni birlashtirish maqsadida 1774 yil 5 sentyabrda Filadelfiyada kongress chaqirildi. Bu 1-kontinental kongressda ingliz hukumati bilan qonuniy usullarda munosabatda bo'lish tarafdorlari - loyyalistlar ko'pchilikni tashkil qildi. Ular Angliya bilan mustamlakalar uchun, maxsus chiqarilgan konstitusion pejim asosida aloqalarni saqlab qolishni taklif etdilar. Bu kongressda Birginiyalik deputat Jorj Vashington (1732-1799) katta rol o'ynaydi. Kongressda Birginiyalik depupatlar orasida advokat va publitsist Tomas Jefferson (1743-1826) harri o'zining o'tkir chiqishiari bilan ajralib turdi. Jefferson yerga mulloq egalik qilishni bekor qilishni, merosga katta o'g'ilning egalik huquqini bekor qilishni, negrlarning qulchiligini tugatishni talab qilib chiqdi.

1774 yilgi kontinental kongress Amerikaiiklarning o'z-o'zini milliy anglashini shakllanishiga zamin tayyorladi. Kontinenlal kongress 5 sentyabrdan 26 oktyabrgacha faoliyat yuritdi. U qiroлга bir qator talabnomalar tayyorladi, mustamlakalarga yangi soliqlar joriy qilmaslik, ingliz hukumatining mustamlakalarda siquviga barham berish shular jumlasidan edi. Kongress mustamtakalar aholosidan ingliz tovarlarini boykot qilishni talab qildi, shundan so'ng muammolarni tinch yo'l bilan echish maqsadida kongress o'zining majlisini 1775 yilning may oyida davom ettirishga qaror qildi. O'rtadagi bu tanaffus davrida mustamlakalar va metropoliya o'rtasidagi nizo quroli kurashga aylanib ketdi.

Mustaqillik urushining boshlanishi

1775 yil 19 aprelida ingliz generafi Geyj Konkorddagi zambaraklar, porox, musbket o'qlari va un zahiralarni egallash maqsadida Bostondan 1700 kishidan iborat harbiy korpusni jo'natdi. Boshqa mustamlakalardan kelgan aholi Boston shahrida lager lashkil qilib, uni "Ozodlik lageri" deb atadilar. Tezda Bostinda amerikaliklarning 20 ming kishilik qo'shini tashkil topdi. 1775 yil 17 iyunda Boston yaqinida mustamlakalarning qo'shini Angliyaning Bostondagi harbiy garnizonini mag'lubiyatga uchratdi. Shundan so'ng boshqa rayonlarda ham harbiy harakatlar boshlanib ketdi.

1775 yil may oyida Filadelfiyada kongress chaqirildi va u ikkinchi kontinental kongress deb nom oldi. 15 iyunda Yangi Angliya deputatlarining taklifi bilan kongress poikovnik Jorj Vashingtonni oliy bosh qo'mondon qilib sayladi. Vashington jangovar qo'shin tashkil qilishga kirishdi. 1776 yil mart oyida Vashington qo'shini Bostonni egalladi. Jon Adamsning aytishicha, urush davrida Amerika aholisining uchdan biri mustaqillik tarafdori, biri qarshi, uchinchisi betaraf bo'lgan Amerikada bu davrda qurol ko'tarishga qurbi etadigan 2 million 200 ming kishilik oq tanli aholi bo'lgan. Ammo Vashington qo'shinining soni 22 ming kishidan oshmagan. Bu vaqtda 50 mingdan ziyod amerikalik ingliz qo'shinlari tarkibida xizmat qilgan. Hammasi bo'lib Shimoliy Amerikaga Angliyadan 90 ming kishilik qo'shin yuborilib, ularning 30 mingga yollangan nemis qo'shinidan iborat bo'lgan.

Urush harakatlarining borishi yana shu bilan qiyinlashdiki, mustamlakalarning mahalliy aholisi orasida ko'plab torilar - Angliya tarafdorlari mavjud edi. Mustamlakalar aholisi vigilarining ko'pchiligi ham xoinlik va qo'poruvchilik faoliyati bilan shug'ullanadilar. Amerikada torilar va bigilar siyosiy partiya sifatida rasmiylashmagan edi. Ularning na dasturi, na Nizomi, na partiyaviy tashkiloti mavjud edi. Aholining Joyyalchilari - torilar deb, inqilob tarafdorlari esa vigilar deb atalgan. Torilar ingliz qiroolidan yerga egalik qilish uchun maxsus yorliq olgan asizoda yer egalari edi. Vigilarining asosiy kuchi fermerlik bo'yicha, ular g'arbdagi yerlarga erkin ko'chib borish huquqini talab qilayotgan edilar. Vigilariga manufaktura ishchilari, hunarmandlar va shaharlarning mayda burjuaziyasi kabi ingliz ma'muriyatidan aziyat chekayotgan ijtimoiy guruhlar ham qo'shildilar.

Mustamlakalarning Angliyadan ajralib chiqishi va "Mustaqillik deklaratsiyasi".

1775-1776 yillarda ayrim mustamlakalar o'zlarini ozod va mustaqil davlat deb e'lon qildilar. Kontinental kongressdagi mustamlakalar deputatlarining ko'pchiligi inqilobga moyil bo'lgan yangi deputatlar bilan almashtirildi. 1776 yilgi ikkinchi kontinental kongressda shtatlar mustaqil davlat sifatida e'tirof etildi.

1776 yil yanvarida Tomas Peynning "Sog'lom fikr" nomli pamfleti 100 ming nusxada nashr etildi. Unda muallif mustamlakalarni Angliyadan ajralib chiqishini asosli ekanligini isbotlashga urindi.

Mustaqillik deklaratsiyasini ishlab chiqish uchun komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga Tomas Jefferson, Jon Adams, Bendjamin Franklin, Robert Livingston kirdilar. Asosan Jefferson tomonidan tuzilgan tarixchilar tomonidan "Mustaqillik deklaratsiyasi" deb atalgan, to'liq nomi esa : " 13 ta Amerika Qo'shma Shtatlarining yagona deklaratsiyasi"da shunday jumlar mavjud edi:" Barcha odamlar o'zaro teng qilib yaratilgan va ularning barchasi teng huquqlarga ega bo'lishi kerak. Bunday huquqlar jumlasiga yashash, ozodlik va baxtga inilish kiradi. Davlatni boshqarish, uni o'zgartirish yoki yo'q qilish bu xalqning huquqidir". Tarixda birinchi marta rasmiy hujjatda xalq suvereniteti g'oyasi shakllandi va 1776 yil 4 iyulda qabul qilingan deklaratsiya mustaqil Amerika Qo'shma Shtatlarini tashkil topganligini e'lon qildi.

Deklaratsiyada AQSH ning Angliyadan ajralib chiqishining sabablari ham ko'rsatildi. "Mustaqillik deklaratsiyasi" ikkinchi kontinental kongressi tomonidan e'lon qilingach, butun tun gulxanlar yoqilib, qo'ng'iroqlar jarangladi. Xalq deklaratsiyani juda jo'shqinlik bilan kutib oldi.

"Mustaqillik deklaratsiyasi" XVIII asr oxirlaridagi fransuz burjua inqilobining "Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi" uchun namuna vazifasini o'tadi. XVIII asr deklaratsiyasida inson huquqlarining abadiyligi e'lon qilindi. Abadiy huquqlar deganda burjua huquqlari nazarda tutildi. O'z davri uchun bu ilg'or va o'ta muhim hujjal edi. Deklaratsiya mustamlakachi ekspluatirlarga, feodal munosabalarining qoldi'lariga qarshi kurash e'lon qildi.

Jefferson tayyorlagan deklaratsiyaning dastlabki matnida qulchilikni tanqid qiluvchi punkt mavjud edi, ammo janubdagi quldorlik mustamlakalarining deputatlari deklaratsiyadagi ushbu punkt qoladigan bo'lsa, Angliyaga qarshi urushmaymiz, deb do'q¹ urdilar. Shunday qilib, AQSH da qulchilikning bekor qilinishi orqaga suriladi.

Ushbu harakatlarning borishi va yakunlari shu bo'ldiki AQSH Angliyaga qarshi Fransiya (1778), Tspaniya (1779) va Gollandiya bilan (1782) harbiy ittifoq tuzdi. Rossiyaning tashabbusi bilan (1780y. Deklaratsiyasi) Yevropadagi qator mamlakatlar (Shvetsiya, Germaniya v.b.) Angliyaga qarshi kurashni bertaraflik yo'lini tutdilar. 1782 yilga kelib kontinental kuchlar to'la galabaga erishdi. Inglizlar Amerikada mag'lub etildi.

1783 yilda Versalda Angliya va AQSH o'rtasida sulh bitimi imzolandi. Angliya AQSH mustaqilligini e'tirof etdi.

1775-1783 yillardagi mustaqillik ushuni urush ana shunday yakun topdi.

Shunday qilib, Angliyaning Amcrikadagi 13 ta mustamlakasi mustaqil yagona respublikaga birlashdi. AQSH tashkil topdi. Ko'p yillar mobaynida har bir shtat boshqa shtatga nisbatan o'zini mustaqil deb hisoblab keldi. Keyinchalik fuqarolar o'rtasida yagona milliy mushtaraklik vujudga keldi va ular o'zlarining kelib chiqishlari, irqi, millatlaridan qat'iy nazar- "amerikaliklar" nomi ostida birlashdilar. Bu federatsiya asosida birlashgan yangi davlat bo'lib, o'sha paytda jahonda kichik Shveytsariya Respublikasi mavjud edi. xolos.

AQSHda fuqarolar toifalari yo'q edi, na dvoryan, na monarx kabi unvonlar bo'lmagan. Shuning uchun o'rta tabaqaga mansub fuqaroning o'sishi va rivojlanishi uchun bu yerda hech qanday g'ov yo'q edi.

1787 yilda Filadelfiyada ta'sis konventi (majlis) AQSH Konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyaga Prezident boshqaruviga asoslangan hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat qilib tuzildi va uning asosini xalq tashkil qiladi, deb yozib qo'yildi.

Dunyoning eng demokratik Konstitutsiyalaridan biri bolgan bu me'yoriy hujjat, 30ga yaqin o'zgartirishlar qilinganiga qaramay hozirgacha AQSHning asosiy qonuni vazifasini o'tab kelmoqda.

Jorj Vashington AQSHning Prezidenti qilib saylandi. Lining safdoshlari Tomas Peyn, Benjamin Franklin, Tomas Jefferson, Samuel Adams, Jeyms Medisonlar AQSH davlatini tashkil etish, uni idora qilish an'analari asos soldilar.

Iqtisodiy taraqqiyotning umumiy xususiyatlari.

XIX asrning birinchi yarmida AQSHda kapitalizm jadal rivojlandi. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismida fabrika sanoati va kapitalistik fermerchilik xo'jaligi taraqqiy etdi. AQSHning g'arbida esa mayda fermerchilik, mustaqil mayda hunarmandchilik ishlab chiqarishi hukmronlik qildi. Umuman olganda mamlakatning Shimoli va G'arbida kapitalistik munosabatlar tez o'sdi. Janubda esa AQSH iqtisodining boshqa bir ko'rinishi plantatsiya quldorchilik xo'jaligi rivojlanib bordi. Shimol va Janubda iqtisodiy taraqqiyotning yo'llaridagi turli xillik mamlakat taraqqiyotiga juda katta ta'sir o'tkazdi.

AQSHning G'arbidagi yangi yerlarni o'zlashtirilishi Yevropadan ko'p miqdorda ko'chkinchilar (emigrantlar) ommasining kelib o'rinishiga qulay sharoit yaratdi. Emigrant aholi orasida yuz minglab malakali hunarmandlar va ishchilar mavjud edi. Emigratsiya shusiz ham tez o'sayotgan mamlakat aholisi sonini keskin oshirib yubordi. 1800-1820 yillarda mamlakat aholisi 5,3 mln. kishidan, 9,6 mln. kishiga ko'paydi. 1850 yilda esa aholi soni 23,2 mln. kishiga etdi. 1820-1850 yillar mobaynida AQSHga kegan ko'chkinchi aholining soni 2.455 ming kishiga yetdi. Ammo shunga qaramasdan, AQSHda ishchi kuchlariga bo'lgan ehtiyoj Yevropa qaraganda ancha ortiq edi. Bu hoi ma'lum bir miqdorda AQSHning shimoliy hududlarida mashinalardan foydalanishga ertaroq o'tilishiga ham sabab bo'ldi. Vaholanki, bu vaqtda mamlakat janubida qullar mehnatidan keng foydalanilar edi.

Shunday qilib, AQSHda kapitalistik munosabatlarning rivoji nihoyatda bir murakkab jarayon bo'lib, unda turli ishlab chiqarish usul va shakllari, ekspansiya, immigratsiya kabi omillar bilan qorishib ko'gan.

AQSH tarixining XIX asrning birinchi yarmi uchun xos bo'lgan eng jirkanch xususiyatlaridan biri, bu mahalliy aholi hindularni qirg'in qilinishi va Afrikadan tutib keltirilib, qulga aylantirilgan negrlarning shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishi edi. AQSH aholisining keltirilgan har ikkala toifasi ham barcha fuqarolik huquqlaridan mahrum qilingan edi. G'arbdagi unumdor yerlarda yashayotgan hindu qabilalari bilan ko'pincha amerikalik mustamlakachilar hindularning mazkur yerlarga egalik huquqini tan olgan shartnomalarni imzolaganlar, ammo keyinchalik bu shartnomalar buzilib, ularning yerlari tortib olingan, o'zlari esa qirilgan yoki G'arbgacha tomon siqib qo'yilgan. Mustamlakachilar hindularning harbiy kuchlarini zaiflashtirish maqsadida qabilalar orasida nifoq chiqarish usullaridan, ya'ni, birini ikkinchisiga qarshi qo'yish kabi hollardan ham foydalanganlar.

1812-1814 yillardagi Angliya bilan bo'lgan urushdan so'ng hindularni G'arbgacha siqib borish kuchaydi. Hindular majburiy ravishda "rezervatsiya" deb ataluvchi tabiiy noqulay bo'lgan, maxsus ajratilgan rayonlarga ko'chirilgan. Hindularning qarshilik harakatlari maxsus ravishda qonli jazo otryadi yoki ekspeditsiyalari tomonidan bostirilgan. Masalan, Indianada hindularning krik qabilasi ko'targan qo'zg'olon bostirilib, qabila boshlig'i Tekumse o'ldirildi. Amerikalik mustamlakachilar uning terisidan kamar yasatadilar.

Hindularni asoratga solish jarayoni ko'pincha boshqa davlatlarning hududlariga bosib kirish bilan birga davom etgan. AQSH qo'shinlari hindularni ta'qib qilib. Ispaniyaga tegishli bo'lgan Sharqiy

Floridaga bostirib kirganlar. Bungacha ham, AQSHning ko'pgina quldor plantatorlari Floridada yashaganlar. Ularning qo'llab-quvvatlashi natijasida AQSH 1819 yilda Ispaniya hukumatini Sharqiy Floridadan voz kechishga majbur qildi. Buning uchun AQSH Ispaniyaga 5 mln. dollar to'ladi. Bu bilan AQSTI o'zini mazkur hududni bosib olgan emas, balki sotib olgan qilib ko'rsatdi. Sharqiy Floridada yashagan hindularning seminola qabilasining bir qisrai qirib tashlandi.

XIX asrning 20-30 - yillarida hindular Missisipi daryosi ortiga siqib chiqarilgan. Ularning ko'p qismi qirib tashlangan. Jorjiyadan g'arb tomonda hindularning chirok qabilasining tinch aholosi istiqomat qilgan. Ular o'zlarining maktablari, aliaviti, tipografiya va hatto gazetalariga ega bo'lgan. Chirok qabilalari yashayotgan hududda oltin zahiralari kashf o'lgach, ularning mazkur hududdagi yerlarga egalik huquqini kafolatlovchi shartnomalar bekor qilinib, u yerlar jamiyat mulki deb e'lon qilindi. AQSH qo'shini chiroklarni G'arbdagi rezervasiyalarga haydadi. Bunda 4 000 dan ziyod hindular halok bo'ldi.

1835-1842 yillarda Floridadagi seminola qabilalari bilan AQSH qo'shini o'rtasida ikkinch urushi bo'lib o'tdi. Natijada hindularning qarshiligi bulunhy tugatildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ikki xil xususiyat: kapitalistik va quldorlik ishlab chiqarish munosabatlari mavjud bo'lgan.

Mamlakat Shimoli va G'arbida kapitalizm tez suratlar bilan o'sgan. XVTI asr oxirlaridan shimoli-sharqiy shtatlarda mexanik ip yigirish. paxta tozalash (chigitlash) dastgohlari paydo bo'lgan. 1814 yil Massachusetsda mexanik dastgohlardan keng foydalanilgan. 1815 yilda AQSHning engil sanoatida 130 mingdan ziyodroq mexanik urchuqlar bo'lgan bo'lsa, 1860 yilda ularning soni 5236000 ga etgan. Mexanik urchuglar bo'yicha AQSH dunyoda Angliyadan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Shunday qilib, XIX asrning 40 yillarida AQSHning to'quvchilik sanoati tez o'sdi.

1837 yildan AQSH metallurgiyasida toshko'mir yonilg'isidan foydalanishga o'tila boshlagan. Buning natijasida temir ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tez oshib bordi. Og'ir sanoatning eng rivojlangan rayonlaridan biri bu Pensilvaniya edi. XIX asrning 40 -yillaridan AQSHda qishloq xo'jalik mashinalarining o'rishi, ekish kabi mexanizmlarga ixtisoslashtirilgan turlaridan foydalana boshlashgan. Sunday qishliq xo'jalik mashinalarining aksariyati Angliyadan keltirilgan. Texnika sohasida AQSH hali Angliyadan ortda edi. Bug' dvigatellaridan foydalanish AQSH sanoatida XIX asrning 50-yillaridan keng foydalana boshlangan.

30-40 - yillarda AQSHning transport sohasida to'ntarish yuz berdi. 1807 yildayoq sinalgan Fultonning bug' kemasidan 20-yillarga kelib daryolardagi qatnovda keng foydalanildi. 1838 yildan esa Atlantika okeani orqali bug' kemalarining doimiy qatnovi yo'lga qo'yilgan. AQSHning dengiz savdosi floti yuk ko'tarish ko'rsatkichlari bo'yicha Angliyanikiga tenglashgan bo'lsada, u asosan elkanli kemalardan iborat edi.

1825 yilda Buyuk Ko'llarni Gudzon daryosi orqali Atlantika okeani bilan birlashtirgan Eri deb nomlanuvchi kanal qurildi. 20-yillarning oxirlaridan temir yo'llar qurilishi boshlandi. 1850 yilda AQSH temiryo'llarining uzunligi 9 ming milga etdi. Temiryo'llar va kanallar mamlakatning Shimoli-G'arbiy hududlarini Janubiy shtatlar bilan birlashtirib G'arbn o'zlashtirishda katta ahamiyat kasb etdi. Shimolda sanoat to'ntaruvi fabrika ishchilarining sonini oshishi bilan birga bordi.

Ijtimoiy – siyosiy harakatlar va siymalar partiyalar

Aholisi zich bo'lgan Shimoli-Sharqiy rayonlarda ishchilarning ahvoli og'ir bo'lgan. 20-30 - yillarda o'rtacha 12,5 soat ish kuniga ega bo'lgan ishchilar bir kunga bir dollar ish haqi olganlar, ammo bu tirikchilik uchun zarur bo'lgan eng oz miqdordagi oziq-ovqat uchun ham o'tmas edi.

1837-1842 yillarda AQSHda dastlabki ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi yuz berdi. Inqiroz ishchilarning turmush darajasini keskin tushirib yubordi. AQSHda navbatdagi ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi 1857 yilda yana sodir bo'ldi.

XIX asrning 20-yillari oxirlarida AQSHda ishchilarning mehnat sharoitini, huquqiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun kurash boshlandi. Ularning eng asosiy talablari 10 soatlik ish kunini joriy qilish. ish haqini oshirish, qarzlarni uchun hibsga olishni bekor qilish, jamiyat (davlat) maktablarini ochish, barcha erkaklarga saylov huquqini berish, G'arbdagi yerlardan ularga yer uchastkalari berish va boshqalardan iborat edi. Ishchilar tez-tez ish tashlashlar uyushtirib turdilar. Sexlarning turlariga qarab. malakali ishchilarning kasaba uyushmalari tuzildi. 1842 yilda AQSH oliy sudi ishchilarning ish tashlashlari va kasaba uyushmalarini tuzishga ruxsat beruvchi qonunni joriy qilishga majbur bo'ldi.

3828 yil Filadelfiyada dastlabki ishchi parliyasi tashkil topdi. Shunday partiyalar Nyu-York va boshqa shaharlarda ham tuzildi. 1828-1834 yillarda turli nomlar bilan ataluvchi 60 dan ziyod ishchi partiyalari tuzildi. Bu partiyalar asosan umumdc demokratik talablarni ilgari surib, ishchilarning yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun harakat qildilar. Shuningdek, ayrim partiyalar yer uchastkalarini bo'lib berilishini, ayollarning siyosiy huquqlarga ega bo'lishi va qulchilikni bekor qilinishini ham talab qildilar. Xalq ommasining talabi bilan ko'pchilik shtatlarda qarzarlar uchun hibsga olish bekor qilinib, crkaklar uchun umumiy saylovlar huquqi vajamiyat maktablari joriy qilindi.

XIX asrning birinchi yarmi AQSH Janubida quldorlik plantatsiyalarning jadal o'sish davri ham bo'ldi. 1793 yilda E.Uitni tomonidan paxta tozalash (chigitlash) dastgohini ixtiro qilinishi natijasida XIX asrning birinchi yarmida quldorlik plantasiyalarida tamaki o'rniga paxta keng ravishda etishtirishga o'tildi. Shuningdek, Janubda shakar qamish ekish ham kengaydi. Paxtaning aksariyati Angliyaga eksport qilindi. Paxta etishtirishga ixtisoslashuv AQSH Janubini G'arbiy Yevropa mamlakattarining agrar xom ashyo bazasiga aylantirdi. Keyinchalik Janubda etishtirilayotgan paxtaning bir qismi Shimoldagi to'qimachilik sanoatida qayta ishlana boshlandi.

Quldorlik plantasiyalarida paxta monokulturasini (yakka hokimligi) Janub yerlarining unumdorlik darajasini tushirib yubordi. Natijada yangi unumdor yerlarga ehtiyoj orta bordi. Buni paxta xom ashyosiga bo'lgan talabning kuchayishi natijasida, ekin maydonlari hajmini kengaytirish zaruriyati ham taqozo etmoqda edi. Quldorlar mamlakat janubidagi va g'arbidagi yerlarni ekspansiya qilishga kirishdilar. Shimoli-G'arbdagi capitalist-termerlar han bunday ekspansiyadan manfaatdor edilar.

Qulchilik , unga qarshi kurash va abolitsion harakat

1809 yilda AQSHga quliarni keltirishni taqiqlovchi qonun chiqdi. Biroq, endi kontrabanda yo'li bilan yiliga 15 mingga yaqin qullar keltirilgan. 1790 yilda AQSHda 760 ming negr qul bo'lgan bo'lsa, 1860 yilda ularning soni 4 mln.gacha etdi.

AQSHda fermerlar bilan plantatorlar o'rtasida Missisipidan g'arbdagi yerlar uchun keskin kurash davom etdi. Shimol aholisining tez o'sishi natijasida shtatlarning vakillik palatasida Shimol deputatlari sonining oshishi tufayli qulchilik bekor qilindi. Ammo Senatda quldorlik shtatlarining mavqei baland edi. Quldorlik va ozod shtatlar soni o'zaro tenglashgach, quldorlar quldorlik shtatlarini sonini oshirishga harakat qildilar. 1820 yilda Missuri va Men kabi yangi shtatlar tashkil qitindi. Qullik masalasini endi bu shtatlarning o'zlari hal qilishi lozim edi. Shu yili AQSH kongressi 36° 30" dan shimolda (Missuridan tashqari) qullikni ta'qiqlovchi qaror chiqardi. Bu AQSH tarixida Missuri kelishuvi deb nom oldi.

XIX asrning 30-yillaridan AQSHning ijtimoiy hayotida qulchilik masalasi muhim o'rin egalladi. Buning asosiy sabablaridan biri qullar qarshiligining kuchayishi edi. AQSH tarixida qullarning isyonlari va qo'zg'olonlari ko'p bo'lgan. XIX asrning birinchi yarmida ko'tarilgan qullarning qo'zg'olonlari orasida eng yirigi 1831 yil avgustida Virginiyada negr qul Nat Turner rahbartigida ko'larilgan qo'zg'olon edi. Qo'zg'olonlar bilan birga 30-yillardan qulchilikni bekor qilish (abolitsion - bekor qilish) uchun oq tanli aholi orasida ham harakat bohlendi. Bu "abolitsion harakat" deb nomlandi. Abolitsion harakat asosida fermerlar, hunarmandlar va qisman o'rta burjuaziya vakillarining demokratik huquq va erkinliklar, ayniqsa, g'arbdagi yerlarga borib o'rtnashishi uchun kurash yotar edi. 1838 yil abolitsionistlar qochoq negr qullarga yordam berish maqsadida "Yer osti temir yo'llari jamiyati" nomli maxsus tashkilot tuzdilar. Bu maxfiy jamiyat 10 minglab qochoq va ta'qibdagi qullarni mamlakat shimoliga o'tkazib yuborib, ularning xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullandi.

1848 yil Shimol fermerlari, hunarmandlari va burjuaziasining bir qismi Buffalo shahrida yangi partiya - frisoierlar (free soil - bo'sh yer) partiyasini tuzdilar. Bu parliyaga ishchilar va negr qullar ham kirdilar. Frisoierlar, asosan, yangi hududlarda quchilikni joriy qilmaslikni, g'arbdagi yerlarni skvatterlar (ko'chib borib o'rtnashib oluvchilar) ga bcpul tarqatilishini va u yerlarni yirik yer egalariiga sotilmasligini talab qildilar. Frisoierlar partiyasining paydo bo'lishi 40-yillarning oxirlaridan quldorlarfa qarshi kurashish uchun fermerlar va hunarmandlarning Shimol burjuaziyasi bilan siyosiy ittifoqchilik qilganligidan dalolat beradi. Prezident saylovlarida nomzodlarni ilgari surish uchun Shimol burjuaziyasi va fermerlari Janub quldor plantatorlari bilan turli guruh va oqimlarga birlashishi natijasida AQSHda burjua siyosiy partiyalari tashkil topdi. Jumladan, demokratik partiya tuzildi.

XIX asrning 20-yillarida AQSHning ichki siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Fermerlar sonining oshishi, hunarmandlar va ishchilarning siyosiy huquqlar uchun kurashi. ko'pchilik shtatlarda faqat oq tanli erkaklar uchun umumiy saylov huquqini joriy qilinishi va mulkiy senzni bekor qilinishi natijasida ko'p sonli yangi saylovchilar paydo bo'ldi. Fermerlar, hunarmandlar va ishchilarning aksariyati chet el mahsulotlariga bojxona tariflarini oshirilishidan, 1816 yilda Filadelfiyada ochilgan AQSH Banki tomonidan yirik ycr egalari va sanoatchilarini imtiyozli kreditlar bilan rag'batlantirilishidan norozi cdilar. Chunki, katta kreditlarni olgan mulkdorlar g'arbdagi yer mulklarini davlatdan sotib olib qo'yayotgan edilar. 1828 yilgi prezident saylovlarida plantatoplar, fermerlar. hunarmandlar va hatto ishchilar Janubiy Karolinaga tug'ilib o'sgan Endryu Jekson(1767-1845)ni prezidentlik lavozimiga saylash uchun birlashdilar.

Jekson tarafdorlari o'zlarini demokratik partiya a'zolari deb atay boshladilar. Bu partiya rasmiy ravishda 1828 yilda tashkil topdi.AQSHning 7-prezidenti (1829-1837) Jekson prezidentligi davridan boshlab AQSHning siyosiy hayotida ilk bor saylovda g'olib kelgan partiya vakillari muhim davlat. lavozimlarini cgallash tartibi odat tusiga kirdi. Keyinchalik demokratik partiya, asosan, quldorlarning manfaatini aks ettira boshladi.

Quldorlik va fermerlik xo'jaliklarining rivoji nafaqat mamlakatning ichki siyosatiga, balki uning tashqi siyosatiga ham o'z tasirini o'tkazdi. Bu AQSHning g'arbiy va janubiy yo'nalishlarda hududiy-ekspansiya harakatlarini olib borishida yaqqol namoyon bo'idi.

Tashqi siyosatning o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqillik urushidan so'ng AQSH tashqi siyosatining xarakterli xususiyati(lari: 1)Yevropa davlatlarining ittifoqlari va urushlarida qatnashmaslik; 2)ular o'rtasidagi ziddiyatlardan o'zining manfaatlari yo'lida foydalanish va 3)Amerika savdo kemalarini daxlsizligini ta'minlashdan iborat edi. Shunday qilib, XIX asrning birinchi yarmida AQSH Amerika qita'sida G'arhiy Yevropa mamlakatlarining ta'sirini susaytirish evaziga o'zining mavqesini mustahkamlashga intildi, Angliya bilan birgalikda Lotin Amerikasi mamlakatlarini siyosiy jihaldan tarqoq, mayda va zaif davlatlarga aylantirishda faol ishtirok etdi. AQSHning ekspansiya ("Dollar siyosati") siyosati 1803 yilda arziyas 1,5 mln dollarga Fransiyadan Luizianani olish bilan boshlandi. Fransiya mazkur hududni 1800 yilda Ispaniyadan lorlib olgan edi. Yevropadagi urush tufayli uni himoya qila olmasligi va moliyaviy zaruriyal sababli Napoleon uni sotishga majbur bo'tdi. Luizianani olinishi AQSH hududini 888,8 ming kv mildan 1715,9 milga ya'ni, qariyb 2 baravar kengaytirdi. Kontinental blokada tufayli Angliya Fransiya bilan savdo aloqalarini olib borayotgan davlallarning savdo kemalari qatorida AQSHning ham savdo kemalini tutib ola boshladi, Bunga javoban AQSH 1812 yilda Angliyaga urush e'lon qildi. Urush harakatlari asosan, Kanada hududidagi ingliz qo'shiniga qarshi olib borildi. AQSH Yevropadagi urushlardan foydalanib Kanadani egallamoqchi edi. Ammo uning maqsadlari amalga oshmadi. 1814 yil dekabrda Belgiyaning Gent shahrida anglo-amerika sulh shartnomasi imzolandi. Urush AQSH hududini kengaytirmadi, biroq uning mustaqilligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'idi. Angliya yana bir bor AQSH mustaqilligini tan oldi.

1810-1818 yillar mobaynida AQSH Ispaniyaga tegishli bo'lgan Floridani qismlarga bo'lib bosib oldi. 1819 yilda rasmiy ravishda Ispaniya Floridani AQSHga berishga majbur bo'idi.

Ispaniya mustamlakachilik imperiyasining inqirozi Lotin Amerikasi mamlakatlariga mustaqillik olib keldi. 20-yillarning boshlarida "Muqaddas ittifoq" qo'shinlarini (Ispaniya mustamlakachiligini tiklash maqsadida) Lotin Amerikasiga kiritish haqidagi xabarlarining tarqalishi AQSH hukumatini tashvishga soldi. 1823 yil 2 dekabrda AQSH prezidenti Monro kongressga murojaatnorna yubordi. Bu murojaatnomaga ko'ra, AQSH Yevropa mamlakallarining Amerikadagi mavjud mustamlakalafini tan olinishini. biroq ularning Amerika qifasida yangi mustamlakalarga asos solishiga yo'l qo'ymasligini, Yevropa mamlakatlarining Amerika mamlakatlaining ichki ishlariga aralasbmasligini ma'lum qildi. Bu harbiy doktrina "Monro doktrinasi" deb nom oldi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining mustaqillik uchun kurashini qo'llab-quvvatlagan AQSI1 plantatorlari Texasda ko'chmas yer mulklariga ega bo'lib, 1836 yilda uni mustaqil respublika deb e'lon qildilar. Bu 1846-1848 yillardagi AQSH-Meksika urushiga olib keldi. Urush natijasida Meksika nafaqat Texasdan balki Kaliforniya, Arizona va Yangi Meksikadan iborat ulkan hudud (qariyb Meksika hududining yarmi) dan mahrum bo'idi. AQSH kompensatsiya tariqasida Meksikaga 15 mln. dollar to'lab go'yoki uni sotib olganday qilib ko'rsatdi. Bosqinchilik urushlari natijasida XIX asr o'rtalarida AQSH hududi 3027.8 ming kv.milga etdi.

AQSHning hududiy ekspansiya tufayli o'z maydonini kengaytirishi uchun Hindu qabilalarining qoloqligi va tarqoqligi, qo'shni Ispaniya mustamlakalari va Meksikaning zaifligi juda qo'! keldi. Yevropa davlatlari o'rtasidagi to'qnashuv va urushlar tufayli ular AQSHning bosqinchilik urushlariga jiddiy e'tibor bermadilar. AQSH esa bundan o'z manfaati yo'lida ustalik bilan foydalandi. AQSHning XIX asr boshlarida Hvyropada bo'lgan urushlarda qatnashmaganligi uni nafaqat katta narbiv xarajatlar va yo'qotishlardan saqlab qoldi, balki urushayotgan davlatlar bilan savdo olib borishi natijasida urushdan yaxshigina foyda olishini ta'minladi.

Fuqarolar urushinig shart-shaoitlari va kelib chiqish sabablari

AQShda abolitsionchilar va frisoyletler kuchayishiga qaramasdan. Shimol burjuaziyasi va G'arbdagi fermerlarning Janub quldorlari bilan kompromisslik (kelishuv) munosabati XIX asrning 50-yillarigacha AQSh ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayolining asosiy xususiyatlarini tashkil etdi. Bu kelishuvchilikning mohiyati bir davlat tarkibida kapitalistik va quldorlik munosabatlarning mavjudligidan iborat bo'lib, AQShning ko'pgina moliyachilari. savdogarlari va sanoatchilari Janubdagi quldorlik xo'jaliklari bilan bog'liq cdi. Aksariyal fermerlar va quldorlar AQShga kiritilayotgati arzon ingliz maxsulollariga bojxona soliqlari va to'lovlari miqdorini kamaytirish maqsadida prczident saylovlarida birlashar edilar. Fermerlar va quldor plantatorlar AQShning hududiy ekspansiyasidan o'zaro teng manfaatdor bo'lib, bu ufarni kolonizatsiya - yangi yerlar bilan ta'minlar edi. Uzoq vaqt davomida AQSh hududini kengayib borishi fermerlar bilan quldorlar munosabalini keskinlashuviga yo'l qo'ymadi. Ammo, Janub bilan Shimol o'rtasidagi chegara shtatlarda , yangi tashkil topayotgan shtatlarda qulchilikni joriy qilish borasida azaldan kurash davom etib kelar edi.

50-yillarga kelib ahvol o'zgardi. Kapitalizm ravnaqi va G'arbdagi yerlarga fermerlar kolonizatsiyasining kuchayishi qulchilik bilan ziddiyatlarni keskinlashtirdi. Kuchlar muvozanati qulchilik laqiqlangan Shimol shtatlari foydasiga lez o'zgardi. Ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti qoloq Janubga qaraganda Shimolda tez o'sdi. 1850-1860-yillarda AQSh aholisi 23 mln dan 31 mln kishiga yetdi, Aholining aksariyat qismi Shimol va G'arbdagi shtatlarda yashardi, 1860- yilda Janubda 12,2 mln aholi yashagan, uning 4 mln.ini qullar tashkil qilgan.

Sanoat ishlab chiqarish, asosan, Shimolda to'plangan bo'lib, AQSh 50- yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda Angliya, Fransiya va Germaniyadan so'ng to'rtinchi o'rinni egalladi AQSh savdo flotining yuk ko'tarish hajmi Angliyanikiga tenglashib, 5,3 mln tonnani tashkil etdi. Biroq AQSh qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar mamlakat bo'lib, mashinalar va sanoat maxsulotlarining katta qismi Angliyadan keltirilar edi.

AQShda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi quldoriik ishlab chiqarish munosabatlari bilan zid kela boshladi. Quldorlik kapitalizmning yanada rivojlanishi yo'lida asosiy to'siq bo'lib qoldi.

Janub planlatorlarining xo'jaliklari paxta yetishtirish va uni Angliyaga chiqarishga ixtisoslashib bordi. Hind paxtasining raqobati tufayli ishlab chiqarish unumdorligini oshirish zaruriyati yangi yerlar hisobidan ekin maydonlarini kengaytirishni taqozo qilar edi.

Plantatorlar AQShga olib kelayotgan arzon ingliz sanoati maxsulotlari uchun bojxona soliqlari miqdorini osbirlashga yo'l qo'ymayotgan edilar. Janubni Angliya fabrikalari uchun xom-ashyo ba'zasiga aylantirilishi mustaqil milliy sanoat, ichki bozorni kengaytIrish va qullarni yollanma ishchilarga aylantirish uchun harakat qilayotgan AQSh burjuaziyasida norozilik tugdirmoqda edi. Burjuaziya bilan plantatorlar o'rtasida temir yo'llar qurilishi borasida ham tortishuvlar mavjud cdi. Burjuaziya o'z manfaatidan kelib chiqib shimoliy-g'arbiy yo'nalishda. quldorlar janubiy yo'nalishda temir yo'llar qurilishini jadal olib borilishini talab qildilar. 50- yillardan quldorlar bilan fermerlar o'rtasida qarama-qarshilik kuchaydi.

Qashshoqlashgan fermerlar va ishchilar g'arbdagi yerlarni mayda uchastkalarga bo'lib berilishini va qulchilikni bekor qilinishini talab qilayotgan edilar. Shuninigdek. janubda negr qullarininig qulchilikka qarshi kurashi ham kuchaydi.

Qulchilik masalasida keskinlikning paydo bo'lishiga quldorlarning mamlakatda siyosiy hukmronligini saqlab qolish uchun yangi shtatlarda qulchilikni joriy qilishga urinishi sabab bo'lmoqda edi.

Shimol bilan Janub o'rtasidagi qulchilik borasidagi ziddiyatlar AQShda fuqarolar ufushi ko'rinishidagi inqilobiy porllashga olib keldi.

Fuqarolar urushining boshlanishi.

Quldorlar butun AQSh hududida qulchilikni yoyishga, yangi yerlarni plantatsiyalarga aylanirishga harakat qilib, qullarni Shimol va G'arbga qochishlarini oldini olmoqchi edilar 1850- yilda AQSh kongressi Yangi Meksika va Yutning keng viloyatlari aholisiga mazkur hududda qulchilikni joriy qilish yoki ma'n qilish masalasini o'zlari hal qilishi huquqini berdi. 1854-yilda AQSh tarkibida ikkita yangi shtatlar Kanzas va Nebraska shtatlari paydo bo'ldi. Kongress bu shtatlarning aholisiga ham qulchilik masalasini o'zlari hal qilishi haqida qaror chiqardi. 1850- yil qonuni va 1854-yilgi Kanzas -Nebraska qonuni Kanzasda fuqarolar urushini boshlanishiga turtki bo'ldi. Quldorlar zudlik bilan Kanzasda qulchilikni joriy qilish maqsadida, qurolli guruhlarini Kanzasga keltira boshladilar. Bunga javoban minglab fermerlar va hunarmandlar bo'sh yerlarni egallash va qulchilikni yoyilishiga yo'l qo'ymaslik uchun Kanzasga kela boshladilar. Kanzas aholisining aksariyati qulchilikka qarshi bo'lishiga qaramasdan, federal hukumat Kanzasni quldorlik shtati deb e'lon qildi.

Kanzas voqealarining ta'siri ostida quldorlar bilan demokratlar partiyasi tarkibida bo'lgan fermerlar bu partiyadan chiqib, qulchilikka qarshi bo'lgan burjuaziya, abolitsionistlar va frisoylemlar -1854-yilda respublikachilar partiyasiga asos soldilar.

1859-yilda Virjiniya shtatida inqilobiy inqirozni yetilishida Jon Braun boshchiligidagi qulchilikka qarshi ko'larilgan qo'zg'olon katta ahamiyatga ega bo'ldi. J. Braun o'zining 32 kishilik harbiy otryadi bilan 1859-yil 17- oktyabrda katta qurol-yarog' • omborini egallash uchun qurolli hujum uyushtirdi. J.Braun ommaviy ravishda ularni qo'llab-quvvatlovchi qullar qo'zg'oloni ko'tariladi, deb umid qilgan edi, lekin bunday qo'zg'olon ko'tarilmadi, yakkalanib qolgan Jon Braun otryadi quldorlar qo'shini tomonidan tor-mor etildi.

1860 yilgi prezident saylovlarida respublikachilar partiyasi advokat Avraam Linkoln nomzodini ko'tarib chiqdi va saylovda g'alaba qildi.

Plantatorlar saylovda boy berganligi va prezidentlik hokimiyalidan mahrum bo'lganliklaridan norozi bo'lib, saylovdan bir necha hafta o'tgach, ya'ni 1860- yil, 20 dekabrda Janubiy Karolina, 1861 yil yanvar-fevral oylarida AQShning yana 7 ta shtati-Florida, Jorjiya, Alabama, Luiziana, Texas, Tenessi va Missisipi itifoqlari chiqqanligini elon qildi. Bu shtatlar markazi Richmond shaxri bo'lgan janubiy konfederatsiya tuzdildi va D. Devisni prezident qilib sayladilar.

D.Devis elon qilgan deklaratsiya konfederatsiyaning asosiy maqsadi, deb alohida shtatlarning erkinliklarini, ularni ajralib chiqishi huquqini himoya qilish, erkin savdo uchun, ko'rashish deb, belgilandi. Shuningdek, deklaratsiya Shimolni qochoq qullarga homiylik qilayotganlikda va yangi yerlarga qullikni yoyishga yo'l qo'ymayotganlikda aybladi.

Linkoln prezidentlik lavozimini qabul qilgandan keyin (1861 yil 4 mart), konfederatsiya qo'shini 12-13 aprel kunlari Chariston yaqinidagi Samter portini egallab oldi. Bunga javoban Linkoln 15 aprel kuni 75 ming kishilik xalq lashkari to'zish uchun safarbarlik e'lon qildi.

Urushning borishi va bosqichlari

Kuchlar nisbatining ustunligi Shimol tomonida edi. Quldorlik shtatlari aholisining soni 12,2 mln. kishini tashkil qilgan bo'lsa, ularning 1/3 qismi negr qullardan iborat edi, Shimol aholisining soni esa 19,2 mln. kishini tashkil etardi. Shimol ko'proq qo'shin to'plash imkoniyatiga ega bo'lib, u, shuningdek , metallurgiya . qurolsozlik sanoati taraqqiyoti, temir yo'llar va savdo floti bo'yicha ham katta ustunlikka ega edi.

Quldorlar asosan o'zlarining vaqtinchalik harbiy ustunliklariga va Angliya. Fransiya va Ispaniya tomonidan yordam berilishiga ishonmoqda edilar. Chunki, AQShning nisbatan zaifroq bo'lgan ikkita davlatga ajralib ketishidan Garbiy Yevropa davlatlari manfaatdor bo'lib. Janubiy G'arbiy Yevropaning to'qimachilik sanoatiga paxta va boshqa agrar xom -ashyo yetkazib beruvchi hudud edi. Shuningdek, Angliya, Fransiya va Ispaniya hukumatlari AQSh quldorlarining isyonidan mustamlakalar bosib olish maqsadida Amerika davlatlarining ichki ishlariga aralashishda ham foydalanmoqchi bo'ldilar. Bulardan tashqari ko'pchilik quldorlar Shimol sanoatining paxta xom-ashyosiga bo'lgan ehtiyqji katla, shuning uchun ular urushni tezroq tugatishga majbur bo'ladi, deb o'yladilar.

1861 yil yozida janubliklar 120 ming kishilik qo'shin tashkil qildi. Bir zarb bilan Shimol qo'shinini tor-mor etib, Vashingtonni egallash bilan urushni tugatmoqchi bo'lgan quldorlar, 1861 yil 2 iyulda Vashington yaqinidagi 30 ming kishilik qo'shini bilan Manossas nomli shahar yaqinida Shimolning

35 ming kishilik qo'shinini maglubiyatga uchratdi. Biroq, janub qo'shini sonining cheklanganligi Vashingtonga hujumni davom ettirishga yo'l qo'ymadi. Har ikkala tomonning tez g'alaba qozonish haqidagi rejalari amalga oshmadi, urush cho'zilib ketdi.

Shimol hukumati 500 ming kishilik qo'shin tuzish uchun yangidan safarbarlik e'lon qildi. Qo'shin tarkibi janubliklarga xayrixoh bo'lgan zobitlar (ofitserlar)dan tozalandi. 1861 yilning oxirlarida Shimol qo'shinining soni 660 ming kishidan oshib ketdi, ammo, bu qo'shinning harbiy tayyorgarlik darajasi past va intizomi juda yomon bo'lib, bu qo'shinning bosh qo'mondoni qilib layoqatsiz general Mak-Klellan tayinlangan edi. U harbiy qo'mondondan ko'ra xalq ommasining norozilik harakatini ko'tarilib ketishidan ko'proq lashvishga tushayotgan yirik kapitalist sifatida ma'lum edi. Mak-KleManning harbiy harakatlari o'zining konservativligi, qat'iyatsizligi va sustHgi bilan ajralib turardi. Janubliklar ro'paradan hujum qilish taktikasidan foydalanayotgan bir vaqtda, Mak-Klellan bunga javoban "bo'g'ib qo'yish rejasi" deb atalgan konfederasiya hududiga hamma tomondan hujum qilib, uni qurshovga olish haqidagi puch rejasini qarshi qo'ydi. U Richmond yonida Shimoi armiyasini sharmandali halokatiga sabab bo'lgan. Richmondda maglubiyatga uchragan Mak-Klellan qo'mondonlikdan tushirildi. Shimol burjuaziyasi urushda tez g'alaba qilishga shoshilmadi, balki, aksincha, urush davomida davlatning harbiy buyurtmalaridan ko'proq foydalanish payida bo'ldi. Urushning birinchi bosqichi 1861-1862 yillarni o'z ichiga oldi. Urushning birinchi bosqichida Janubning kuchi biroz ustun keldi.

Yirik burjuaziyaning ta'siri ostida Linkoln hukumati G'arbdagi yerlarni egallash va qulchilikni bekor qilish haqidagi masalalarni demokratik tarzda hal qilishga jur'at eta olmasdan kelmoqda edi. Chunk! bunga Janub quldorlari bilan uzviy aloqada bo'lgan Shimolning moliyachi-bankirlari va savdogarlari qarshilik ko'rsatib, bu chora tadbirlar quldorlarni xonavayron qiladi va keyin ular olgan qarzlarni to'lay olmaydilar, deb tashvishlanmoqda edi.

Xalq ommasining talabi ostida va harbiy zaruriyat tufayli Linkoln hukumati 1861. yilda mulkdorlarga yangi soliq joriy qildi. Bu qonunga muvofiq isyonchi quldorlarning muiklari konfiskatsiya qilindi. Gomstedlar haqidagi ushbu qonun 10 dollar to'lashga qodir bo'lgan har bir AQSh fuqarosiga G'arbdagi yerlardan 160 akr h'ajmida yer uchastkalari olish huquqini berdi. Besh yil davomida agar mazkur yer sohibi shu yerda yashasa, ushbu yer uchastkasi to'liq uning mulkiga aylangan. 1862 yif 22-sentyabrda hukumat 1863 yilning 1-yanvaridan qulchilikni hech qanday to'lovsiz bekor qilish haqidagi "Ozodlik to'g'risidagi proklamatsiya"ni chiqardi. Linkoln proklamatsiyaga imzo chekar ekan: "Vaqti kelib mening nomim tarixga yoziladigan bo'lsa, faqat shu ishim uchun yoziladi, chunki men butun qalbimni shu ishga bagishlaganman",- degan. Ayni bir vaqtda negrlarni armiya safiga jalb etish haqida e'lon ham chiqdi. AQSh hukumatining bu chora -- tadbirlari buyuk tarixiy ahamiyatga ega edi. Gomstedlar haqida va qulchilikni bekor qilish haqida Linkoln chiqargan qonunlar xaqli ravishda, uni XIX asrning ilg'or burjua-demokralik arboblari safiga qo'shdi.

Mazkur tadbirlardan so'ng ommaviy ravishda 100 minglab aholi armiya safiga kira boshladi. Urush davomida 200 mingga yaqin negr Shimol qo'shini tarkibida qatnashdi. Tezda Shimol armiyasining soni 1,5 mln. kishidan oshib ketdi. Qulchilikni bekor qilish haqidagi va Gomsled haqidagi qonunlarni qabul qilinishi Shimol uchun muhim harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan inqilobiy tadbirlar edi.

Xalq ommasining inqilobiy ko'tarilishi. Linkoln hukumatining inqilobiy urush olib borish siyosati va chora-tadbirlari urush harakatlarini borlshini butunlay Shimol foydasiga o'zgartirib yubordi. Shu bilan bir vaqt da Janubning xalqaro ahvoli yomonlashdi, uning Angliya va Fransiyadan yordam olish umidi chippakka chiqdi. Angliya o'zining ncytralligini e'lon qiHshga qaramasdan konfederasiyaga nisbatan Linkoln hukumati e'lon qilgan blokada siyosatini buzishdan nariga utmadi. Fransiya hukumati esa AQShdagi fuqarolar urushidan foydalanib, Fransiya hukumronligi ostida "Lotin imperiya"sini tuzish maqsadida 1861-1863 yillarda Meksikaga interventsia uyushtirdi, xolos. Biroq konfederatsiya kutganidek Angliya va Fransiya Shimolga qarshi urushda unga ittifoqchilik qilmadi. Shimolga qarshi Angliya va Fransiyaning urushga kirmaganligiga Rossiya imperiyasining AQSh hukumatiga bo'lgan iliq munosabati ham sabab bo'ldi.

1863 yil Polsha masalasida Fransiya va Angliyaning Rossiyaga qarshi urush xavfi paydo bo'lgach, Rossiya g'arbiy Yevropa davlatlariga qarshi turadigan muvozanat kuch sifatida AQSh birligini saqlab qolinishidan manfaatdor edi. O'z navbatida, AQSh hukumati ham Rossiya uchun juda tahqirli va og'ir bo'lgan 1856 yildagi Parij sulhini qayta ko'rib chiqishda Rossiya tomonida bo' lish majburiyatini olgan

edi.

AQShda fuqarolar urushining ikkinchi bosqichi 1863-1865 yillar davomida bo'lib o'tdi. 1863 yilning yozidan urush harakatlarining borishida tub burilish yuz berdi. 1 -3 iyulda Gettisberg ostonasidagi janglardan so'ng, konfederasiya qo'shini mag'lubiyatga uchrab chekina boshladi. Shimolning general Grant qo'mondonligidagi qo'shini 4-iyul kuni konfederasiyaning Missisipidagi bosh istehkomi Viksbergni egalladi. 1864 yil general Grantning umumiy qo'mondonligidagi Shimol qo'shini konfederasiya armiyasini butunlay tor-mor etishga kirishdi. May oyida general Sherman qo'mondonligidagi Shimol qo'shini Jorjiya orqali "Dengizga reydlar" deb atalgan mashhur yurishni boshlab, sentyabrda Atlantani egalladi. 1864 yil oxirida general Sherman qo'shini Savannani olib, Grant qo'mondonligidagi qo'shinlar bilan qo'shilish uchun harakat qildi. Konfederasiya qo'shini halokatli ahvolga tushib qoldi. 1865 yil 3 aprelda general Grant qo'shini Richmondni egalladi. General Li qo'mondonligidagi konfederatsiya qo'shinlari Appomattoks yaqinida qo'rslovga olinib, 1865 yil 9 aprel kuni taslim bo'ldi. Shundan so'ng konfederatsiya qo'shinining qolgan qismlari ham birin-ketin taslim bo'lib, urush harakatlari tugadi.

Urushning yakuni va oqibatlari

Linkoln hukumati isyonchi quldorlar va ularning qo'shinlarini qurolsizlantirish va zararsizlanirish chora-tadbirlarini ko'rmadi. Konfederatsiya harbiylarining deyarli barchasi erkin qo'yib yuborildi. Natijada 14 aprel kuni "Ford" teatrida Teylorning "Bizning amrikalik tog'amiz" komediyasini tomosha qilayotgan prezident A. Linkoln quldorlarga yollangan aktyor Buts, Jon Uilks, Sarro', jami 4 kishi tomonidan o'ldirildi. Bu suiqaqd quldorlarning pinxona ravishda bildirifgan hukumatga nisbatan qarshiligi edi. 1865-1877, yillar davomida Janubiy shtatlarni siyosiy va ijtimoiy jihatdan qayta tiklash (rekonstruktsiya) davrida ayniqsa bu hoi yaqqol namoyon bo'ldi.

1865 yil dekabrda kongress AQSh konstitutsiyasiga negrlar qulligini bekor qiluvchi o'n uchinchi, 1866 yilda esa negrlarga saylov huquqini beruvchi o'n to'rtinchi tuzatishni kiritdi. Konfederasiyaning rahbarlari davlat lavozimlarini egallashdan mahrum qilindi. Quldor plantatorlar negrlarni qullikdan ozod qilishni e'tirof etsalarda, ularga yer va siyosiy huquqlar berishga qarshilik ko'rsatdilar. Negrlarni huquqsiz holda saqlab qolish uchun ularni kaltaklab, terror qiluvchi qurolli bandalar tuzdilar. 1866 yildan boshlab Janubda "Kuklaks-klan" deb ataluvchi maxfiy irqiy-terroristik tashkilotlar to'zila boshlandi. Bu tashkilot a'zolari plantatsiyalarda mehnat qilishdan bosh tortgan negrlarni o'ldirib, ularni siyosiy huquqlardan foydalanishga yo'l qo'ymagan. 1865-1866 yillarda Janubda joriy qilingan "Qora kodekslar" negrlarni yerga egalik qilishni yoki ijaraga yer olishlarini ta'qiq lagan.

Negrlarni olomon qilib o'ldirish bilan shug'ullanuvchi "Lynch sudlari" keng faoliyat yuritdi.

Janub plantatorlarini ilgarigi hukumronlik holatini tulik saqlab qolishga urinishi nafaqat negrlarni, balki, butun mamlakat ishchilari, fermerlari va hunarmandlarining keng ommasida norozilik uygotdi. Shimol burjuaziyasi yangidan inqilobiy ko'larilish xavfini sezib Janubni qayta tiklash dasturini "yuqoridan" amalga oshirishga kirishdi.

Janubni qayta tiklash burjua demokratik inqilobining davomi bo'lib, u federal qo'shin yordamida amalga oshirildi. Janubni qayta tiklash davomida ijroiya hokimiyat o'sha shtatlarni egallab turgan federal qo'shin nazorati ostida bo'ldi.

AQSh fuqarolar urushi davomida va undan keyin ham tajovuzkor tashqi siyosat yuritdi. 1862-1864 yillarda Shimol burjuaziyasi kapitalistik mamlakatlar bilan birgalikda Xiloyda taypinlar qo'zg'olonini bostirishda ishtirok etdi. 60-yillarda AQSh Yaponiyaning ichki ishlariga aralashib, tengsiz shartnomalar imzolashga majbur qildi. Fuqarolar urushida g'alaba qilgan Shimol burjuaziyasi Xitoy, Yaponiya va Alyaskaga nisbatan ekspansiya siyosatini davom elUrdi.

1867 yilda Tinch okeanining shimoliy qirg'oqlarida chor Rossiyasining zaiflashib qolganfigidan foydalangan AQSh Rossiyadan arziyas 7,2 mln. dollarga Alyaska yarim oroli va Aleut orollarini sotib oldi.

AQSh fuqarolar urushi juda muhim oqibatlarga sabab bo'ldi. Urushda Shimolning g'alaba qilishi natijasida AQShning birligi saqlab qolindi. Prezidentlik lavozimi, senat va oliy sud burjuaziya nazoratiga o'tdi. Plantatorlar davlatdagi siyosiy hukumronlik mavqeyidan mahrum bo'ldilar. Fuqarolar urushining asosiy ijtimoiy muvaffaqiyali -qulchilikni bekor qilinishi va gomsted haqidagi qonunlar bo'ldi. Urush natijasida mamlakatda fermerlik, ya'ni qishloq xo'jaligida kapitalistik taraqqiyotning "Amerikacha yo'li" g'alaba qildi. U ichki bozorni kengayishiga g'ov bo'lib turgan barcha to'siqlarni bartaraf etib, sanoat va qishloq xo'jaligini jadal rivojlanishi uchun turtki berdi. Mamlakat milliy birligini saqlab qolinishi, AQSh

hukumron doiralalarining bosqinchilik siyosatini yuritishiga qo'l keldi. AQSh aholisi-271,6 mln. Yer yo'zi aholisining 5 %ni tashkil etadi. Hududi – 9363 ming km. kv. kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Prezidenti-Barak Obama. 50 ta shtatdan iborat.

Islom Karimov: "Keyingi yillarda qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarishda AQSh bilan hamkorlik kuchaymoqda. Biz paxtachilikda ekish, ishlash va terish texnikasini chetdan olib kelish yo'lini tuta olmaymiz. Chunki dunyoda bunday mashinalarni faqat AQSh va O'zbekiston ishlab chiqaradi, xolos".

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Amerikadagi ingliz mustamlakalarining ahvoli.
2. Mustaqillik uchun kurashning sabablari.
3. Shimol va Janub o'rtasidagi ziddiyatlar.
4. 1765 yilgi gerb solig'i va uning mohiyati.
5. Ingliz mollarining boykot qilinishi
6. 1- va 2- kontinental kongresslar.
7. J. Vashington va T.Jeffersonlar faoliyati
8. Mustaqillik urushining boshlanishi.
9. Boston "Ozodlik lageri".
10. Urushning borishi.
15. Mustamlakalarning ajralib chiqishi.
16. "Mustaqillik deklaratsiyasi".
17. AQSHning 1787 yilgi Konstitutsiyasi.
18. Mustaqillik urushining yakunlari va ahamiyati AQSH iqtisodiy taraqqiyotida ishlab chiqarish usullarining o'rni va ahamiyati.
19. Kapitalizm rivojiga ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi, immigratsiya va ekspansiya kabi omillarning ta'siri
20. AQSH hukumatining mahalliy aholi - hindularga munosabat masalalari.
21. AQSH ishchilarining norozilik harakatlari va ularning asosiy talablari.
22. Abolition harakat, uning mazmun va mohiyati.
23. "Er osti temir yo'liari jamiyati" ning ish faoliyati.
24. "Missuri kelishuvi"ning mohiyati.
25. Siyosiy partiyalarning tashkil topishi.
26. AQSH tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.
27. "Monro doktrinasini"ning e'lon qilinishi va uning asosiy mazmuni.
28. AQShda fuqarolar urushining asosiy sabablari.
29. "Kanzas-Nebraska" qonunining tashkil qabul qilinishi va mohiyati.
30. Respublikachilar partiyasining tashkil topishi.
31. Jon Braun qo'zg'olonining asosiy sabablari.
32. 1860 yilgi prezident saylovining AQSh tarixidagi o'rni va ahamiyati.
33. "Janubiy konfederatsiya" ning tuzilishi.
34. Fuqarolar urushining birinchi bosqichini borishi va uning natijalari.
35. Urushning borishida tub burilish.
36. Urushga Yevropa mamlakatlarining munosabatlari.
37. Fuqarolar urushining ikkinchi bosqichining borishi va uning yakunlari.
38. Janubni qayta tiklash davrida AQSh.
39. Urush davomida va undan keyin AQShning tashqi siyosati.
40. AQShda fuqarolar urushining oqibatlari va tarixiy ahamiyati.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

- Karimov I. A. Tarixiy xotirasizkelajak yo'q". T., "Sharq", 1998.
Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998.
Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008.
Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009.

3. Xrestomatiya po istorii mejdunarodnix otnosheniy. M.,
4. K stoletiyu Grajdanskoy voyni v SSHA \\\ Sb.statey. Pod red. A.V.Efimova i L.I.ZubkovaM, 1961.
5. Efimov A.V.SSHA. Puti razvitiya kapitalizma: Doimperialisticheskiy period. M., 1969.
6. Manikin A.S. Istoriya dvuxparteynoy sistemi SSHA (1789-1980). M., 1981.
7. Zaxarova M.N. Narodnoe dvijenie SSHA protiv rabstva: 1831-1860. M., 1965.
8. Allen Dj. Doktrina Monro. M., 1959.
9. Potokova N.V. Agressiya SSHA protiv Meksiki 1846-1848. M., 1962.
10. Indeytsi Ameriki: Etnograficheskiy sbornik. M., 1955.
11. Novaya istoriya stron Evroni Ameriki M., 1998.
12. Xrestomatiya po novoy i noviyshey istorii. M., 1960.
13. Jahon tarixi. T., "Meros", 2004.
14. Yangi tarix. 11-IIIq. T., "O'qituvchi". 2004.
15. Xrestomatiya po novoy istorii. [Pod red. A.A.Gubera i dr. M., 1969.
16. V.V.Sogrin. Osnovateli SSHA: istoricheskie portreti M., "Nauka", 1983.
17. Foster U.Z. Negrityaiskiy narod v istorii Ameriki, M., 1955.
18. Foster U.Z. Ocherk politicheskoy istorii Ameriki. M., 1955.
19. Bimba A. Istoriya amerikanskogo rabocheho klassa. M., 1930.
20. Zaslavskiy D. Ocherki istorii Severo-Amekanskix Soedinennii Shlatov XVIII-XX v.v. M., 1931.
21. Zubok L.I. Ocherki istorii S.Sh.A. M. 1956.
22. Foner F. Istoriya Ameriki. M., 1968.
23. Foner F. Istoriya rabocheho dvijenie Ameriki. M., 1969.
24. Yangi tarix. T., "O'qituvchi" 1969. 11. Farmonov K v.b. Jahon tarixi T., 2004.
25. Tursunov X. Amerika prezidentlari. T., "Istiqlol", 1976.
26. Drayzer T. Amerika fojeasi. 1-2 qism.T., 1976.

Mavzu: XVIII –XIX asrlarda Fransiya

Reja:

1. Inqilob arafasida Fransiya.
2. Inqilibning boshlanishi, borishi va bosqichlari.
3. Yakobinchilar diktaturasi
4. Termidorchilar Konventi va Direktoriya davrida Fransiya.
5. Napoleon Bonapartning xokimiyat tepasiga kelishi.
6. Fransiyaning bosqinchilik urushlari.
7. Napoleonning ichki siyosati.
8. Yevropa davlatlarining Fransiya qarshi urush harakatlari.
9. Napoleon imperiyasining inqirozi.
10. Ikkinchi imperiya davrida Fransiya

Tayanch iboralar:

Feodal mustabid tuzumning inqirozi. "Notabllar majlisi". Bosh shtatlarning chaqirilishi. Millat majlisi. Ta'sis majlisi. Bastiliyaning olinishi. "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi". 1791 yilgi konstitutsiya. Varenn inqirozi. Kordelerlar. Yakobinchilar. Jirondistlar. Felyanlar. Montanyarlar. Qonun chiqaruvchi majlis. 1792 yil 10 avgustdagi xalq qo'zg'oloni. Millat Konventi. Respublikaning e'lon qilinishi. Yakobinchilar diktaturasi. Termidorlar Konventi. 1795 yilgi konstitutsiya. Direktoriya. "Grakx" Babyov va "Tenglar jamiyati". Fransiyaning bosqinchilik urushlari. 18-bryumer davlat to'ntaruvi. Napoleon Bonapart. Avstriya urushi. Italiyaning taslim bo'lishi. Misr urushi. Direktoriya. Konstilutsiya va 1-Konsullik. "Napoleon kodeksi". Monarxiyaning tiklanishi va uning xarakteri. "Le shape!e" qonuni. Berlin dekreti. "Kontinental blokada". Tif'zit sulhi. Erfurt muzokaralari. Buxarest sulhi. Rossiyaga hujum. 6-koalitsiya. "Xalqlar

jangi". Shomon shartnomasi. Vena kongressi. Legitimizm. Napoleon tomonidan Fransiya taxtini qayta egallanishi. 7-koalitsiya. Muqaddas Elena surguni. Muqaddas Ittifoq.

Quyi palata. Qonun chiqaruvchi korpus. Frantsuz banki. Yer krediti banki. Partsell xo'jaligi. Parijdagi butunjahon ko'rgazmasi. Napoleon III ning "Jamoatchilik ishlari". Qrim urushi va Fransiyaning xalqaro mavqei. Fransiya-Avstriya-Italiya urushi. Angliya bilan tuzilgan savdo shartnomasi. Liberal islohotlar. Fransiya-Rossiya munosabatlari. Meksikaga qilingan "Salib yurishi". "Politsiya sotsializmi". "Marianna jamiyati". Blankichilar partiyasi. Le Shapele qonuni. Imperiyaning inqirozi.

Inqilob arafasida Fransiya

XVIII asrning 80-yillari oxirida Fransiya feodal-mustabid tuzumning inqirozi keskinlashdi. 1787-1789 yillarda savdo-sanoat inqirozi yuz berdi. Bu inqirozni 1776 yilda Angliya bilan imzolangan shartnoma keltirib chiqardi. Bu shartnomaga ko'ra, fransuz bozorlari ancha arzon narxdagi ingliz mahsulotlari uchun ochib qo'yildi. Mamlakatning ishlab chiqarishida turg'unlik davri bo'lib, ishsizlar soni keskin oshdi. 1788 yilgi qahraton qish tufayli qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligi tushib, g'lla tanqisligi natijasida oziq-ovqat mahsulotlarining narxi oshib ko'ndi. Xalq ommasining ahvoli og'irlashdi.

Hukumatning ushbu inqirozdan chiqish uchun layoqatsizligi ro'y-rost ma'lum bo'ldi. Davlat qarzi 1,5 milliard frankni tashkil qilib, 1789 yilga kelib, keyingi 14 yil ichida u 3 barobar oshdi. Monarxiya moliyaviy bankrotlik bo'sag'asiga kelib qoldi. Bosh nazoratchi Tyurgo soliqlarning bir qismini imtiyozli tabaqalarga ham joriy qilishni taklif qildi. Hatto toifalarga qaramasdan umumiy yer solig'ini solish to'g'risida loyiha ishlab chiqildi.

1787 yil davlatning ikki imtiyozli tabaqalari - dvoryanlar va ruhoniylardan yordam olishga umid qilgan monarxiya ularning orasidan saylab olingan vakillar - notabllar majlisini chaqirdi. Ammo ular qirol tomonidan taklif qilingan islohotlarni tasdiqlashdan bosh tortdilar va qirolning hokimiyatini o'zlarining manfaati yo'lida cheklashga urinib, Bosh shtatlarni chaqirishni talab qildilar. 1614 yildan beri Bosh shtatlarning chaqirilmay kelinishiga sabab 3-tabaqaning siyosiy talablar bilan chiqishi edi. Bosh shtatlarning chaqirilishi, 1789 yilning bahoriga tayinlandi. Shahar va qishloqlarda tabaqalarning talablariga mos ravishda deputatlarining nakazlari ishlab chiqila boshlandi. Ko'pchilik dehqonlarning nakazlarida siyosiy talablar qo'yilmadi, ammo ularda "ahmoqona odatlarni" bekor qilish, soliqlarni kamaytirish kabi talablar mavjud edi. Savdogarlarning nakazlari asosan o'rta asrlardan beri mavjud bo'lgan sanoat reglamentatsiyasini bekor qilishni, barcha tabaqalarni bir xilda soliqqa tortishni va qisman qirol hokimiyatini cheklashni talab qilmoqda edi. Hatloki, xalq orasida Bosh shtatlar tomonidan qabul qilinishi kutilayotgan "konstitutsiya" so'zi ommalashdi.

Qirol Lyudovik XVI (1774-1792 yil) bir qancha yon berishlarga majbur bo'ldi. Mamlakatning moliya, sanoat va savdo bo'yicha bosh nazoratchisi lavozimiga sanoatchi moliyachilar orasida tashkil bo'lgan mo'tadil islohotlar tarafdori, shveytsariyalik bankir Nekkier taklif qilindi.

Saylovchilarning sonidan kelib chiqqan holda, 3-tabaqa deputatlarining soni 2 marotabaga oshdi. Mamlakatning 25 yoshga yetgan, doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va soliqlarni to'lab turgan barcha erkak aholisi saylash huquqiga ega edi. Ovoz berish avalgidek tabaqalar asosida bo'lishi rejalashtirildi. Fransiya aholoni mulkiy ahvoriga qarab emas, balki ular foydalanayotgan imtiyozlarga ko'ra tabaqalar bo'yicha bo'lish qabul qilingan. Birinchi va ikkinchi tabaqalar uchinchisiga qaraganda ikki barobar orliq o'rinlarga ega edi.

Inqilobning boshlanishi, borishi va bosqichlari

1788 yil bahoridan kuchli xalq harakatlari boshlandi. Ochlik isyonlari, senyorlarning yerlariga hujum qilish, soliq idoralari vayron qilish va ishchilarning chiqishlari odatiy tus oldi. Ularning orasida eng yirigi Parijda eng boy korxona egasi Revel'yonning ish haqini qisqartirishga bo'lgan urinishiga qarshi ishchilarning chiqishlari bo'ldi. Ishchilar uning uyi va manufakturasini vayron qilib, hukumat qo'shini bilan Jang qildilar.

Matbuot senzura ozod qilindi. Ko'plab broshyuralar, pamfletlar dunyo yuzini ko'rdi. Ularning mualliflari asosan liberal dvoryanfarga yoki 3-tabaqaga mansub edi. Shunday broshyuralardan eng mashhuri abbal Siyesning "Uchinchi tabaqa nima?" nomli broshyurasi edi. Unda dvoryanlar va uchinchi tabaqa ilg'or kishilarining fuqarolar tengligi, liberal huquqlar va ozodlik haqida, monarxiyani vakillik organi bilan cheklashdan iborat dasturi aks etgan edi.

1789 yil 5-mayda Versalda Bosh shtatlar chaqirildi. Unda birinchi tabaqa

ruhoniylar 291 deputatni (ularning 200 ga yaqini islohotlar tarafdori edi) tashkil qildilar, ikkinchi labaqa - dvoryanlar 270 deputatga ega bo'lib, ularning 90 kishisi liberal kayfiyatda edi. Uchinchi tabaqa 578 deputatga ega bo'lib, ularning aksariyati yuristlar, ziyoliSardan chiqqan kishilar, savdogarlar, bankirlar va yer egalari edilar. Ammo ularning orasida, ba'zan 4-tabaqa, deb ataluvchi, dehqonlar va shahar kambag'allari yo'q edi. Uchinchi tabaqa deputatlari vakilhkning tabaqaviy printsiptini rad etib, 17-iyun majlisida o'zlarini Millat majlisi - butun millatning nomidan ish ko'ruvchi vakillar, deb c'lon qildi (bu davrga kelib birinchi va ikkinchi tabaqalardan 100 ta deputat 3-tabaqaga qo'shildi). U 490 kishidan 400 tasining ovoz berishi bilan qabul qilindi. Majlis agar u tarqatib yuboriladigan bo'lsa, soliqlarni to'lamaslikka chaqirdi. Qirol majlislar zalini yopish to'g'risida buyruq bcrib, himoya uchun harbiy otryad chaqirdi. 20-iyun kuni ertalab Millat majlisi deputatlari deputat Mirabo chaqirig'iga ko'ra konstitutsiya ishlab chiqilmaguncha tarqamaslikka so'z berdilar. 27 iyun kuni qirol imtiyozli tabaqalarning boshqa deputatlariga ham Millat majlisiga qo'shilishga rozilik berishga majbur bo'ldi, 9 iyul kuni mavjud 3 ta tabaqalardan tashkil topgan Millat majlisi o'zini "Ta'sis majlisi" deb e'lon qildi.

Boshlangan inqilobni to'xtatish uehun qirol Parijga yollanma qo'shin kiritdi. 11 iyul kuni Nekker vazifasidan ozod qilindi. 12-13 iyul kunlari xalqning qo'shin bilan harbiy lo'qnashuvlari davom etdi. Xalq aslaha omborlariga hujum qilib, qurollandi.

1789 yil 14 iyul kuni ertalab nogironlar uyiga bostirib kirgan xalq u yerdagi aslaha omboridan qurollarni olib, despotizmning ramzi bo'lib qolgan siyosiy qamoqxona vazifasini o'tovchi Bastiliya qal'asiga yurish qildi. Parijhc olomon va franlsuz gvardiyasining askarlari Bastiliya qal'asini zabt etdilar. Qo'g'olonchilarning qurollarni topshirish talabiga rad javobini bergan qal'a komendanti de Lonening boshi tanasidan judo qilindi. Bastiliya vayron qilindi. Bastiliyani ishg'ol qilishda qalnashganlarning soni 662 kishi bo'lib, ularning 426 tasi savdogarlar va hunarmandlar, 149 tasi xalfalar, shogirdlar va ishchilar, 77 tasi askarlar, 4 tasi kommersant, 5 tasi xizmatchi va 1 tasi o'qituvshi bo'lgan. Bastiliya olingandan so'ng Fransiyada ommaviy xalq harakatlari ko'tarildi. Xalq eski hokimiyat organlarini ag'darib, xalq militsiyasini tashkil qildi. Dehqonlar sen'orlar torrib olgan jamoa yerlarini qaytadan egallab oldilar. Parij meri qilib Baye, Parij Miiliy gvardiyasining qo'mondoni qilib Lafayet saylandilar. Amalda Fransiyada mustabid tuzum ag'darildi, dvoryanlarning emigrasiyasi boshlandi. Siyosiy hokimiyat to'liq Ta'sis majlisiga, ya'ni 3-tabaqa qo'ligao'tdi.

Xalq harakatining keng avj olganligidan vahimaga tushgan Ta'sis majlisi 1789 yilning avguslida 2 ta muhim qonun qabul qildi. Bu qonunlarga ko'ra tabaqalarning imtiyoz va ustunliklari, feodal huquqlar. cherkov dcsyatnasi (ushr) bekor qilindi va davlal soliqlarini lo'lash uchun qonun oldida hammaning o'zaro tengligi e'lon qilindi. Ammo barcha senzlar, yer bilan bog'Hq majburiyatlar amalda qoldi. Bu dekretlar feodal munosabatlarning tugatilishiga asos bo'lib, dehqonlarga yon berish siyosatining boshlanishi edi. Shu bilan birga Ta'sis majlisi dchqonlarning ancha qat'iy talablar bilan chiqayotgan qismiga qarshi jazo otryadlarini ham yubordi. Har qanday imtiyozlar va erkinliklar bekor qilindi. Norozi dehqonlar va shahar plebeylarini tinchlantirish maqsadida kelajakda konstitutsiyani joriy qilishga qaror qilindi.

1789 yil 26 avgustda majlis katta inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjat- *^LInson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasr'ni qabul qildi. Deklaratsiya xalq suvereniteti prinsipini, qonun oldida barchaning tengligini, insonning xavfsizlik va jabr - zuhnga qarshilik ko'rsitish huquqini, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va vijdon erkinligi, "xususiy mulkchilik huquqining muqaddasligi va daxlsizligi" e'lon qilindi. So'zsiz "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"ning tayyorlanishiga 1776 yil 4 iyulda qabul qilingan "'AQSHning mustaqillik deklaratsiyasi" katta ta'sir qildi.

Inqilob yuksalaverdi, ammo Fransiyaning iqtisodiy ahvoli yaxshilanmadi. 5 oktyabr kuni 20 ming kishidan iborat aholi Versaldagi qirol rezidensiiasi va Ta'sis majlisiga tomon yo'l oldi. Qirolning "Deklaratsiya"ni va avgustdagi dekretlarni imzolamaganligi qirolga nisbatan ommaviy ishonchsizlikni tug'dirdi. Ularning talabi bilan oktyabr oyida qirol va Ta'sis majlisi Parijga ko'chdi. Shunday qilib, qirol xalqning nazorati oslida qolib, deklaratsiya va avgust dekretlarini tasdiqlashga majbur bo'ldi. 5-6 oktyabrlarda bo'lib o'tgan bu xalq harakati inqilobning dastlabki muvaffaqiyatlarini mustahkamladi va uning keyingi laraqqiyoti uchun sharoit yaratdi.

Ta'sis majlisida o'zining mavqeini mustahkamlab olgan sanoatchilar va liberal dvoryanlar islohotlarni yanada davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunda Amerika inqilobining qatnashchisi markiz Lafayet va graf Mirabolar katta rol o'yhadilar. Ammo majlisda yangi kuchlar paydo bo'ldiki, ularning ichida yosh advokat Maksimilian Robesp'yer (1758-1794) va uning tarafdorlari ham bor edi.

Majlis 1790-1791 yillardagi fuqarolarning tengligi printsipiga asoslanib, tabaqalarning imtiyozlarini, dvoryanlik titullarining meros o'tishini, dvoryan gerbi va umuman dvoryan imtiyozlarining barchasini bekor qildi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning erkinligi e'lon qilinib, sex tizimi va unga joriy qilingan davlat reglamentasiyasi tugatildi. Ichki bojxona soliqlari va Angliya bilan imzolangan 1786 yilgi savdo sharlnomasi bekor qilindi.

1790 - 1791 yillarda ishchilarning ish tashlashlari kuchayib, ishchi itlifoqlari paydo bo'la boshlagan bir vaqtda Ta'sis majlisi norozilik harakati boshliqlariga qarshi sud qilinmasdan o'lim jazosiga mahkum qiluvchi harbiy qonun chiqardi. 1791 yil 14 iyulda tashkilotlar va ish tashlashlarni ta'qiqlovchi "Le-Shapele" qonuni (uni taklif qilgan deputat nomi bilan atalgan) qabul qilindi. Bu qonun 1864 yilda bekor qilindi.

Dehqon qo'zg'olonlarining yangidan ko'tarilishi Ta'sis majlisini agrar masalaga qaytishga majbur eldi. 1789 yil 2 noyabr dekreti bilan majlis cherkov yerlarining ko'pchiligini konfiskatsiya qildi. Millat mulki, deb e'lon qilingan bu yerlar sotuvga qo'yildi. Ammo yerlar baland narxda sotilganligi sababli ularni, asosan, burjuaziya va o'ziga to'q dehqonlar sotib oldilar. Kambag'al dehqonlar ularni sotib olish imkoniyatiga ega emas edilar.

1791 yil sentyabrda Ta'sis majlisi konstitutsiya ishlab chiqdi. Unga ko'ra mamlakatning barcha fuqarolari saylov huquqiga ega bo'lgan "aktivlar" va bunday huquqqa ega bo'lmagan "passivlar" deb ikki guruhga bo'lindi. Aktiv fuqarolarga 25 yoshga etgan, mulkka ega bo'lgan va o'rtacha maoshning 3 kunligi miqdorida to'g'ri soliqni to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan barcha erkaklar kirdilar. Mamlakatning 9 million kishilik erkaklaridan 4,3 million! saylov huquqiga ega edi. Saylovlar 2 bosqichda bo'lib: dastlab 50 ming kishilik saylovchilar saylanar, so'ngra ularning orasidan deputatlar saylanar edi. Saylovchilar o'rtacha ish haqining 3 kunligi miqdorida (1,5-3 Hvr) emas, balki 10 kunligi miqdorida, deputallikka nomzodlar esa 1 kumush marka (52 livr) soliq to'lashi va yana yer mukiga ega bo'lishi shart edi. Biroq mazkur konstitutsiya joriy qilinmadi, shuningdek ularda qulchilik ham bekor qilinmadi.

Fransiyada konstitutsion monarxiya o'rnatildi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat 1 palatali qonun ehiqaruvchi majlisga, ijro etuvchi hokimiyat esa monarx va u tayinlaydigan ministr'larga tegishli edi. Qirol "Ta'qiqlovchi veto" huquqiga, ya'ni majlis ko'rib ehiqqan qonunlarni vaqtincha rad etish huquqiga ham ega edi. Fransiya 83 ta departamentga bo'linib, ularda bokimiyatni saylanuvchi kengashlar va direktoriyalar boshqargan. Shahar va qishloqlarda esa saylanuvchi munisipalitetlar boshqargan.

Shunday qilib, Ta'sis majlisi yuridik jihaidan mulkdorlarning ijtimoiy va siyosiy hukmronligini rasmiylashtirdi. Inqilob lagerida ijlimoiy-siyosiy tabaqalanish boshlandi. Xalq ommasi va burjuaziyaning ancha radikal bo'lgan qatlamlari inqilobni davom ettirishga, burjuaziyaning yuqori doiralari va jiberal dvoryanlar o'z maqsadiga erishgan bo'lib, inqilobni to'xtalaishga harakat qildilar.

Bunday bo'linish holati qirolning qochishga urinishi bilan bog'liq bo'lgan Varenn. inqirozi davrida yaqqol namoyon bo'ldi. Qirol Lyudovik XVI oilasi bilan Parijdan Fransiyaning FransiyaHk emigrantlar yig'ilgan Varenn shahriga qochishga qaror qildi. Fransiyaqa yaqin bo'lgan Belgiya hududida Avstriya armiyasi saqlanayotgan bo'lib, qirol armiyasi uning madadiga umid qilgan edi. Ammo qirol oilasini olib ketayotgan izvosb dastlabki pochta bekatida tanilib, qo'riqchilar qurshovida Parijga qaytarildi. Aynan shu voqe'lik inqilobni himoya qilish uchun ko'ngilli otryadlarni tashkil topishiga sabab bo'ldi. Parij aholisi qirolni xoinlikda aybladi.

Xalq ommasi va liberal dvoryanlarning hokimiyatda turgan mo'tadil monarxiyachi - konstitutsiyachilarning bir qismining noroziligi siyosiy klublarning tashkil topishida ko'rindi. Bunday klublar jumlasiga felyanlar, yakobinchilar, kordelyerlar va boshqalar kirar edi. 1791-1792 yillarda ancha demokratik bo'lgan klublardan biri bu kordelyerlar klubi edi. Bu klub asosan hunarmandlar va boshqa passiv fuqarolarni birlashtirgan bo'lib, uning tarkibiga Marat, Danton, Demulen va boshqalar kirgan edi. Kordelyerlar klubi a'zolari -monaxlari beliga arqon bog'lab yuruvchi (arqon fransuzcba "corde") kordelyerlar monastirida yig'ilishar edi. Yakobinchilar klubi ham katta ta'sirga ega edi. Bu klub a'zolari Avliyo Yakob monastirida yig'ilishar edilar. Klub turli orientalsiya tarafdorlarini birlashtirgan edi. Klubning provinsiyalarda filallari mavjud edi.

1791 yilda filiallarning soni 400 dan ziyod bo'lib, keyinchalik ularning soni 1000 dan oshib ketdi. Mirabo va Robes'yerlar ham shu klub a'zolari edilar. 1791 yildagi bo'linishdan so'ng yakobinchilar klubidan felyanlar, deb ataluvchi konstitutsion monarxiyachi siyosiy klub ajralib chiqti. Bu klubning nomlanishi shu nomdagi diniy ordenning noraidan olingan bo'lib, klub a'zolari bu ordenga tegishli monastirda yig'ilish o'tkazar edilar. Bu klubning rahbarlari M.Lafayet, A.Barnav, A.Lamet edilar.

Inqilob ko'plab ro'znomalarni paydo qildi. Ayniqsa, Marat lomonidan nashr qilinayotgan "Xalq do'sti" deb nomlangan ro'znoma katta nufuzga ega edi.

Fransiyadagi inqilob Yevropa davlatlarining monarxlari va dvoryanlarining g'azabiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Avstriya va Prussiya hukumatlari inqilobiv Fransiyaga qarshi harbiy ittifoq tuzdilar. Qirol va uning tarafdorlari urush chiqarishga harakal qilib, inqilobdan qutulishning yagona yo'lini urushda ko'rdilar. Felyanlarning bir qismi, shuningdek, Robes'pyer. Marat va yakobinehilarning ko'pchiligi urushga qarshi edilar. Fransiyaning Jironda departamentidan chiqqan (shuning uchun ular jirondistlar deb atalgan) asosan, savdo sanoatchilar Ta'sis majlisida katta ta'sirga ega bo'lib, ular ham urush tarafdorlari edilar. Urush tarafdorlarining qo'li baland keldi. 1792 yil 20 aprelda Fransiya Avstriyaga qarshi urush e'lon qildi. Bu inqilobiy Fransiyaning monarxiyachi Yevropaga qarshi urushi edi. Urushning dastlabki davri Fransiya uchun muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Chunki qo'shinning yomon qurollanganligi, yaxshi tashkil qilinmaganligi va ko'pchilik ofitserlarning emigratsiyada ekanligi bunga sabab bo'lgan edi.

1791 yil 1 oktyabrida konstitutsiya qabul qilingandan so'ng Qonun chiqaruvchi majlis ochilgan edi. Uning tarkibi Ta'sis majlisinikidan farq qilib, majlis a'zolarining 10 foizini yirik moliyachilar, kema egalari, quldor savdogarlar, plantatorlar, yirik yer egalari, sanoatchilardan iborat—felyanlar partiyasi tashkil qilindi. Bu partiya monarxiyaning va 1791 yilgi konstitutsiyaning saqlab qolinishidan manfaatdor edilar. Majlisning so'l qismida yakobinchilar klubi bilan bog'liq deputatlar tashkil qildi. Tezda bu guruh ikkiga bo'linib ketdi. Ulardan biri jirondistlar, deb atalib, unga asosan janubiy, janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy deparlamentaentlarning jamiyatni qayta tashkil qilishdan manfaatdor bo'lgan savdogarlari, sanoatchilari va yangi yer mulki egalari kirdilar, Majlisning o'ta so'l guruhini montanyarlar deb nomlanuvchilar tashkil qildi. Ulamirig bunday nomlanishiga sabab, ularni majlislar zalida eng yuqori o'rinlarni egallaganligi (frantsuzcha "montana"- "tog'") sabab bo'lgan edi. Ommaviy inqilobiy ko'tarilish sharoitida Parijning 48 ta shunday sektsiyalari jamiyat hayotida faol qatnasha boshladilar. Aynan ular 1792 yil 10 avgust inqilobini, tayyorladilar. Avgust boshida esa monarxiyani ag'darishga jiddiy tayyorgarlik ko'rdilar.

1792 yil 25 iyulida Avstriya va Prussiya monarxlari nomidan gersog Braunshveyg Parij aholisiga murojaat qilib, qirolga bo'ysunishni talab qildi. Buhga javoban 48 ta sektsiyadan 47 tasi Qonun chiqaruvchi majlisdan Lyudovik XVI ni taxtdan ag'darishni va millat konventini ehaqirishni talab qildi. Ammo majlis ularning talabini bajarmadi. 10 avgust tunda qo'zg'olon boshlandi. Shunday qilib, Parijning qo'zg'olonchilar kommunasi tashkil qilindi va hokimiyatni o'z qo'lga oldi. Shu kuni qo'zg'olonchilar Tyuliridagi qirol saroyini zabt eldilar. 13 avgust kuni qirol oilasini bir vaqtda qamoqxona vazifasini o'tovchi Tampl qasriga ko'chirdilar. 11 avgust dekreti bilan fuqarolarni aktiv va passiv guruhlariga ajratish bekor qilindi. 21 yoshga yetgan barcha erkaklar saylash huquqiga ega bo'ldilar. Shuningdek, ovoz berish huquqiga bir joy da bir yildan kam bo'lmagan vaqt mobaynida doimiy yashagan 25 yoshga etgan barcha erkaklar ega bo'ldilar. 26 avgustda qasamyod etmagan ruhoniylarni Fransiyadan haydash to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu yilning avgustida emigranllarning va jamoa yerlarini qishloq jamoasi o'rtasida sotish to'g'risida dekretlar qabul qilindi. Ammo bu dekretlar amalda joriy qilinmadi. 25-28 avgustdagi dekretlar feodal majburiyatlarni hech qanday to'lovsiz bekor qildi. Konstitusion monarxiya tarafdorlari hokimiyatdan mahrum qilindilar. Parij kommunasi jirondistlar va montanyarlarning katta qarshiligiga qaramasdan Parijdagi shahar hokimiyatining organi bo'lib qolaverdi.

19 avgust kuni Prussiya armiyasi Fransiya chegarasiga hujum qilib, Verden va Longvi shaharlarini egalladi. 20 sentyabr kuni Valma yaqinida inqilobiy armiya Prussiya qo'shinining hujumini qaytarib, uni chekinishga majbur qildi. Shu davrda Konvent va armiya qo'shni davlatlarning xalqlariga yordam berishni o'z oldiga maqsad qJHb qo'ydi. "Kulbalarga tinchiik - saroylarga urush" shiori qabul qilindi. Bu shior Fransiya qo'shinlari egallagan hududlarda krepstnoy huquq bckor qilinishi, xalq suvereniteti e'lon

qilinishini anglatar edi. Inqilobiy armiyaning g'alabalari natijasida Savoyya!, Nissa, Reynning so'l qirg'og'i va Belgiya, Fransiya qo'shib olindi. Urushda Angliya betaraf turdi. Fransiyaning muvaffaqiyatlaridan so'ng Belgiya Fransiya respublikasining raqiblari tomoniga o'tdi. Keyinchalik Fransiyaning harbiy muvaffaqiyatlari frantsuzlarga qarshi ko'p sonli ishtirokchilardan iborat koalitsiyaning shakllanishiga sabab bo'ldi.

1792 yilning 20 avgustida Qonun ehiqaruvchi majlisning yig'ilishidan so'ng tezda Millat Konventi chaqirildi. Konventga Fransiya 749 deputat, mustamlakalardan esa 34 deputat saylandi. Deputatlar orasidan, asosan, mulk egalari ko'pchilikni tashkil qilib, xalq vakillari 40 kishi atrofida edi. Konvent tarkibida 155 kishiga yaqin deputatlar montanyarlardan iborat bo'lib, ular qirolni sud qilishni va boshlangan radikal islohotlarning davom etishini talab qildilar. 21 avgustda qirol hokimiyatining tugatilganligi to'g'risida Konvent qaror qabul qildi. 1792 yil 22 sentyabrda Fransiya respublika deb e'lon qilindi.

1792-1793 yillarning qishida Fransiya shahar va qishloqlaridagi xalq ommasi inqilobni davom ettirishni talab qildilar. Xalq ommasining ahvoli nihoyatda og'ir edi. Non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga qat'iy narxni belgilash to'g'risida Konventga ko'plab talabnomalar tusha boshladi. Parij kommunasi shahar byudjetidan mablag' ajratib, qimmat bahoda g'alla sotib olib, uni arzon narxda aholiga sola boshladi. Boy va mulkdorlarga kommuna soliq soldi.

1793 yil bahorida yana yer masalasi kun tartibiga chiqdi. Ayrim rayonlarda dehqonlarning o'zboshimchalik bilan yerlarni bosib olish harakati boshlandi. Shunda Konvent emigrantlarning va qirol yerlarining mayda qismlarga bo'lib sotish to'g'risida dekret qabul qilishga majbur bo'ldi.

Qirol Lyudovik XVI ni jazolash masalasi Konventda, va undan tasbqarida butun Fransiya bo'ylab keng muhokama qilindi. Konvent deputatlari ham bu masalada ikkiga bo'ldi. Jirondistlarning aksariyati va botqoqchilar (majlislar zalining qo'yi qismidan joy olgan deputat)larning bir qismi qirolni qatl qilinishiga qarshi edilar, montanyarlar, jirondistlar va bolqoqchilarning boshqa bir qismi uni qatl qilishni talab qildilar. Noyabr-dekabr oylarida qirolning koalitsiya monarxlar bilan respublikaga qarshi ummash to'g'risidagi maxfiy yozishmalari topib olindi. Bu qirolni qatl qilinishiga asos bo'ldi. 1797 yil 21 yanvar kuni Lyudovik XVI namoyishkorona qatt qilindi.

Qirolning qatl qilinishiga, va xalq ommasining talabiga ko'ra chiqarilgan bir qator dekretlarga, g'allaga qat'iy narx belgilanganligiga qaramasdan parlamentda va undan tashqarida kurash kuchaydi. Jirondistlar Konventi "O'n ikki komiteti"ni tuzib, seksiyalar va Parij kommunasini tergov qilishga kirishdilar. Kommunaning rahbarlari bo'lgan Eber va Varlenni qamoqqa olish to'g'risida bo'yruq chiqarib, ularni "qutirganlar" deb atadi. Jirondistlarga qarshi Kommuna, seksiyalarning ko'pchiligi, montanyarlar va kordklerlar birlashdilar. 10 avgustda Kommuna tomonidan Qo'zg'olonchilar komiteti tuzildi. 1793 yil 31 mayda uning bo'yruqi bilan ko'p ming kishilik qurollangan olomon va milliy gvardiyaning jangchilari Konventni qurshovga oldilar. Jirondistlarning rahbarlari hibsga olindi. Xalq qo'zg'oloni g'alaba qilib, hokimiyatga yakobinchilar keldilar.

Yakobinchilar diktaturasi

Jirondistlar Konventidan norozi bo'lgan shahar va qishloq aholosining qo'llab-quvatlashi oqibatida yakobinchilar hokimiyatga keldilar. Butun mamlakatda ahvol og'ir edi. 83 ta departamentning 60 tasida isyonlar ko'tarilib turdi. 1793 yil martida Vandeeda ko'tarilgan qo'zg'olon ularning eng katlasi edi. Qishloq xo'jaligi butunlay izdan chiqqan bir vaqtda Konvent 300 ming kishini armiyaga safarbarlikka chaqirdi. Sanoat jihatidan ancha qoloq bo'lgan Vandeeda dehqonlar Konventning jazo otryadlariga qarshi haqiqiy urushni boshladilar. 1793 yilda qo'zg'olon bostirildi, ammo qo'zg'olonning ayrim uchqunlari davom etdi. Vande urushlarida bar ikki tomondan 600 mingdan ziyodroq iransuzlar qurbon bo'ldilar.

Mamlakatdagi mavjud og'ir ahvoldan foydalangan yakobinchilar o'zlarining hokimiyatini muslahkamlashga harakat qilsa, Konvent yer va dehqonlar to'g'risidagi masala bilan shug'ullandi. Ketma-ket bir qancha agrar dekretlar chiqarildi. 1793 yil 3 iyunida yakobinchilar Konventi emigrantlarning yerlarini mayda qismlarga bo'lib sotish to'g'risida dekret qabul qildi. 10 iyulda jamoa yerlarini bo'lib berish to'g'risidagi Konventning yangi dekreti qabul qilindi. Unga ko'ra, agar dehqon jamoalari a'zolarining 1/3 dan ko'prog'i jamoa erlarini bo'lib olishga rozi bo'lsalargina ushbu dekret kuchga kirar edi. 17 iyulda barcha feodal majburiyatlarini hech qanday to'lovsiz bekor qilish to'g'risida dekret

chiqarildi .Ammo yer mulkiari va yerlarni ijaraga olish bilan bog'liq barcha majburiyatlar amalda qolaverdi.

Yerlarni bo'lish to'g'risidagi "agrar qonun" tarafdorlari ta'qib ostiga olindi. Yerlarni mablag'i bor kishilarga sotib olishlari mumkin edi. End) er kapitalistik mulkka aylana boshlandi. Endi u rasmiy sotiladigan va sotib olinadigan bo'ldi, bu so'zsiz ilg'or holat edi.

Qabul qilingan dekretlar amalda hayotga tadbiiq etilmagan bo'lsada, yakobinchilar tomonidan feodal isyonlarni bostirish uchun armiyaga safarbarlikni engillashtirdi. Oziq-ovqat masalasi ilgirigidek hal qilinmasdan qolaverdi.

Yakobinchilar blokida kuchlarning bo'linishi davom etdi. "Quturganlar" va "so'l yakobinchilar" inqilobni yanada chuqurlashuvini ta'minlashga harakat qildilar. Jamiyatni qutqarish komitetini boshqarayotgan Danton va uning tarafdorlari tcrorni cheklashni talab qildilar. Boshqa tomondan Robespyer va uning tarafkashlari bar qanday yo'l bilan bo'lsa ham hokimiatni saqlab qolishga harakat qildilar. Asta-sekinlik bilan inqilobiy terror Pobespyerning shaxsiy hokimiyatini himoya qiluvchi qurolga aylandi. Yakobinchilar bloki orasidagi kurash yangi konstitutsuya qabul qilingandan su'ng jiddiy tus oldi.

1793 yilgi konstitutsiya zamonasining ilg'or konstitutsiyalaridan biri edi. 29 iyulda Konvent qabul qilgan yangi konstitusiyaga muvofiq Fransiya bir palatali respublika, deb e'lon qilindi. Unga ko'ra 21 yoshga yetgan barcha erkaklarga saylov huquqi, xalqqa qo'zg'olon ko'tarish, ma'lumot olish, mehnat qilish, nogironlarga ijlimoiy yordam olish huquqlari berildi. Ammo urush tugaguncha amalda konstitutsiya joriy qilinmadi.

1793 yil 13 iyulda yakobinchilarni faol vakili, Konvent a'zosi, "Xalq do'sti" ro'znomasining muharriri Jan Pol Maratga suiqasd qilindi. Qotillikga yollangan dvoryan ayol Sharlittadc Korde tomonidan sanchilgan xanjar Maratning o'limiga sabab bo'ldi. Natijada yakobinchilarning terrori yanada kuchaydi. Rassom Lui David tomonidan "'Maratning o'limi" nomli qotillik jarayoni aks etgan tasviriy asar ishlanib, frontga ketuvchi harbiy otryadlar ushbu asar oldida qasamyod qabul qiladigan bo'ldilar.

1794 yil oxirida urushning borishida burilish yuz berdi. Ommaviy safarbarlik dushman uslidan g'labaga olib keldi. Doimiy harbiy tayyorgarlikdan o'tgan qismlar inqilobiy kayfiyatdagi xalq lashkari bilan qo'shildi, bu - amalgama deb ataldi. Birinchi marta Yevropada umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi. 1794 yilning qishidayoq feodal isyonlari bostirilib, Vandes isyonchilarining asosiy kuchlari tor-mor etildi, Fransiya hududi koalitsiya qo'shinlaridan ozod qilindi.

1794 yil fevral-martida Konvent "Gumon qilinuvchilar"ning mulklarini qashsboqlar o'rtasida taqsimlash to'g'risida vantoz dekretlari deb nom olgan dekretlar qabul qildi, ammo bu dekretlar amalda joriy qilinmadi.

Yakobinchi laming terrorchilik siyosati davom ettirildi. Natijada xalqm'ng Robespyerga qarshi g'azabi kuchaydi. Va'da qilingan jannatona hayotga bo'lgan umid so'na boshladi. Frontdagi muvaffaqiyatlarga qaramasdan vaziyat murakkab tus ola boshladi. 1794 yil bahoridan boshlab, yakobinchilar bloki parchalana boshladi. Konvent a'zolarining ko'pchiligi savdo-sotiqning erkin bo'lishini talab qila boshladilar. Feodal munosabatlar tugatildi.

Aql, adolat, vatanga muhabbat kabi prinsiplarga asoslangan yangi din - - "Oliy mavjudot" shaxsiga sig'nish asosida xalqni birlashtirish uchun bo'lgan urinish natijasiz bo'ldi. xalq uni qo'llab quvatlamadi. 10 iyulda terrorni kuchaytirish to'g'risidagi dekretning qabul qilinishi nafaqat mulkdorlarni, balki shahar kambag'allari va dehqonlarni ham tashvishga soldi. Konventda Robespyerga qarshi suiqasd rejalashtirila boshlandi.

Termidorlar konventi va direktoriya davrida Fransiya

9 termidor (27 iyul) kuni Konventning majlisi davom etdi. Unda deputat Sen-Jyust terrorni yumshatish taklifi bilan chiqish qildi. Ammo Konvent uning fikrini qabul qilmadi. Robesp'yerni hokimiyatni suiste'mol qilishda aybladilar. Deputatlardan biri Robesp'yerni hibsga olishni taklif qildi. Bu taklifni Konventning ko'pchilik a'zolari qo'llab quvvatladilar. Robesp'yer va uning tarafdorlarini qamoqdan ozod qilib. Robesp'yerni Konventga qarshilik ko'rsatishini kutdilar. Ammo Robes'pyer ular kutganday qarshilik ko'rsatmadi. Shunda Konvent otryadlari ratushaga bostirib kirib, Robesp'yer va uning tarafdorlarini tor-mor qildi.

Yakobinchilar diktaturasi majaqlab tashlandi. Yakobinchilardan tozalangan Konvent o'z faoliyaini davom ettirdi. Yakobinchilar diktaturasi Fransiya aholisi hayotini yengillasbtirmadi, kutilgan natijalarni bermadi. Fransiyada kapitalistik taraqqiyot yo'liga esa undan keying! Termidorlar Konventi davrida o'tildi.

Termidorlarning davlat to'ntarishi inqilobda so'nish davrining boshlanishi edi. Termidorlar Konventi Fransiyani Napoleon Bonapart imperiyasiga olib keldi.

9 Termidorning ikkinchi yilidan so'ng (1794-yil 27-iyul) hokimiyat inqilob natijasida boyib ketgan sanoatchilar, moliyachilar va yangi yer egalari ko'pchilikni tashkil etgan Konvent qo'lga o'tdi. Termidorlar Konventi 1794-yil 27-iyuldan 1795-yil 26-oktabrgacha davom etdi. Yakobinchilar klubi va ularning mamlakaldagi filiallari yopildi, jamoatchilik tashkilotlari tarqatib yuborildi, oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yilgan maksimum narx bekor qilindi, savdo erkinligi chayqovchilik erkinligiga aylandi. Terrorga qarshi kurashish bahonasi bilan norozi kayfiyatda yurgan qashshoqlarga qarshi qat'iy chora tadbirlar ko'rildi. 1795-yil bahorida ochlik va muhtojlikdan qattiq aziyat chekkan Parij aholisi qo'zg'olon ko'tardi. 12 jerminal kuni (1-aprel) kuni norozi olomon Parij ko'chalariga chiqib, non va 1793-yilgi konsitutsiyani talab qildilar. Konventga qarshi birinchi qo'zg'olon jerminal deb ataldi. Ikkinchi qo'zg'olon birinchi prerial (20-may) kuni ko'tarildi. Qo'zg'olonchilar tarkibida milliy gvardiyaning qismlari ham qatnashdi, ammo qo'zg'olon tezda bostirildi.

1795-yil iyulida Termidorlar konventi yangi konsitutsiya qabul qildi. Bu konsitutsiya respublika tuzumini saqlab qoldi, biroq inqilob qo'lga kiritgan yutuqlardan biri - umumiy saylov huquqini bekor qildi, xususiy mulkchilik huquqini e'lon qildi. Inqilob davrida qo'lga kirilgan mulklarni qonuniylashtirdi. Konvent o'rniga Oqso'qollar kengashi va Besh yuzlar kengashi saylandi. Bu ikki palata qonun chiqaruvchi hokimiyatga ega edi. Qonun chiqaruvchilar to'liq ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan 3 kishidan iborat Direktoriyani sayladi. Konsitutsiya qabul qilinganidan so'ng tezda Konvent tarqatildi, hokimiyat Direktoriya qo'lga o'tdi. Direktoriyaning asosiy siyosati inqilob davrida boyib qolgan sanoatchi va moliyachilarning manfaatini himoya qilishga qaratilgan edi. Direktoriya 1795-yil 4-bryumerdan so'ng 1799-yil 18-bryumergacha faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda qishloq va shahar kambag'llarining ahvoli og'rligicha qolaverdi. Shu davrda Frantsuada (Grakx) Noel Babyof (1760-1797 y.y) va uning "Tenglar jamiyati" mashhur bo'ldi. Babyof inqilobning dastlabki yillarida yerga nisbatan xususiy mulkchilikning joriy elilishiga qarshi kurashib, ijtimoiy tenglashtirish g'oyasini targ'ib qilib, o'zini Rimlik reformator Grax deb e'lon qildi. Babyof o'ldirilib, uning jamiyati tarqalib yuborildi.

Direktoriya davrida Fransiya olib borayotgan urushlar xarakteri birdan o'zgardi. U Fransiyaning himoya qilish urushidan, 1797-yildan boshlab, boshqa davlatlar hududini bosib olish urushiga aylandi. Napoleon Bonapart qo'mondonligidagi frantsuz qo'shinlari Shimoliy Italiya hududini egallab, Avstriyaga o'tdi va 1797-yilda Kamforpomioda Avstriyani sulh shartnomasini imzolashga majbur qildi. Italiyaning Lombardiya viloyatini Sizalpin, Genuyani esa Liguriya respublikalariga aylantirib, ularni Fransiya tobe qilib qo'ydi. Piemont Fransiya qo'shib olindi. Venetsiya, Istriya, Dalmatsiya Avstriyaga, Reynning. o'ng qirg'og'I, Belgiya va Ionik orollari Fransiya ixtiyoriga o'tdi.

Fransiyaning asosiy raqibi bo'lib hamon Angliya qolaverdi. Uning mustamlakachilik qudratiga zarba berish uchun Direktoriya Hindistonga ekspedisiya yuborish maqsadida Misrni bosib olishga kirishdi. Misr ekspedisiyasiga Napoleon Bonapart qo'mondonlik qildi. 1798 yil 20 iyunda Misr qo'shinlari ustidan frantsuz armiyasi g'alaba qildi. 1 avgustda Nelson qo'mondonligidagi ingliz floti Abukir ostonasida frantsuz eskadreyasini tor-mor qildi. Bu frantsuzlarga qarshi 1-koalisiyaning tuzilishini tezlashtirdi. Koalisiya tarkibiga Angliya, Rossiya, Turkiya, Neapolitan qirolligi va Avstriya kirdi. 1799 yil bahorida Yevropada urush yangidan boshlandi. Germaniyada frantsuz armiyasi tor-mor qilindi. Italiyadan frantsuz armiyasini feldmarshal Suvorov qo'mondonligidagi rus qo'shinlari siqib chiqarib boshladi.

Harbiy muvaffaqiyatsizliklar va tashqi kuchlarning harbiy yurishi, shuningdek, Direktoriya siyosatidagi ziddiyatlar Fransiyaning mulkdor qatlamlarini tashvishga soldi. Mamlakatda qonuniy tartibning yo'qligi ma'lum bo'lib, xalq ommasining aksariyati hokimiyatni mustahkam qo'lga o'tishi lozimligini tushunib etdi. Napoleon Bonapart atrofidagi yuqori lavozimli harbiylarning bir qismi harbiy diktatura o'rnatishga harakat qildilar. Ular Misrda qo'mondonlik qilayotgan Napoleon Bonapart bilan Direktoriyaning hukumat doiralarga yaqin bo'lgan ukasi Lyusen Bonapart orqali aloqada bo'ldilar. Napoleon Misrdagi frantsuz qo'shinini general Kleberga topshirib, 500 la grenaderlari bilan Fransiya qaytdi.

18-bryumer (1799 yil 9 noyabr) kuni qonun chiqaruvchi korpus majlisi shahar yaqinidagi Sen-Klu saroyiga ko'chirildi, majlisga Napoleon ham etib keldi. Parij safari davomida Napoleon yangi hukumatdagi lavozimlarni egallash to'g'risida ikkita nomzod: konstitutsiyachilarning rahbari -- Emmanuel Jozef Siyes va moliyachi Roje-Dyuko bilan. Keiishib oldi. Direktoriyaning 5 ta vakili ham iste'fo berish to'g'risida Napoleonga va'da berdilar. Shu kuni Lyusen Bonapart Besh yuzlar kengashiga raislik

qilayotgan edi. Napoleon kengash a'zosi bo'lmasa ham majlisda paydo bo'ldi va Napoleonning majlisda ishtirok etayotganligidan norozi bo'lganlarni uning grenadyorlari haydab chiqardi. Besh yuzlar kengashi a'zolari majlisda qolgan oqsoqollar kengashining bir nechta a'zolari bilan birgalikda hokimiyatni uch konsufga berish to'g'risidagi dekretni qabul qilishga majbur bo'ldilar. Napoleon birinchi konsul lavozimini egallab, amalda barcha hokimiyat uning qo'ligato'plandi.

Napoleon Bonapartning hokimiyat tepasiga kciishi

Napoleon Bonapart 1769 yilda Korsika orolida kambag'allashgan dvoryan oilasida dunyoga keldi. Bonapart oilasida 8 farzand bo'lib, ular 5 o'gil va 3 qiz - Jozef, Napoleon, Lyusen, Eliza, Lui, Polina, Karolina va Jeromdan iborat edi. Napoleon oilada ikkinchi farzand bo'lib, oilasi uni harbiy bilim yurtiga o'qishga berdi. Napoleon bilim yurtini tugatib, 24 yoshidanoq general unvonini oldi.

Napoleon Avstriya qo'shinlari egallab turgan Shimoliy Italiyaga yurushga tayyorlanayotgan armiyaga qo'mondon etib tayinlandi. Bonapart armiyasi Shimoliy Italiyaga bostirib kirib, Avstriya qo'shinlarini tor-mor etdi. 1797 yilda Napoleon Bonapart Avstriyani taslim bo'lish sulhini imzolashga va Fransiyaning g'alabasini tan olishga majbur etdi. Shundan so'ng Italiya Fransiya qaram bo'lgan bir necha kichik respublikalarga bo'linib ko'di.

1798 yilning may oyida Napoleon 30 mingdan ortiq kishilik armiya bilan 350 ta kemada Misrga yo'l oldi. Quruqlikda frantsuz qo'shinlari Misr otliq armiyasi ustidan g'alaba qozondilar. Ammo, tezda ingliz floti Misr sohillariga yetib kclib, frantsuz kemalarini yondirib yubordi. Napoleon qo'shinlari Fransiya dan ajratib qo'yilib, halokatga mahkum etildi. Suriyaga qilingan hujum arablar bilan turk qo'sinlarining qattiq qarshiligiga dueh keldi. Shu paytning o'zida Suvorov qo'mondonligidagi rus armiyasi Shimoliy Italiyada frantsuz qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Napoleon Bonapart o'z armiyasini tashlab, poytaxt Parijga shoshildi; u hokimiyat uchun kurashda asosiy da'vogarlardan biri edi. Napoleon Fransiya qaytgan paytda mamiakatda vaziuat og'ir edi. Direktoriya o'z obro'sini yo'qotib, ko'pchilik Napoleon Bonapart shaxsida o'z najotkorini izlayotgan edi. U armiya va xalq o'rtasida katta obro'ga ega edi.

Napoleon Fransiya qaytib kelgach, oradan bir oy o'tar-o'tmas, 1799 yilning 9 noyabrida Direktoriya a'zolarining iste'fo berishlariga erishdi. Ertasi kuni o'z ukasi, deputat Lyusen Bonapart yordamida sadoqatli qo'shinlar bilan qonun chiqaruvchi korpusini qurshab oldi. Deputatlarga hokimiyatni Napoleon boshchilidagi uch konsulga topshirish to'g'risidagi talab taqdim etildi. Tez orada yangi Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqildi va konsullar ichida Napoleon keng vakolatlarga ega bo'lib, u 10 yillik muddat davomida shu lavozimni egallab turishi kerak edi.

Konstitutsiya va Napoleonning birinchi konsullikka tayinlanishi umumxalq ovozig a qo'yildi va deyarli ko'pchilik, ya'ni, 3,5 mln. kishi uni yoqlab ovoz berdi.

Konsullik davrida davlat tizimi ancha mustahkamlandi, harbiy diktatura siyosati davom ettirildi.

1804 yilda Senat Napoleon Bonapartni Napoleon 1 nomi bilan Fransiya imperatori deb e'lon qildi. Mamlakalda monarxiya tuzumi qaytadan tiklandi. Biroq, mazkur monarxiya feodallar, dvoryanlar, ruhoniylar manfaatini emas, balki, yangidan rivojlanib kelayotgan

O'rta tabaqalar, bankirlar, zodagonlar, armiya va amaldorlarga tayanuvchi hariy-byurokratik monarxiya cdi. Mulk, oila, savdo to'g'risidagi qonunlarning majmualari, jinoyat kodeksi tuzib chiqildi. "Napoleon kodeksi" deb nom olgan "Fuqarolar kodeksi" ularning eng muhirai edi. Har qanday miqdordagi xususiy mulkka ega bo'lish huquqini mustahkamlab bcrish bu kodeksning asosiy vazifasi bo'ldi. Xususiy mulkka ozgina bo'lsa ham, tajovuz qiluvchilargajuda qattiq jazojoriy qilindi.

Napoleon tezda yangi armiya tashkil qilib, yashirin ravishda Alp orqali Italiyaga yurish qildi va 1800 yil 14 iyunda Avstriya qo'shinlarini tor-mor etdi. General Mcro qo'mondonligidagi frantsuz armiyasi shu yili 3-noyabrda Bavariya va Avstriya qo'shinlarini tor-mor etdi. 1801 yil 9 fevralda Avstriya-Fransiya o'rtasida Lyunevil shahrida shartnoma imzolandi. Unga ko'ra Reynning so'l qirg'og'i va Belgiya Fransiya qo'shib olindi. Italiyada Bonapart Fransiya tobc bo'lgan qo'g'irchoq Italiya respublikasini tuzdi.

Angliya va Rossiya o'rtasidagi ziddiyatlardan xabar topgan Bonapart Pavel 1 bilan ittifoq tuzish to'g'risida muzokaralar boshladi. Bonapart Turkiyani bo'Iib olishini va Angliyaga qarshi Hindistonga yurish qilishni taklif qildi. Hatto rus imperatorining buyrug'i bilan kazaklardan iborat harbiy otryad Hindistondan inglizlarni haydash uchun O'rta Osiyoga yurish qildi. Bir vaqtda Pavel 1 Prussiya, Daniya va Shveysiya

bilan Angliyaga qarshi qaratilgan "Qurolli BetarafUk ligasi"ni tuzish haqida bitim imzolandi. Angliya bilan savdo aloqalarining to'xtatilishi dvoryanlar va gvardiyaning noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada 1801 yil 12 martda Pavel I fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Taxtga uning o'g'li Aleksandr o'tirdi.

1801-yil 14-martda Aleksandr Angliya bilan diplomatik munosabatlarni tiklab, O'rta Osiyoga jo'natilgan kazak otryadini ortga qaytardi. 1801-yil oktabrda Fransiya bilan Rossiya o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Shu bilan birga bu ikki davlat Germaniya va Italiya davlatlarning taqdiriga daxlli maxfiy bitim ham imzoladilar. Yakkalanib qolgan Angliya 1802-yil 27-martda Fransiya bilan sulh shartnomasi imzolashga majbur bo'ldi. Unga ko'ra Angliya qo'shinlari Misr va Maltadan chiqariladigan, Yevropada mavjud tartibni saqlab qolish majburiyatini olgan edi, Fransiya esa Angliya bilan savdo shartnomasini luzadigan bo'ldi. Ammo, Amen sulh shartnomasidan har ikki davlat nafasni roslab olish uchun foydalandi, undagi shartlarni amalda bajarmadilar. Bonapart qo'shni davlatlar hududini bosib olish siyosatini davom ettirdi.

1803 yil Fransiya bilan Angliya o'rtasida urush boshlandi. Ispaniya Fransiya itlifoqchilik qildi. Napoleon frantsuz va ispan flotlarini yordarni bilan Angliya qirkoqlariga 30 ming kishilik korpusni desant qilib tushirishni rejalashtirdi. Buning uchun 1,5 mingdan ko'proq kemalar tayyorlandi. Bulonda Angliyaga quruqlikdan hujum qilish uchun katta harbiy lager tuzildi. Bonapart avval Angliyani tor-mor qilib, uni mustamlakalarini egallashi va keyin Italiya va Germaniyani zabt elishni rejalashtirgan edi.

1804 yil fevralda N. Bonapartga uyushtirilayotgan suiqaqd fosh qilingach, Napoleon o'zining hokimiyatini nasldan-naslga meros o'tadigan deb, o'zini esa Fransiya imperatori deb e'lon qildi.

Fransiya imperiyasining bosqinchilik urushlari

Fransiyaning Yevropa kontinentidagi harbiy jihatdan ustunligi dastlab inqilob urushlari davrida sezildi. Bu konsullik va imperiya davrida yanada yaqqol ko'rindi. Fransiya bu davrda G'arbiy Yevropaning eng yirik va markazlashgan davlati edi. Inqilob Fransiyada ilg'or burjua tuzumini o'rnatib, uning iqtisodiy taraqqiyoti uchun kuchli turtki berdi.

Ko'p sonli frantsuz armiyasi asosan dehqonlardan iborat bo'lib, u eng zamonaviy quroli-yarog'lar bilan ta'minlangan edi. Inqilobiy urushlar va Napoleon urushlari qobiliyatli general va ofitserlarni yetishtirdi. Kavaleriya va otliq artilleriya juda tez harakat qilish laktikasiga ega edi. Napoleon ayg'oqchilik ma'lumotlaridan, xalqaro shartnoma va huquqlarni buzish kabi manevrlardan, uning diplomatiyasi esa raqiblarni orasidagi kelishmovchilik va nifoqlardan ham juda unumli foydalandi.

Fransiya armiyasi Yevropa materikining tuzum hukmron bo'lgan qoloq geodal monarxiyalari armiyasidan nihoyatda ustun edi. Bu davlatlar iqtisodiy zaif bo'lib, kam sonli qo'shinga ega va doimiy ravishda Angliyaning moliyaviy yordamiga muhoj edilar.

Fransiyaning harbiy muvaffaqiyatlariga Germaniya va Italiyaning siyosiy tarqoqligi ham qo'l keldi. Uning sharqiy chegaralaridan kuchli, markazlashgan davlatlar yo'q edi. Mayda, tarqoq italyan va nemis davlatlari Fransiya jiddiy qarshilik ko'rsata olmadilar. Napoleon ularning o'rtasidagi kelishmovchiliklar va nizolardan foydalanib, ularning bir qismini o'zi tomoniga og'dirib, boshqalariga qarshi kurashda ulardan foydalandi. Bosib olingan hududlarni kontributsiya va konfiskatsiya vositasida xazina va oziq-ovqat mahsulotlarini talash, bo'ysundirilgan mamlakatlarni Fransiya uchun foydali bojxona tariflari bilan ekspluatatsiya qilish, vassal davlatlar tomonidan harbiy qismlarning etkazib berilishi evaziga Fransiyaning harbiy qudrati tez oshdi. Fransiya lob bo'lgan davlatlarni tuzishda, u o'sha mamfakatlarning burjuacha yangilanishlar tarafdori bo'lgan kuchlaridan ham foydalandi.

Italiyada, Germaniyaning Reyn viloyatlarida va shuningdek, Belgiyada frantsuzlar ayrim burjua islohotlarini o'lkazib mahalliy feodal aslzodalarini hokimiyatdan mahrum qildilar.

Xalqaro munosabatlar sohasida Fransiyaning qo'lga kiritgan eng katta muvaffaqiyatlari bu -- uning asosiy raqiblari o'rtasidagi nizo va nifoqlardan foydalanib ularni ittifoqchiligiga qo'yimaganligi va hatto bir-biriga qarshi qo'yishga erisha olganligidir. Fransiyaning harbiy jihatdan katta ustunlikka ega ekanligi sababli, boshqa davlatlar koalitsiyalarga birlashsanga unga qarshi tura olishlari mumkin edi. Ammo koalitsiya. a'zolari o'zaro kclisha olmadilar. Rossiya va Angliya manfaatlari Yaqin Sharqda va betaraf dengiz savdosining daxlsizligi borasida to'qnash kelmoqda edi. Avstriya va Fransiya o'zaro raqib davlatlar bo'lib, ular Germaniyada gegemonlik qilish uchun va Polsha yerlarini egallash uchun raqobatda edilar. 1895 yildan to 1896 yilgacha bo'lgan muddalda Prussiya Fransiya qarshi urushda qatnashmadi. Fransuz

qo'shinlari ham Germaniyaning shimoliy hududlariga hujum qilishdan cheklandilar. Prussiya Fransiyaning madadi bilan Angliya qirolining mulki bo'lgan Gannoverni va boshqa nemis davlatlarining hududlarini bosib olishni mo'ljallagan edi. Angliya va Ispaniya ham mustamlakalar borasida ziddiyatda edilar.

Konsullik va imperiya davrida Fransiya olib borayotgan inqilobiy urush bosqinchilik urushiga aylandi. Napoleon Fransiyasi bilan urush olib borayotgan koalitsiya uchun inqilob bilan kurashish masalasi 2-darajali vazifa bo'lib qoldi. Aksariyat Yevropa davlatlari XIX asr boshlariga kelib Fransiya'dagi burjua tartiblarini tugatish ilinjidan voz kechib, bu tartiblarni boshqa davlatlarga tarqalmasligiga va Fransiyaning Yevropa yoki dunyo miqyosidagi hukmronligini o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildilar. Fransiyaning eng kuchli raqiblari bu Angliya va Rossiya edi.

Napoleon imperiyasining ichki siyosati

Konsullik va imperiya davrida Fransiya'da kapitalistik munosabatlar uning qishloq xo'jaligiga, sanoati va savdosiga chuqur kirib bordi. Mamlakatda sanoat to'ntarishi boshlandi. 1790 yil Fransiya'da 89 la ip yigiruv mashinalari bo'lgan bo'lsa, 1805 yilda ularning soni 3300 taga etdi. Fransiya'da bug' mashinalari nisbatan kam bo'lib, asosan tarqoq manufaktura ko'rinishidagi ishlab chiqarishi ko'pchilikni lashkil qilar edi. Ammo markazlashgan manufaktura va fabrikalar soni ham tobora oshib borayotgan edi. Metallurgiya, ipakchilik, movutichilik sanoati, zeb-ziynat buyumlari, shisha va chinni-idishlar tayyorlash kabi sohalar ancha muvaffaqiyatli rivojlandi. Biroq iqtisodiy sohada Fransiya Angliyadan ancha ortda edi. Frantsuz maxsulotlari nafaqat ingliz mahsulotlari bilan, balki chex, sheytsar va italyan mahsulotlari bilan ham raqobat qila olmas edi. Fransiya Yevropa bozorlarida bosqinchilik siyosali bilan. qo'shni davlatlarga Fransiya uchun foydali bo'lgan bojxona tariflarini joriy qilish va Angliya bilan savdo qilishni taqiqlash evaziga o'zining mavqeini mustahkamlashga erishdi. Bosib olingan hududlardan olingan kontributsiya, konfiskatsiya, yangi soliqlar joriy qilinishi va majburiy ravishda berilgan zayomlar frantsuz hukumatiga davlat buyurtmalari (qurollanish, yo'llar qurilishi va h.k.) uchun katta pul mablag'ini bermoqda edi.

Ingliz mahsulotlarining arzonligi va sifatli ekanligi barcha taqiqlarga qaramasdan kontrabanda yo'li bilan yoki betaraf mamlakatlarning mahsulotlari sifatida Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlariga kiritilishini ta'minlagan. 1806 yil Fransiya'ga Angliyaning 80-100 mln. franklik paxta, qog'oz buyumlari kiritilgan.

Bu davrda qishloq xo'jaligi ham bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Jumladan. ekin maydonlari kengaydi. Shu bilan birga, mayda dchqonlarni qishloq burjuaziyasi tomonidan ekspluatatsiya qiliishi kuchaydi. Egri soliqlar oshirildi, konsullik davrida vino, imperiya davrida tuz va tamaki soliqlari tiklandi. Yer egalari Angliya va boshqa xorijiy davlatlarning ancha arzon sanoat mahsulotlarini sotib olishdan manfaatdor edilar, shuning uchun ular Napolconning davomli ravishda bosqinchilik urushlarini olib borishdan norozi edilar.

Yirik burjuaziya va yer egalarining manfaati masalasi imperiya davrida ishlab chiqilgan huquq normalari va kodekslarda ham o'z aksini topgan. Bularning orasida eng muhimi "Fuqarolik kodeksi" yoki keyinchalik "Napoleon kodeksi" deb nom olgan kodeks edi. Unda asosan burjuaziyaning xususiy mulkchiligini .mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratilgan. Unga ko'ra xususiy tadbirkorlik erkinligi, mulklarni vasiyat etib qoldirish crkinhgi prinsiplari mustahkamlangan. Xotinning mulki to'liq erining mulki hisoblangan. xotinlar va bolalar mulkka egalik huhuqidan mahrum qilingan. Nikohsiz tug'ilgan bolalar hech qanday huquqqa ega bo'lmaganlar. Fuqarolik kodeksi 1807 yilda, "Tijorat" va "Jinoyat" kodckslari 1808 yilda kuchga kirgan. "Jinoyat kodeksi" xususiy mulkka qilingan kichkina tajovuzni ham juda shafqatsiz ravishda jazolagan.

1803 yil Fransiya'da "ishchi daflarlari" joriy qilingan. Unda korxona egalari ishchilarini huquqi va ishdan bo'shatilishi sabablari haqida ina'lumotlar yozilgan. Tijorat yoki savdo kodeksi ishchilarni ishga yollash tartibini qonuniylashtirgan, ishehilarni huquqsizligini mustahkamlagan.

179] yilda joriy qilingan "Le Shapele" qonuni ga ko'ra ishchilarning namoyishlari, ish tashlashlari va ittifoqlarga birlashishi ta'qiqlangan.

1806 yil 1 yanvardan boshlab imperator Napoleon inqilob kalendarini bekor qilib, Grigorian kalendarini tikladi.

Fransiya'ga tobe ettirilgan respublikalar qirolliklarga aylantirilgan. 1805 yildayoq Napoleon o'zini Italiya qirol, deb e'lon qildi. Imperator boshchiligidagi tajovuzkor frantsuz burjuaziyasi va harbiy doiralari Fransiyaning yangi Rim imperiyasiga aylantirishga harakat qildilar. Yevropa va mustamlakalarni bosib

olishlaridan asosiy maqsadi ham shu edi.

Yevropa davlatlarining Fransiya qarshi urush harakatlari.

Napoleon imperiyasining inqirozi

1805 yil avgustida Napoleon imperiyasiga qarshi Angliya, Rossiya, Avstriya va Ikki Sisiliya qiroliklaridan iborat 3-koalisiya tuzildi. Ittifoqchilarning maqsadi Germaniya, Italiya, Shveysariya va Gollandiya hududidan fransuz qo'shinlarini haydab chiqarish va bu mamlakatlarda eski tartiblarni tiklashdan iborat edi. Dengizda frantsuz va ispan floti 1805 yil oktyabridanoq admiral Nelson qo'mondonligidagi ingliz floti tomonidan Trafalgar burni yaqinida tor-mor etildi. Napoleonning Angliya desant tushirish rejasi barbod bo'ldi. Bulondagi frantsuz harbiy lageri Reyn ortiga yo'naltirildi. Noyabr oyida frantsuz qo'shini Venani egalladi. 1805 yil 2 dekabrda Avstriya va rus qo'shlari birgalikda Austerlisdagi frantsuz qo'shini bilan jangga kirdi va ittifoqchilar tor-mor etildi. Austerlisdagi mag'lubiyatidan, so'ng Avstriya urushdan chiqib, Fransiya bilan sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Unga ko'ra Fransiya Germaniya va Italiyada erkin haliakat qilishni qo'lga kiritdi. Benetsiya, Istriya va Dalmatsiya Italiya qirolligiga qo'shib olindi. 1806 yil Napoleon janubiy german davlatlaridan o'zining protektoratligi ostidagi Reyn ittifoqini tuzdi. Italiyadagi frantsuz qo'shinlari Neapolni egalladilar va Napoleonning akasi Jozef Bonapart Neapolitaniya taxtiga o'tirdi. Batova respublikasini Napoleon Gollandiya qirolligiga aylantirib, uning taxtiga ukasi Lyudovikni o'tqazdi.

Avstriyani tor-mor etgan Fransiya Prussiya bilan hisoblashmay qo'ydi. Gannoverni Prussiyaga berib, keyinroq uni tortib olishga qaror qildi va o'z qo'shinlarini Prussiya hududiga kiritdi. Yaqinlashayotgan xavfni sezgan Prussiya hukumati Rossiya va Angliya bilan ittifoq tuzdi. 1806 yil sentyabrda mazkur davlatlar va Shveysiya 4-koalisiyani tashkil qildilar.

Raqib kuchlarni birlashtirishdan tor-mor etish qoidasiga amal qilgan Napoleon osongina Prussiya qo'shinlarini tor-mor etib, Berlinni egalladi. 1806 yil 21 noyabrda Napoleon "Kontinental blokada" haqida Berlin dekretini imzoladi. Bu dekret Fransiya bo'ysundirilgan davlatlarning Angliya bilan savdo qilishini ta'qiqladi. Angliyani qo'shin bilan olish umidi puchga chiqqan Napoleon uni iqtisodiy jihatdan bo'g'ib qo'yishga qaror qildi. 1807 yilda Napoleon Angliya portlariga va mustamlakalariga kirgan betaraf mamlakatlarning kemalarini tutib ola boshladi;

Berlinda kontinental blokada e'lon qilgan Napoleon, endi qo'shinlarini Sharqiy Prussiyadagi rus qo'shinlari ustiga yo'naltirdi. 1807 yilning 14 iyunida Fridlandda rus qo'shini tor-mor etildi. Rossiya 1804 yildan buyon Eron bilan, 1806 yildan esa Turkiya bilan urush olib borayotgan bo'lib, qiyin ahvolga tushib qoldi va Napoleon bilan bitim tuzishga kirishdi. 1807 yil 7 iyulda Tilzidda Aleksandr 1 va Napoleon sulh, ittifoqchilik to'g'risida shartnoma imzoladilar. Unga ko'ra Fransiya G'arbiy Yevropada erkin harakat qilish huquqini qo'lga kiritdi. Polsha yerlari (Sileziyadan tashqari) Prussiyadan tortib olinib, Fransiya tobe bo'lgan Varshava gersogligi tuzildi. Rossiya kontinental blokadaga qo'shilish majburiyatini oldi. Napoleon Turkiyaning Yevropadagi provinsiyalarini va Shveysiyani egallashda Aleksandr 1 ga qarshi emasligini ma'lum qildi.

1807 yil Napoleon Portugaliyani kontinental blokadaga qo'shilishini so'radi, biroq, bunga rad javobini oldi. Shunda u Ispaniya orqali frantsuz qo'shinlarini Portugaliyaga kiritdi. Angliyaning yordami bilan portugallar frantsuz qo'shinini tor-mor etdilar. Shundan so'ng katta miqdordagi frantsuz qo'shinlari Ispaniyaga kiritildi va Jozef Bonapart Ispaniya taxtiga o'tirdi. Ispaniyada frantsuzlarga qarshi milliy ozodlik urushi boshlanib ketdi. Fransiya hududidan Ispaniyaga yangidan harbiy kuchlar keltirildi.

1808 yil oktyabrda Illyuriyadagi muzokarlardan so'ng Aleksandr 1 Napoleonga uning Avstriyaga qarshi urushida ittifoqchisi bo'lishga rozi bo'ldi. Biroq, amalda jiddiy harbiy harakatlarni olib bormadi.

1810 yildan boshlab Rossiya -- Fransiya munosabattari tez yomonlasha boshladi. Napoleon Turkiya va Eronni Rossiyaga qarshi urushni davom ettirishga da'vat etdi. Kontinental blokada rus pomeshchiklari va savdogarlarini xonavayron qildi. Napoleon 1810 yil Fransiyaning Rossiyaga kiritilayotgan zeb-ziynat buyumlariga bojxona lo'lovlarini oshirilganidan va Rossiyaga ingliz mahsulotlarini erkin kiritilayotganidan norozi edi. Rossiya-Frantsuya munosabatlariga Napoleonning Varshava gersogligidagi Rossiyaga qarshi plattsdarm va Fransiyaning ittifoqchisi sifatida foydalanayotganligi ham sabab bo'ldi.

1812 yilda Rossiya-Turkiya bilan Buxarestda sulh shartnomasini imzoladi. Buxarest

sulhi Rossiya diplomatiyasining katta yutug'i edi. Unga ko'ra Bessarabiya Rossiyaga berildi. Turkiya va Rossiya Fransiya qarshi birgalikda harakat qilishga kelishib oldi. Shunday qilib Rossiya va Fransiya o'rtasida urush yetildi.

Napoleon Rossiyaga hujum qilish uchun 640 ming kishiik qoshin tayyorladi. Rossiya armiyasi unga qarshi 230 ming kishilik konlingentini qo'ydi.

24 iyun 1812 yilda Napoleon Neman daryosi orqali Rossiyaga hujum qildi. Dastlabki yirik jang Smoienskda, 7 sentyabrda esa Moskva yaqinidagi Borodino qishlogida bo'lib o'tdi. Borodino jangi har ikkala tomon uchun ham katta yo'qotishlar bilan tugadi. Frantsuzlar 135 ming kishilik qo'shindan 60 ming, ruslar 320 mingdan 40 minggan ko'proq qurbon berdilar. Kutuzov qo'mondonligidagi rus armiyasining srategiya va taktikasi, partizanlik urushi, qahraton qishning boshlanishi, Rossiya hududmlng kengligi va Fransiyadan uzoqlab ketgan ko'p sonli frantsuz qo'shinlarini qurol-yarog", o'q-dori, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi uzilishlar va qiyinchiliklar Rossiyani mag'lubiyatdan saqlab qoldi. Frantsuz armiyasi tor-mor etildi. Napoleon bir qism armiyasi bilan Fransiya chekindi.

1813 yil bahorida Fransiya qarshi Rossiya, Angliya, Shvetsiya, Prussiya, Ispaniya va Portugaliyadan iborat 6-koalitsiya tashkil qilindi. Koalitsiyaning 300 ming qo'shinlari bilan frantsuzlarning 190 ming kishilik qo'shini o'rtasida hal qiluvchi jang 1813 yilning 16-19 oktyabr kunlari Leyptsigda yuz berdi. Unda har 2 tomondan 140 ming kishi qurbon berilgan. Frantsuz qo'shinlari mag'iubiyatga uchradi. 1814 yil harbiy harakatlar Fransiya territoriyasiga ko'chdi. 1814 yil martida Shomon shahrida Rossiya, Angliya, Avsliya va Prussiya urushni oxirigaeha ya'ni to'la g'alaba qilguneha davom ettirish haqida shartnoma imzoladilar. 31 mart kuni ittifoqchilar qo'shini Parijni egalladi. Senat Burbonlar sulolasini hokimiyatga tikladi. Lyudovik XVI ning ukasi graf Provanskiy Lyudovik XVIII nomi bilan Fransiya taxtiga o'tirdi. 1814 yilda Parij tinchlik shartnomasiga ko'ra Fransiya 1792 yilgi chcgalariga qaytarildi. Napoleon Elba oroliga surgun qilindi.

Napoleon ustidan g'alaba qilgan 4 asosiy davlat: Rossiya, Angliya, Prussiya, Avstriya vakillari 1814 yil 1 sentyabrdan 1815 yil 9 iyunigacha bo'lgan vaqt davomida Yevropadagi siyosiy holatni tartibga solish uchun Venada kongress chaqirdilar. Ular "legitimizm" prinsipini ya'ni, hokimiyatning yo'qotgan monarxlarni hokimiyatga tiklash uchun harakat qilayotgan bir vaqtda, 1815 yil 1-martda Napoleon Bonapart 1000 kishilik qo'shin bilan Parijga keiyotganligi haqida xabar tarqaladi. 20 martda Napoleon Fransiya taxtini egalladi. Napoleonga qarshi tezda 7-koalitsiya tuzildi. Unga Rossiya, Angliya, Shvetsiya, Prussiya, Ispaniya va boshqa davlatlar kiradi. Juda katta harbiy ustunlikka ega bo'lgan koalitsiya qo'shinlari 18 iyun kuni Bryussel yaqinidagi Veterloo qishlog'ida Napoleon qo'shinini tor-mor etadi. 22 iyunda o'zining yangi 100 kunlik boshqaruvidan so'ng Napoleon taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi va Muqaddas Elena oroliga surgun qilindi. Fransiya yangidan kontributsiya solindi.

Bcna kongressi qarorlari Yevropada dvoryan-monarxik reaksiyaning kuchayishiga sabab bo'ldi. Tnqilobiy va milliy-ozodlik harakatlariga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida Yevropa davlatlarining reaksion hukumatlari o'zaro "Muqaddas ittifoq" deb atalgan ittifoq luzdilar. 1815 yil 26 senlyabrda Aleksandr 1 tomonidan tayyorlangan bu hujjat Angliya va Turkiyadan tashqari barcha monarxik davlatlar tomonidan imzolandi. Unung a'zolari sof birodariik va xristian dini prinsiplaridan kelib chiqqan holda bir-birini qo'llab-quvvatlash majburiyatini oldilar.

Ikkinchi mperiyaning ijtimoiy mohiyati

1851 va 1852 yillardagi ikkita davlat to'ntaruvi natijasida Fransiya burjuaziyaning favqulodda hukumronligiga asoslangan Napoleon III boshchiligida ikkinchi imperiya tashkil topdi. Bu ochiqdan-ochiq harbiy -burjuaziya diktaturasi edi.

Fransiya Bonapartlar hukumronligi o'rnatilishi birinchi marta XVIII asr frantsuz. burjua inqilobidan so'ng mamlakatda xalq ommasi va burjuaziyaning o'zaro ko'rashi natijasida zaiflashgari, inqilobdan ortiqcha tashvishga tushgan burjuazivanning mustahkam hokimiyatga bo'lgan zaruriyati va dehqonlarning qo'llab-quvvatlashi natijasida Napoleon 1 hokimiyatga kelishi bilan yuz bergan edi.

Shundan so'ng bo'lib o'tgan liklanish davriga qararnasdan Fransiyaning mustamlak alar dan mabrum bo'lishi va Angliya tomonidan raqobatning kuchayishi uning taraqqiyotini to'xtatib qo'ydi. Ammo XVIII asr frantsuz burjua inqilobining ahamiyati shu qadar buyuk ediki, u juda qisqa vaqt ichida mamlakatni Yevropa qit'asidagi ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqdi va shuning uchun ham Fransiya kapitalizmning ziddiyatlari boshqa mamlakatlarga qaraganda kuchliroq namoyon bo'ldi. 1848 yil iyun

voqealarida ushbu vaziyat yaqqol ko'zga tashlanadi. 1848 yil inqilobi maglubiyatga uchragandan so'ng frantsuz burjuaziyasi o'zining hukmronligini saqlab qolish uchun davlat mashinasini yangidan kuchaytirishga harakat qilib, juda ayyor va shu bilan birga katta ta'sirga ega bo'lgan Napoleon III nomzodini ko'tarib chiqdilar. Napoleon Bonapart davridagi kabi dehqonlar yana ushbu nomzodni qo'lladilar. Napoleon I ning jiyanini Lui Napoleon III nomi bilan Fransiya taxtiga o'tirdi.

Napoleon III burjuaziya hukmronligini ta'minlagan holda, uning har qanday talab va istaklarini bajarishga harakat qildi. O'z navbatida burjuaziyaning yuqori doiralari- bankirlar, sudxurlar, yirik yer egalari, sanoat burjuaziyasi Napoleon III ning asosiy tayanchlari edi.

Kapitalning konsentratsiyalanish jarayoni juda tez borib, XIX asrning 60- yillarida bankir Rotshild va zavodchi Shneyder kabi arximillionerlar paydo bo'ldi. Ular Fransiya boyliklarining aksariyat qismini o'z qo'llarida jamlab olgan edilar. Krezo shahrida Shneyderning butun Fransiya davridagi eng yirik to'p ishlab chiqaruvchi va temir quyuvchi zavodlari mavjud edi. Napoleon III davrida Shneyder Qonun ehqaruvchi korpus deb ataluvchi Quyi palataning raisi edi. Xuddi shunday, yirik bankirlar Fuid va Rotshildlar ham juda katta tasirga ega edilar.

Napoleon III va uning davlat apparati yirik bankirlar, temir yo'l egalari va sanoat qirollariga tob e edi. Imperator muhim davlat lavozimlariga Fransiyaning boshqarish organlariga mmistrlar, senatorlar, davlat kengashi a'zolari, merlar, kommuna, kengashlarining raislarini va boshqa davlat arboblarni tayinlar edi. 1852 yil konstitutsiyasiga muvofiq quyi palata umumiy saylov asosida saylanardi. Quyi palata -Qonun chiqaruvchi korpusning mavjudligi ikkinchi imperiya davrida parlament tizimining borligiga asos bo'la olmaydi. U Napoleon III ga bo'ysunuvchi va hech qanday qonun chiqaruvchi tashabbusga ega bo'lmagan oddiy palata edi. Barcha deputatlar va deputatlikka nomzodlardan imperiyaga sodiqlik to'g'risida qasamyod talab qilinar edi. 1848-1849 yillardagi Fransiya davridagi inqilobiy voqcalardan vahimaga tushgan burjuaziya Napoleon III davrida politsiya-byurokratik va harbiy apparatni kengaytirdi. Frantsuz armiyasi tarkibidagi askarlar va zobitlarning soni 400 ming kishiga, ma'muriy apparatdagi amaldorlarning soni esa 500 ming kishiga etdi. Napoleon III nafaqat armiya va politsiyaning, balki 40ming kishilik katolik ruhoniylar va 50 ming kishidan iborat monarxiyachilarning kuchiga ham tayandi.

Ikkinchi imperiya davrida iqtisodiy taraqqiyot

XIX asrning 50-60-yillarida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti iyul monarxiyasi davriga qaraganda ancha tez bordi. 1851-1869 yillarda mamlakatning milliy daromadi 2 barobar oshdi. Temir va po'lat ishlab chiqarish esa 5 million tonnadan 20 million tonnaga yetdi. Bug' mashinalarining soni esa 8 mingdan 33 mingga yetdi. Ammo mamlakatda og'ir industriyaning taraqqiyoti yengil sanoatdan orqada qolmoqda edi. Fransiya temiryo'l turlari bilan qoplandi. Temiryo'l liniyalarining umumiy uzunligi 17,5 ming km ga etdi. 1879 yilda frantsuz tijorat flotining tonnasi 1 million tonnadan oshib ketdi Uning 200 ming tonnasi bug' kemalari zimmasiga to'g'ri kelardi. Bu vaqtda Angliya bug' kemalarining tonnasi 1 million 250 ming tonnani, yelkanli kemalar bilan birga esa umumiy tonnaji 6 million tonnani tashkil qilardi.

Angliyadan farqli holda Fransiya fabrika sanoatining tez rivojlanishi bilan birga ko'p sonli mayda - qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish mavjud bo'lib qolaverdi. 60-yillarda Angliyada yirik mashina ishlab chiqarish, hunarmandchilik va mayda ishlab chiqarishni butunlay siqib chiqardi. Mamlakat poytaxti bo'lgan Parijda mayda ishlab chiqarish ko'proq edi. Parijda yirik ishlab chiqarish korxonalari o'nlab zavodlar, tamaki fabrikalari, tipografiyalar va boshqalar mavjud edi. Ammo bu yirik korxonalarda 440 ming kishilik sanoat ishchilarining bor-yugi 50 ming band edi, xolos.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida banklarning roli oshdi. 1848 yilgi inqirozdan so'ng departamentlarning emissiya banklari frantsuz bankiga aylantirildi. Mamlakatda faqat frantsuz bankigina qog'oz pullarni chiqarish huquqiga ega edi. Yangi "Kredi mobil" va "Lion krediti" banklari katta ta'sirga ega bo'ldi. 1852 yilda dehqon xo'jaliklarini kapital bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan "Yer krediti" banki tashkil qilindi. Frantsuz qishloqlarida mayda dehqon xo'jaliklari ko'pchilikni tashkil qilib, ular "partsellar" deb atalar edi. Barcha dehqon xo'jaliklarining 75 foizini 10 gektargacha ega bo'lgan xo'jaliklar, 19 %ini o'rta dehqon xo'jaliklari, 4,7 %ini yirik -- 40 gektardan ziyod ega bo'lgan xo'jaliklar, tashkil qilardi, Mamlakatda 3 millionga yaqin dehqon-batralar mavjud edi. Bundan tashqari 1 milliondan ko'proq yer va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan dehqonlar ish izlab shaharga ketgan edi. Shunday qilib, Fransiyaning millionlab dehqonlari qashshoqlikka mabkum qilingan edi. Bu Napoleon III ni qo'llab - quvvatlaganliklari uchun frantsuz dehqonlariga imperatorning "minnatdorchiligi" edi.

Ikkinchi imperiyaning ichki va tashqi siyosati

Napoleon III har tomonlama mamlakatda sanoat taraqqiyotiga homiylik qildi. U sanoatni himoya qiluvchi tariflarni qo'llab-quvvatladi. Sanoatni rag'batlantirish maqsadida 1855 yil Parijda butunjahon ko'rgazmasi lashkil qilindi. Napoleon III ayniqsa moliyachilarga ko'proq imkoniyat yaratdi. XIX asrning 50- yillarida bir qator yangi banklar

- "Hisob banki", "Kredit mobele", "Lion krediti" va boshqalar ochildi. Ikkinchi imperiya davrida birja chayqovchiligi avjiga chiqdi. Unda imperatorning o'zi va ministrlar ham ishtirok etdi.

Imperator, tog' asi Napoleon I ning "Qachonki ishchi beish qolsa, uni isyon ko'tarishga chorlash oson bo'ladi," - degan so'zlariga qat'iy amal qildi. Shuning uchun "u ochlik qo'zg'olonlari, 200 ming kishilik armiyani mag'lubiyatidan ham daxshatliroqdir,"

- deb ishsizlar uchun ko'plab jam o'at ishlarini tashkil qiladi. Botqoqlar quritildi, tog' yo'nbag'irlarida bahorgi sellarni oldini olish maqsadida o'rmonlar tashkil qilindi. Shaharning ko'plab aholi kvartallari buzilib, yangidan keng prospektlar qurildi. Bu ishlarni bajarishga ko'plab parijlik ishsizlar jalb qilindi.

1857 yildagi iqtisodiy inqiroz Fransiyada ijtimoiy-siyosiy harakatlarni yangidan ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Respublika tarafdorlari qatagon qilindi, ammo imperiya davrida qonun chiqaruvchi korpusga, asosan, respublika tarafdorlari saylangan bo'lib, bu imperiyaga qarshi to'g'ridan-to'g'ri chaqiruv edi. Fransiya imperiyasining tiklanishi va iyul monarxiyasi davrida o'zining tashqi siyosati borasida Angliya bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Biroq, bu frantsuz burjuaziyasining noroziligiga sabab bo'ldi. Fransiya mustamlakachilik imperiyasini tashkil qilish harakati 1830-1847- yillarda Jazoirning bosib olinishi bilan boshlangan edi.

Ammo 1840- yildagi Sharq inqirozida Fransiyaning mag'lubiyati Angliya va Rossiya oldida taslim bo'lganligi. frantsuz burjuaziyasining xotirasida edi. 1848- yil inqilobidan so'ng Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti natijasida Napoleon III Angliya bilan ittifoqchilikda Sharq masalasi borasida Rossiyaga qarshi urush e'lon qildi.

Turkiya XVI asrdan buyon Fransiyaning homiyligi ostida bo'lib, XIX asrda ham u Frantsuz zayomlari, sanoat mahsulotlari va harbiy yordamiga muhtoj edi. Nikolay I ning 1853- yilda Peterburgdagi ingliz elchisiga, Fransiyasiz Turkiyani bo'lib olish to'g'risidagi taklifi Napoleon III ning g'azabiga sabab bo'ldi. Natijada, Angliya, Fransiya va Turkiyaning Rossiyaga qarshi Qrim urushi (1853-1856 yillar) kelib ehiqdi. Urushda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan ancha qoloq bo'lgan Rossiya mag'lubiyatga uchradi. Rossiyaning mag'lubiyati rus chorizmining Yevropa jandarmi ro'ldan mahrum bo'lishi va shu bilan birga Fransiya uchun yangi bosqich - Yevropa kontinentida hukmronlik bosqichini boshlab berdi.

Qrim urushidan so'ng o'lgan 15 yil davomida Fransiya Yevropa kontinentidagi eng kuchli davlat bo'lib qoldi

Fransiya 1859- yili Avstriya bilan bo'lgan urushda katta muvaffaqiyatga erishdi Bu urushni Napoleon Italiyaning ozod qilish shiori ostida boshladi. Buning uchun Fransiya chegaradosh bo'lgan Italiyaning Savoyi va Nitsta viloyatlarini qo'shib oladigan bo'ldi. Natijada, Fransiyaning kontinentdagi mavqei yanada kuchaydi. bundan hatto Angliya hukumati ham tashvishga lusa boshladi.

Napoleon III mustamlakachilik borasida erkin va faol tashqi siyosat yuritish maqsadida Angliyaga yon berdi. 1860-yil qonun chiqaruvchi korpusning rozilgisiz Angliya bilan savdo shartnomasini imzoladi. Bu shartnomaga ko'ra Frantsuz bozorlari nisbatan, arzon bo'lgan ingliz mahsulotlari uchun ochib qo'yildi. Fransiyaning boshqa davlatlar bilan imzolagan fridrid (erkin savdo) shartnomalari Fransiya uchun unchalik xavfli emas edi. Chunki bu davlatlarning aksariyati sanoat sohasida ancha qoloq edi. Ammo Angliya bilan imzolangan savdo shartnomasi frantsuz sanoatchilarining noroziligini tugdirdi. Napoleon III ning Angliya bilan imzolagan savdo shartnomasi burjua muxolifatini kuchaytirgan bo'lsa, 1859-yildagi Napoleonning Avstriya ustidan erishgan g'alabasi uni katolik cherkovini qo'llab-quvvatlashidan mahrum etdi va klerikal muxolifatini paydo qildi. Fransiyaning Avstriya bilan urushi natijasida papa qo'li ostida bo'lgan Italiya hududlarining ko'pchiligi birlashtirildi, natijada papalikning nufu'zi tushib ketdi.

Avstriya-Germaniya va Rossiyadagi milliy-ozodlik harakatlari, inqilobiy vaziyat Napoleon III ni Fransiyada liberal islohotlar o'tkazishga majbur qildi. Shuning uchun, imperiyaning 1860-yilgacha bo'lgan davri avtoritar va undan keyingi davri esa liberal imperiya davri, deb ataladi. Ammo liberal islohotlar davrida

ham Napoleon III ning mamlakat boshqaruvi o'zgarishsiz qoldi. Ammo imperator tomonidan liberal yon berishlar jamoatchilikni qoniqtirmadi va shunda Napoleon III mamlakat xalq ommasining e'tiborini tashqi siyosat masalalariga jalb qilmoqchi bo'ldi.

50- yillarning oxiri va 60-yillarning boshlarida Fransiyaning Turkiyaga ta'siri kuchaydi. Bolqonda mustaqil tashqi siyosat yuritib, Yaqin Sharqdagi o'zining ittifoqchisi sifatida Ruminiyaning tashkil topishini ta'minladi. 1860- yilda frantsuzlarning Suriyaga yurishi, Suvaysh kanalining kurilishi bilan bog'liq bo'lib, kanal 1869 yilda qo'rib bitkazildi. 60-yillar boshida Fransiya Hindi-Xitoyni zabt etishga erishdi. 50-60-yillarda Fransiya Xitoyga va Yaponiyaga qarshi harbiy harakatlarda qatnashdi.

1859-1862 yillarda Fransiya Rossiya bilan yaqinlashish yo'llarini qidirdi. 1859 yil Avstriyaga qarshi urushga tayyorlanib, Rossiyaning betarafligi to'g'risida maxfiy shartnoma imzoladi. Fransiyaning Rossiya bilan yaqinlashuvi Angliyani tashvishga soldi. 1863 yilda Polshadagi xalq qo'zg'olonini bostirishda Rossiyaning shafqatsizligiga qarshi Angliya Napoleon III dan Polsha masalasida Vena kongressiga o'xshagan Yevropa kongressini chaqirishni talab qildi, Angliya o'zining maqsadiga erishdi, Fransiya Rossiya munosabatlari bo'zildi.

Germaniyada birlasbish jarayoni boshlangach, Napoleon III bundan manfaatlanmoqchi bo'ldi. 1865 yilda Bismark bilan bo'lgan uchrashuvda agar Fransiya Germaniyaning biriashuviga qarshilik ko'rsatmasa, unga hududiy rag'batlantirish berilishi va'da qilindi. 1866 yildagi Prussiyaning Avstriya bilan bo'lgan urushi oldidan ham Bismark va'dasini takrorladi. Natijada Fransiya bu urushda betaraf turdi. Shimoliy Germaniya ittifoqining tashkil topishiga ham kompensatsiya olish umidida bo'lgan Napoleon III qarshilik ko'rsalmadi. Napoleon III ning Lyuksemburgni Fransiya ixtiyoriga berish to'g'risidagi talabi Bismark tomonidan rad etildi. Aleksandr I ning Bismarkni qo'ldan quvvatlashi franko-rus munosabatlarini yomonlashtirdi.

Uzluksiz urushlar va foydasiz diplomatik chiqishlar bilan Napoleon III xalq ommasini monarxiyaga qarshi kurashdan, burjuaziyani esa parlamentar maqsadiga erishdi. 60- yillarning oxirlariga kelib, Meksika va Germaniya bilan bo'lgan urushdagi mag'lubiyat vaziyatni o'zgartirib yubordi.

1846-1848 yillarda AQSh Meksikaga hujum qilib, uning territoriyasining beshdan ikki qismini tashkil qiluvchi Yangi Meksika va Yuqori Kaliforniya viloyatlarini bosib oldi.

1861 yilda AQShda fuqarolar urushi boshlanishi bilan Meksika pre'identi Benito Xuaros ikki yilga chet el zayomlarini to'lashni to'xtatdi. Natijada Angliya-Fransiya va Ispaniya

1862 yilda Meksikada pomeshchiklar va ruyonlarning hukmronligini tiklash maqsadida salib yurishini boshladilar. Bu intervensiyaning tashabbuskori Palmerston edi. Tezda intervensiyachilar o'rtasida nizo kelib chiqdi. Angliya va Ispaniya o'zining qo'shinlarini chaqirib oldi. Fransuz armiyasi esa harbiy harakatlarni davom ettirdi. Meksika respublikasi kofoniyaga aylanirildi, unga Napoleon III ning noibi sifatida Avstriya citsergersogi Maksimilian o'tirdi. Meksikada interventlarga qarshi partizanlar urushi boshlanib ketdi. Monro doktrinasiga ishora qilib, AQShning tashqi ishlar vaziri Syuard Napoleon III dan harbiy harakatlarni to'xtatishni talab qildi. AQShda fuqarolar urushi nixoyasiga o'gach, 1866 yilda Amerika hukumati Fransiya ultimatum qo'yib, Napoleon III ni Meksikadagi frantsuz harbiy ekspeditsion korpusini chaqirib olishga majbur o'di.

Ikkinchi imperiya davrida ijtimoiy siyosiy harakatlar va imperiyaning inqirozi

Imperiya o'rnatilgandan so'ng ishchi tashkilotlar ta'qib ostiga olindi. Liondagi ishchi ittifoqlari tugatildi, ishchi kooperativlari va "Ishchilarni birlashtirish jamiyatlari", Parijdagi "Xo'jalik jamiyati" o'zlarining inventarlarini sotishga va faoliyatini lo'xtatishga majbur bo'ldilar. Davlat to'ntaruvigacha Fransiya mavjud bo'lgan 290 ta ishlab chiqarish kooperativlaridan bor yo'g'i 15 tasi saqlanib qoldi.

Ishchilarning iqtisodiy ahvoli niyoyatda yomonlashdi. Ayrim ishchilardan ish haqi ko'tarilishiga qaramasdan eng zarur oziq-ovqat maysulotlarining narxi 45% , kvartira haqi 70% ko'tarilganligi sababli ahvol tangligicha qolaverdi. Aksariyat korxonalarda ish kuni 12 soatdan ziyod bo'lib, bolalar va ayollarni ekspluatatsiya qilish kuchaydi.

Shu bilan birga Napoleon III "Ishchi tashkilotlarini" tinchlantirishga harakat qildi. Bunday jamiyatlar politsiyaning ko'rigidan o'tgan bo'lib, imperator ularning raislarini tayinlashi lozim edi. Bunday jamiyatlar bepul bino, mebel, davlatdan moliyaviy yordam olish kabi imtiyozlar bilan ta'minlangan edi. "Politsiya sotsializmi" deb atalgan bunday jamiyatlarni qurishga u'rinish muvaffaqiyatsiz bo'ldi, ishchilarning norozilik

chiqishlari davom etdi. 50-yillarda ishchilarning imperiyaga qarshi norozilik harakatlari ish tashlashlar bilan, siyosiy chiqishlari esa, suiqasd va terroristik ko'rinishlar bilan bordi.

1855 yil Anjer yaqinida 600 ta qurollangan ishchilar shaharni c'gallash uchun qo'zg'aldilar. Ammo ular hukumat qo'shini tomonidan lor-mor etildi. Bu qo'zg'olonchilar "Marianna" jamiyatiga mansub bo'lib, ular respublika tarafdorlari edilar (Marianna-frantsuz respublikasini aks ettiruvchi ayolning nomi edi).

Respublikachi maxfiy jamiyatlar va to'garaklar qatorida 50- yillarda Fransiya sotsialistik tashkilotlar ham mavjud edi. Masalan, Anzen shaxridagi shaxty or laming maxtiy tashkiloti 1856 yil may oyida tashkil qilinib, u o'zining bosh maqsadi sifatida demokratik respublika o'raatishga harakat qildi.

1859 yildan so'ng Fransiya yakobinchilardan iborat bo'Igan harakat qaytadan jonlandi. Bu yakobinchilar 1792 yildagi kabi konvent chaqirib, imperiyani ag'darilishini va xususiy mulkni daxlsiz, deb e'lon qilinishini talab qilayotgah edilar. Yakobinchilar asosan mayda burjuaziya va ziyolilardan iborat edi. Ayrim sotsialistik elementlar ulardan ajralib chiqib, blankichilarga qo'shildi,

Blankichilar partiyasi 1859 yilgi avfdan so'ng Blankining Fransiya qaytishi bilan tashkil topdi. Uning yadrosini inqilobiy ziyolilar, o'quvchi va talaba yoshlar, qisman' ishchilar tashkil etdi. Bu jamiyat o'z oldiga bir hovuch ziyolilarning fitnalar uyushtirishi bilan hokimiyatni qo'lga kiritish va o'zining diktaturasini o'rnatishni maqsad qilib qo'ygan edi.

60- yillarning boshida mamlakatda bo'Igan ish tashlashlar nattjasida XVIII asr frantsuz burjua inqilobi davrida ehiqarilgan Le-Shapele qonuni 1864 yilda bckor qilindi. Bu qonun ishchi ittifoqlarining faoliyatini ta'qiqlar edi. Qonunning bekor qilinishi ishchilar harakatining jonlanishiga sabab bo'ldi.

60-yillaming oxirlaridan boshlab, ikkinchi imperiyaning davlat binosiga darz keta boshladi. Napoleon III ning reaksion ichki va doimiy bocqinchilik urushlarini olib borish siyosati xalq ommasining katta noroziligiga sabab bo'ldi.

Frantsuz burjuaziyasi imperatorning muvaffaqiyatsiz tashqi siyosatidan kalta moliyaviy zarar ko'rayotgan edi. Fransiya qo'shni hududda zaif, tarqoq german davlatlari o'nida Prussiya boshchiligida Fransiya xavfli raqib Shimoliy Germaniya ittifoqi tashkil topdi. Italiyaning birlashishi ham Yevropadagi kuchlar nisbatini Fransiya zarariga o'zgartirib yubordi. Frantsuz jamiyati yuqori doiralarning noroziligiga papaga yordam sifatida Rimga frantsuz qo'shinlarining jo'natilishi ham sabab bo'ldi. 1867 yil 3 noyabrda frantsuz qo'shinlari papani yollanma qo'shini bilan ittifoqchilikda Mcnlane yaqinida garibaldichilarni tor-mor o'di, Rim papa hokimiyati ostida qolaverdi. Italiyan xalqining milliy birlashish uchun kurashiga Fransiyaning aralashuvi frantsuz xalqi demokratik qatlamlarining g'azabini uyg'otdi.

Juda ko'p mablag' sarflangan mustamlakachilik ekspeditsiyalari, imprator saroyini ta'minlash uchun ham ko'p mablag' sarflanishi, ma'muriyatning xoinligi, nafaqat keng xalq" ommasida, balki imperator bilan hamkorlikda bo'Igan savdo-sanoat burjuaziyasi da ham norozilik tug'dirdi. Ayniqsa, 1867 yilda juda ko'p qurbonlar talab qilgan Meksika harbiy ekspeditsiyasining muvaffaqiyatsizlik bilan tugashi bu noroziliklarni nihoyatda kuchaytirdi.

60- yiliarning oxirlaridan Fransiya ish tashlashlar yanada xavfli tus oldi. Agar 50-yillarda ish tashlashlar asosan iqtisodiy ahamiyat kasb etgan bo'lsa, 60-yillardan boshlab u siyosiy chiqish tusini ola boshladi.

Mamlakatda o'sib borayotgan inqiroz Napoleon III ni bir qancha yon berishlarga majbur qildi (Senzuraning yumshatilishi, Quyi palataga qonun chiqaruvchilik tashabbusini berilishi va boshqalar shular jumlasidandir). Ammo bunday mayda yon berishlar ommaning noroziligini barlaraf etmadi. 1867-yilda Prussiyaning Avstriyaga qarshi urushining muvaffaqiyatli tugashi va Shimoliy Germaniya ittifoqining tashkil topishi, Meksika yurishining barbod bo'lishi, imperiya inqirozini kuchaytirdi. Fransiyaning 1870 yil Germaniyaga qarshi urushidagi maglubiyati imperiya inqirozining eng yuqori nuqtasi bo'ldi.

Nazorat uchun savollar!

1. Inqilob arafasida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2. "Notabllar majlisi" va undan ko' zlangan maqsad.
3. Bastiliya olinishining inqilobni borishdagi o'rni va tarixiy ahamiyati
4. "Ta'sis majlisi"ning chaqirilishi va uning qonunchilik faoliyati
5. "Inson va fuqaro huquqlari deklarasiyasr'ni qabul qilinishining tarixiy ahamiyati
6. "Le-Shape)e qonunr'ning mazmuni

7. "Varerm inqirozi"ning mohiyati
8. Inqilob davomida turli siyosiy klublarning tashkil topishi
9. Inqilob bosqichlarining tavsifi.
10. Inqilobiy Fransiya olib borgan urushlar va ularning tabiati
11. Yakobinchilarning islohotchilik faoliyati
12. Vandesdagi dehqonlar qo'zg'oloni
13. 1793 yilgi konstitusiyaning tarixiy ahamiyati
14. 9-Termidor davlat to'ntaruvining oqibatlari.
15. F. Babyov va uning "Tenglar jamiyati"
16. 18-bryumer davlat to'ntaruvi.
17. Konsullik davrida Fransiyaning ichki siyosati.
18. Napoleon Fransiyasining papa va papalikka munosabati.
19. 1801 yilda tuzilgan konkardatning mohiyati.
20. 1802 yilgi Am'en sulhi va Angliya-Fransiya munosabatlari.
21. Napoleon urushlari va diplomatiyasining yutuqlari.
22. Fransiya impcriyasinin ichki siyosati.
23. Napoleon kodekslarining ijtimoiy mohiyati.
24. "Kontinenlal blokada"ning mohiyati va maqsadi.
25. Tilzit sulhi va unung oqibatlari.
26. Frantsuz qo'shinlaining Rossiyaga yurushi va unung oqibatlari.
27. "Xalqlar jangi" va unung tarixiy ahamiyati. Napoteonning taqdiri.
28. Legitimizm prinsipining mohiyati.
29. Vena kongressining: maqsadi, vazifalari va natijalari.
30. "Muqaddas iltitbq"ning mohiyati va maqsadi.
31. Fransiyada Ikkinchi imperiyaning ijtimoiy mohiyati
32. Napoleon III ning ma'muriy, politsiya va harbiy-byurokratik apparati.
33. Ikkinchi imperiya davrida iqtisodiy taraqqiyot.
34. Qishloq xo'jaligi va frantsuz dehqonlarining ahvoli.
35. Napoleon III ning aholini ish bilan ta'minlashdagi chora-tadbirlari.
36. Ikkinchi imperiyaning tashqi siyosati.
37. Fransiya va papalik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.
38. "Meksika yurishi" ning oqibatlari.
39. Napoleon III ning ishchi tashkilotlariga bo'lgan munosabali.
40. Ikkinchi imperiyaning ijtimoiy-iqlisodiy va siyosiy inqirozining keskinlashuvi

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Karimov I A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998.
2. Karimov I A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
4. Xrestomatiya po novoy istorii. G' Pod red. A.A Gubera i A.V. Efimova. V T., M., 1963 – 1965. T.G\ '
5. Taleyran SH. M. Memuari. M., 1959.
6. Kolenkur A. Poxod Napoleona v Rossiyu. M., 1943.
7. Manfred A.Z. Napoleon Bonapart. M., 1980. S. Tarle E.V. Napoleon. G'G' Soch. M., 1959. T. VII.
8. Troitsskiy N. A. Aleksandr I Napoleon. M., 1994.
- V. Guban -Baranovskiy D.M. Proisxojdienie rejima Napoleona I. Saratov, 1989.
9. Taleyran Sh.M. Memuari. M. 1959.
10. Kolenkur A. Memuari. Poxod Napoleona v Rossiyu. M., 1943.
11. Manfred A.Z. Napoleon Bonapart. M., 1980.
12. Tarle E.V. Napoleon. Soch. M., 1959., tVH.
13. Tarle E.V. Kontinentalnayablokada. Soch. M., 1957., T3.
14. Troilskiy N.A. Aleksandr I i Napoleon. M., 1994.
15. Tugan-Baranovskiy D.M. U istokov bonapartizma. Proisxojdienie rejima Napoleona I. Saratov,

1989.

16 Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki. T-I. M., 1998.

Mavzu: Yevropa davlatlarida 1848-1849 yillar inqilobi.

REJA:

1. Fransiya 1848-1849 yillar inqilobi va uning oqibatlari.
2. Germaniya 1848-1849 yillar inqilobi, uning borisli va natijalari.
3. Avstriya 1848-1849 yillar inqilobi va uning umumiy xususiyatlari.
4. Italiya 1848-1849 yillar inqilobi va uning yakunlari.

Tayanch iboralar:

Fransiya: "Emigrantlar qiroli". "Iyul monarxiyasi". Respublikani e'lon qilinishi. Muvaqqat hukumat. Milliy ustaxonalar. Harakatchan gvardiya. "Lyuksemburg komissiyasi". "45 santimli soliq". Ta'sis majlisi. 23-iyun qo'zg'oloni. 1848 yil konstitusiyasi. Legimimistlar. Orleanchilar. Bonaparlchilar. "Tartib partiyasi". 1851 yil davlat lo'ntaruvi.

Germaniya: Inqilobning bosh masalasi. Badendagi inqilobiy harakatlar. Prussiya 1848 yil mart inqilobi. Frankfurt parlamenti. Maxsus komissiya. Germaniyani birlashtirish yo'llari. Kichik Germaniya. Buyuk Germaniya. Shlezvig-Golnteyn muammosi. Maimyo bitimi. 9-noyabr davlat to'ntarishi. Imperiya konstitusiyasi.

Avstriya: Inqilobning bosh masalasi. 13 martdagi Vena voqcalari. Akademik legionlar. Peshtdagi inqilobiy harakatlar. Shandor Petefi. 12 talabdan iborat dastur. Graf Batian. Svyatovanlov komiteti. "Xorvat-Sloven-Dalmasiya qirolligi". Slavyanlar kongressi. 1849 yil Avstriya konstitusiyasi. Koshut. Mudofaa komiteti. Vengriya inqilobining bostirilishi. Inqilobning oqibatlari.

Italiya: Inqilob arafasida Italiya. Inqilobning bosh masalasi. "Inqilobiy demokratlar". Mo'tadil liberallar". J.Madzini. "Yosh Italiya" jamiyati. J.Garibaldi. • Ttaliyani birlashtirish yo'llari. Abbat Joberti. Graf Kavur. Risorjimento. Inqilob bosqichlari. Rim respublikasi. Italiya inqilobining mag'lubiyati sabablari.

Fransiya 1848-1849 yillar inqilobi va uning oqibatlari

Napoleon Bonapart butunlay lor-mor etilgandan so'ng Fransiya burbonlar sulolasining hukmronligi qayta tiklandi. Fransiya qirolligi taxtiga Lyudovik XVIII o'tirdi. Burbonlar bilan Fransiya minglab emigrantlar ham keldi. Emigrantlar feodal imtiyozlarini va boy berilgan feodal mulklarini qaytarilishini talab qila boshladilar. Emigrantlar va katolik ruhoniylar butun mamlakat bo'ylab inqilob va Napoleon rejimining arboblari ta'qib va qirg'in qildilar. Favqulodda sudlar siyosiy ishlar bo'yicha 10 mingdan ziyod ayblov hukmlarini chiqardi. Mamlakatda feodallar reaksiyasi va terror hukm surdi. Biroq, Burbonlar monarxiyasining tiklanishi Fransiya Inqilobgacha bo'lgan rejimning qayta o'rnatilishiga olib kelmadi. Chunki, feodalizm va absolyutizmga to'liq qaytish mamlakatda yangidan inqilobiy norozilik harakatlariga sabab bo'lar edi.

1824 yilda qiroli Lyudovik XVIII vafotidan so'ng taxtga Karl X yoki keyinchalik "Emigrantlar qiroli" nomi bilan ma'lum bo'lgan graf d'Artua o'tirdi. Hukumat 1825 yilda inqilob davrida konfiskatsiya qilingan yer mulklari uchun emigrantlarga 1 milliard frank miqdorida pul kompensatsiyasi to'lash haqida qonun qabul qildi. Matbuotga nisbatan senzura kuchaytirildi, ruhoniylarning maktab va maorifga reaksiya nazorati o'rnatildi.

Restavratsiyaning reaksiya rejimiga qaramasdan mamlakat kapitalistik yo'ldan rivojlandi.

Qiroli Karl X hukmronlik yillarida liberalarning bir qismi burbonlar sulolasini-burjuaziyaga yaqin bo'lgan orleanchilar sulolasi bilan almashtirishga barakat qila boshladilar. Mamlakatda respublika tarafdorlari ham ancha faollashdi.

1827-1831 yillarda Fransiya ham dastlabki orliqcha ishlab chiqarish inqirozi ro'y berdi. Natijada xalqning norozilik harakatlari kuchayib, mamlakatda inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. 1830 yilning 25 yilida qiroli 4 ta ordonans (farmoyish) chiqardi. Ularga ko'ra deputatlar komiteti tarqatib yuborildi, saylov qonuni o'zgarililib, endi faqat yirik yer egalari saylov huquqiga ega bo'ldilar, matbuot erkinligi bekor qilindi va gazo'alarni chop etish uchun oldindan ruxsat olish tartibi joriy qilindi. 1830

yildagi qirol "ordonanslafl xalqning sabr kosasini to'ldirdi. Parijda qurolli qo'zg'olon ko'tarildi. Karl X mamlakatdan qochib keyinroq Angliya borib yashirindi. 1830 yilning 27-29 iyul kunlari Fransiya inqilob g'alaba qildi. Lui Filip Orleanskiy Fransiya qiroli deb e'lon qilindi. 1830 yil inqilobi dvoryan monarxiyasini burjua monarxiyasi bilan almashtirish bilan nihoyasiga etdi. Bu voqelik Fransiya tarixiga "Iyul inqilobi" nomi bilan kirdi. Fransiya "1830 yil xartiyasi" nomi bilan yangi konstitutsiya joriy qilindi. Matbuot va majlis erkinliklarining daxlsizligi e'lon qilindi. Endi iyul monarxiyasiga respublikachi-demokratlardan iborat muxolifat eng katta xavf solaboshladi. Iyul monarxiyasi yillarida Fransiya sanoat to'ntaruvining borish jarayoni jadallashdi. Hunarmandchilik va manufaktiira ishlab chiqarishi o'z o'rnini yirik mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishiga bera boshladi. Sanoat to'ntaruvining borishi ishchilar, hunarmandlar, dehqonlar kabi mehnatkash xalq ommasini ahvolini yanada og'irlashtirdi.

1846-1847 yillarda Fransiya burjua monarxiyasi chuqur inqirozni boshidan kechirdi. 1847 yil mamlakatda iqtisodiy inqirozning boshlanishi yangidan inqilobiy vaziyatni tug'dirdi. Fransiyaning ko'pchilik rayonlarida ochlik isyonlari boshlanib ketdi. 1848 yil 22 fevralda o'n minglab Parij aholisi namoyishga chiqdi. Tinch namoyish Milliy gvardiya qo'shini tomonidan o'qqa tutildi. Natijada Parijda qurolli qo'zg'olon boshlandi. 24 fevral kuni qirol saroyiga hujum boshlangach, Lui Filip saroyga elmagan o'g'li graf Parijskiy foydasiga taxtdan voz kechib, Angliya qochdi, tezda qirol saroyi qo'zg'olonchilar tomonidan egallandi.

Burjua liberallari graf Pahjskiyning onasi gersoginiya Orleanskaya regentligini o'rnatib, Fransiya monarhiyani saqlab qolishga harakat qildi. Biroq, palataning majlisi zaliga bostirib kirgan qurolli olomon, respublika e'lon qilinishini talab qildi. Fransiya respublika, deb e'lon qilindi. Muvaqqat hukumat tuzildi. Bir necha kundan so'ng 21 yoshga etgan barcha erkaklar uchun umumiy saylov huquqi haqida dekret chiqdi. Muvaqqat hukumat ishchilarga yon berdi. 2 mart kuni Jsh kunini bir soatga (Parijda 11 soatdan 10 soatga, provinsiyalarda 12 dan 11 soatga) qisqartirish haqida dekret chiqardi. Bundan lashqari muvaqqat hukumat ishsizlar uchun "Milliy ustaxonalar" nomi bilan ataluvchi jamoat ishlarini tashkil qildi. Milliy ustaxonalar faqat Parijda ochilib, ular Parij xiyobonlariga daraxtlar o'tqazish, ko'chalarni tuzatish kabi ishlar bilan shug'ullanganlar.

Milliy ustaxonalarda mehnat unumdorligidan qat'iy nazar barcha ishchilarga o'zaro teng -kuniga 2 frankdan maosh to'langan. Ishchilar harbiychasiga tashkil qilingan brigada, vzvod va rotalarga birlashtirilgan. May oyida milliy ustaxonalarda 100 mingdan ziyod ishchilar bolgan.

Muvaqqat hukumat ko'ngillilardan maxsus otryad "harakatchan gvardiya" tuzdi. Harakatchan gvardiyada 24 ta batalon bo'lib, har bir batalon 1000 kishidan iborat bo'lgan. Ishsizlar va shahar qashshoqlaridan iborat "Harakatchan gvardiya"ni hukumat inqilobiy norizilik harakatlarini bosirish maqsadida tashkil etdi.

Ishchilarning "Mehnat va taraqqiyot vazirligi" ni tuzish to'g'risidagi talabiga ko'ra hukumat "Ishchilar masalasi bo'yicha hukumat komissiyasi"ni tuzdi. Bu komissiya raisi qilib respublikachi Lui Blan tayinlandi. Komissiya yig'ilish va majlislarini o'lkazish uchun Lyuksemburg saroyi ajratilib, shu saroy nomi bilan u "Lyuksemburg komissiyasi" deb atalgan. Bu komissiya ishchilar bilan tadbirkorlar va korxona egalari kelishtirish, ular o'rtasidagi munosabatlarni - ish haqi, jarima kabi masalalarni hal qilish bilan muvofiqlashtirib turgan.

Fevral inqilobi mamlakatda iqtisodiy inqirozni yanada chuqurlashtirdi. Muvaqqat hukumat iqtisodiy inqirozning barcha og'irliklarini mehnatkashlar zimmasiga yukladi. Eski soliqlar saqlab qolingan holda yangi soliqlar joriy qilindi, bir yilga dehqonlar to'laydigan to'g'ri soliqlar miqdori 45%ga oshirildi. Dehqonlar soliqning har bir franki uchun 45 santim qo'shimcha soliq (o'laganligi uchun bu soliq "45 santimli soliq" deb atalgan. Mazkur soliq, dehqonlarning iqtisodiy ahvoriga halokatli ta'sir qildi.

1848 yilda Fransiya respublikasi uchun xalqaro vaziyat juda qulay keldi. Fransiya inqilob G'ermaniya, Avstriya, Italiya inqilobiy va milliy ozodlik harakatlarning ko'tarilishiga, Angliya chartistlar harakatini yangidan jonlanishiga sabab bo'ldi. Bunday sharoitlarda na Rossiya, na Avstriya va na Prussiya Fransiya respublikasiga qarshi intervensiya uyushtirishga imkon topmadi.

1848 yil 23 aprelda ta'sis majlisiga saylovlar bo'ldi. 880 ta deputatlik nomzodlarining 500 tasini ishchilar, 100 ga yaqinini mayda burjua demokratlari egalladilar. Majlisdagi qolgan deputatlik joylari orleanchilar va legitimistlariga tegishli edi. Ta'sis majlisi 4-mayda o'zining faoliyatini boshladi, u muvaqqat hukumatni Ijroiya komissiya bilan almashtirdi.

15-may kuni 100 mingdan ziyodroq Parij aholisi namoyish uyushtirdi. Ular ishsizlikni tugatish, ruan ishchilarini qonga botirgan aybdorlarni jazolash, tashqi siyosatga Polsha mustaqilligini ta'minlash uchun qo'shin yuborishni talab qildilar. Lyuksemburg komissiyasi va milliy uslaxonalarni yopilganligi haqida hukumat qarori chiqdi. Milliy ustaxonalarda band, 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan ishchilar armiyaga safarbar etildi. qoiganlari provinsiyalarda botqoqlarni quritish, o'rmonlarda kesilgan daraxt to'nkalarini tozalash va boshqa shu kabi ishlarga jalb qilindi.

Bunga javoban 23 iyunda Parijda qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonchilarga qarshi 80 ming kishilik doimiy armiya va boshqa yordamchi kuchlardan iborat general Kavenyakning umumiy qo'mondonligidagi qo'shin tashlandi. Qo'zg'olonni bostirish va undan keyingi vaqt davomida 11 mingdan ziyod qo'zg'olonchilar qirib tasylandi, 3,5 ming kishi esa surgun qilindi.

1848 yil noyabrda konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko'ra mamlakatda qirol ega bo'lgan barcha huquqlar bilan prezident lavozimi joriy qilindi. Prezident umumiy saylov yo'li bilan 4 yilga saylangan. U parlamentdan butunlay mustaqil bo'lib, ministrlar, oily I frank 100 santim harbiy ofiserlar va boshqa amaldorlarni almashtirish yoki tayinlash vakolatlariga ega bo'lgan.

1848 yil 10 dekabrda prezident saylovlarida Napoleon I ning jiyani Lui Napoleon Bonapart g'alaba qildi. U 1836 va 1840 yillarda 2 marotaba Fransiyada hokimiyatni egallashga uringan o'ta ketgan avantyurist va ayyor siyosatchi edi.

Prezident saylovidan so'ng Ta'sis majlisi tarqatib yuborilib, 1849 yil may oyida qonun chiqaruvchi majlisga saylovlar bo'ldi. Fransiyada legitimistlar, orleanlar va bonapartchilardan iborat monarxiyachilar "Tartib partiyasi"ga birlashdilar. Saylovda monarxiyachilar g'laba qildilar va majlisda hukmron mavqeini egalladilar. Hukumat Rimda papa hokimiyatini tiklash va Italiyada Fransiyaning ta'sirini mustahkamlash uchun Rim respublikasiga qarshi frantsuz qo'shinlarini yubordi.

1850 yil 15 martda xalq ta'limi kalolik ruhomyar nazoratiga berilganligi haqida 31 mayda saylovchilar sonini 29% yoki 3 mln. kishiga qisqartirgan saylov haqida yangi qonun qabul qilindi.

Tartib partiyasi Fransiyada monarxiyani tiklash uchun zo'r berib harakat qildi. Kndi bu partiyaning o'zida ham (legitimistlar, orleanchilar va bonapartchilar o'rtasida)kurash boshlandi. Yirik yer egalari va oliy ruhoniylarning manfaatini himoya qiuuvchi legilimisllar. burbonlar, yirik kapitalistlar va bankirlardan iborat orleanchilar Lui Filip Orleanskiy vorislarining hukmronligini tiklashga harakat qildilar.

Bu uch siyosiy partiyalar kurashida Lui Napoleon boshchiligidagi bonapartchiiar qolgan 2 partiya ustidan g'alaba qildi. 1851 yilning 2 dekabriga o'tar kechasi Lui Napoleon davlat to'ntaruvini amalga oshirdi. Bir yildan so'ng, 1852 yilning 2 dekabrda Fransiyada ikkinchi marotaba imperiya, deb ataluvchi monarxiya tiklandi. Lui Napoleon, Napoleon III nomi bilan Fransiya imperatori. deb c'lon qilindi.

Germaniyada 1848-1849 yillar inqilobi, uning borishi va natijalari

XIX asrning 30-40-yillarida Gcrmaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, o'rta asrlar davridan meros qolib kelayotgan feodalizm qoldiqlarini va eng asosiysi, siyosiy tarqoqlikni tugatmasdan turib, mamlakalning ishlab chiqarish kuchlarini o'sishiga va mamlakatni birlashlirishga crishib bo'lmasligini ko'rsatdi. 40-yillarning oxirlarida burjuaziya muxolifatini kuchayishi va xalq ommasining norozilik harakatlarini ko'tarilishi siyosiy ahvolni yana keskinlashayotganligidan dalolat berdi. Fransiyada respublika eMon qilinishi haqidagi xabar, Germaniya davlatlarida inqilobiy harakatlarni boshlanishiga turtki bo'ldi.

Baden gersorigida xalq namoyishlari 1848 yil fevraldayoq boshlandi. Namoyishchilar palataga taqdim etgan talabnomada matbuot, majlis erkinligi,xalq militsiyasi,umumgerman Ta'sis majlisini chaqirish haqidagi xalqning qat'iy talablari aks etdi.Vahimaga tushgan gertsog Leopold bu lalablarning aksariyatini qondirishga majbur bo'ldi.

Mart oyida Prussiyada ham xalq ommasi demokralik islohotlarni talab qilib chiqdi.Berlinda xalq ommasining politsiya va hukumat qo'shini bilan qurolli to'qnashuvlari boshlandi. 18-mart kuni qirol konstitutsiya joriy qilish haqida farmoyish chiqardLalohida farmoyish bilan senzura bekor qilindi.Qirol Fridrix Vilgelm IV liberal ministirlardan iborat yangi hukumat tuzdi. Bu hukumat ayrim burjua islohotlarini amalga oshirish bilan qirol hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi.Prussiyadagi mart voqealari larixga "Mart inqilobi"nomi bilan kirdi.

Germaniya davlatlarida xalqning norozilik harakatlari burjuaziya orasidatezroq umumgerman Ta'sis majlisini chaqirish fikrini tug'dirdi. 31-martdan 3-aprelgacha bo'lgan muddatda Frankfurt-na-Maynida

german davlallari vakillarining parlament oldi majlisi (Syc'zdi) chaqirildi. Syc'zd majlis uchun saylovlar o'tkazishga qaror qildi.

1848-yil parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. 1848-yil 18-may kuni Frankfurlda parlament Markaziy Germaniya hukumatini tuzdi. Germaniya imperiyasining muvaffaqiyatli lavozimiga Avstriya ertsi gerssi logann saylandi, liberal ministrlardan iborat hukumat tuzildi, Markaziy hukumat Germaniyada real hokimiyatga ega bo'lmasdan, hokimiyat amalda alohida german davlatlarining monarxlar qo'lida qolaverdi.

Parlament tuzgan maxsus komissiyaning feodal soliq va majburiyatlarini bekor qilish, savdodagi soliq turlarini tugatish, mehnat qilish huquqini joriy qilish haqida olib borgan uzoq muzokaralari mustamlakachilikni qo'llab-quvvatlab. Poznanni bo'lg'o'si Germaniya imperiyasining ajralmas tarkibiy qismi deb hisobladi.

1848-1849 - yillarda (Germaniya davlatlarida bo'lib o'tgan inqilobning bosh masalasi Germaniyani birlashtirish edi. Germaniyani birlashtirishning 2 ta yo'li mavjud bo'lib, ulardan biri - xalq ommasining inqilobiy harakatlari bilan "quyidan" birlashtirish yoki Germaniya davlatlari orasidagi yirik davlatlar (Avstriya, Prussiya) ning biri boshchiligidagi "yul"dan birlashtirish edi.

Shimoliy german davlatlari burjuaziyasining aksariyati Prussiya boshchiligidagi Avstriyasiz "Kichik Germaniya" imperiyasini tuzishga janubiy-german davlatlarining burjuaziyasi esa iqtisodiy jihatdan qudratli bo'lgan Prussiya burjuaziyasining raqobatidan cho'chib. Avstriya ham qo'shilgan "Buyuk Germaniya" imperiyasini tuzishga harakat qildilar. Keyingisiga Avstriya imperiyasining burjuaziyasi ham intilmoqda edi.

Frankfurt parlamentining demokratik so'li oqimi Germaniya federativ respublikasini tuzishga harakat qildilar.

Daniya bilan shaxsiy uniya asosida birlashgan Shlezvig va Golshteyn gertsogliklarida mart oyida qo'zg'olon boshlanib, mazkur gertsogliklarda muvaqqat hukumat tuzildi. Bu gertsogliklar aholisi asosan nemislardan iborat bo'lib, muvaqqat hukumat Daniyadan ajralib chiqish uchun german davlatlaridan yordam so'radi. Xalqni inqilobiy harakatlardan chalg'itish maqsadida Prussiya Daniyaga harbiy qo'shin kiritdi. Tezda bu 2 gertsoglik Daniyadan ajratildi, biroq Rossiya, Angliya va Fransiyaning aralashuvi bilan Shvetsiyaning MaPmyo shahrida kelishuv bitimi imzolandi. Bu bitimga ko'ra mazkur xalqaro nizoz echilmaguncha Prussiya qo'shinlari Daniyadan chiqib ketishi lozim edi.

Germaniyani birlashtirishning maqsad va vazitalari mazkur kelishuv bitimini tuzishni taqozo etar edi, aks holda. u german davlatlarining Rossiya, Angliya va Fransiya bilan to'qnashuvini keltirib chiqarar edi. Shuning uchun 16-sentyabr kuni Frankfurt parlamenti Mal'myo kelishuv bitimini ma'qulladi. Bunga qarshi xalq ommasining Frankfurt-na-Mayneda yangidan norozilik chiqishlari hoshiandi, lekin, u Prussiya va Avstriya qo'shinlari tomonidan tezda bostirildi.

1848 yilning kuz fasliga kelib, Germaniya davlatlarida hukumatlarning inqilobga qarshi kuchlari ustunlikni qo'lga kiritish boshladilar. Vena qo'zg'oloni bostirilgandan so'ng, Prussiya qiroli Fridrix Vilgelm IV inqilobning eng ashaddiy dushmanlarini ministrlar lavozimlariga tayinlay boshladi. Ichki ishlar ministri qilib O. Manteyfel tayinlandi. 1848 yil 9 noyabrda qiroli Ta'sis majlisi yig'ilishini Berlindan aholisining soni kamroq bo'lgan provinsial shahar Brandenburgga ko'chirish haqida farmoyish chiqardi. Bu voqelik 9 noyabr davlat to'ntaruv nomi bilan ataldi. 5-dekabrda Millal majlisini bekor qilganligi haqida farmoyish chiqdi. Bu konstitutsiya keyinchalik Manteyfel konstitutsiyasi deb ataldi. Konstitutsiya mart inqilobi qo'lga kiritgan yutuqlarining ko'pchiligini saqlab qoldi. Biroq, u qiroлга qonun chiqaruvchi palatalarning har qanday qarorini bekor qilish huquqini berdi. 1849 yil 30 maydagi saylov haqidagi yangi qonun Prussiyada yana senzi saylovni joriy qildi. 1850 yil 2 martida dehqonlarning mayda feodal soliq va majburiyatlari bekor qilindi.

1849 yil 28 martda Frankfurt parlamenti imperiya konstitutsiyasini qabul qildi. Unga ko'ra, Germaniyada meros o'tuvchi imperator hokimiyati va ikki palatadan iborat reyxo'ag joriy qilindi. Konstitutsiya xalqqa qonun oldida barchaning tengligi, shaxs va xususiy mulkning daxlsizligi va bosqqa burjua erkinliklarini berdi.

Avstriyada 1848-1849 yillar inqilobi va ularning umumiy xususiyatlari

Germaniya davlatlarida inqilobning bosh masalasi german davlatlarini milliy jihatdan birlashtirish bo'lgan bo'lsa, ko'p millatli Avstriya imperiyasida burjua-demokratik inqilobning bosh masalasi Gabsburglarning feodal-absolyutistik monarxiyasini tugatish, feodal tartiblarini bekor qilish va mustaqil

burjua davlatlarini lashkil qilish edi. Germaniya davlatlaridagi kabi Avstriyada ham xalqning inqilobiy harakatlarini ommaviy tus olishiga Fransiya'dagi inqilobning ta'siri katla bo'ldi.

13 martda Venada inqilob boshlandi. Xalq ommasi seym binosini qurshovga olib konstitutsiyani qabul qilinishini va Metternixni iste'foga chiqishini talab qildi. Hukumatning xalq harakatini qurol kuchi bilan bostirishga bo'lgan urinishi uni yanada kuchaytirdi. Saroyning hukmron doiralari yon berishga majbur bo'ldilar. Metternix iste'foga chiqarilib, senzura bekor qilindi, byurgerlarga qurollangan milliy gvardiya otryadlarini tuzishga ruxsat etildi, shuningdek, talabalarning qurolli otryadlari - "Akademik legionlar" tuzildi. Imperator konstitutsiya ishlab chiqish uchun Venada provinsiyalar seyrni (landtag) majlisini chaqirishga va'da berdi.

Milliy ozodlik harakatlarining eng katta o'choqlaridan biri bu - markazi Praga bo'lgan Chexiya'dagi milliy ozodlik harakati edi. Svetovaslav komiteti Chebiya, Moraviya va Sileziyani markazi Praga bo'lgan avtonom davlatga birlashtirib, yangi vakillik organini tuzish haqida imperatorga talabnoma yubordi. Chexiya'dagi Avstriya hukumatining vakillari Svetovaslav komitetining a'zolarini islohotlar tayyorlashga va ushbu komitetni Milliy komitetga aylantirishga rozi bo'ldilar.

Xorvatiyaning xalq majlisi ham 25 martda imperatorga xalq nomidan talabnoma yuborib, Xorvatiya'da milliy hukumat va armiya tuzishga ruxsat so'radi. Ferdinand 1 ning ruxsati bilan Gabsburglar hokimiyati ostida yangi "Xorvat-Sloven-Dalmatsiya qirolligi" tuzildi.

Imperator inqilobni bostirishga qaror qildi. U Markaziy komitetni tarqatib yuborish haqida farmon chiqardi. Bunga javoban Venada xalq harakati ko'tarildi. Xalqning qurolli qarshiligiga dueh kelgan hukumat Markaziy komitetni tarqatish haqidagi farmonni bekor qilib, konstitutsiya loyihasini tayyorlashga kirishganligini e'lon qildi. Shundan so'ng hukumat demokratlarga qarshi o'ziga tayanch qidira boshladi va buni katolik ruhoniylarning ta'siri kuchli bo'lgan qo'shni Tirolga ko'rdi. Imperator Venadan Tirolga qochdi. Avstriya hukumati Venadan harbiy qo'shnlarni ehiqarish va umumiy saylov huquqini joriy qilishga majbur bo'ldi.

Pragada 1848 yilning 2 iyunida slavyanlar kongressi chaqirildi. Kongressning asosiy maqsadi agressiv nemis millatchiligiga qarshi butun slavyan xalqlarini birlashtirish edi. Unga qarshi Pragaga imperiya qo'shinlari keltirila boshlandi. Bunga javoban Praga aholisi 12-17 iyun kunlari qurolli qo'zg'olon ko'tardi, biroq imperiya qo'shini qo'zg'olonni shafqatsiz ravishda bostirdi.

Vena ishehilari fransuz ishchilari kabi mehnat huquqini talab qilib 23 avgustda namoyish uyushtirdilar. Namoyishni tarqatish uchun burjuazianing milliy gvardiyasi qurolsiz ishchilarni o'qqa tutdi. 18 kishi halok bo'ldi, 200 ga yaqin kishi yaralandi. 1848 yilning oktyabr-noyabr oylarida Venadagi xalq harakati bostirildi, kurash davomida qo'zg'olonchilardan 5000 kishi qurbon bo'ldi. 1849 yilning yanvarida imperiya qo'shini Budapeshtni egalladi. Vengriya poytaxtida inqilobiy harakatlar bostirildi.

1849 yilning 4 martida Venada yangi konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiya mart inqilobi qo'lga kiritgan barcha muvaffaqiyatlarni bekor qildi. Vengriya avtonomiyasi tugatilib, butun imperiya hududida yagona markazlashgan davlat boshqaruvi o'rnatildi. Venadagi mart inqilobining muvaffaqiyatlari Avstriya imperiyasining boshqa viloyatlarida ham inqilobiy harakatlarning jonlanishiga sabab bo'ldi. 15 mart kuni Pesht shahrining ishchilar, hunarmandlar, talabalar va ziyolilarning vakillaridan iborat xalq ommasi demokral shoir Shandor Petyofi rahbarligida tipografiyani egallab, awaldan tayyorlangan 12 talabdan iborat siyosiy dastur chop qildi. Unda senzuraning bekor qilish, seym o'ldirish mas'ul bo'lgan hukumat tuzish, barshchinani bekor qilish va boshqa talablar aks etgan edi. Bratislav shahrida majlisga yig'ilgan Vengriya seymi xalq harakatining keng quloqchilikdan vahimaga tushib, Vengriya'da burjua yangilanishlari haqida bir qator qonunlar qabul qildi, masalan, dvoryanlarning soliqlik imtiyozlarini va krepostnoylik huquqini bekor qilish, Vengriya qirolligining moliya va harbiy sohalarida mustaqilligi haqida parlament tizimini joriy qilish va boshqalar shular jumlasidandir.

Venadagi imperator hukumati ham Vengriya'da mustaqil hukumat tuzishga rozilik berdi. Bu hukumatni graf Batian boshqarib, u Avstriyadan ajralib chiqib, mustaqil Vengriya davlatini tuzishga harakat qildi.

Budapeshtga Avstriya qo'shini kiritilgach Batian hukumati iste'foga chiqdi. Hokimiyat Layosh Koshut boshchiligidagi Mudofaa komiteti qo'lga o'tdi. Asosiy e'tiborni ko'p sonli milliy armiya tuzishga qaratgan Layosh Koshut 1849 yilning bahoriga kelib 170 ming kishiik armiya tuzdi.

Debretsenga ko'chgan Vengriya seymi Avstriya imperiyasining yangi konstitutsiyasi qabul qilingan kun -

1849 yil 14 aprelda, unga javob tariqasida, Vengriyaning mustaqillik deklaratsiyasini qabul qildi. Tezda milliy gvardiya Budapeshtni egalladi. 1848 yilning 28 iyulida Koshut hukumati "Vengriyadagi barcha millatlarni teng huquqliligi haqida" qonun chiqardi.

1848 yilning 9 iyunida Rossuya va Avstriya qo'shinlari Vengriya qo'shinlariga qarshi urushga kirishdi. Vengriya respublikasining Fransiya va Angliyadan yordam olish umidi puchga chiqdi. 13 avgust kuni Vilogash ostonasida Vengriya qo'shinining so'nggi qismlari -tor-mor etildi. Vengriya inqilobi mag'lubiyatga uchradi.

Avstriyada inqilob natijasiz bo'lmadi, dehqonlar to'lov yo'li bilan feodal tobeligidan ozod bo'ldilar, pomeshchik sudlari bekor qilindi, dvoryanlarning soliqlari, sud va harbiy sohadagi imtiyozlari tugatildi.

Italiyada 1848-1849 yillar inqilobi va uning yakunlari

Italiyada siyosiy tarqoqlik va Avstriyaning milliy zulmiga qaramasdan, unda XIX asrning 30-40-yillarida kapitalistik munosabatlar taraqqiyoti ancha tezlashdi. Mamlakat shimolida sanoat rivojlandi, ko'pgina pomeshchiklar xo'jalik yuritishning kapitalistik shakllaridan foydalana boshladilar. Biroq, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga hamon feodal munosabatlarning hukmronligi, va absolyutizm to'siq bo'lmoqda edi. Pomeshchiklar va cherkov juda katta yer mulklariga egalik qilar edi. Mamlakatning siyosiy jihatdan birlashmaganligi va ajnabiylar hukmronligi umumiy yagona bozorni vujudga kelishiga yo'l bermayotgan edi. Iqtisodiy jihatdan Italiya nafaqat Angliyadan, balki Fransiya ham ortda edi. Aholining 4/5 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lib, u sof agrar mamlakat edi. Italiyaning markazi va janubida iqtisodiy jihatdan ancha qoioq bo'lgan pomeshchiklarning latifundiyalari ko'pchilikni tashkil qilar edi.

Italiyaning iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha ilg'or qismlari bu Sardiniya qirolligi tarkibiga kiradigan Pe'moni va Avstriya zulmi ostidagi Lombardiya edi. Italiyada XIX asrning 40-yillaridan temir yo'llar qurilishi, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi natijasida burjuazianing va xo'jalik yuritishning kapitalistik usullaridan foydalanayotgan pomeshchiklarning iqtisodiy qudratini oshishi ularga kapitalistik taraqqiyotni ta'minlash uchun mamlakatni birlashtirish lozimligini anglatdi. Italiya davlatlarining bojxona siyosati ham mamlakat savdo va sanoatining rivojiga g'ov bo'lmoqda edi. Chunki dvoryanlarning manfaatiga mos ravishda kurtilayotgan xorijiy mahsulotlar uchun boj soliqlarining miqdori juda past bo'lgan. Shuning uchun yirik burjuaziya va burjuallashtirilgan dvoryanlar islohotlarni talab qilayotgan edi. Dehqonlar feodal zulmi ostida nihoyatda ezilgan bo'lib, ko'pchilik dehqonlar va hunarmandlar xonavayron bo'lmoqda edi. Italiya manufakturalari va fabrikalardagi ishchilarning ish haqlari past bo'lib, minglab ishchilar ochlikka hukm qilingan edi.

Avstriya zulmidan ozod bo'lmay turib, Italiyaning iqtisodiy yuksalishini va milliy tiklanishini ta'minlash mushkul edi. Yaqinlashib kelayotgan Italiya burjua inqilobining eng asosiy vazifasi mustaqillik uchun va davlatni birlashtirish uchun kurash, shuningdek feodal munosabatlarni tugatish va mayda italyan davllarida absolyutizmni ag'darish edi.

Shu maqsad uchun kurashda feodalizmga qarshi milliy kuchlar orasida ikkita siyosiy oqim: 1) mayda va o'rta burjuaziya, burjua ziyolilaridan iborat ilg'or toifalarga tayanuvchi "inqilobiy demokratar" va 2) yirik savdo sanoat burjuaziyasi va burjuallashtirilgan dvoryan -pomeshchiklarga tayanadigan "mu'tadil -liberallar" vujudga keldi. Inqilobiy-demokratar oqimini 30-yillardan Juzeppe Madzini (1805-1872) boshqardi. 1831 yilda u "Yosh Italiya" nomli maxfiy inqilobiy tashkilot tuzdi. Bu tashkilotning siyosiy shiori "Birlik va respublika" edi. Tashkilot a'zolari mamlakatni quyidan, ya'ni xalq qo'zg'oloni va burjua-demokratik o'zgarishlari asosida birlashtirishga harakat qildilar. Madzini ijtimoiy islohotlar uchun emas, asosan, siyosiy maqsadlar uchun harakat qildi. Bu esa yer mulklari uchun kurashayotgan dehqonlarni ushbu harakatga jalb qilmadi.

Nissalik dengizchi Juzeppe Garibaldi (1807-1882) 1833 yilda "Yosh Italiya" jamiyatiga a'zo bo'ldi. Garibaldi keyinchalik Madzini kabi inqilobiy xalq harakatining rahbarlari darajasiga o'sib etdi.

"Mu'tadil liberal oqim" 40-yillarda, asosan, Italiya shimolida faoliyat ko'rsatdi. Bu oqim Italiyani inqilobiy yo'l bilan "Quyidan" birlashtirishga yo'l qo'ymaslikka va Italiyani Rim papasi boshchiligidagi yoki Sardiniya qirolligi boshchiligidagi italyan davlatlari federatsiyasiga aylantirishga harakat qildi. Sardiniya qirolligi taxtida o'tirgan Savoyalar sulolasi vakillari burjua islohotlarini amalga oshirishga moyillik bildirayotgan bo'lib, ularning Italiya liberallari orasida nufuzi baland edi. Abbat Jobeti Italiyani papa boshchiligidagi birlashtirish harakatiga, Piemontlik markiz d'Azilio va graf Kavur Italiyani Sardiniya qirolligi boshchiligidagi birlashtirish harakatiga boshchilik qildilar. Kavur 1847 yilda

"Uyg'onish" (Risorgimento") nomli siyosiy-iqtisodiy gazeta chiqara boshladi. "Risorgimento" harakati Italiyada XVIII asrning oxirlarida paydo bo'lgan bo'lib, italyan xalqining ma'naviy va siyosiy hayotini yangilashga yo'naltirilgan harakatini anglatar edi.

Appenin yarim orolida qurg'oqchiliklar, iqtisodiy inqiroz oqibatida 1846-1847 yillarda xalq ommasining norozilik harakati va burjuaziya orasida muxoliflik kayfiyati kuchayadi.

1847 yil iyunda papalik taxtiga arxiepiskop Maston -- Feretti o'tirgach, muxolifat yanada faollashdi. Piy IX nomini qabul qilgan yangi papa liberallarga yaqin bo'lib, avstriyaliklarga ashaddiy dushman edi. Piy IX haqiqatdan ham yirik burjuaziya va dvoryanlarning liberal doiralarga yon bosdi, Rim viloyatida senzura biroz yumshatdi, siyosiy avf e'lon qildi, alohida provinsiyalarning vakillaridan iborat davlat kengashi (konsult)ni ta'sis etdi. Muxolifat kuchlarini bo'lib yuborishga va inqilobni oldini olishga qaratilgan papaning bu kabi islohotchilik siyosati liberallar tomonidan zavq-shavq bilan kutib olindi.

Italiya davlatlarida amalga oshirilgan islohotlar inqilobiy harakatlarni to'xtatib qoia olmadi. Italiyada dastlabki inqilobiy chiqishlar 1848 yilning 12 yanvarida Sitsiliya orolida boshlandi. Keyinchalik u Italiyaning janubiga va keyin Neapolga ham yoyildi. Xalq harakatining bosimi ostida qirol liberal ministrliklar tashkil qilib, konstitutsiya joriy qilishga va'da berdi.

Fevral-mart oylarida Toskana, Piemont va Rim viloyatida ham inqilobiy harakatlar boshlandi. Bu hududlarda ham liberal ministrliklar tuzilib, ancha mo'tadil tabiatli konstitutsiyalar qabul qilindi. 18-22 mart kunlari Milan aholisi Avstriya qo'shiniga qarshi qahramonona kurash olib borib, g'alaba qildi. Lombardiyada hokimiyat muvaqqat hukumat qo'lga o'tdi. Milan voqealari bilan bir vaqtda Venetsiyada ham avstriyaliklarga qarshi xalq qo'zg'oloni g'alaba qilib, Venetsiya o'zining mustaqilligini e'lon qildi.

Lombardiyada muvaqqat hukumatni mu'tadil liberalchi graf **Kavur** boshqardi. U Sardiniya qiroliga murojaat qilib, Lombardiya yuzlik bilan qo'shin kiritishni so'radi. Qo'zg'olonehilar ommasining talabi bilan Sardiniya qirolu Karl Albert Avstriya qo'shiniga qarshi harbiy harakatlar boshladi. Qirol Karl Albert xalq ommasining kuchidan to'liq foydalangan holda inqilobiy urush olib borishga qo'rqdi. Bu esa Avstriyaga qarshi urush harakatlarining borishiga salbiy ta'sir qildi.

Milliy ozodlik harakati joylarda xalq ommasining pomeschik va kapitalistlariga qarshi chiqishlari bilan davom etdi. Bu ko'pchilik italyan davlatlarining hukmdorlarini tashvishga soldi. Endi ular Avstriyaga qarshi kurashni to'xtatib, inqilobni bostirishga kirishdilar.

Papa Piy IX 29-apreldagi "murojaati"da Avstriya bilan jang qilmasligini e'lon qildi. 15 mayda Neapolda Ferdinand II inqilobga qarshi davlat to'ntaruvini qilib, deputatlar palatasini tarqatib yubordi. Neapolitaniya qirolining avstriyaliklar bilan jang qilish uchun jo'natilgan qo'shinlari chaqirib olindi. Qarshi hujumga o'lgan Avstriya qo'shinlari 1848 yil 24-25 iyul kunlari Kustots ostonasida bo'lgan janglarda Sardiniya qo'shinini butunlay tor-mor etdi. 9 iyul kuni Karl Albert Avstriya bilan sulh shartnomasi imzoladi. Unga ko'ra, Lombardiya Avstriyaga qaytarildi. Moden va Parmada Gabsburglar xonadoni vakillarining hokimiyati qayta tiklandi.

Avstriya qo'shini tomonidan Milanni egallanishi bilan Italiya inqilobining birinchi davri nihoyasiga etdi. Biroq, Venetsiyada Manini boshchiligidagi triumvirat* Avstriyaga qarshi urushni davom ettirdi.

Toskana va Rim viloyatida umum Italiya Ta'sis majlisini chaqirish haqidagi talab bilan chiqishlar kuchaydi. Hunarmand Chicherovakkio Rimdagi demokratik klublarda respublika g'oyasini targ'ib qildi. O'zining harbiy leginerlari bilan Rim viloyatiga kelgan J. Garibaldi ham respublika o'rnatish tarafdori edi. 1849 yilning 21 yanvarida Rimda Ta'sis niajlisi uchin saylov bo'lib o'tdi. Garibaldi taklifi bilan majlis papani dunyoviy hokimiyatdan mahrum qildi va respublika o'rnatdi. Shundan so'ng katolik ordenlari va monastir mulklarini musodara qilish, ruhoniylarning siyosiy imtiyozlarini bekor qilish.

Trimvirat - davlat ishlariga rahbarlikni qo'lga kiritish maqsadida uchta nufuzli siyosiy va harbiy arbobning ittifoqi inkvizitsiya va cherkov sudlarini lugatish, ilg'or daromad solig'ini joriy qilish kabi islohotlar e'lon qilindi.

Rim respublikasining e'lon qilinishi qo'shni Toskanada ham demokratik harakatlarni kuchaytiradi. Gersog Leopold II poytaxt Florensiyadan qochdi. Toskanada muvaqqat hukumat tuzilib, ta'sis majlisiga saylov o'tkazildi. Majlis respublika o'rnatilganligini e'lon qildi.

Italiya vatanparvarlari lombardiya va Venetsiya uchun kurashni davom ettirishni talab qildilar. Jamoatchilik fikrini bosimi va tojdan mahrum bo'lish xavfi ostida, 1849 yilning 12 martida Sardiniya qirolu Karl Albert Avstriyaga qarshi urush harakatlarini boshladi. U urushni umummilliy urushga aylanishini xohlamay,

urush boshlangantigi haqida Rim respublikasi va Venetsiyani xabardor qilmadi. 23 martda Karl Albert qo'shini avstriyaliklar tomonidan tor-mor etildi. U tezda o'g'li Viktor Emmanuil foydasiga taxtdan voz kechib. mamlakatdan qochdi. Sardiniyaning yangi qiroli Viktor Emmanuil II mag'lubiyatdan so'ng Avstriya bilan ikkinchi sulh bilimini imzoladi.

Shimolda Gabsbyrglarning g'alabasi ilgarigidek butun yarim orolning siyosiy ahvoliga ta'sir o'tkazdi. Sitsiliyada Ferdinand II hokimiyati, Toskanada gersoglik hokimiyati qayta tiklandi.

18 fevralda Piy IX Avstriya, Ispaniya va Fransiya hukumatlariga murojaat qilib, Rim viloyatida papaning dunyoviy hokimiyatini tiklashga yordam berishini so'radi. Rim respublikasi hukumatining ijtimoiy iqtisodiy dasturini cheklanganligi, ko'pchilik islohotlarning qog'ozda qolib ketganligi, respublikani himoya qilish kurashiga xalq ommasini jalb eta olmadi.

Toskanaga Avstriya qo'shinlari kiritildi, 24 aprelda Rim yaqiniga pre/ident Lui -Napoleon Bonapart yuborgan frantsuz qo'shinlari kelib tushdi. Fransiya Rimda inqilobiy harakatlarni bostirib, Avstriyaga qarshi muvozanatni saqlash uchun Rimni egallamoqchi edi. May oyida Italiyaga Ispaniya qo'shini ham tushirildi.

Garibaldi boshchiligidagi respublikachilarning frantsuz hukumati bilan kclishishga intilishi xalq orasida hukumat nufuzini tushurib yubordi. 1849 yil 3 iyulda frantsuz qo'shinlari Rimni egallab, papa hokimiyatini qayta tikladi. Madzini va boshqa respublikachilar xorijga qochdilar. Garibaldi legionerlarining katta harbiy olryadi Venetsiya respublikachilariga yordam berish uchun shimolga yurish boshladi. Biroq, Venetsiyaga etmasdanoq, Avstriya qo'shinlari bilan bo'lgan to'qnashuvlar natijasida Garibaldi qo'shini tor-mor etildi.

Garibaldi yurishining mag'lubiyati va 22 avgustda Venetsiya respublikasini Avstriya qo'shini tomonidan egallanishi bilan Italiyada inqilob tugadi.

Italiya inqilobi mag'lubiyatining asosiy sabablari sifatida 1848-1849 yillardagi tashqi omillarning ta'siri, ya'ni, Fransiya, Avstriya va Ispaniyaning Italiya inqilobini bostirishda ishtirok etganligini, inqilobiy kuchlarni birlashmaganligini va Italiya davlatlari hukmdorlarining Avstriyaga qarshi urushdagi qat'iyatsizliklarini ko'rsatish mumkin. Inqilobning mag'lubiyati Italiya birlashtirilishini bir necha yilga kechiktirdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fransiya inqilobning shart-sharoitlari.
2. "Milliy ustaxonalar" tashkil qilinishining sabablari va maqsadlari.
3. "Lyuksemburg komissiyasi"ning maqsadi va faoliyati.
4. Fransiya muvaqqat hukumatining soliq siyosati.
5. "Tatlib partiyasi" va Fransiya monarxiyachilarining talablari.
6. Fransiya 1852 yil 2 dekabrda davlat to'ntaruvining mohiyati.
7. Germaniya davlatlarida 1848-1849 yillardagi inqilobning bosh masalasi.
8. Prussiyada mart inqilobi.
9. Frankfurt parlamentining ish faoliyati.
10. Germaniya davlatlarini birlashtirish yo'llari: Kichik Germaniya", "Buyuk Germaniya".
11. Shlezvik va Golshteyn gersogliklarida inqilobning borishi.
 12. Avstriya 1848-1849 yillar inqilobining bosh masalasi.
 13. Venadagi mart voqealari.
14. Vengriya inqilobning boshlanishi va Vengriya seym
15. Koshut hukumatining ichki va tashqi siyosati.
16. Italiya inqilobning bosh masalasi.
17. J.Madzini va "Yosh Italiya" jamiyati.
18. "Inqilobiy demokratlar" va "Mo'tadil liberallar" siyosiy oqimlari va ularning asosiy maqsadlari.
19. Rimda respublikani o'rnatish va hukumatning islohotchilik siyosati.
20. Italiya inqilobi mag'lubiyatining asosiy sabablari.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Karimov I A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998.
2. Karimov I A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
4. Sozialnaya borba v Zapadnoy Evrope -- XIX veka v podlinnix dokumentax. Leningrad,

1924. ch.1.

5. Xreslomatiya po novoy istorii \ pod redaksii A.A.Gubera, A.F.F.fimova. V 3t. Moskva, 1965, Tom 2.

6. Istoriya revolyutsionnogo dvijeniya Zapadnoy Evrope (1789-1914) Moskva. Leningrad, 1931.

7. Kan. S.B. Revolyutsiya 1848 g. v Avstrii i Germanii. Moskva, 1948.

8. Levnova S.Z. Bor'ba za edinuyu demokraticeskuyu Germaniyu v period revolyutsii 1848-1849gg. Moskva, 1955g.

9. Xastenker N.E. Revolyutsiya 1848 g. vo Frantsii. Moskva, 1948.

Mavzu: Italiyaning Birlashtirilishi

Reja:

1. XIX asrning o'rtalarida Italiyani birlashtirish uchun kurash.
2. Benzo Kamillo Kavur va uning Italiyani birlashtirishdagi faoliyati.
3. Avstriya - Fransiya P'cmont urushi va Villafranka sulhi
4. Italiya birlashtirilishining tugallanishi va uning tarixiy ahamiyati

Tayanch tushunchalar:

1848-1849 yillardagi inqilobdan so'ng Italiya. J.Madzini. J.Garibaldi. "Milliy jaraiyal". Mo'tadil liberallar. Italiyani birlashtirish yo'llari. Graf Kavur. Plomberdagi maxfiy muzokaralar. Avstriyaga qarshi urush. Villafranka sulhi. "Minglar yurishi". Neapolitaniyadagi plebistsit. Italiyaning birlashtirilishi. J.Garbalinin Rimga yurishlari. Veno'siya va Rimni qo'shib olinishi.

XIX asrning o'rtalarida Italiyani birlashtirish uchun kurash

Italiyada 1848-1849 yillardagi inqilobning bosh vazifasi Germaniyadagi kabi siyosiy jihatdan tarqoq bo'lgan Italiya davlatlarini ajnabiylar hukmronligidan ozod qilish va ularni yagona milliy davlatga birlashtirish edi. Biroq, inqilob bu vazifani bajara olmadi. P'emont qiroli Karl Albert Lombardiya va Veno'siya viloyatlarini ozod etib, P'emont boshchiligidagi Shimoliy Italiyani birlashtirish maqsadida 1848 yilning mart-avgusti davomida Avstriyaga qarshi olib borgan birinchi va 1849 yilning martidagi ikkinchi urushi muvaffaqiyatsiz tugadi.

1848-1849 yillardagi inqilob saboqlarini tanqidiy tahlil qilish jarayonida demokratlar va mo'tadillar o'rtasida milliy ozodlik va mamlakatni birlashtirish uchun kurash usullari haqida, unda cherkov, monarxiya va xalq oinmasining o'rnini to'g'risida, milliy va ijtimoiy vazifalarning o'zaro munosabati haqida qizg'in munozaralar bordi. J.Madzini qo'zg'olonlar asosida yangi inqilobni keltirib chiqarishga harakat qildi. Lining ishtirokida 1853 yil Milanda ko'tarilgan qo'zg'olon, 1857 yil esa, Madzini boshchiligidagi Sitsiliyaga yuborilgan qurolli ekspeditsiya ham muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Shundan so'ng Madzini Italiyada endi paydo bo'lgan ishchilar harakatidan demokratiya va milliy mustaqillik uchun kurashda foydalanishga harakat qildi. Demokratlarning bir qismi "Madzinizmdan voz kechib, Italiyadagi inqilobning istiqbollari va imkoniyatlarini turlicha tahlil qilib, sensimonizm/ anarxizm va federalizmni yoqladilar.

J.Garibaldi va boshqa bir guruh demokratlar J.Madzini va lining tarafdorlaridan farqli holda milliy mustaqillik va mamlakatni birlashtirish uchun demokratlarning liberal doiralari va Savoyi sulolasi bilan jips ittifoqchiligi zarur, degan xulosaga keldilar. 1857 yilda Garibaldi P'emont liberallarining tashabbusi bilan tashkil qilingan "Milliy jamiyat" ning vitse-prezidenti qilib tayinlandi. Benzo Kamillo Kavurning Italiyani birlashtirishdagi xizmatlari

XIX asrning o'rtalarida Italiyada liberalizmning asosiy markazi P'emont bo'lib qoldi. Qirol Viktor Emmanuil ommaviy inqilobiy harakatlarning takrorlanish ehtimolidan tashvishga tushib liberallar bilan hamkorlik qildi.

1852-1861 yillarda P'emontning premer-ministri graf Benzo Kamillo Kavur liberal doiralarning mashhur vakili edi. Ajoyib siyosatchi va parlament kelishuvlarining tashabbuskori bo'lgan Kavur qiroлга turli reaksiya kuchlarning bosimi va ta'sirini neytrallashtirishga muvaffaq bo'ldi. Boshqa arboblardan farqli ravishda Kavur Italiya, vatanparvarlari oldida turli asosiy maqsadga erishish ya'ni, Italiyani birlashtirish uchun mamlakatga kuchli iqtisodiy rivojlanish zarur ekanligini tushunib yetdi. Lining tashabbusi bilan 50-yillarda P'emontda temir yo'llar, irrigatsiya kanallari, ko'priklar qurilishi jadal bordi. Natijada savdo floti, qishloq xojaligi, to'qimachilik sanoatining rivoji uchun qulay sharoitlar yaratilib, P'emontning tashqi savdosi ancha kengaydi.

Kavur Savoyiya sulolasining manfaatlarini milliy ozodlik kurashi va Italiyani birlashtirish vazifasi bilan muvofiqlashtirishga harakat qildi. Tashqi siyosat bobida Kavur Avstriyaga qarshi kurashish uchun buyuk davlatlarning yordamidan foydalanishga intildi. Shu maqsadda P'emontning 15 ming kishilik harbiy korpusi 1853-1856 yillardagi Qrim urushi davomida Rossiyaga qarshi Angliya Fransiya va Turkiya tomonidan lurib urush qildi. Shu davrdan P'emontning Fransiya bilan yaqinlashishi davri boshlandi. 1858 yilning iyulida Plomber shahrida Lun Napoleon III va Kavurning maxfiy uchrashuvi uyushtirildi. Lunda Napoleon III kelgusida P'emontning Fransiya bilan birgalikda Avstriyaga qarshi urushda qatnashishga rozilik bildirib, Italiyaning shimoliy qismini P'emont boshchiligidagi birlashtirish va butun Italiya hududida papa boshchiligidagi Italiya konfederatsiyasini tuzish harakatini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Sunday iltifot

uchun Kavur Napoleon III ga Italiyaning Fransiya chegaradosh bo'lgan Nitsta va Savoyya viloyatlarini (bu viloyatlarning aholisi asosan frantsuzlardan iborat edi) luhfa qilishga va'da berdi. Fransiya imperatori O'rta Yer dengizi havzasida markazlashgan yagona Italiya davlatini tashkili topishi uchun emas balki Italiya hisobidan Fransiya hududini kerigaytirish va Italiyada Avstriyaning mavqeini oshirish maqsadida Avstriyaga qarshi urushda Pemont bilan ittifoqchilik qildi.

Avstriya - Fransiya - P'yemont urushi va Villafranka sulhi

1859 yilning oxirida boshlangan Fransiya va Pemontning Avstriyaga qarshi urushdagi harbiy harakatlari asosan Italiya hududida bordi. 4-may kuni Mojenta yaqinidagi jangda ittifoqchilar qo'shini Avstriya qo'shini ustidan g'alaba qozonib Lombardiyani egalladi. 24 iyunda esa Solferino yaqinida avstriyaliklar butunlay yakson qilindi. Urushda nafaqat muntazam armiya, balki Italiya xalqi bam faol qatnashdi. Xalq qo'zg'oloni natijasida Toskana, Parma va Modenadan avstriyalik gertsoglar haydaldi. Rim viloyati esa o'zining mustaqilligini e'lon qildi.

1859 yilning 1 avgustida Venetsiyaning Villafranka shahrida Napoleon III va Avstriya imperatori Frants-Iosif sulh shartnomasini imzoladilar. Sulh shartnomasiga ko'ra P'emontga faqat Lombardiya qo'shib berildi. Biroq, Venetsiya esa Avstriya hukmronligi ostida qolaverdi. Appenin yarim orolida oiyy hokimiyat Viktor Emmanuil II ga emas, balki mamlakalning milliy jihatdan birlashtirishini dushmani bo'lgan papa Piy IXga tegishli ekanligi. Modcna, Parma va Toskana gertsogliklaridan qo'vg'in qilingan Gabsburglar xonadoni vakillarini yana hokimiyatga tiklash e'lon qilindi.

Villafrankadagi kelishuv bitimi Italiya xalqining norozilik harakatlarini yangidan ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Xalqning Viktor Emmanuil II hukumatiga bo'lgan ishonchi yo'qoldi. 1859 yilning oxiri va ayniqsa, 1860 yilda Appenin yarim orolida siyosiy kurash avj olishi natijasida Modena, Parma va Toskanada avvalgi gertsoglar hokimiyatida tiklash imkoni bo'lmadi. U yerlarda umumiy saylov asosida saylangan milliy majlislar mazkur gertsogliklarni P'emontga qo'shilishi haqida qaror chiqardilar, papa vilovatida ham shunday qarorga kelindi. Italiya hududida avj olib ketgan ommaviy inqilobiy harakatlari bostirish imkoniyatiga ega bo'lmagan Napoleon III ham Italiya davlatlarini Pemont atrofida birlashtirilishiga rozilik bildirishga majbur bo'lib, va'da qilingan Savoyya va Nitsta viloyatlarini Fransiya berilishini talab qildi. Shu yili bu ikki viloyat Fransiya ixtiyoriga berildi.

Italiya birlashtirilishining tugallanishi va uning tarixiy ahamiyati

Yarim orolning shimolida boshlangan xalq harakati janubiy viloyatlarga ham tarqaldi 1860 yilning oxirida Italiyaning janubidagi Palermo shahrida qo'zg'olon ko'tarildi. Biroq bu qo'zg'olon Sitsiliya qirolining qo'shini tomonidan bostirildi. Shimolning respublika demokrachilari janubliklarga yordam berish uchun may oyida Gretsiyadan Sitsiliyaga J.Garibaldi boshchiligidagi 1200 kishidan iborat harbiy otryad yubordi. Bu tarixda "minglar yurishi" yoki "qizil kuylaklilar" (chunki uning qatnashchilari qizil rangli matodan qilingan kuylak kiyganliklari sababli shunday atalgan. Q.N) nomi bilan ma'lumdur. Kalabri shahriga yetib kelgan mazkur otryad xalq ommasining qo'llab-quvvatlashi natijasida 1860 yilning 7-sentyabrida ikki sitsiliya qirolining poylaxti Napolni jangsiz cgalladi. 1-oktyabr kuni Garibaldi otryadi qirol Frantsisk II qo'shinlarini Volturmo daryosi bo'yidagi hal qiluvchi jangda tor-mor etib, Italiya janubida Burbonlar sulolasi vakillarining hokimiyatiga chek qo'ydi. Frantsisk II esa Rim viloyatiga qochdi.

1860 yil 21-oktyabda Neapolitaniyada Garibaldi plebistsit-referendum o'tkazdi. Neapolitaniya qirolligi aholisining aksariyati P'emontga qo'shilishni yoqlab chiqdi.

Garibaldi kuzatuvida Pemontl qirol Viktor Emmanuil tantanali ravishda Neapolga kirib keldi.

1861 yil fevralda P'emontning Turin shahrida Umumitaliya parlamenti ochildi. 14 martda Viktor Emmanuil Italiya qirol. deb e'lon qilindi. Shunday qilib, "risorjimento"ning cng asosiy vazifalaridan biri Italiyaning birlashtirilishi vazifasi, deyarli bajarildi. Biroq, Ttaliya Rim va Venetsiya viloyatlarisiz birlashtirildi. Rim yoki papa viloyati mustaqil bo'lib, undagi dunyoviy hokimiyat papa qo'lida mujassamlashgan edi. Garibaldi boshchiligidagi harbiy olryadning 1862 yil papa viloyatini cgaliashga bo'lgan urinishi natijasiz bo'ldi.

Venetsiya viloyati Avstriya hukmronligi ostida bo'lib, 1866 yilda Prussiya va Italiyaning Avstriyaga qarshi urushida Avstriyaning mag'lubiyatga uchrashi oqibatida mazkur viloyal Italiyaga qo'shib olindi. 1867 yilda Garibaldi harbiy otryadining Rimga yurishi ham muvaffaqiyatsiz tugadi, Rim viloyati 1870yilgacha alohida va mustaqil davlat bo'lib qolaverdi.

1870 yilda boshlangan Fransiya-Germaniya urushida Fransiyaning mag'lubiyatiga uchrashi Rim viloyatini

Italiyaga qo'shib olinishini ta'minladi. Rim viloyatining Italiyaga qo'shib olinishi mamlakat birlashtirilishini nihoyasiga yetkazgan, ha! qiluvchi tarixiy voqea bo'ldi. Papa dunyoviy hokimiyatdan mahrum qilinib, Rim shahri birlashgan Italiyaning poytaxtiga aylantirildi.

Italiyaning birlashtirilishi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi, Italiyaning siyosiy tarqoqligiga baham berildi, uning yagona davlat sifatida yaxlitligi saqlab qolindi. Mamlakatni birlashtirish uchun bo'lgan kurash uni zamonaviy burjua davlatiga aylantirdi. Bu kurash natijasida Italiyada Avstriya gabsburglari va Fransiya Burbonlari xonadoni vakillarining hukmronligiga barham berildi. Biroq mamlakatning birlashtirilishi burjua inqilobining oldida turgan barcha vazifalarni bajarmadi. Shuning uchun kapitalistik munosabatlarning keyingi taraqqiyoti Italiyada nisbatan sekin bordi.

Nazorat uchun savollar:

1. XIX asrning 50-yillarida Italiyani birlashtirish uchun kurashgan siyosiy oqimlar.
2. Milliy jamiyat va uning ish faoliyati.
3. Kavurning iehki va tashqi siyosati.
4. Napoleon III va Kavurning Plomber muzokaralari.
5. Avstriyaga qarshi 1850 yilni urush va uning natijalari.
6. Villafranka sulh shartnomasi.
7. "Minglar yurishi" uning tarixiy ahamiyati.
8. 1860 yilda Neopolitaniyada o'tkazishgan Plebistsit va uning natijalari.
9. 1866 yildagi Avstriya Prussiya - Italiya urushi va uning oqibatlari.
10. Italiya birlashtirishini yakunlangan so'nggi tarixiy voqelik.

FOYDALANGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq", 1998.
2. Karimov I A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma`naviyat", 2008.
3. Karimov I A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
4. Xrestomatiya no novoy istorii 1789-1870. Pod.red. A.V.Yefimova, V.A. Orlova M.:1941.
5. Garibaldi D. Memuari. M.: 1966
6. Istoriya Italii: V 2 t. M.: 1970-1971. T. 1-2
7. Kovalskaya M.I. I tally a v borbe za natsionalnuyu nezavisimost i yedinstvo. M.: 1981.
8. Nevler V.Ye. Demokraticheskie sliv borbe za ob'edinenie Italii. 1831-1860. M.1989.

Mavzu: Germaniyaning birlashtirilishi

REJA:

1. XIX asrning 50-60-yillari boshida german davlatlarining ijlimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.
2. Prussiyada konsigtutsiyaviy nizo va Otto fon Bismarkning hokimiyatga kclishi.
3. Bismark tashqi siyosatining muvaffaqiyatlari.
4. SHimoliy Germaniya ittifoqining luzilishi va Germaniyaning birlashtirilishi.

Tayanch iboralar:

"Uch qirol uniyasi". Germaniya ittifoqi. Olmyuts kelishuvi. Reakatsiya davri. Iqtisodiy taraqqiyot va agrar islohotlar. Germaniyani birlashtirish yo'llari. "Kichik Germaniya", "Buyuk Germaniya", Avstriya-Fransiya-Italiya urushi, "Milliy ittifoq". "Islohotlar ittifoqi". Konstitutsiyaviy nizo. Progressitlar partiyasi. Ottofon Bismark. F.Lassal. UmumgenTian ishchilar ittifoqi. A.Bebel va V. Libknext. "SHlyozvig - Golshteyn muammosi". Avstriya - Prussiya - Italiya urushi. Praga sulh sharmomasi. Shimoliy Germaniya ittifoqi. Prussiyaning tashqi siyosati. Milliy liberal partiyasi. Germaniya sotsial-demokratik ishchilar partiyasi.

XIX asrning 506 – 60 yillari boshida German davlatlarining ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy ahvoli

Germaniyada 1848-1849 yillar inqilobi o'zining bosh vazifasi siyosiy jihatdan tarqoq Germaniya davlatlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirish masalasini hal qilmadi. Avstriya va Prussiya german davlatlari orasida hukmronlik qilish uchun o'zaro kurashni davom ettirdilar.

Bu borada 1849 yili Prussiya ayrim muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. May oyida Prussiya. Gannover va Saksoniya "Prussiya uniyasi" yoki "Uch qirol uniyasi" deb atalgan ittifoq tuzdilar, keyin unga yana

Germaniyaning 28 ta katta kichik davllari ham qo'shildi. 1850 yil marlida bu yangi ittifoqning ta'sis majlisi chaqirilib, u ittifoq konstitutsiyasi loyihasini muhokama qildi.

Inqilobni butunlay bostirishga crishgan Avstriya Rossiyaning qo'llab-quvvatlashi bilart Prussiya boshchiligida bunday ittifoq tuzilishiga e'tiroz bildirdl. Nihoyat, Prussiya va Avstriya vakillari bilan Rossiya podshosi Nikolay I 1850 yil oktyabrda Varshavada qilgan suhbatida Avstriyani quvatlashini qat'iy ravishda ma'lum qildi. Prussiya Germaniya davlatlari orasida hukmronlik uchun o'zining davolaridan voz kechdi. Noyabr oxirida Prussiya Avstriya bilan Olmyutsda Avstriya boshchiligida sobiq Germaniya ittifoqini tiklash haqida bitim imzoladi. Germaniya davlatlarini Prussiya boshchiligida birlashtirish uchun bo'lgan dastlabki urinish shu tarzda natijasiz tugadi.

1850 yil dekabrda Manteyfel prezi dent-mini str lavozimiga o'tishi bilan Prussiyada rcaktsiya davri boshlandi. 1851 yil oktyabrda Prussiya qiroli konstitutsiyani bekor qilib, ochiq ravishda absolyutizmni mustahkamlashga kirishdi. Germaniyaning boshqa davlatlarida ham reaksiya boshlandi. 10 yil davom etgan og'ir siyosiy zo'rlik davri, Germaniya davlatlarini inqilobdan oldingi holatga qaytara olmadi. Germaniya feodal munosabatlarni tugatib, burjua yangilanishlari yo'liga o'tdi. 1857-1859 va 1866-1867 yillardagi iqtisodiy inqirozlarga qaramasdan Germaniyada sanoat to'ntaruvi muvalTaqiyatli ravishda amalga oshirildi. Dunyoning qudratli sanoat mamlakatlari orasida Angliya va AQSh dan so'ng 3-o'rinni egalladi. Germaniyada sanoat rivojlanishining bosh sababi qishloq xo'jaligida feodal munosabatlarni tugallanganligi edi.

1850 yil 2 martda Prussiyada dehqonlarni feodal majburiyatlardan to'lov asosida ozod qilish to'g'risida farmoyish chiqdi. 50-yillarda Germaniyaning Vyurtemberg, Baden, Gessen, Saksoniya kabi bir qator davlatlarida ham agrar islohotlar o'tkazildi. 1834 yilda Prussiya pariamenti uchun bo'lgan saylovlarda liberallar g'alaba qildi. Libcrallarning barcha oqimlari Germaniyani birlashtirish uchun kurashdilar.

Bu davrda Germaniyani birlashtirishning ikki yo'H mavjud bo'lib. biri "quyidan" -xalq ommasining knyazlik sulolalarining hukmronliklariga qarshi inqilobiy kurashi asosida birlashtirish bo'lsa, ikkinchisi Germaniya davlatlarini Avstriya yoki Prussiya boshchiligida -"yuqoridan" birlashtirish edi. Keyingisi sulolalararo urushiar diplomatik muzokaralar va kompromisslar asosida amalga oshirilar edi.

1859 yil xalqaro siyosiy inqiroz yuz berdi. Itatiya shimolini. Gabsburglar hukmronligidan ozod etish uchun Avstriyaga qarshi Fransiya va P'emont urush boshladi. Fransiya tomonidan Reynning so'l qirg'oqlaridagi german yerlarini bosib olish xavfi tug'ildi, chunki Napoleon III mazkur hududni Fransiyaning qonuniy mulki, deb bilar edi. Germaniyaning mustaqilligi va uni birlashtirish istiqboltari xavf ostida qoldi, urush tezda Avstriyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Avstriya Fransiya - Sardiniya urushida Italiya liberal burjuaziyasining g'alabasi Germaniyani Prussiya Gogenlsollernlari hukmronligi ostida birlashtirish tarafdorlari bo'lgan ncmis liberallarini ruhlantirdi. 1859 yil nemis ishchilarining ma'rifatchilik fereyentari tuzildi.

1859 yilning kuzida shimoliy german davlatlarining burjuaziyasi gannoverlik advokat Bennisen boshchiligidagi "Milliy ittifoq" deb atalgan siyosiy tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot german daviatlarini Avstriyasiz Prussiya hukmronligida birlashtirishga harakal qildi. Bu german davlatlarini birlashtirishning "Kichik germaniya" tuzish rejasi deb ataladi.

"Kichik Germaniya" rejasi Baden, Vyurtemberg, Bavariya kabi davlatlarda qo'llab qo'vvallanmadi. Chunki bu german davllari aholisining azaldan prus amaldorlari va zobitlariga nafrati kuchli edi. Bundan tashqari, u yerlardagi burjuaziya sanoat sohasida ancha zaif bo'lib, prus burjuaziyasining iqtisodiy raqobatidan hayiqar edi. Shuning uchun janubiy German davlatlari o'z mustaqilligini saqlab qolishga harakat qildi. 60-yillarning boshlaridan mazkur german davlatlari o'zlari uchun nisbatan havfsizroq deb bilgan Avstriya bilan yaqinlasha boshladilar. Bavariya liberallarining tashabbusi bilan avstriya boshchiligida "Buyuk Germaniya" tuzish tarafdorlari 1867 yilda Milliy ittifoqqa qarshi "Islohotlar ittifoqi"ni tuzdi.

Rossiyada konstitutsiyaviy nizo va Otto Fon

Bismarkning hokimyatga kelishi

Italiyadagi voqealar ta'siri natijasida prus burjuaziyasi safida birlashtirishning turli yo'llari tarafdorlari o'rtasidagi kurashning keskinlashuvi Prussiya hukumatining siyosatiga ham ta'sir qildi. Yangi qiroli Vilgelm 1 Manteytclni iste'foga chiqarib islohotlar o'tkazishga va'da berdi. Ammo islohotlar boshlash taraddudi cho'zilib ketishi natijasida hukumat bilan davlatdagi burjua muxolifati o'rtasida to'qnashuvlar

boshlandi. To'qnashuvlar keyinchalik konslitutsiyaviy nizo, deb atalgan siyosiy inqirozga sabab bo'ldi. Bu nizoni 1860 yil fevralda harbiy ministr fon Roonning harbiy islohotlar haqida landtagdagi bildirgan takliti keltirib chiqardi. Prussiya hamon armiyaga suyanuvchi davlat bo'lib, unda yunkerlar hukmron mavqega ega edi. Yunkerlar liberal burjuaziya talablariga qarshilik ko'rsatayotgani asosiy kuch edi. Harbiy islohotlar to'g'risidagi fon Roonning loyihasi harbiy muddatini 2 yildan 3 yilga ko'paytirish, armiya hajmini oshirish va uning tuzilishini o'zgartirishdan iborat edi. Shahzoda regent Vilgelm (1861 yildan Vilgelm I Prussiya qiroli) Yevropa kontinentida bo'lishi mumkin bo'lgan xalqaro nizotar uchun katta hajmdagi zamonaviy armiya tuzishda va yunkerlarni mavqeini mustahkamlashga harakat qildi. Muntazam armiya safidan Napoleon urushlari davrida tuzilgan landver, deb ataluvchi xalq lashkarini chiqarib tashlash ham rejalashtirilgan edi, chunki landverdagi zobitlik lavozimlarini aksariyatini burjuaziya vakillari egallagan edi. Landtag mazkur loyihani rad etdi, biroq, hukumatga 9 mln. taler miqdorida favqulodda harbiy harakatlar uchun mablag' ajratdi. Ushbu summa taklif etilgan harbiy islohotlar loyihasini amalga oshirish uchun sarflandi.

Liberal burjuaziya vakillarining 1861 yilda tashkil qilingan "Progressistlar partiyasi" parlamentda qirol va hukumatga qarshi kurash boshladi. 1861 yilga landtag saylovlarida progressistlar katta muvaffaqiyat qozondilar. Yangi saylangan deputatlar palatasi bilan hukumat o'rtasida yangidan kurash boshlandi. 1862 yilning 11 martida qirolning maxsus farmoyishi bilan deputatlar palatasi tarqatib yuborildi, liberal ministrlar iste'foga chiqarildi. Qirol liberallashtirish siyosatiga chek quydi. Ko'pgina shaharlarda aholining hukumatga qarshi norozilik chiqishlari bo'lib o'ldi. 1862 yil bahoridagi yangi saylovlarda progressistlar yana g'alaba qozondilar.

Progressistlar hukumatga bosim o'tkazib, agar ularning talablari bajarilmaydigan bo'lsa, harbiy soha uchun mablag'lar ajratishni to'xtatishini ma'lum qildi. Keyinroq, harbiy kredillarni to'xtatilishi siyosiy inqirozni juda keskinlashtirdi, qirnl hatto laxtdan vo/ kechishga ham tayyor turdi. Ammo prus yunkerlarining konservatik militaristlari boshqacha yo'l tutdilar. Ularning taklifi bilan 47 yoshli Otto fon Bismark 1862 yil 24 sentyabrda qirol tomonidan prezident - ministr (bosh ministr) qilib tayinlandi.

Otto fon Bismark (1815-1898) kelib chiqishi va tabiatiga ko'ra haqiqiy yinker edi. U butun umri davomida Prussiya taxtiga sodiqlik bilan xizmat qildi va Germaniyada Prussiya hukmronligini o'rnatish tarafdorlarini qo'llab-quvatladi. Bismark "men birinchi o'rinda prusman va undan keyin nemisman" degan iborasi ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Bismark o'zining 1848-1849 yillar inqilobi davrida demokratiyaga qarshi chiqishlari bilan ma'lum bo'lgan edi. Uning "1848-1849 yillar inqilobining eng katta xalosi shu cdiki zamonning muhim masalalarini aksariyat nutqlar va qarorlar bilan emas, balki qilich va qon bilan yechiladi" degan iborasi Germaniyani birlashtirish uchun mayda va o'rtacha gcrman davlatlaridagi partikulyarlik va legitimistik qarshiliklarni, umrini yashab bo'lgan Germaniya ittifoqini va Avstriya ta'sirini tugatishni nazarda tutar edi. Chunki Bismark juda boy siyosiy va diplomatik tajribaga ega bo'lib, Germaniyam' birlashtirish arafasida mavjud bo'lgan ichki va lashqi siyosiy vaziyatni munosib baholab, mamfakatning iqtisodiy laraqqiyolini ta'minlash uchun siyosiy tarqoqlikka barharn berish lozimligini tushungan edi.

Xalq ommasining inqilobiy chiqishlaridan vahimaga tushgan burjuaziya Bismark hukumatiga yon berishga majbur bo'ldi.

1863 yil mayda sanoati rivojlangan Saksoniyaning Leyptsig shahrida liberal burjuaziyadan mustaqil holda Ferdinand Lassal boshchiligidagi "Umumgerman ishchilar ittifoqi" tuzildi, ittifoqning asosiy maqsadi ishchilarning umumiy saylov huquqini qo'lga kiritish orqali tinch yo'l bilan sotsializmga o'tish edi. F.Lassal uinumiy saylov huquqini joriy qilish haqida Bismark bilan muzokaralar ham olib bordi. German davlatlarida ishchilarning namoyishlari va professional harakatlari 1863-1865 yillarda o'zining eng yuqori bosqichiga yetdi. Harakat davomida nemis ishchilari orasida Avgusl Bebel (1840-1913) va Vilgelm Libknext (1826-1900) kabi siyosiy rahnamolar yetishib chiqdi. F.Lasaldan farqli rayishda V.Libknext va A.Bebcl Germaniyani "quyidan" - inqilobiy yo'l bilan birlashtirish orqali respublika o'rnatish uchun harakat qilib, Bismarkning "qilich va qon" bilan birlashtirish siyosatiga qarshi kurashdilar.

Bismark tashqi siyosatining muvaffaqiyatlari

Yevropa markazida yangi qudratli davlatni paydo bo'lishida Prussiya maniaatiga mos keladigan qulay tashqi siyosiy vaziyat yuzaga kelgan edi. Prussiya boshchiligidagi Germaniya davlatlarini birlashtirishga faqat Avstriya va Fransiya qarshilik ko'rsatayotgan edi. Rossiya podshosi Alksandr 11 Prussiya bilan avvalgidek, Yevropada inqilobiy xavfga qarshi hamkorlikda kurash olib borishda, Sharqda o'zining

mavqeini mustahkamlashda va 1856 yilgi Parij sulb shartnomasini qayta ko'rib chiqish uchun uning yordamiga umid qilmoqda edi. Angliya hukumati yangi Germaniya davlatini Yevropada hukmronlik uchun da'vo qilayotgan Fransiya qarshi munosib raqib bo'lishini istayotgan edi. Shuning uchun mazkur davlatlar va Yevropaning boshqa davlatlari ham Prussiyani birlashtirish siyosatiga qarshi munosabat bildirmadilar.

Bismark davlat to'ntaruvini qildi, armiyani qayta tashkil etish uchun byudjetdan tashqari mablag' ajratdi, maxsus farmoyish bilan matbuot erkinligi cheklandi, muxolif amaldorlar lavozimidan bo'shatildi. Prussiya 1863 yil Polsha qo'zg'olonini bostirishda hamkorlik qilish haqida Rossiya bilan konventsiya imzoladi. Bu xalq ommasining umumiy noroziligiga sabab bo'ldi. Berlinda namoyishlar uyushtirilib, aholining politsiya bilan to'qnashuvi yuz berdi. Bismark Germaniyani Prussiya hukmronligida birlashtirish maqsadiga kuch bilan erishishga qat'iy kirishdi. Germaniyani Prussiya boshchiligidagi birlashtirishga ta'kidlangandek. Avstriya va Fransiya qarshilik ko'rsatmo'qda edilar. Avstriya german davlatlarini Prussiya boshchiligidagi birlashtirish Prussiyaning mavqeini kuchaytiradi, deb bunga yo'l qo'ymaslikka va o'z navbatida, german davlatlarini Avstriya atrofida birlashtirishga harakat qildi.

Fransiya esa o'zining sharqiy chegaralarida kuchli markazlashgan davlatni tashkil topishini istamay Germaniya ittifoqining zaifligidan foydalanib, Reynning so'l qirg'og'ini bosib olishga harakat qilayotgan edi. Napoleon III german davlatlarining Prussiya hukmronligiga qarshi siyosatini rag'batlantirib Janubiy Germaniyada o'zining ta'sirini mustahkamlashga intildi. 1863 yil yozida Avstriyaning tashabbusi bilan Germaniya ittifoqini isloh qilishni muvaffaq qilish maqsadida german davlatlarining vakillarini Frankfurtga taklif etdi. Uchrashuvga Prussiya vakillari kelmadi.

Bismark Germaniyani birlashtirish ishini shaxsiy uniya asosida Daniya bilan birlashgan ammo, alohida konstitutsiyalariga ega bo'lib, aholisi asosan nemis millatiga mansub bo'lgan Shlyozvig va Golshteyn gertsogliklarini Daniyadan tortib olishdan boshladi.

1863 yil Daniyaning yangi qiroli Kristian Shlyozvigga Daniya konstitutsiyasini joriy qildi. Bu butun Germaniya davlatlarida norozilik uyg'otdi va Bismarkka yangidan paydo bo'lgan "shlyozvig-golshteyn muammosi"ga aralashish imkoniyatini berdi. Chunki, Golshteyn Germaniya ittifoqiga a'zo edi. Prussiya Daniyaga Shlyozvigning anneksiya qilishdan voz kechishni talab qiluvchi ultimatum e'lon qildi. Bu talabga keyinroq Prussiyadan orqada qolishni istamagan Avstriya ham qo'shildi.

Daniya qiroli Yevropa davlatlarining yordamiga urnid qilib, Prussiya va Avstriya talabini rad etdi. 1864 yil 1-fevralda Prussiya va Avstriya Daniyaga qarshi urush boshladi. Qisqa muddatda Daniya tor-mor etildi. 1864 yil 30 oktyabrda Venada imzolangan sulh shartnomasiga ko'ra Shlyozvig va Golshteyn gertsogliklari Daniyadan tortib olinib, Avstriya va Prussiyaning hamkorligidagi boshqaruv ostiga o'tdi. 1865 yil Prussiya va Avstriya o'rtasida imzolangan konventsiyaga ko'ra, Golshteynni Avstriya, Shlyozvigning esa to'liq Prussiya boshqaradigan bo'ldi. Bu konventsiya ko'proq Prussiya manfaatlariga xizmat qilgan. Biroq, Golshteynni Avstriya tomonidan boshqarilishi Prussiyani qanoatlantirmadi.

Daniya urushiga buyuk davlallarni aralashmasligi haqida Bismarkning basborati to'g'ri chiqdi. Bismarkning galdagi vazifasi Avstriyani tor-mor etish va uning german davlatlariga bo'lgan ta'siriga barham berish edi.

Bismark Prussiyaning harbiy qudratidan kelib chiqqan holda ongli ravishda Avstriya bilan urushga tayyorlana boshladi. Avstriyani tezda tor-mor etish uchun 1866 yil bahorida Italiya bilan ittifoqchilik haqida maxfiy shartnoma imzoladi. Bismark Avstriya imperiyasiga qarshi urushda ittifoqchilik qiladigan Italiyaga Venetsiyani olib berishni va'da qildi. Vengriya emigrantlari bilan muzokaralar olib borib, Avstriya imperiyasida milliy harakatlar chiqarishga urindi.

Avstriyaga qarshi urushda Fransiyaning betarafligini ta'minlash uchun Bismark Napoleon III bilan bo'lgan uchrashuvda Belgiyani bir qismi va Reynning so'l sohilini Fransiya qo'shib olinishiga qarshi emasligini ma'him qildi. Uzoqni ko'ra olmagan Fransiya imperatori Avstriya-Prussiya urushi har ikki tomoning zaiflashtiradi deb o'ylab, Bismarkning taklifiga rozi bo'ldi.

1866 yil bahorida Bismark Germaniya ittifoqini tubdan isloh qilishga Avstriyaning roziligini so'radi. Undan kutilgan javobni olmagan Bismark barcha german davlatlariga Germaniya ittifoqini isloh qilish va undan Avstriyani chiqarish haqidagi loyihani jo'natib, ittifoq seymiga Germaniya ittifoqining yangi konstitutsiya loyihasini kiritdi va Prussiya harbiy qo'shinlarini Golshteynga tomon yo'naltirdi. Ittifoq seymi Avstriya tomonida turdi, bungajavoban Prussiya 1866 yil 14 iyunda Gennaniya ittifoqidan

chiqqanligini e'lon qildi.

15 iyun kuni Prussiya Avstriyaga qarshi urush boshladi. Baden, Bavariya, Vyurtemberg, Gannover, Saksoniya Avstriya tomonida, Tyurintyaning va Shimoliy Germaniyaning ayrim shaharlari Prussiya tomonida turib urushda qatnashdi.

Prussiya qo'shinlari Saksoniya. Gannover va Kurgessenga hujum qilib, 14 kunda Avstriyani qo'llab turgan Janubiy va Markaziy Germaniya kuchlari Mayn daryosi bo'ylab kesib qo'yildi. Yevropa jamoatchiligi tomonidan mutlaqo kutilmagan holda Prussiya armiyasi ilk bor temir yo'llar va telegrafdan foydalanib, Avstriya va uning ittifoqchisi Saksoniyaga ketma-ket harbiy zarbalar berishda davom etdi. Eski pilta miltiqlar o'rniga yangi minali o'qotar qurollar bilan qurollangan yaxshi harbiy tayyorgarlikdan o'tgan prus qo'shinlari general Moltkening qo'mondonligida Chexiya hududiga yurish qilib, 3-iyulda Sadova qishlog'i yaqinida Avstriya qo'shinini tor-mor etdi va Venaga yo'l oldi. Prussiya qo'shinlarining boshqa bir qismi Avstriyaga ittifoqchilik qilayotgan german davlatlari harbiy otryadlarini mag'lubiyatga uchratib, 15 iyul kuni Frankfurti egalladi.

Avstriya Janubiga Italiyaning hujumi natijasida imperayator Frants-Iosif Prussiya bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi. 1866 yil 23 avgustda Pragada imzolangan Avstriya - Prussiya sulh shartnomasiga ko'ra Avstriya Gennaniya ittifoqidan chiqarildi, german davlatlari orasida hukmronlik qilish da'vosidan kechdi va yangi uyushma Shimoliy Germaniya ittifoqiga kirishdan mahrum qilindi. Shuningdek, shartnoma Germaniya ittifoqini tarqatib yubordi. Shlezvig, Golshteyn, Gannover, Kurgessen, Nassau va erkin shahar Franklurg na Mayne Prussiyaga qo'shib olindi. Avstriya Venetsiyani Italiyaga berib, Prussiyaga harbiy kontributsiya to'lash majburiyatini oldi.

Shimoliy Germaniya Ittifoqining tuzilishi va Germaniyaning birlashtirilishi

Avstriya mag'lubiyatidan so'ng Germaniya ittifoqi tarqatib yuborilib, Prussiya 1867 yil boshida qabul qilingan ittifoq konstitutsiyasiga muvofiq butun hokimiyat prezident Prussiya quroli Vilgelm I ning meros o'tuvchi hokimiyati ostiga o'tdi. Bavariya, Vyurtemberg, Baden va Gessen-Darmstadt iborat Janubiy Germaniya davlatlari vaqtincha mustaqillikni saqlab qoldi. Biroq, keyinroq Prussiya bilan ittifoq shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi.

Yevropa davl at! arming hech biri Prussiyaning tajovuzkorona ravishda Germaniya davlatlarini birlashtirish siyosatiga qarshi chiqmadilar. Ular german davlatlaridagi inqilobiy harakatlarni faqat Prussiya boslirishga qodir deb o'ylab unga erkin tashqi siyosiv faoliyat yuritish imkoniyatini berdi.

Bismark 1865 yilda yozganidek: "hech qanaqa german xalqi yo'q bizning siyosatimiz Germaniyaning Prussiyaga aylantirishdan iborat" degan shiorga amal qilib 1866 yil urush nihoyasida Prussiya lashqi siyosatining so'nggi maqsadlarini ochiq bayon qildi. Prussiyadagi tartib qoidalar majburiy ravishda butun Shimoliy Germaniya ittifoqiga joriy qilina boshlandi. Ittifoq prezidenti Vilgelm Ittifoq armiyasining bosh qo'mondoni bo'lib, u urush e'lon qilish va sulh tuzish ittifoq boshqaruvidagi lavozimlarga nomzodlarni tayinlash va vazifasidan ozod qiiish ittifoqning qonun chiqaruvchi palatasini o'z xohishiga ko'ra chaqirish yoki yuborish, uning qarorlariga veto (taqiq) qo'yish va o'zining o'rinbosari-ittifoq kantsleri lavozimiga nomzodni tayinlash vakolatlariga edi. Ittifoq kantsleri doimiy ravishda Prussiya fuqarolaridan tayinlanib, u ittifoq kengashi deb ataluvchi yuqori palatada raislik qilgan. Bu kengash ittifoqqa a'zo bo'lgan davlatlarning vakillaridan iborat bo'lib, uning 43 ta vakillaridan 17 tasi Prussiyaga tegishli edi. Qo'yi palata reyxstag esa 297 la deputatdan iborat bo'lib, u umumiy saylov asosida saylashgan quyi palata qonunlarni va byudjetlash huquqiga ega bo'lgan xolos. Ittifoqga kirgan alohida davlatlar o'zlarining monarxlarini konstitutsiyasi sudlari va byudjetini saqlab qolgan. Biroq ular ittifoq bayrog'i sifatida Prussiyaning oq-qora va quyi qismida qizil chiziq tortilgan bayrog'ini qabul qildilar va Prussiya hukmronligini e'lifrof etdilar.

Germaniyaning yuqoridan birlashtirish jarayonidagi muvaffaqiyatlar, Avstriya va Daniya ustidan qozonilgan g'alabalar, konstitutsiyaviy nizo paydo bo'lgandan buyon Prussiyada Bismarkka qarshi muholiflikda turgan liberal burjuaziya-progressistlar Bismark oldida tiz cho'kishga majbur qildi.

1866 yil kuzida burjua progresststlar partiyasi safida bo'linish yuz berdi. Ittifoq ro'yxatiga va Prussiya davlatida burjuaziyaning Bismark siyosatini yoqlovchi nisbalan kattaroq qismi yangi partiya milliy liberallar partiyasini tuzdi.

A.Bebei va V.Libknextlar 1868 yil ochiqdan-ochiq marksizm pozitsiyasiga o'tganligini e'lon qildilar. A.Bebei va V.Libknextlar tashabbusi bilan shu yil kuzida Pyuriberi shahrida nemis

ishchilari ittifoqining s'ezdi chaqirildi S'ezd sotsialistik dastur qabul qilib, inlernatsional (xatqaro ishchilar harakati)ga qo'shilish uchun qaror qabul qildi.

1869 yil 7-9 avgustda Eyzenaxda umumgerman ishchilar kongressi chaqirildi. Unda lassachilar ishchi fereynlari kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlar birlashtirilib, > A.Bebei va V.Libknextlar tomonidan "Germaniya demokratik ishchilar partiyasi" tashkil etildi.

1866 yilgi urushdan so'ng Shimoliy Germaniya ittifoqi tuzilishi bilan Germaniyaning milliy birlashtirilishi, asosan, nihoyasiga yetdi. Biroq, Germaniyaning tuluq birlashtirish uchun Bismarkka yana bitta g'alaba kerak edi. Bu g'alaba german davlatlarini Rossiya boshchiligidagi birlashtirishga jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatayotgan Fransiya ustidan bo'lishi lozim edi.

60-yillarning oxirlarida Fransiya boshlangan siyosiy inqirozdan chiqish yo'lini Napoleon III Prussiyaga qarshi urushda ko'rdi. 1869 yil kuzida Bismark "Shimoliy Germaniya ittifoqining Fransiya bilan urushini imtihoni shunchaki bor emas, balki shunday urush uning uchun juda zarurdir" degan edi.

1870 yilda Fransiya va Prussiya boshchiligidagi german davlatlari o'rtasida urush boshlandi. Urushda german davlatlari g'alaba qildi, biroq sulh shartnomasi imzolanganidan turib, 1871 yilning 18 yanvar kuni Versalda Germaniya imperiyasining tuzilganligi. Prussiya qiroli Vilgelm II Germaniya imperiyasining imperatori deb e'lon qilindi. Fransiya - Germaniya urushi Germaniyaning birlashtirilishini nihoyasiga yetkazdi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Germaniya ittifoqining tuzilishi.
2. German davlatlarini birlashtirish uchun Prussiyaning dastlabki urinishi.
3. German davlatlarini birlashtirish yo'llari.
4. "Milliy ittifoq" va "Islahotlar ittifoqi" ularning maqsadlari va vazifalari.
5. Konstitutsiyaviy nizo va uning kelib chiqish sharoitlari.
6. Otto von Bismark va uning faoliyati.
7. Prussiyada yangi siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi.
8. Germaniya birlashtirilishiga Yevropa davlatlarining munosabatlari.
9. "Shlezvig-Golsheyn" muammosi va uning hal qilishini.
10. Avstriya-Prussiya-Italiya urushi va uning oqibatlari.

FOYDALANGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq", 1998.
2. Karimov I A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
5. Xrestomatiya po novoy istorii /pod. red. A.A.Gubera, A.V.Yefimova, V.A. Orlova -M: 1965. T. 2.
6. Bismark O. Msli i vospominaniya. M. 1940-1941 g. 1-2.
7. Galkin L.S. Sozdanie germanskoy imperii (1815-1871 gg) M. 1986.
8. Yerusalmiskiy A.S. Bismark Diplomatiyai militarizm. M. 1968
9. Narochitskaya L.I. Rossiya 1 voyn Prussii v 60-x godax XIX v za ob'edinenie Germanii "sverxu" M. 1960.
6. Sergeev V.V. Angliyai ob'edinenie Germanii v 1848-1871 gg. L. 1986.

Mavzu: XVII ASRNING OXIRI XIX ASRNING 70-YILLARIDA ROSSIYA

REJA:

1. XVIII asr oxirida Rossiyaning ichki va tashqi siyosati.
2. XIX asrning birinchi yarmida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Dekabristlar qo'zg'oloni

(1825 yil).

3. XIX asrning birinchi yarmida Rossiyaning xalqaro ahvoli.

4. Qrim urushi (1853 -1856 yillar).

5. Krepostnoylik huquqining bekor qilinishi va uning oqibatlari.

6. XIX asrning 60-70- yillaridagi burjua islohotlari.

7. Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududining bosib olinishining shart-sharoitlari.

Tayanch iboralar:

Pavel I ning ichki va tashqi siyosati. "Sharq masalasi". Fransiya'dagi qarshi koalitsiyalar. "Qurolli betaraflik" haqidagi shartnomalar. Rus-Turk urushlari. Tilzit sulhi. Napoleon armiyasining yurishi. 1809-yilgi "Erkin g'allakorlar" qonuni. "Maxfiy komitet". M.M.Spyeranskiy faoliyati. "Farog'at ittifoqi" Janubiy va Shimoliy ittifoqlar. Dekabristlar qo'zg'oloni. 1845-yilgi mayorat haqidagi qonun. "Majburiyatli dehqonlar". G'arbchilar. Slavyanofillar. Qrim urushi. Parij sulhi. Maxfiy komitet faoliyati. Krepostnoylik huquqining bekor qilinishi. 60-70-yillardagi burjua islohotlari. O'rta Osiyoning bosib olinishi.

XVIII asrning oxirida Rossiyaning ichki va tashqi siyosati

1796-yil Yekaterina II vafotidan so'ng, taxtga uning o'g'li Pavel I (1796-1801) o'tirdi. Yangi imperator Rossiyada dvoryanlar mavqicini mustahkamlashga harakat qilib, mamlakatda ko'tarilgan dchqon qo'zg'olonlarini shafqatsiz ravishda bostirdi. Novorossiya, Don va Kavkaz oldi viloyatlariga ham krepostnoylik tizimni joriy q'ldi. 600 mingga yaqin davlat dchqonlari pomeschiklar ixtiyoriga bycridi. Frantsuz inqilobining ta'siri natijasida Rossiyada ham V.V.Passik, F.V.Kretchetov, I.Rojnov kabi rus xalqining ilg'or vakillari chor samodiyerjaviyasiga qarshi chiqishlar boshladi. F.V.Kretchetov xalqini buyuk isyon ko'tarib «samodiyerjaviya» hokimiyatini ag'darishga va mamlakatda barcha teng bo'lgan respublika to'zumini o'rnatishga chaqirdi. Natijada ular hukumat tomonidan ta'qib qilinib, og'ir jazolarga tortildi, mamlakatda qattiq senzura o'rnatilib, ta'lim olish uchun xorijga chiqish ta'qiqlandi. Xususiy tipografiya va o'quv yurtlari yopildi. Xatto «millat», «ozodlik» va «tenglik» kabi iboralarning ishlatilishi ham ta'qiqlandi.

«Samodiyerjaviya» to'zumini mustahkamlash maqsadida Pavel I mamlakatni siyosiy jixatdan markazlashtirishga urindi. Dvoryanlarning o'z-o'zini boshqarishini va yana dvoryanlarni davlat lavozimlaridan o'z xohishiga ko'ra iste'foga chiqishi kabi imtiyozlari cheklandi. 1797-yil taxtni yaqin qarindoshlarga (otadan katta o'g'ilga to'g'ridan-to'g'ri myerosxo'rlar bo'lganda, aka-ukalarning kattasiga) o'tishi haqidagi tartib tiklandi. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Rossiya hukumati poytaxt aslzodalari, oliy harbiy zobillar va dvoryanlarga qarshi ayrim chora-ladbirlar joriy qilinganligiga qaramasdan, uning ichki siyosali dvoryanlar manfaatini himoya qilishga va krepostnoylik tizimini mustahkamlashga qaratilgan edi. Yekaterina II Frantsuz inqilobining ashaddiy dushmani bo'lsada, Rossiya Fransiya'ga qarshi qaratilgan birinchi koalitsiyada qatnashmadi. Chunki u Sharq va Polsha masalalarida erkinroq harakat qilish uchun o'ziga imkoniyat yaratdi. Pavel I hukmronligining dastlabki davrida Fransiya bilan diplomatik munosabatlar tiklandi. Biroq Rossiya, Fransiya va Germaniya o'rtasida Yaqin Sharq va Polsha masalasida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjud edi. Napoleon Bonapart qo'mondonligidagi Frantsuz harbiy ekspeditsiyasining Misrga jo'natilishi. Malta va Ionik orollarini bosib olinishi, Rossiyaning «Sharq masalasi»dagi manfaatlariga zid edi. Natijada Rossiya Fransiya'ga qarshi ikkinchi harbiy koalitsiyaga qo'shildi. 1799 yil Rossiya va Turkiya o'rtasidagi ittifoqchilik shartnomasi imzolandi, bunga ko'ra Rossiya harbiy floti Dardanell va Bosfor bo'g'ozlaridan erkin o'tish huquqiga ega bo'ldi. Admiral F.F.Ushakov qo'mondonligidagi rus floti Ionik orolini Frantsuzlardan ozod qildi. 1800 yilgi rus-turk konventsiyasiga ko'ra Ionik orolida «Eitid qd'shma orollar respublikasi» to'zildi. Mayda bu respublika Rossiya va Turkiya davlatlarining protektorati ostida bo'lib. rasmiy ravishda Turk sultoni uni syo'z yerini, deb hisobladi.

Suvorov qo'mondonligidagi rus qo'shinlari Italiya'da Frantsuz qo'shinlariga qarshi urush harakatlarini olib borib, Frantsuzlardan tozalangan. Italiya hududlarida eski feodal tartiblarini va sobiq mahalliy hukmdorlarning hokimiyatini tiklash bilan mashg'ul bo'ldi.

Yaqin Sharq masalasida va O'rta yer dengizi havzasida Anglo-Rus munosabatlari keskinlashib keldi. Angliya Turkiya bilan Rossiyaning o'zaro yaqinlashuvidan tashvishga lushib, Rossiyani Ionik oroldan siqib chiqarishga harakat qildi. O'z navbatida Rossiya Angliyadan O'rta yer dengizida strategik jihatdan juda qulay bo'lgan Malta orolini tortib olish payida bo'ldi. Koalitsiya a'zolari orasida jiddiy qarama-

qarshiliklar kelib chiqdi. Pavel I rus qo'shinlarini Italiyadan chaqirib olib. 1800-yilda Angliya bilan barcha munosabatlarini to'xiatdi va Shvetsiya, Daniya, Prussiya bilan Angliyaga qarshi qaratilgan « qurolli betaraflik» haqidagi shartnomalarni imzoladi. Bir vaqtda Fransiya bilan sulh to'g'risida mo'zokaralar boshlab, Angliyaga qarshi ittifoqchilikda Hindistonga yurish qilishga kelishib oldi. Angliya va Rossiya urush holatiga keltirildi.

Pavel I ning Angliyaga qarshi siyosali dvoryanlarning hukumron doiralarida norozilik uyg'otdi. Chunki rus pomeshchiklari o'zlarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini asosan, Angliyaga eksport qilib Angliyadan sanoat mahsulotlarini olar edilar. Angliya bilan munosabatlarining bo'zilis, ularning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazmoqda edi. Shuningdek rus dvoryanlarining bir qismi, Rossiyaning Fransiya bilan yaqinlashuviga qarshilik ko'rsatmoqda edi. Natijada 1801 yil 12 martda Pavel I ga suiqasd uyushtirishdi. Rossiya taxtiga uning o'g'li Aleksandr I (1801 - 1825) o'tirdi.

XIX asrning birinchi yarmida Rossiyaning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti.

Dekabristlar qo'zg'oloni (1825 yil).

XIX asr boshlarida Rossiyada kapitalistik elementlarning paydo bo'la boshlashi ko'zatiladi. XIX asr boshlarida kelib tukuvchilik sohasida dastlab mashinalashgan texnikalardan foydalanila boshlandi. Qishloq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan qand lavlagi yetishtirish, mayin junli qo'ychilik rivojlantirildi. Biroq krepostnoylik munosabatlari qishloq xo'jaligida radikal o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'l qo'ymayotgan edi.

XIX asr boshlarida Rossiyaning hukumron doiralari ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish uchun davlat apparatini kuchaytirishga harakat qildi. Senat qayta tashkil qilinib, kollegiyalar o'rniga ministrlklar joriy qilindi. 1803 yilgi «Erkin g'allakorlar» haqidagi qonunga ko'ra, to'lov yo'li bilan va yer uchastkasi bilan ta'minlash sharti asosida pomeshchiklarning dehqonlarni krepostnoylikdan ozod qilishini e'lon qildi. Ammo dehqonlarni ozod etish shartlari juda og'ir bo'lib, XIX asrning birinchi choragida bor - yo'g'i 47 raing dehqon ozodlikka chiqdi.

Aleksandr I hukumronligining dastlabki yillarida mamlakatning ichki va tashqi siyosati masalalari «Maxfiy komitet» yig'ilishlarida muhokama qilingan. bu komitetga podshoga eng yaqin va ta'sirga ega bo'lgan kishilar a'zo bo'lishgan. Til'zit sulhi (1807-yil) dan keyin Fransiya bilan munosabatlarini biroz yaxshilanishi natijasida maxfiy komitet tarkibidagi isloholchilikka moyil bo'lgan byurokratik guruh faoliyati kuchaydi. Islohotlar rejasining loyihasini tayyorlash ishi M.M. Spyeranskiyga yuklatilgan. Uning loyixasiga ko'ra, Rossiyada konsititutsion monarxiya o'rnatish, mulkiy senzrga asoslangan murakkab tizimli va'killar organini to'zish, qonun chiqaruvchi alohida « Davlat kengashi» tashkil qilish va u qabul qilgan qonunlarni podsho tomonidan tasdiqlanishi nazarda tutilgan edi. Ushbu loyiha Rossiyada burjua o'zgarishlarini amalga oshirishga qaratilgan edi. Loyihaming faqat «Davlat kengashi» haqidagi punkti joriy qilindi. Reaktsion dvoryanlarning talabi bilan Spycranskiy vazifasidan ozod etilib, surgun qilindi.

XIX asrning birinchi yarmida Rossiyaning xalqaro ahvoli

Pavel I vafotidan so'ng taxtga o'lirgan Aleksandr I Angliyaga qarshi qaratilgan deyarli barcha shartnomalarni bekor qildi. Pavel I ning O'rla Osiyo orqali Hindiston tomon yo'la olgan-kazaklardan iborat harbiy otryadi ham qaytarildi. Aleksandr I endi Kavkaz ortini bosib olishga kirishdi.

1801 yilda Kavkaz ortidagi Kartli-Kaxetin podsholigining Rossiya tomonidan bosib olinishi Eron. Turkiya, Fransiya va Angliyaning noroziligiga sabab bo'ldi. Fransiya va Angliya Sharqda Rossiya mavqeini kuchayishidan, Eron va Turkiya esa Rossiyaning Kavkazdagi bosqinchilik siyosatidan tashvishga tushmoqda, edi. 1801 yil Angliya va Eron Fransiya va Rossiyaga qarshi qaratilgan shartnomalarni imzoladi. 1804 yilda esa Eron Rossiyaga qarshi urushga kirdi. Rossiya-Eron urushi 1813 yilgacha davom etdi. Shu yili Rossiya va Eron o'rtasida Guliston sulh shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra Eron urushi davomida Kavkaz ortini aksariyat qismini Rossiyaga qo'shib olinganligini va Kaspiy dengizida rus harbiy flotini saqlanishini e'tirof etdi. Rossiyaning Kavkaz ortini bosib olishi va Bolqondagi siyosati Turkiyaning ham manfaatlariga zid keldi. Turkiya 1806 yilda Rossiyaga qarshi urush boshladi.. 1897 yil 7 iyulda Napoleon va Aleksandr I Tilzitda uchrashib, sulh va ittifoq haqida shartnoma imzoladilar. Unga ko'ra Aleksandr I Napoleon I tomonidan Yevropada amalga osbirilgan o'zgarishlarni e'tirof etib, o'z navbatida Rossiya uchun Yaqin Sharqda erkin harakat qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. 1806 yilda boshlangan rus-turk urushi 1812 yilda

Rossiyaning g'alabasi bilan yakunlandi. 1812 yilgi Buharest sulh shartnomasiga ko'ra Bessarabiya Rossiyaga o'tdi. Moldaviya va Valaxiyada turk sultoninig syo'zyerentligi qayta o'rnatildi, sulton Syerbiyaga ichki avtanomiya berish majburiyatini oldi.

Rus- Eron (1804-1813-yillar) va Rus-Turk (1806-1812-yillar) urushlari davomida Rossiya Kavkaz ortini deyarli to'liq bosib oldi. 1812 yilda Rossiya Napoleon Bonapart armiyasini hujumini qaytarib, uni butunlay tor-mor etilishi uchun juda katta hissa qo'shdi. 1812-yilning 24 iyunida 600 ming kishilik qo'shin bilan Rossiyaga bostirib kirgan Napoleon anniyasining hujumi muvaffaqiyatsiz ravishda yakun topdi. Fransiyadan Uzoqlashib ko'gan ko'p sonli Frantsuz armiyasini oziq-ovqat, kiyim-kechak, o'q-dori bilan ta'minlashdagi o'zilishlar, Rossiya hududining kengligi, qahraton qish, Bagration, Barglaydi Tolti, Kuto'zov kabi tajribaii sarkardalarning rus qo'shiniga qo'mondonlik qilishi oqibatida Napoleonning Rossiyaga yurishi barbod bo'ldi. Maglubiyatga uchragan Frantsuz armiyasini nafaqaf Rossiyadan balki. Yevropa davlatlari hududidan haydab chiqarishda Rossiya armiyasi muhim rol o'ynadi.

Angliyaning tezlashi bilan Eron 1826 yilda Kavkaz ortiga hujum qilib, navbatdagi rus-eron urushini boshladi. Biroq, tezda mag'lubiyatga uchragan Eron Turkmanchoy qishlog'ida sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Unga muvofiq Kavkaz ortidagi Naxchevon va Yyerevan xonliklari Rossiyaga o'ldi. Eron 20 mln. rubl kumush miqdorida kontributsiya lo'lash majburiyatini oldi.

Rossiya 1828-1829-yillardagi Rus-turk urushida Turkiyani mag'lubiyatga uchralib. Bolqonda o'z mavqeini mustahkamlashga yerishdi. Xulosa qilib aytganda, XIX asrning. birinchi yarmida Rossiya lashqi siyosal bobida bir qator muvaffaqiyatlarga yerishdi.

Napoleon urushlari Rossiyaning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoriga halokatli ta'sir qildi. Urush davomida mamlakatning g'arbiy va markaziy guberniyalari talanib, butunlay vayron qilindi, ishlab chiqarish kuchlariga katta zarar yelkazildi. Natijada urusbdan keyingi 1812 -1817 yillarda dehqonlarning krepostnoylik (izimga qarshi 90 ga yaqin norozilik chiqishlari bo'lib o'tdi.

XIX asrning boshlarida Rossiyadagi murakkab ijlimoiy-siyosiy vaziyat, Yevropadagi inqilobiy harakatlar, Napoleon urushi davomida Fransiyada va boshqa Yevropa davlatlarida siyosiy kurashning guvohi bo'lgan. Rossiyaning yosh dvoryan zobillari dunyoqarashida keskin o'zgarish yo'z berdi. Ular burjua erkinliklari joriy qilingan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan, Yevropa bilan krepostnoylik to'zumi hukumronlik qilayotgan va iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan Rossiyani solishtirib ko'rib, Rossiya uchun ham buyuk o'zgarishlar va yangilanishlar lozim degan xulosaga keldilar.

1816 yilda harbiy zobitlar A.Muravyov, I.D.Yakushkin, P.I. Pestel tomonidan «Qutqarish ittifoqi» nomli siyosiy lashkilot lo'zildi. Bu ittifoq krepostnoylik huquqini bekor qilish va chor samodiyerjaviyasini ag'darishni o'zining asosiy maqsadi. deb bildi. 1818 yilda bu ittifoq «Farog'at ittifoqi» deb atala boshladi. 1821 yilda poytaxtga rus harbiy qo'shini orasida norozilik kayfiyatining kuchayishi natijasida mazkur ittifoq tarqatib yuborildi.

«Farog'at ittifoqi» tarqatib yuborilgach, shu yili uning a'zoiari Petyerburgda N.Muravyov boshchiligida «Shimoliy ittifoq» va Ukrainada P.Pestel rahbarligida «Janubiy ittifoq» tashkil qildi. Har ikkala ittifoq o'zaro aloqada bo'lib, birgalikda harakat qilish dasturini to'zdilar va 1826 yil bahorida poytaxtda hokimiyatni qo'iga olish haqida kelishib oldilar. 1825 yil dekabrda Aleksandr 1 vafot etdi. 1825-1865 yil 25 dekabrda Aleksandr 1 ning ukasi Nikolay taxtga o'tirdi. Janubiy va Shimoliy itliibqlar 26 dekabr kuni qo'zg'olon uyushtirishga qaror qildilar. Ularning asosiy maqsadi senat lomonidan demokratik erkinliklarni e'lon qilinishiga, krepostnoylik huquqini bckor qilinishiga va ta'sis majlisini ehaqirishga yerishish edi.

26 dekabr kuni qo'zg'olon Sankt-Petyerburgdagi harbiy qismlar orasida boshlandi. Qo'zg'olonchilarning soni 3 ming kishiga yo'di, ular senat maydonida hukumat qo'shini tomonidan qurshovga olinib, to'pga tutildi. Qo'zg'olon qisqa vaqt- da bostirildi. Bu qo'zg'olon dekabr oyida ko'tarilganligi sababli tarixga «Dekabris(lar qo'zg'oloni)» nomi bilan kirdi.

Nikolay 1 (1825-1855yillar) o'zining 30 yillik hukumronligi davomida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida dvoryanlar tabaqasining hukumronligini tiklashga harakat qildi. Shu va podsho hokimiyatini himoya qilish maqsadida 1826-yil podsho devonxonasida «3-bo'lim» tashkil qilindi. Maxsus jandarm korpusiga ega bo'lgan bu bo'lim siyosiy ahvolni nazorat qilish bilan shug'ullanib, shaxsan Nikolay 1 ning o'ziga bo'ysungan. Chor Rossiyasining jandarm-politsiya rejimi hokimiyatiga qarshi har qanday qarshilikni shafqatsiz ravishda bostirgan. Hukumat dvoryanlarining moddiy ahvolini yaxshilash

maqsadida, 1836-yillarda pomeshchiklarga 300 ming desyatnadan ortiq davlat yerlarini bo'lib bergan. Shu yili dvoryanlarning krepostnoy dehqonlarga egalik qilishdagi hukumronligi yana bir marotaba e'tirof etildi. 1845-yilda «Mayorat» haqidagi qonun qabul qilingan. Bu qonun yirik dvoryan-pomeshchiklarning mulk yerlarini myerosxo'rlar o'rtasida mayda uchastkalarga (aqsimlanishini ta'qiqlagan. Nikolay 1 hukumati dehqonlarga nisbalan tutgan siyosatida ba'zan chckinishlar ham qilingan, 1842 yil «MajburiyatH dehqonlar» haqida qonun chiqdi. Mazkur qonun krepostnoy dehqonlarni to'lov asosida ozod qiiinishiga ruxsat berdi. Majburiyatli dehqonlar «Erkin g'allakorlar» dan farqli ravishda xususiy yer uchastkalariga egalik qila olmaganlar va ularga pomeshchik yerlaridan vaqtincha foydalanishga ruxsat etilgan. 1835 yilda manufaktura va fabrikalarda yollanib ishlayotgan dehqonlarni shartnoma muddati tugaguncha pomeshchiklar tomonidan chaqirib olinishi taqiqlandi. 1845- yilda esa zavod va fabrikalarda 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning tungi mehnatidan foydalanishni ta'qiqlovchi qonun chiqdi.

XIX asrning o'rtalarida Rossiya aholisi 62 mln kishiga eldi, uning 80% krepostnoy, dehqonlardan, 1% dvoryan-pomeshchiklardan iborat edi. Bu XIX asrning birinchi yarmida ham dehqonlarni ommaviy tarzda xonavayron bo'lish holatlarini davom etganligidan dalolat bycradi. Mamtakalda krepostnoylik huquqi va boshqa ko'plab feodal munosaballarning hukumronligi, chor samodiyerjaviyasining yakka hokimligi, kapitalistik munosabatlarning keng ravishda rivojlanishiga g'ov bo'lmoqda edi.

XIX asrning 30-40-yillarida rus xalqining ilg'or vakillari Rossiyaning ijtimoiy hayotida ulkan o'zgarishlar qilish lozimligini bashorat qila boshladilar. Ularning orasida A.Gyertsen, N.Ogaryov, V.Belinskiy kabi inqilobiy demokratlar katta rol o'ynadilar. Natijada Rossiyaning kelgusidagi taraqqiyot yo'lini muhokama qilish oqibalida «Slavyanofillar» (slavyanlarning ya'ni, Rossiyaning alohida taraqqiyot yo'li bor deb, g'arb davlatlariga uni qarshi qo'yuvchilar va «g'arbhilar» (Rossiyada ham g'arbdagi kabi burjua islohotlarini amalga oshirish lozim, deb hisoblovchilar) kabi iqtisodiy , siyosiy g'oyalar paydo bo'ldi.

Qrim urushi (1853 – 1856 yillar).

1853 yil fevralida Nikolay I (Porta -Turkiya hukumatidan) Usmoniylar impyeriyasidagi barcha xristian aholisi ustidan hukumronlikni Rossiyaga berishni talab qildi. Angliya va Fransiya tayangan Porta ushbu talabni rad etdi. Bungajavoban rus qo'shinlari Turkiya syo'zyerenligida bo'lgan Moldaviya va Valaxiyani bosib oldi. 1853 yilning sentyabrida turk qo'shinlarinig Dunay bo'yi knyazliklari Kavkazga tomon yurishi bilan, Rossiya-Turkiya o'rtasida «Qrim urushi» deb atalgan urush boshlandi. 1854 yil bahorida urushga Turkiya tomonida turib, Angliya va Fransiya, 1855 yilda Sardiniya qo'shildi. Urush ittifoqchilarning g'alabasi bilan tugadi. 1856-yilning fevralida sulh shartnomasini imzolash uchun Rossiya, Fransiya, Angliya, Avstriya, Turkiya va Sardiniya davlatlarining vakillari Parijda kongressga yig'ildilar. Kongress bir oydan ziyodroq muddat davomida. og'ir diplomatik kurash ruhida bo'Mib o'tdi. G'olib davlatlar o'rtasida jiddiy tortishuvlar yo'z berdi. Angliya Rossiyadan Kavkaz va u bosib olgan boshqa yerlarni tortib olinishini, Qora va Boltiq dengizlarida rus harbiy ftoti bo'lishini, taqiqlash lozimligini talab qildi. Avstriya esa, Moldaviya va Valaxiyaga, Bessarabiyaning janubiy qismiga da'vogarlik qiidi. Fransiya esa Yaqin Sharq va Bolqonda Angliya va Avstriyaning mavqeini kuchayishidan tashvishga tushib, Rossiyaning zaiflashtirilishiga qarshi turdi. Mazkur ziddiyatlardan o'rinni foydalangan rus diplomacy as i ittifoqchilardan bir qator yon berishlarga yerishdi. 1856 yil 30 martda Parij sulh shartnomasi imzolandi, uning asosini Fransiya ilgari surgan talablar tashkil qildi. Rossiya Bolqondagi Turkiya mustamlakalariga bo'lgan da'volaridan voz keehdi. Kars, Valaxiya, Moldaviya Turkiyaga qaytarildi. Dunay daryosi ittifoqchilarining floti uchun ochib qo'yildi. Qora dengiz havzasi betaraf deb e'lon qilindi. Rossiya va Turkiyaning Qora dengizda harbiy flot saqlashi ta'qiqlandi. Qrim urushida Rossiyaning niag'lubiyali mamlakatda davom o'ayotgan feodal -krepostnoylik inqirozini keskinlashtirdi va Rossiya, hukumron doirasini burjua islohotlarini qilishga raajbur qildi.

Krepostnoylik huquqini bekor qilinishi va uning oqibatlar

Rossiyada dehqonlarning norozilik qo'zg'olonlari yildan-yilga tobora kuchayib boravayverdi. Ular krepostnoylik tartiblarini tugatish, feodal zulmiga chek qo'yish uchun kurashmoqda edilar. Krepostnoylik huquqini bekor qilish nafaqat dehqonlarning, balki. Rossiya jamoaatchiligi ilg'or vakillarining va rus milliy burjuaziyasining talablaridan biri edi. Chunki krepostnoylik to'zumi kapitalistik ishlab chiqarish taraqqiyotiga to'siq bo'lmoqda edi. Shunday qilib, XIX asrning 50 - yillarida Rossiyada krepostnoylikni ommaviy dehqon qo'zg'oloni yo'li bilan, yoki islohotlar yo'li bilan tugatish yo'llari bir vaqtda feoda! to'zumdan yangi kapitalistik to'zumga o'tishning mavjud

ikki yo'li ham mavjud edi. 1857 yilning boshida oliy amaldorlardan krepostnoylik huquqini bekor qilish tadbiri bilan shug'ullanadigan «Maxfiy komitet» ta'sis etildi. Keyinchalik u «dehqonlar masalasi bo'yicha bosh komitet» deb ataldi. 1857 yil ikkinchi dekabrda Rossiyaning g'arbidagi Vitebskiy, Grodnenskiy va Kovenskiy guberniyalarida dehqonlarning krepostnoylikdan ozod qilish uchun dvoryan komitetlarini to'zish Ufg'risida podshoning farmoni chiqdi. Pomeschchiklar o'rtasida krepostnoylikni bekor qilish to'g'risida dehqonlarga beriladigan imliyozlar borasida tortishuvlar qizidi. Pomeschchiklarning aksariyati dehqonlarni shaxsan ozod o'ib, ularga yer-mulklarni bermaslik lozim degan fikrda edilar. Dvoryan komitetlaridagi bir qism pomeschchiklar esa katta to'lov asosida dehqonlarga yer berish kerak. degan to'xtamga keldilar. Kuchayib borayotgan dehqonlar harakatining ta'siri ostida bosh komitet a'zolari 1858 yil oxirida dehqonlarni to'lov asosida krepostnoylikdan ozod qilish haqida qaror qabul qildilar. Xalqning norozilik harakatidan tashvishga tushgan Aleksandr II krepostnoylik huquqini bekor qilish haqidagi qonunni tezroq tayyorlashni talab qildi va hatto 1861 yil yanvarida bo'lgan davlat kengashining majlisida Aleksandr II bundan keying! har qanday sustlik davlat uchun halokatli ekanligini ochiq-oydin ta'kidladi. Qonunning eng so'nggi matni va "Rossiyada krepostnoylik huquqini bekor qilish haqidagi Manifest"ga 1861 yil 3 mart (19 fevral) kuni podsho tomonidan imzo chekildi. "Krepostnoylik huquqini bekor qilish haqidagi -nizom" e'lon qilingandan 10 yil o'tgach ham. butun dehqon xo'jaliklarining 30%dan ko'prog'i pomeschchiklarga tobelikda davom etdi. Uy-joy va yer-uchastkalarini sotib olish uchun to'lovning 20-25% naqd to'lanishi shart bo'lgan, qolgan 75%-80% pomeschchikka davlat tomonidan to'langan, dehqonlar esa ushbu qarzni foizi bilan 49 yil davomida har yili to'lab borishi shart bo'lgan.

XIX asrning 60 – 70 yillaridagi burjua islohotlar

1861 yilda krepostnoylik huquqi bekor qilingandan so'ng, chor Rossiyasining siyosiy to'zumini yangi kapitalistik munosabatlarga moslashtirish zaruriyati paydo bo'ldi. 1864-1874 yillardagi burjua islohotlari aynan shu vazifa yechimiga qaratildi. 1864 yildagi zemstvo islohoti joylardagi xo'jalik, boshlangich ta'lim, meditsina xizmati ko'rsatish ishlari yangi saylanuvchan muassasalar- uyezdlar va guberniya boshqarmalari qo'lga o'tdi. 1864- yilgi sud islohotlari va yangi sud ustavlari esa sud muassasalarining yagona tizimini joriy qilib, rasmiy jihatdan barchani qonun oldida tengligini e'lon qildi. 1870 yilgi shahar boshqaruvi haqidagi

islohot ilgari mavjud bo'lgan tabaqaviy shahar boshqaruvini mulkiy senzura asosida saylanuvchi shahar dumasi bilan almashtirdi. Duma qabul qilgan qarorlar faqatgina chor ma'muriyati bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradigan bo'ldi.

60 yillardagi islohotlar ta'lim sohasiga tegishli bo'lib, unga ko'ra boshlangich xalq maktablari tarmog'i tashkil qilindi. 1863 yilda oliy o'quv yurtlari uchun yangi ustav qabul qilindi. Reklar va dekanlarga saylanish, professorlar korporatsiyasi huquqlarini kengaytirish borasida universitetlarga qisman avtonomiya huquqi berildi.

1865 yilgi matbuot to'g'risidagi ustavga ko'ra senzura qisman yumshalildi. Poytaxtdagi bir necha vaqtli nashrlar senzura bilan ozod qilindi. Senzura qoidalari ilk bor. boshlanganda esa nashr olti oyga to'xtatilgan, uchinchi bor takrorlanganda esa nashriyot butunlay ta'qiqlangan.

60-yillarda Rossiyada harbiy sohada ham harbiy xizmat tartibi haqida xizmat muddatini qisqartirishi, tan ja'osining bekor qilinishi kabi ayrim o'zgartirishlar qilindi. Biroq harbiy islohotlar 1874 yilda umumiy harbiy majburiyat joriy qilingandan so'ng nihoyasiga yetdi. Unga muvofiq pomeschchiklar tomonidan, 1861 yildan esa qishloq yig'inining qarori bilan rekrutlikka olish bekor qilinib, 20 yoshga etgan barcha yerkaklar armiyaga chaqiriladigan bo'ldi. Harbiy xizmat muddati 6-7 yilga qisqartiriladigan bo'ldi. Shahar boshqaruvi va harbiy sohadagi islohotlarning andozasi Prussiyadagi mavjud tartiblardan olingan edi.

XIX asrning 60-yillarida Rossiyada amalga oshirilgan burjua islohotlari mamlakatda yozgaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy keskinlikni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, o'zining cheklanganligiga qaramasdan, ular chor Rossiyasini burjua monarxiyasiga aylantirish yo'lida qo'yilgan birinchi qadam bo'ldi. 1861 yilda krepostnoylikning bekor qilinishi, keyinroq mahalliy boshqaruv, Sud, Ta'lim, Matbuot va boshqa sohalarda amalga oshirilgan birinchi islohotlar edi. Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududini bosib olinishining shart-sharoitlari.

Musamlakalar bo'shib o'lgan nafaqat rus fabrikachilari va zavodchilari balki, ichki guberniyalarning dvoryan - pomeschchiklari ham manfaatdor edilar. Rus sanoatchilariga mustamlakalarda ishlab chiqarilgan

mahsulotlarni sotish. uchun, dvoryan pomeshchiklarga esa, islohotdan so'ng Rossiya qishloqlarida paydo bo'lgan ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun zarur edi.

XIX asrning 60-yillarida O'rta Osiyoning rus to'qimachilik sanoati uchun xom-ashyo bazasi sifatidagi roli yanada oshdi. AQShdagi fuqarolar urushi tufayli Amerika paxtasining Yevropaga keltirilishi deyarli to'xtab qoldi. 1862-1865 yillarda Rossiya manfakturasi paxla xom ashyosining tanqisligi tufayli halokatli ahvolni boshidan kechirdi. Chunki Rossiya sanoatining 90%idan ortig'i Amerika paxtasini qayta ishlash bilan shug'ullanar edi. Ilgari Rossiyaga har yili 120-150-ming pud miqdorida O'rta Osiyo paxtasi keltirilgan bo'lsa, mazkur yiliardagi uning miqdori 500-700-ming pudni, ya'ni Rossiyaga eksport qilinayotgan paxta xom-ashyosining 50% ini tashkil qildi.

O'rta Osiyo hududini bosib olish zaruriyati rus matbuotida zo'r berib targ'ib qilindi. Chor Rossiyasi O'rta Osiyo xonliklarini harbiy kuch bilan bosib olish rejasini ishlab chiqib, uni amalga oshirishga kirishdi.

Chor Rossiyasi 1864-1873 yillar davomida O'rta Osiyo xonliklarini tor-mor etib, Markaziy Osiyo hududida deyarli lo'liq o'zining hukumronligini o'rnatdi. 1867 yilda to'zilgan Turkiston genyeral-gubernatorligi Rossiyaning O'rta Osiyodagi ma'muriy markazi bo'lib, u Turkiston o'lkasida Rossiya mustamlakachiligini o'rnatishda va uni ustahkamlashda a'loida tashabbus ko'rsatdi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Pavel I (1796- 1801-yillar.) ningtashqi siyosati, franko-rus va anglo-ras munosabatiari.
2. «Sharq masalasi», uning mazmuni va mohiyati.
3. Birinchi Rus-Eron urushi (1804 - 1813-yillar.) va uning oqibatlari.
4. Til'zit sulhi va uning mohiyati.
5. Rossiyada Napoleon armiyasi mag'lubiyatining sabablari.
6. XIX asrning birinchi choragida chor samodiyerjaviyasini mustahkamlash uchun olib borilgan chora - tadbirlar.
7. M.M.Spycranskiyning islohotlar Soyihasi.
8. «Qulqarish ittifoqi» ning maqsad va vazifalari.
9. Dekabristlar qo'zg'oloni.
10. "Mayoral haqidagi" qonunning mohiyati.
11. «G'arbchilar» va «Slavyanofillar» nomli ijtimoiy- siyosiy g'oyalarning mazmuni.
12. Qrim urushi va Parij sulhi.
13. Krepostnoylik huquqining bekor qilinishi va uning oqibatlari.
14. XIX asrning 60- 70 yillarida amalga oshirilgan isloholarning ahamiyati.
15. Rossiya lomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq", 1998.
2. Karimov I A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
4. Xrcstomatiya po novoy istorii . V 3t, Pod red. A.A.Gubera i A.V. Efimova. M., 1963-1965. T.G\ '
5. Tursunov B.T. Yangi Tarix. I qism.Samarqand - 2001.
6. Jahon tarixi. Toshkent "Sharq" ., 2004.
7. Yangi tarix . 1 q ., Toshkent "O'qituvchi". 1969.
8. Talcyran Sh. M. Memuari. M.,1959.
9. Krestyanskoye dvijeniye 1861 goda posle otmeni krepostnogo prava. Ch.2,1., M.,1949.
10. Otmena krepostnoga prava. M.,1950.
11. BestujevI.B. Qrimskaya voyna. (1853-1856gg.)M.,1956.
12. Terentev M.A. Istoriya zavoyevaniya Sredney Azii. SPb.,1906.
13. O'zbekiston tarixi. 111. Toshkent. "Sharq". 2003.

Mavzu: XVII asrning - oxiri XIX asr 70 -yillarida Xitoy

REJA:

- 1.XVII asrning ikkinchi yarmi XVIII asrning oxirida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.

2. Maxfiy jamiyatlar faoliyati va xalq qo'zgonlari.
3. Birinchi afyun urushi (1840-1842y)
4. Taypinlar qo'zgoni (1850-1864y)
5. Ikkinchi afyun urushi (1856-1860y)
6. Taypinlar va boshqa xalq qo'zgonlarining bostirilishi.
7. XIX asr oxirida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
8. Xitoyning xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari va tashqi siyosati.
9. Xalq qo'zgonlari va ijtimoiy harakat.
10. Xitoydagi chet el intervensiyasi.

TAYANCH IBORALAR:

Tsin sulolasining hukmronligi. Davlat to'zumi. Yerga egalik qilishning shakllari. Maxfiy jamiyatlar va diniy sektalar. «Oq nilufar jamiyati»ning faoliyati. Lin Szesyuy. Birinchi afyun urushi. Nankin shartnomasi. Taypin-tyango. Xun Syutsyuan. Taypinlarning ijtimoiy, iqtisodiy va diniy siyosati. Qo'zgonning bosqichlari. Ikkinchi afyun urushi. Tyantszin sulh shartnomalari. Aygun shartnomasi. Pekin konvensiyasi. Taypinlar qo'zgonining bostirilishi va uning oqibatlari.

Xitoyning yarim mustamlakaga aylantirilishi. Kompradorlar. Muxolif jamiyatlar. Ixetuanxilar. Tsin hukumati. Sinxay inqilobi. Sun Yat Sen. Yuan Shi Kay. Gomindan. Xitoyga intyerventsiya. AQShning «ochiq eshiklar» siyosati. Xorijiy davlatlarning Xitoyga bo'lgan munosabatlari.

XVII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVIII ASRNING OXIRILARIDA XITOTYNING IJTIMOIIY IQTISODIIY VA STYOSIIY AHVOLI

XVII asrning 20-30 yillarida Shimoliy Xitoyda qudratli dehqonlar urushi boshlanib u 15 yildan ko'proq vaqt davom etdi. 1644 yilda impycriya poytaxti Pckin qo'zgonchilar. tomonidan olinib, Min sulolasi laxtdan agdarildi. Natijada Xitoyning shimoliy va markaziy viloyatlarida feodallar yer mulklaridan, imtiyozlaridan mahrum qilinib, ularning ko'pchiligi qirgin qilingan. Ana shunday bir vaqtda Xitoy feodallari manjuk nyazlariga yordam so'rab murojaat qiidilar.

Lyaodun yarim oroiiining shimoliy qismida yashagan manjur qabilalari Min impyeriyasining vassal! edilar. 1644 yilda Xitoy armiyasining qo'mondoni U Sanguy manjurlarga vassal tushib, ularga buysunganligini ma'lum qilgach, manjur qo'shinlari Pekinni cgallab, Xitoyda manjurlarning Sinn sulolasi (1644-1911) hukmronligiga asos soldilar.

Manjur bosqinidan so'ng Xitoyning ijtimoiy iqtisodiy urzumida sezilarli o'zgarishlar yo'z bermadi, Xitoy avvalgidek agrar mamlakat bo'lib qolavyerdi. Min sulolasining hukmronligi da gi kabi Xitoyda ishlov beriladigan yerlar amaldorlar va fuqaro yerlari kabi 2 ta toifaga bo'lingan. Fuqaro yerlari ishlov beriladigan yerlarning 3/4 qismini tashqil etgan.

Xitoy qishlog'ining ijtimoiy iqtisodiy hayoti asosini o'zaro qarindoshchilik aloqalari bilan bog'langan, yerga jamoaa bo'lib egalik qiladigan qishloq jamoaalari tashkil etadi. Bundan tashqari jamoaa alohida individual tarzda yerga egalik qilish ham mavjud bo'lib. oldingisidan farqli holda bu yerlarni sotish yoki ijaraga berish mumkin bo'igan.

Qishloqni ekspulatatsiya qilishning asosiy ko'rinishi ijara chorakorlik bo'lib, ijara haqi hosilning 30% - 70% miqdorida olingan. Yyerlarning bir qismi impyertorga, uning yaqin qarindoshlariga, manjur aslzodalari va zobitlariga legishli bo'igan. Davlat yer egaligining bir luri chegaradagi harbiy punktlarga tegishli bo'lib, ulardan keladigan daromad harbiy garnizonlar ta'minotiga sarflangan.

Xitoy o'zining siyosiy to'zumiga ko'ra muslabid tizimiga asoslangan bo'lib, yakka hukmdor bog'dixon cheklanmagan hokimiyatga ega bo'igan. Impyertorning qonun chiqaruvchi hokimiyati impyeralor kotibiyati va harbiy kengashidan iborat ikkita maslahat organidan iborat bo'igan. Mamlakat ma'muriy jihatdan 18 ta provintsiyalarga bo'lingan va ularni gubernatorlar boshqargan. Har bir provintsiyada 10 tadan viloyatlar bo' lib, viloyatlarda esa 1,5 mingga yaqin yezalar bo'igan. XVIII asrning oxirlarida Xitoyning mazkur 18 ta provinlsiyalarida 300 mln. ga yaqin aholi yashagan.

Tsin hukumati 1755-1757 yiilarda Xitoyning shimoli-g'arbidagi Jung'or va 1757-1759 yillarda esa qoshg'ar xonliklarini bosib oldi. 1768-1769 yillarda juda katta harbiy yuqotishlar evaziga Birmada, 1788-1789 yillarda Vc'lnamda Xitoy syo'zyerentligi o'rnatildi. Bosqinchilik yurushlari natijasida XVIII asrning oxirlariga kelib, Xitoy tyerritoriyasi ancha kengaydi. Biroq harbiy yurushlarni uyushtirish. bosib olingan yerlarda qo'zgotonlarni bostirish hukumatdan katta harajatlarni talab qildi. Natijada yangi soliqlar joriy qilindi. cskilarining miqdori oshirildi.

Xitoy aholisi juda tez ko'payib bordi va XIX asr o'rtalariga kelib mamlakat aholisining soni 400 mln ga yetdi. Natijada aholining turmush darajasi yomonlashib, joylarda isyon, qo'zg'olon ko'rinishidagi hukumatga qarshi xalqning norozilik harakatlari avj oldi.

MAXFIY JAMIYATLAR FAOLIYATI VA XALQ QO'ZG'OLONLARI

XVIII asr oxirlarida Xitoyda xalq qarshiligini tashkil qiluvchi markazlar vazifasini diniy sektalar va maxfiy jamiyatlar o'tadi. Barchaning o'zaro tengligi, o'zaro yordam berish zaruriyati kabi talablar turli diniy sektalar va maxfiy jamiyatlar g'oyasining asosini tashkil qildi. Bu sektalar va jamiyatlar qo'zg'olon ko'tarish yo'li bilan Xitoyda jamiyat munosabatlarining yangi printsiplarini joriy qilishga harakat qildilar. Ularning orasida eng keng tarqalgan shior bu manjurlarning noqonuniy hokimiyatini ag'darish shiori edi. Muxofillikdagi bu lashkilotlar faoliyatida «harbiy san'at» ya'ni, o'z tarafdorlarini qo'l jangiga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etdi. Diniy sektalar va maxfiy tashkilotlarga turli xil ijtimoiy guruhlarining vakillari a'zo bo'lgan ularning aksariyatini qashshoq dixonalar tashkil etgan. Shaolin buddaviylik monastri monaxlarining faoli ishtiroki natijasida juda ommabop «Triada» jamiyati tashkil topildi. Monaxlari manjurlar hokimiyatini tan olmagan uchun qo'shin tomonidan ular (or-mor o'qilib, mazkur monastri yoqib yuborilgan.

XVII asr oxirlarida «Oq nilufar» jamiyatining faoliyati kuchaydi. Uning rahbarligida 1786 yilda Xitoyda katta xalq qo'zg'oloni uyushtirildi. Qo'zg'olon asosan Markaziy Xitoy provintsiyalarini qamragan va 1804 yilgacha davom o'tgan. Qo'zg'olonchilar manjurlar hukumatini ag'darib amal dor laming sotqinligi va shavqatsizligiga chek quyishni talab qildilar. 1796-1804 yillardagi qo'zg'olonning mag'lubiyatidan so'ng ham diniy sektalar va ularning tarafdorlari manjurlar hukmronligiga qarshi kurashdan voz kechmadilar. 1813 yilda "Samoviy idrok jamiyati" Shimoliy Xitoyda qo'zg'olon uyushtirdi. Uning daholaridan biri o'zini Xitoy imperatori Min sulolasining davomchilaridan biri deb e'lon qildi. 200 kishidan iborat qo'zg'olonchilarning bir guruhi 1813 yilning oktyabrida Pekindagi Sin hukumati qarorgohiga hujum uyushtirib, hokimiyatni egallashga urindi. Biroq, hujum saroy qo'shini tomonidan dor-mor etildi. 1814 yil boshida qarshilikning so'ngi to'loqlari ham bostirildi.

Biroq mag'lubiyatga qaramasdan maxfiy jamiyatlar va diniy sektalarning faoliyati davom etdi. Ular XIX asr davomida ham, asosan, xalq hokimiyatiga qarshi kurashning ilhomchisi bo'lib qolovyerdi.

1841-1849 yillar davomida Xitoyliklar, tibetliklar, dunganlar va Xitoydagi boshqa xalq vakillari lomonidan manjurlarning hokimiyatdan ag'darish, amaldor laming shavqatsizligini tugatish uchun, shuningdek, soliq va majburiyatlarga qarshi 110 ta xalq qo'zg'olonlari ko'tarilgan.

XVIII asr oxiri XIX asrning boshlarida Xitoyga Angliya, Fransiya va AQSh kabi Xorijiy davlatlarning savdo ekspeditsiyasi tobora kuchaydi va maxfiy jamiyatlar va diniy tashkilotlar faoliyati juda kuchaydi.

BIRINCHI AFYUN URUSHI (1840-1842 YY.)

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Sin Imperiyasining ichki inqirozi mamlakatga Angliya ta'sirini kuchayishi bilan yanada chuqurlashdi. Angliyaning "Ots-Indiya" kompaniyasi Xitoy janubidagi savdoga o'z monopoliyalarini o'rnatib Xitoy hukumatini mavjud chegaralarni inkor qilishga harakat qildi. Angliya Xitoy bozorlarini ochib qo'yilishiga yerishish uchun kurashni davom ettirdi. Xitoy hukumati bilan kelishmagan holda Angliya – Xitoy savdosini ko'zatish maqsadida ingliz hukumatining vakili lord Neppyer Xitoyga keldi. Sin hukumati Neppyerdan mamlakatdan chiqib ketishni talab qiladi. Shunda Neppyer arbiy

ig'vogarlik uyushtirib ikkita harbiy kemani qo'lga oladi.

Xitoy bilan Angliya urushining keskinlashuvida Afyun (Opyum) savdosi katta rol o'ynaydi. 1773 yil Hindistondagi Britaniya hukumati Xitoyda Afyun savdosiga ham o'z monopoliyasini o'rnatdi. Shundan boshlab Hindiston Xitoyni talash uchun Angliya qo'lidagi asosiy vosita bo'lib qoldi.

XIX asrning 20-yillarida Xitoyga afyun kiritish jadal ravishda o'sib bordi. 1816 -1819 yillarda yiliga 4420 quti(yashik) afyun kiritilgan bo'lsa, 1835-1819 yillarda esa yiliga 35445 quti afyun kiritilgan. 1795-yil 1838 yillar maboynida Angliyaning Xitoydagi afyun savdosi 70 barobarga ko'paydi. Mazkur vaqt davomida Xitoyga 450 ming quti yoki 27 million kg afyun keltirilgan. Afyun savdosi bilan Amerikalik savdogorlar ham shugullanishgan. Amerikaliklar Xitoyga afyunni Turkiyadan keltirganlar. Xitoy hukumati 1800 yilda rasmiy ravishda afyun savdosini taqiqlanganligiga qaramasdan ingliz va Amerikalik mahalliy amaldorlar orqali kontrabanda yo'q bilan afyun savdosini olib borganlar. Xitoy xalqining ilg'or vakillari afyun savdosiga va uning istemol qilinishiga qarshi kurashdilar. Shunday kishilardan biri Lin Szsyuy edi. 1838-yil dekabrda u Xitoy hukumatining Guanchjouda provintsiya

(afyun savdosining eng yirik markazlaridan biri)dagi vakili lavozimiga tayinlandi. Provintsiyaning markazi bo'lgan Guanchjouda Lin Szyuy aflyun savdosiga qarshi qa'tiy chora ko'rushi asosida ingliz va amyerikalik savdogorlardan 20 ming qutidan ziyotroq aflyunni konfiskatsiya qilishga yerishdi. Angliya hukumati ushbu holatdan Xitoyga qarshi urushda bahona sifatida foydalandi. 1834-yil dengizda Xitoyda harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. 1840 yil Angliya e'lon qilmasdan Xitoyga urush boshladi bu urush «Birinci aflyun urushi» yoki birinchi «anglo-xitoy» urushi, deb nom oldi.

Tnglizlar juda shafqatsiz ravishda urush olib bordilar. Lin Szyuy lavozimidan chetlatilib, uning o'rni Xitoyning taslim bo'lishi tarafdori bo'lgan Si Shan (ayinlandi. U Angliyaning talablarini qabul qilishga tayyor ekanligini ma'lum qildi, biroq Bogdixon kelishuv bitimini tasdiqlamadi. Bundan norozi bo'lgan ingliz hukumati Xitoyga yangidan qo'shinjunatib, urushni davom ettirdi.

Urushda Xitoy taslim bo'ldi. Urush 1842 yil avgustida Nankinda imzolangan sulh shartnomasi bilan o'zining nihoyasiga etdi. Nankin shartnomasi Yangi zamon tarixi davomida Xitoyning chet davlatlar bilan imzolagan dastlabki noteng shartnomasi edi, unga ko'ra Xitoyning Guanchju, Siyameen, Futjou, Nininbo va Shanxaydan iborat beshta porti inglizlar uchun ochib qo'yildi. Gonkong (Syangan) oroli Angliya ixtiyoriga o'tdi. Shunigdek, Xitoy 21mln. dollar miqdorida tovon to'lash majburiyatini oldi, bojxona mustaqilligidan mahrum bo'ldi. mamlakatga kiritilayotgan ingliz savdo mahsulotlariga 5% miqdorida boj to'lovi belgilandi.

1843-yilda Angliya Xitoy bilan «5 portda savdo qilish bo'yicha qushimcha bitim» deb nomlanuvchi hujjat imzolab inglizlarni Xitoy sudlariga tortmasligi maskur portlarda ingliz aholi punkillariga asos qilish kabi huquqlarni qo'lga kiritdi. 1844-yilda AQSh va Fransiya ham Xitoy bilan shunday shartnomalarni imzolashga yerishdilar.

TAYPFINLAR QO'ZG'OLONI (1850-1864)

Aflyun urushi va uning oqibatlari xalq ommasining ahvolini yanada ogirlashtirdi. Xitoyga aflyun kiritish sur'atlari tez o'sdi. Tashqi savdodagi daromad Xitoy qo'shinini chetda • qolib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada mis tangaga nisbatan kumish yuan (pul birligi) ning kursi oshib ketdi. Bu quyi xalq omassining ayniqsa dchqonlarning ahvolini ogirlashivuga olib keldi.

Ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashib. Xitoyning janubiy provintsiyalarida xalqning norozilik harakatlari kuchaydi, Guandun va Guansi provintsiyalarida dchqonlarning qo'zg'olonlari ko'tarildi. Bu provintsiyalar asr o'rtalarida ko'tarilgan qo'zg'olonning o'chog'iga aylandi, bu voqealar tarixga «Taypinlar qo'zg'oloni» nomi bilan kirdi.

Taypinlar qo'zg'oloniga o'kituvchi Xun Syutsyuan (1814-1864) boshchilik qildi. U 1843 yilda «Samoviy hukumdorga siginish jamiyatl» (Bay shan de xo'z)ni to'zdi.

Xun Guanchjoudagi xristian missionerlari orqali xristian diniy la'limoti bilan yaxshi tanishdi. Xristianlikni yakka xudo haqidagi ijtimoiy tenglik haqidagi aqidalarini taypin (ijtimoiy adolat ramzi) printsplari bilan uygunlashtirib yangi diniy ta'limot yaratdi va o'zini bu dinning paygambari, deb e'lon qildi. 1850 yilda Xun Sinlarga karshi Guansida qo'zg'olon uyushtirdi. Qo'zg'olonchilarning ijtimoiy tarkibi turli xil bo'lib, unda dehqonlar, ishchilar, hunarmandlar, savdogorlar qatnashdi. Qo'zg'olonchilar boshlariga qizil peshonabog taqib olganliklari uchun bu qo'zg'olon «Qizil peshonabog'lilar» qo'zg'oloni, deb ham ataladi.

Tsin hukumatining qo'zg'olonni bostirishga bo'lgan urinishi muvaffaqiyatsiz bo'ldi. 1851 yil 11 yanvarda qo'zg'olonchilar Sinn sulolasining hokimiyatiga karshi «Yalpi farovonlik samoviy davlati»-Taypin tyangoni to'zganligini c'lon qildi. Xun Syutsyuanni samoviy hukumdor, deb atay boshladilar. Qo'zg'olonning dastlabki bosqichida qo'zg'olonchilarning asosiy maqsadi Xitoyni manjurlar zulmidan ozod etish va feodal to'zumini tugatishdan iborat edi.

Dastlabki davr-Tszintyan qo'zg'olonidan Nankinni olinishigacha va u yerda Taypinlar davlatining markaziga asos solinishigacha bo'lgan davr (1850-1853) Taypinlar davlati hududini kengaytirish uchun kurash davri-Nankin olingandan to'laypinlar lagyerini bulinib ketishigacha bo'lgan davr (1853-1856) Taypinlar qo'zg'olonining tanazzulga yo'z tulishi davri (1856-1860) Taypinlarning manjur-xitoy feodallariga va cho' davlatlar agressiyasiga Karshi kurashi va maglubiyatga uchrashi davri (1860-1864)dan iborat. Tay pin laming eng katta muvaffaqiyatlaridan biri bu ularning armiyasi va lagyerida nizom o'rnatilganligi va ko'p sonli kuchli armiyani lashkil qilinganligi edi. 1851 yil ko'zida Guansi provintsiyasining Yun'an shahrida taypinlar hukumati to'zuldi. 1853 yilda Nankin olinib u taypinlar davlatining poytaxtiga aylantirildi. Nankinda hukumat «Samoviy sulolaning yer tizimi»,-degan hujjat qabul qildi. Bu taypinlar davlatining o'ziga xos dasturi bo'lib, u barcha yerlarni qo'zg'olonchilarga teng

taqsimlab berishini harbiy jamoalar to'zishni, huquqda ayollar yerkaklar bilan tenglashtirishni mulkiy tengsizlikka barham bycrishni ko'zda tutgan edi.

Taypin tyangoning davlat to'zimi monarxiyadan iborat edi. Tashqi siyosatda taypinlar teng huquqda va o'zaro foydali bo'lgan savdoni yuritish. Taypin tyango hududida afyun savdosini taqiqlashga harakat qildilar.

Taypinlar Sinn sulolasini taxtdan ag'darish maqsadida 1853 yilda Pckinga tomon shiniol yurushini boshladi, biroq bu va 1854 yildagi ikkinchi yurush ham taypinlar uchun muvaffaqiyatsiz bo'ldi.

Taypinlarning harbiy muvaffakiyatsizliklari ularning xalq orasida mavqeini zayiflashtirib yubordi. Taypinlar orasidagi ichki kurash ham mazkur harakat uchun halokatli bo'ldi, 1856 yilda taypinlarning kuchlari bo'linib ketdi. Bunday holatning bosh sabablaridan biri bu qo'zg'olon davomida feodallardan tortib olingan boyliklar evaziga iqlisodiy jihatdan baquvvat bo'lib olgan qo'zg'olon daholari qo'zg'olonchilar ommasining umumiy manfaatlariga xiyonat qila boshladilar. Asosan dehqonlardan iborat bo'lgan armiya tarkibida ham birlik va intizom saqlab qolinmadi. Taypinlar hukumati va qo'shiniga rahbarlik qilayotgan tajribali Yan Syutsinga 1856 yil suiqasd uyushtirilib u va uning bir necha ming kishidan iborat tarafdorlari qirib tashlandi. Vaqtinchalik taypinlar hukumati va qo'shiniga boshchilik qilgan Shi Dakay 1857 yilda vazifasidan ozod etilgach yo'z mingdan orliq qo'shin bilan Nankindan Janubi-Garbiy Xitoy hududiga ketdi. Dcxqonlar urushining tushkunlik davri boshlandi. Bu davrda taypinlar davlatining rahbarlari bilan oddiy qo'zg'olonchilar o'rtasida tobora ajralish kuchaydi. Qo'zg'olonchi dehqonlar ilgargidek umumiy tenglik goyasini amalga oshirishga harakat qildilar. ularning rahbarlari esa yangi feodallarga aylanib bordilar. Taypinlar lagyeridagi bo'linish harakat rahbarlarining tez-tez almashuvi, ular o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurash harbiy harakatlarning borishiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu vaqtdan boshlab taypinlar asosan mudofaaga o'tdilar.

IKKINCHI AFYUN URUSHI (1856-1860 yy.)

Taypinlar qo'zg'olonining kuchayishi va ushbu qo'zg'olonni bostirish uchun hukumat tomonidan bo'lgan urushtardagi muvaffaqiyatsizliklar, Xitoyni mustamlakaga aylantirish uchun harakat qilayotgan Yevropa davlatlarini tashvishga soldi. Xitoyda yo'zaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy ahvolda o'zlarining mavqeini mustahkamlash yo'rida foydalanmoqchi bo'lgan Angliya, Fransiya va AQSh 1854 yilda Sinn hukumatiga yangi talablar qo'ydi. Sin hukumati bu talablarni rad etdi, biroq, Qrim urushi (1853-1856y.y.) davom o'ayotgan bir vaqtda mazkur davlallar Xitoyga karshi urush harakatlarini boshlashga jazm qilmadilar. Xitoyga karshi urushni 1856 yilda Angliya boshladi, biroq keyinroq urushga Fransiya ham qo'shildi. Bu urush Xitoy tarixida «ikkinchi afyun urushi» nomi bilan ma'lum. Harbiy jihatdan ustunlikka ega bo'lgan ittifoqchilarning qo'shini 1858 yil iyunida Sinn hukumatini sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Tyantszinda imzolangan anglo-xitoy, franko-xitoy shartnomalariga ko'ra har ikkala davlat poytaxt Pekinda o'zlarining doimiy vakolatxonalariga ega bo'lish, ingliz va Frantsuz fuqarolari Xitoyda erkin faoliyat yuritish, Tyantszi daryosi bo'ylab savdo qilish huquqlarini ko'lga kiritdi. Soliq va tolovlar miqdori yanada pasaytirildi, afyun savdosiga rasmiy ravishda ruxsat berildi. Xitoy Angliya" va Fransiya tovon tulashtirish majburiyatini oldi.

1858 yili Rossiya va Xitoy o'rtasida Aygun shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq Amur o'lkasi masalasi bo'yicha bu 2 davlat kelishib oldi. Amur daryosining so'l qirg'og'i Rossiya ixliyoriga o'tdi. Garchand, Rossiya va AQSh afyun urushlarida qatnashmagan bo'lsalarda Tyantszinda rus-xitoy, Amerika-xitoy shartnomalari imzolaniib, bar ikkala davlat ham Xitoyda o'z huquqlarini kengaytirishga yerishdilar. Shunday qilib, Tyantszin shartnomalari Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirishda navbatdagi qadam bo'ldi. Sin hukumati bu bitimlarni ratifikatsiya qilishni paysalga sola boshladi. Bunga javoban Angliya va Fransiya 1860 yilning iyunida Xitoy shimolida yangidan harbiy harakatlarini boshladi. Tyantszin egallaniib, uning aholisi qirg'in qilindi, u yerda zo'rlik va talonchilik hukmron bo'ldi. Hashamati bilan mashhur bo'lgan Xitoy imperatorining yozgi saroyi anglo-Fransuz askarlari tomonidan vaxshiylarcha talandi va keyin yoqib yuborildi.

1860 yil Sinn xonadonining vaqli knyaz Gunn Anglo va Frantsuz vakillari bilan Tyantszin shartnomasining shartlarini takrorlovchi Pekin konventsiyasini imzoladi. Bundan, tashqari Xitoyga 16.7 mln. lyan tovon to'lash majburiyati yuklandi. Bu ikki davlat Xitoydan kullarni olib ko'ib sotish uchun rasmiy ravishda ruxsatnomaga yerishdilar.

Ikkinchi afyun urushining asosiy natijasi bu Xitoyni asoratga solinishini kuchfyishi bo'ldi. Urush natijasida kapitalistik davlallar Xitoyning ichki rayonlariga kirish va Pekin hukumatiga o'z ta'sirini utkazish

kabi imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Biroq, Tyantszin va Pekin shartnomalarining bajarilishiga taypinlar harakati to'siq bo'lmoqda edi.

TAYPINLAR VA BOSHQA XALQ QO'ZG'OLONLARINING BOSTIRILISHI.

Taypinlar Yantszi vodiysining bir qismida o'z nazoratini o'rnatib mustaqil Xitoy davlatini to'zish uchun kurashmoqda edilar. Garbiy Yevropa davlallari taypinlar harakatini bostirish uchun Sinn hukumati bilan ochiqdan-ochiq ittifoqlilik qildi. Dchqonlar urushi tarixida manjur-xitoy leodallari va Yevropalik-amyerialik intyerventiarning birlashgan kuchlariga qarshi kurash davri boshlandi.

1860-1864 yillar davomida taypinlar bilan sin va anglo-Frantsuz-amyerialika qo'shinlari o'rtasida urush harakatlari davom etdi. Taypinlar davlati qurshovga olinib, birin-ketin uning hududlari ittifoqchilar tomonidan egallanib, 1864 yilning 19 iyulida Taypinlar davlatining poytaxti Nankin ishg'ol qilindi. Xun Syutsyuan oldinroq joniga qasd qildi. taypinlar armiyasiga qo'monlonlik qilgan Li Syuchcn o'ldirildi. Bir sutka mobaynida qo'zg'olonda ishtirok etgan yo'z mingdan ziyodroq Nankin aholisi qirg'in qilindi.

XIX asrning 50-70 yillarida Xitoyda taypinlar qo'zg'oloni bilan bir davrda sinlarga qarshi. hukumatning soliq, milliy va diniy siyosatga qarshi mamlakat shimoli va garbida bir qator xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ulardan biri Xitoyning shimoliy-garbiy qismida musulmon diniga e'tikod qiluvchi dunganlarning sin hukumatiga qarshi ko'targan qo'zg'oloni cdi. Qo'zg'olon 3862 yil Shensi provintsiyasida boshlanib, keyinchalik Sinlszyanda davom etdi.

60-yillarning oxirilarida qo'zg'olon ommaviy tus oldi, unda dunganlar bilan birga uygurlar va boshqa xalq vakillari ham qatnashdilar. Sintszyanda mustaqil musulmon davlatini • to'zish uchun bo'lgan kurash davomida uchta xonlik tashqil topdi. Bular markazi Yettishahar bygan Qoshg'or, markazi Urimchi bo'lgan Dungan va markazi Kulja bo'lgan Taranehi xonliklari edi. 1878 yilda sin hukumati sinzyan qo'zg'olonini shafqatsiz ravishda bostirishga muvofiq b'ldi. Boyonxu boshchiligida ko'pchilik dunganlar O'rta Osiyoga kelib urnashdilar. Taypinlar va boshqa xalk qo'zg'olonlarini bostirishda 30mln. dan ortiq Xitoy aholisi qurbon qilindi. Bu va chet davlatlarning mustamlakachiligi oqibatida XIX asrning 70-yillarida Xitoy o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni boshidan kechirdi.

XIX ASR OXIRIDA XITOYNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY AHVOLI

XIX asrning oxirida Xitoy qoloq, yarim feodal davlat bo'lib, uni manjur sulolasiga mansub impyeratorlar boshqarardilar. Yyerning asosiy qismi zamindor boylar qo'lida edi. Ko'pchilik dehqonlar zamindorlardan yyerni ijaraga olar, yyer haqini pul bilan yoki hosil hisobidan to'lab qutular cdilar. Yyeri bor dehqonlar ham mavjud bo'lsa-da, ular juda kam edi.

Dehqonlar shaharga ish qidirib kelardilar, lekin har doim ish (opilmas edi, chunki Xitoy sanoati juda sekin taraqqiy etayolgan edi.

XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning boshida mamlakatda kapitalistik korxonalar: ko'mir shaxtalari, to'qimachilik korxonalari vujudga kelib, rivojlana boshladi. Dastlabki temir yo'llar qurildi. Iqtisodiy aloqaiar kengaydi. Yirik shaharlar barpo etildi. Ishchilar soni ko'paydi. Sanoat paydo bo'iishi bilan milliy burjuaziya ham paydo bo'la boshladi. Xitoy burjuaziyasining ko'pchiligi kompradorlar, ya'ni chet el kapitali bilan ichki bozor o'rtasida vositachilik qilar edi. Ular chet el firmalarining agentlari bo'lib, xorijlikiar bilan birgalikda mamlakatni ekspluatatsiya qilar, chetdan keltirilgan tovarlarni sotish va arzon xom ashyo sotib olish hisobiga boyib borardilar.

XITOYNING XORUIY MAMLAKATLAR BTLAN MUNOSABATLARI VA TASHQI SIYOSATI

Pulga muhtoj bo'lgan Tsin sulolasi chet davlatlar bilan asoratli shartnomalar to'zar va milliy manfaatiarga xilof ravishda ularga «yon» berardi. 70-yillardayoq ajnabiylar Xitoyning 26 portiga bemalo! kiradigan, Xitoy portlarida o'zlarini hech kim nazorat qilmaydigan xo'jayiniardek ish yuritardilar.

Temir yo'llar qurilishi xorijlikiar tasarrufida edi. Ko'mir shaxtalarining, konlarining katta. qismi ham ularning ixtiyorida edi. Xitoy chet el davlatlarning xom-ashyo bazasiga aylanib qoldi. Hatto chet elliklar katta shaharlarda o'z hududlarini tashkil etib, Xitoy ma'murlarini mensimasdan ish yuritardilar.

Xitoyning Yaponiya bilan 1894-1895 yillardagi urushda mag'lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko'proq talashlari, asoratga solishlariga sabab bo'ldi. 1897 yilda nemis bosqinchlari

Szyaochjovan ko'rfazini bosib oldilar va Shandun viloyatini o'z ta'sir doiralarga kiritdilar. Fransiya Guanchjouvan ko'rfazini egalladi va Yunnan viloyatida hukmronlik ta'sirini o'tkaza boshladi. Rossiya Port-Artur, Angliya Veykay portini bosib oldi. Eng boy hudud - Yantsizi daryosi havzasi Angliyaning ta'sir doirasiga tushib qoldi. Fuszian viloyatida Yapon bosqinchlari hukmron bo'lib oldilar. Xitoydagi har qanday qurilish yoki o'zgarishlar bosqinchilar tomonidan nazorat qilinardi. Shunday qilib, Xitoy yarim mustamlakaga aylana boshladi. Bosqinchilar tomonidan Xitoy milliy boyliklarining talanishi xalq ommasining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. 1897 yil tumanlarda dehqonlarning xo'jayinlariga qarshi g'alayonlari boshlandi, bu g'alayonlar 1898-1899 yillarda mamlakatning lurli viloyatlariga tarqaldi.

Feodallarga qarshi g'alayonlar chet el monopolistlariga qarshi qaratilgan edi. Dehqonlar harakati, ayniqsa, nemis bosqinchlari tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinayotgan Shandun viloyatida juda katta g'alayonga sabab bo'ldi. Nemis bosqinchlarining o'zboshimchaligi xalq noroziligini keltirib chiqardi. Shandunda yashirin jamiyatlar to'zilib, jangovar otryadlar tashkil qilindi. Ular «tinchlik va adolat» shiori ostida kurashib, «ixetuan» (musht) - otryadlari wboksyorlar qo'zg'olonini» nomini oldilar. Jangovar otryadlar bosqinchlarga hujumlar uyushlirar va ularning hayotini tahlikaga solib turardilar. Ixetuanchilar chet el bosqinchlariga qarshi ochiq kurashga o'ldilar.

XIX asrning oxirida Xitoyda ilk sanoat ishlab chiqarish munosabatlari paydo bo'la boshladi. Eski yyer mulkchiligi tizimining yemirilishi tezlashdi. 1872 yilda Li Xunchjuan yirik paroxod kompaniyasini tashkil qildi. 1878 yilda Kaylan ko'mir boshqarmasi to'zildi.

1881 yilda Shimoliy Xitoyda birinchi temir yo'l ishga tushirildi. 1895 yilda Shanxayda yirik to'qimachilik fabrikasi ishga tushirildi. 1897 yilda 600 ga yaqin chet el firmalari mavjud edi. lekin sanoat korxonalarining o'sishi va ko'payishi sust bordi. Xitoy Yaponiya. AQSh., Angliya singari yirik kapitalistik davlatlarga qaram, yarim mustamlakaga aylandi.

Mamlakat ichida jamiyatning kambag'al, qashshoq qatlamlari bilan boyih borayotgan burjuaziya va eski an'anaviy zamindorlik hukmronligi uchun kurashayotgan yyer egalari o'rtasida ziddiyat kuchayib bordi.

Yevropaning savdodagi hissasi 1890 yilda 40 mln. ienga teng bo'ldi. Import eksportdan. ancha ko'p bo'lib, bu mamlakatning qaramligi belgisi edi.

Xitoy bilan Angliya o'rtasida 1876 yil to'zilgan konvensiya Xitoyni yanada asoratga soldi. Konvensiya Angliyaga Xitoyning 10 dan ortiq portiga erkin kirish, qator viloyatlarda o'z foydasiga imtiyozli savdo qilish huquqini berdi.

1880 yillarda Fransiyaning V'etnamni bosib olishi tufayli Fransiya - Xitoy munosabatlari yomonlashdi. 1884 yili Xitoy markaziy V'etnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi va u yyerda Frantsuz protektoratini tan oldi. Lekin Shimoliy V'etnam (Tonkin) viloyati Frantsuzlarga qarshi kurashni davom ettirdi. Xitoy partizanlari yordam berib turdilar. Fransiya buni bahona qilib, Xitoyga qarshi urush ochdi. 22 ta Xitoy harbiy kemasi cho'klirildi. Xitoy xalqidagi baland ruh, milliy shakllanish jarayoni Sin impyatori sulolasida vahima uyg'otdi. Bundan cho'chigan Xitoy hukumati Fransiya bilan shoshilinch bitim to'zdi. G'olibona urushni mag'lub sifatida yakunlab, Fransiya qator masalalarida «yon byycrdi».

Xitoyning Fransiya bilan urushda yengilganidan foydalangan Angliya 1886 yil 1 yanvarda Birmaga qarshi urush e'lon qildi. Tez orada Birma Angliya mustamlakasiga aylandi. Yaponiya Xitoyga nisbatan bosqinchilik rejalarini amalga oshirishga kirishdi. 1872 yil Ryu-kyu orolini, 1874 yil Tayvanni bosib olishga harakat qildi. Tayvandagi urushda AQSh harbiy kuchlari ishtirok etgani uchun bu orol Amerikalik savdo sanoatchilar uchun «ochiq» deb e'lon qilindi. 1894-1895 yillarda Yaponiya-Xitoy urushi bo'lib o'tdi. Yaponiyaning maqsadi Koreyani Xitoy ia'siridan ajratib olish edi. Xitoy Koreyani Yaponlar istilosidan himoya qiia olmadi. Aksincha, unga «G'arb davlatlarini yordamga chaqirish»ni maslahat berdi. Bu Xitoyning Koreyadagi manfaatlariga kuchli zarba bo'ldi. 1893 yilgi koreys dehqonlarning «Tanxak» (sharq kurashi) yashirin jamiyat yetakchiligidagi qo'zg'olonini bostirish bahonasida Xitoy Koreyaga qo'shin yuborgan edi.-Yaponiya ham o'z qo'shinlarini shu bahona bilan Koreya hududiga kiritdi. 1894 yil iyul oyida Yaponiya urush harakatlarini Xitoyning o'ziga qarshi qaratdi. Urush e'lon qilmay turib. Xitoyning bir qancha kemalariga hujum qilib, cho'ktirib yubordi. 1-avgust kuni urush rasmiy ravishda e'lon qilindi. Avgust-noyabr oylari orasida Yaponiya Xitoyni Koreyadan «siqib chiqardi». Keyin esa Port-Artur (Lyaodun) portini bosib oldi.

1894 yil sentyabrida Xitoy Shimoliy flotidan ajraldi. 1895 yil fevraligacha Shandun

yarimorolidagi Veyxay portini ham Yaponlar oldi. Nihoyat, 1895 yil 17 aprelda Yaponiyaning Simonoski shahrida bitim to'zildi. Xitoy Tayvan, Lyaodun, Penxu orollarini Yaponiyaga berdi. Shashi, Syuychjou, Xanchijou, Chunsin portlarini «ochib» qo'ydi. Yaponiya Xitoyda istagan joyda, xohlagan sanoal korxonasi qurish huquqini oldi. Bitimning Lyaodun orolini Yaponiyaga berish haqidagi bandiga Rossiya va boshqa davlatlar qarshi bo'lishdi. Bu hoi Yaponiyani Rossiya chegaralariga juda yaqinlashtirib qo'ygan edi.

Xitoy endigina sanoatlashuv yo'Hga qadam qo'yganda xorijiy davlallar tomonidan talon-taroj qilinishi xalq ahvoliga og'ir ta'sir ko'rsatdi. Xitoyning to'g'ri taraqqiyot yo'liga olib chiqish haqida turli ilg'or ijtimoiy g'oyalar shakllandi. Bularning hammasi yaxlit ma'noda XIX asr oxirlarida Xitoyda islohotchilik harakati deb ataldi.

Islohotchilar Xitoyning parchalanib ketish xavfini tushunar edilar. Eng xavfli dushmanlar - Yaponiya, Rossiya, Fransiya, Angliya va AQShning nayranglarini fosh qilardilar. Harakat g'oyaviy rahbarlaridan Kan Yu-vey, Lyaan Si-CHao, Mey Men-Xualar manjursin hukmdorlari nomiga memorandumlar yozib, islohotlar qilinishini taklif etishdi. Shu davr ijtimoiy harakatlarida Sun Yat Sening o'rni alohida edi. U Xitoyni inqilob yo'Miga yetaklagan «rahnomo» edi. Sun Yat Senning «Xitoy uyg'onish jamiyati» nomli tashkiloti manjurlarning Sin sulolasini ag'darib tashlab, Xitoyda demokratik milliy davlat to'zish uchun kurashar edi.

Yapon-Xitoy urushidagi mag'lubiyat islohotchilik harakatini yanada «jonlantirdi». 1897 yili Kan Yu-veyning beshinchi murojaatiga javoban nihoyat impyerator islohot haqida farmon berdi. Impyerator farmoni bilan «100 kunlik islohotlar» davri boshlandi. Islohotlar. Xitoyni kuchli. zamonaviy davlalga aylantirishga qaratilgan edi. Kan Yu-vey safdoshlari hukumatga kiritildi. Sanoat, transport, kon, xom- ashyo. qishloq xo'jaligi tarmoqlarini davlat qo'lida to'plashga harakat qilindi. Ammo bular eskilik tarafdori bo'lgan yuqori tabaqa zarbasiga uchradi.

1898 yil 21 sentyabrda islohotchilar dushman harbiy qismi boshliq to'da davlat to'ntarishi qilib, barcha islohotlarni bekor qildi. Impyerator Tuan Syuy qamab qo'yilib, idorasiz «qo'g'irchoq» podshohga aylantirildi. Islohotchilarning keng demokratik o'zgarishlar yo'liga chiqmaganliklari ularning mag'lubiyatiga sabab bo'ldi. Kan Yu-vey boshliq bu islohotchilar aslida impyerator hokimiyatini saqlab, uning ishtirokida davlatni qayta . to'zmoqchi edilar. Bu yo'l tub o'zgarishlarga olib borishi qiyin edi.

XALQ QO'ZG'OLONLARI VA IJTIMOIIY HARAKAT

Xitoyda XX asr oxiridagi ijtimoiy harakatda «Ixetsyuan» (uni «ixetuan» deb ham yuritiladi) yashirin tashkilotining o'rni katta bo'ldi. Bu tashkilot tarixi XVII asrga, Xitoyni manjuriar bosib olgan davrga taqaladi. O'sha davrda «baylyanszyao» («Oq nilufar») yashirin tashkiloti lo'zilgan bo'lib, uning qanoti. «Ixetsyuan» (tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan musht) deb atalar edi.

«Ixetsyuan» lar manjur tsinlarini haydab chiqaramiz, chet elliklarni yo'qotamiz shiori bilan ish ko'rardilar.

1899 yili ixeyutsan harakati qo'zg'olon tusini oldi. Bu tarixda «boksyorlar qd'zg'oloni» deb ham nom olgan edi. Qo'zg'olon markazi Shandun, Chjili viloyatlari edi. Tyansznin rayonida qo'zg'olon alohida yutuqqa yerishdi. Ixetuanlar Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish, Tayvanni Xitoyga birlashtirish kabi talablarni qo'yidilar, «CHet elliklar yo'qolsin, sotqin hokimlarning boshi chopilsin» shiorlari bilan chiqdilar. Sin hukumati qo'zg'olonidan cho'chib qoldi. Chunki, ixetuanlar poytaxt va viloyatlarning qariyib yarmini qo'lga tutib turgan edilar. !900 yili hukumat qo'zg'olonchilarga qarshi yuborgan qo'shin yengildi.

Qo'zg'olonchilarning yaxshi uyushgan otryadlari chet mamlakatlarning konsulhonalarga, savdogarlarga, missionerlarga hujum qilib, Pekinga yurish boshladilar. Lyuyiun yonida hukumat qo'shinlari tor-mor etildi. Pekinda ixeluanlarning hokimiyati o'rnatildi.

Ixetuanlar qo'zg'olonini chet el kapilalislik doiralari Xitoyga bostirib kirish uchun bahonaga aylantirdilar. 1900 yil iyunda Xiloyning Dagu porti bosib olindi. Impyerator Guan Syuuning xotini Sisi bosqinchlarga qarshi urush e'lon qilib, xalqni urushga ko'larish o'rniga ixetuanlarga qarshi kurash boshlab yubordi. Ixetuanlar Pekinda chet el elchixonalarini o'rab oldilar. Germaniya elchisi va Yaponiya elchixonasining maslahatchisi o'ldirildi.

XITOYGA CHET EL INTYERVENTSIYASI

Bu voqea Pekinga chet elliklar yurishi boshlanishiga bahona bo'ldi. Intyerventsiyada sakkiz davlat qatnashdi: Germaniya, Yaponiya, Italiya, AngJiya, AQSh, Fransiya. Rossiya va Avstriya-Vengriya. Ularning har biri Xitoyda kattaroq ulushga ega bo'lish maqsadini ko'zlar edi.

Xitoyning markaziy va janubiy viloyatlari malika Sisi buyrug'iga itoat etmay chet elliklar uchun «ochib» berildi.

1900 yil iyul oyida chel el intyerventlari yalpi hujumga o'tdilar, sin hukumati ularga qarshi ixetuanlarni urushga soldi. Maqsad qo'zg'olonchilardan urush bahonasi bilan qutulib olish edi. Xorijiy davlatlarning eng yangi harbiy texnika bilan qurollangan qo'shinlari birlashib, qo'zg'olonchilarga qarshi tashlandilar. Intyerventlar tinch aholini va qo'zg'olonchilarni shafqatsizlik bilan jazoladilar, shahar va qishloqlarni to'pga tutib yakson qildilar. xolin-qizlar, yosh bolalar va qariyalarni ham ayamadilar. Avgust oyida Pckin «qo'ldan ketdi». Xorijliklar shaharni va impyerator saroyini lalon-larqj qildilar. Manjur Sin hukumati qochib ketdi. Chet elliklar oddiy xalqdan qasos ola boshladilar.

AQSh monopolistlari 90-yillarda Xitoyga bostirib kirishni o'zlariga asosiy maqsad qilib oldilar. Biroq, boshqa yirik davlallar Xitoyni o'z la'sir doiralari «taqsimlab» olganliklari uchun AQSh tovarlarini ana shu «ta'sir doiralari»ga olib kirishga, so'ngra esa o'zining tanho hukmronligini o'rnatishga imkon byycradigan doktrina topishi zarur edi. 1899 yilning sentyabrida AQSh davlat kotibi Xeyning Angliya, Germaniya, Rossiya. Yaponiya, Fransiya va Italiyaga yuborgan bir mazmundagi notalarida targ'ib qilingan «ochiq eshiklar va teng im_koniyatlar» siyosatiga ana shu g'oya asos qilib olindi, hamda «xey doktrinasiw deb nom oldi.

AQSh Xitoydagi mavjud «ta'sir doiralari»ni tan olishdan bosh tortmadi. Lekin AQSh tovarlari uchun ana shu ta'sir doiralari «eshigini ochiq» qilib qo'yishini. ya'ni savdo-sotiq erkinligini va teng imkoniyallar printsipini saqlab qolishni talab qildi. Bundan maqsad, Angliya, Rossiya, Yaponiya va boshqa davlatlar o'z tovarlari bilan savdo qilish uchun o'ziga hech qanday imtiyoz olmasligi kerak edi. O'zining iqtisodiy kuch-qudratiga ishongan Amerika kapitali Xitoydagi barcha raqiblarini yengishga umid bog'ladi.

SHunday bir sharoitda boshlanib ketgan «boksyorlar» qo'zg'olonini bostirish uchun sakldz davlatning harbiy kuchlari birlashib, jazo ekspeditsiyasini to'zdilar. Shafqatsiz eksulpatatsiyaga qarshi ko'tarilgan shahar va qishloq kambag'allar ommasining bu qo'zg'olonini bostirishda AQSh faol qatnashdi. Sakkiz davlat Xitoyni asoratii shartnomada 1901 yil 7 sentyabrda imzolashga majbur qildi.

SHarlnomada qo'zg'olonga qatnashgan mansabdor shaxslarni qatl etish yoki surgun qilish talab etildi. Shartnomada shuningdek, Pekin bilan dengiz sohili o'rlasidagi yo'llarni muhofaza qilish uchun chet davlatlarga Xitoyda o'z qo'shinlarini saqlashga ruxsat berildi. Bundan tashqari, horijliklarning Xitoydagi imtiyozlari ko'paydi. Nalijada Xitoy yanada himpyasiz bo'lib qoldi. Har qanday chiqishlar shafqatsizlik bilan bostirildi.

Xorijiy bosqinchi kuchlarga qaratilgan «ixeluan» qo'zg'oloni natijasiz qolmadi. Mustamlakachilarni ehliyotkorlik bilan harakat qilishga majbur etdi.

Xitoydan olingan tovon pulining 25 mln.dollarini AQSh oladigan bo'ldi. 1907 yilda AQSh tovon miqdorini kamaytirib, 10.785.286 dollarga keltirishga rozi bo'ldi. Biroq Xitoy hukumati Xitoydan AQShga borib o'qiyotgan Xitoylik talabalar uchun mo'ijallangan maxsus fondga shu pulni o'tkazib qo'yishi lozim edi. Bu Xitoy ziyolilarini «sotib olish» va ularni AQShning josuslariga aylantirish tizimini o'rnatish uchun qilingan harakat edi.

AQSh Rossiyani o'zining Xitoydagi asosiy raqibi deb bilar, shuning uchun Angliya kabi Yaponiyani Rossiyaga qarshi gij-gijlar edi.

XX asr boshlarida Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib ketdi. Manjurlarning Tsин sulolasi hukmronligi inqirozga yo'z tutdi.

SHoshilinch ko'rilgan islohot choralari jamiyat ahvolini tubdan yaxshiladi. Xitoyda sanoat taraqqiyoti bilan unga to'siqqa aylangan yyer mulkchiligiga xos qoloq ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida ziddiyat chuqurlashmoqda edi. Omma orasida manjurlar boshqaruviga qarshi harakat kuchaydi. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi, dunyodagi inqilobchilik harakati Xitoyga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Lekin bu harakat Xitoyning o'zida «siqib» tashlangan edi. Xorijiy davlatlar Xitoyda o'z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Chet el kapitali ko'paydi. Chet elliklar Xitoydan juda ko'p foyda oldilar. Xitoy bozorlari chet el gazlamalari bilan to'lib ketdi. Xitoy milliy sanoati savdosi rivojlanishi ancha orqada qoldi. Shunday bo'lsada, XX asrning birinchi o'n yilligida 386 ta fabrika, shaxta, konlar ishga tushirildi. Har yili 50 tadan ko'proq korxona ishga tushirildi. Eksport 1901 yildan 1911 yilgacha 122 mln. dollardan 245 mln. dollarga o'sdi. Chet el kapitali 750 mln. dollardan 1650 mln. dollarga ko'paydi. 1900 yildan 1913 yilgacha xorij firmalari soni oshib, 2400 ga yldi. Xitoyda yashovchi chet elliklarning soni 53 mingdan 165 mnga yetdi. Xorijiy davlatlar ichida Angliya tovar ayriboshlashda birinchi o'rinda (50 foiz) turar edi. 1914

yilga kelib Xitoy xorijiy davlatlardan 835 mln. dollar qarz bo'lib qoldi. Hali ishchilar sinfi katta kuchga aylanmagan bo'lsa ham, unga a'zolar soni tobora o'sib bordi. Qishloqlarda dehqonlar fcodallar zulmi ostidajafa chekardilar.

1905-1906 yillarda Xitoyda ijtimoiy harakat yanada kuchaydi. Konstitutsiya yaratishga urinishlar bo'ldi. Sin sulolasini saqlab, konstitutsion monarxiya hukumatini to'zish rejaları ishlandi. Sun Yat Sen tashkiloti konstitutsiyaviy - monarxiya haqidagi fikrlarni qoraladi. Sin sulolasini umuman yo'qotib, Respublika to'zish talabi quyildi; Bu chaqiriqlar manjurlarga qarshi harakalni yanada kuchaytirildi. Bu harakat, ayniqsa 1911 yili chet elliklardan Xankou-Sichuan, Xankou-Guanchojou tcmir yo'liari qurilishi uchun qarz olish haqida bitim to'zilgach, qurolli qarshilik tusini oldi.

Sichuanda bu harakat avjga chiqdi. Hukumat qo'shinlari qo'zg'olonchilarni o'qqa lutdi. Bu voqea mamlakatda norozilikni kuchaytirdi.

Xitoydagi ijtimoiy harakat manjurlar hokimiyatini tugatish maqsadlari bilan «Sinxay inqilobi» nomli voqealarga ulanib ketdi. Manjur ma'muriyatining qo'zg'olon harakati vakiliarini qidirish, tutib qatl etish kabi choralari xalqning sabr kosasini lo'ldirdi.

Uchan shahrida askarlar yotog'ini tintuv qilishga kirgan manjur ma'muriyati tarafdoriarini askarlar tutib o'ldirdilar. Qurol-aslaha omborini bosib oldilar. Boshqa qo'shin qismlari ham ularga qo'shildi. Inqilobchilar 11 oktyabrda Uchanni to'la qo'lga kiritdilar.

Ular Respublika hukumati to'zdilar va barcha Xitoy viloyatlarini Respublika atrofida birlashishga chaqirdilar. Manjurlar sulolasi hukmronligi tugatilgan, deb e'lon qilindi. Xunan. Sheni, Szyansu, Chjenszyan, Guandun, Guansi, Chuichjou, Yunan, Shanxay, Shandun va boshqa viloyatlar ham manjur sulolasiga itoatdan chiqdilar. Shunday qilib, «Sinxay inqilobi» qurolli qo'zg'olon yo'li bilan Xitoyda XVII asrdan boshlab hukm surgan manjurlar hokimiyatini ag'darib tashladi.

Inqilobchi -demokrat Sun Yat Sen (1866-1925) Xitoydagi milliy ozodlik harakatining atoqli arbobi edi. U Guanchjou (Kanton) yaqinida dehqon oilasida tavallud topdi. Sun Yat Sen 90-yillarning boshida Gonkong (Syangan)da ingliz tibbiyol institutini tamomladi. Bu ittifoq 1905 yil noyabrda «Minbao» (Xalq gazetasi)ni chiqara boshladi.

«Ittifoq» Sun Yat Sen rahbarligida keng daslur qabul qildi. Dasturda Sin monarxiyasini ag'darib tashlash, Xitoyda Respublika ta'sis etish va yyerga egalik huquqini tenglashlirish, muslaqillikni tiklash, rnillatparvarlik, demokratiya va xalq farovonligi talab etiigan edi. Sun Yat Senning agrar dasturi yyer olishga «tashna» bo'lgan dehqonlar ommasining orzu-tilaklarini ifoda etar edi.

Sun Yat Sen ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust taraqqiy etgan Xitoyda yyerga egalik huquqini tenglashlirish yo'li bilan ijtimoiy adolatli to'zum yaratish mumkin, degan fikrda edi.

Sun Yat Sen muttasil ta'qib ostida bo'lgani uchun ham tez-tez Xitoydan chiqib ketishga majbur bo'lardi. U Yaponiya, AQSh, Angliya va boshqa mamlakatlarda muhojirlikda bo'lib, ko'p sonli Xitoy muhojirlari orasidan o'ziga tarafdorlar jalb qildi.

1911 yil oxiriga kelib, Xitoyning barcha janubiy va markaziy viloyatlari qo'zg'olonchilarning la'sirida edi. 1911 yil 25 dekabrda ko'p yillik muhojirlikdan so'ng Sun Yat Sen Xitoyga qaytib keldi. Uni Xitoy xalqi xursandchilik bilan kutib oldi. 29 dekabrda Nankinda inqilobiy viloyatlar vakillaridan iborat milliy majlisi to'plandi. Millat majlisi Xitoyni Respublika, deb e'lon qildi va muhojirlikdan qaytib kelgan Sun Yat Senni Xitoy Respublikasining vaqtincha Prezidenti qilib sayladi. 1912 yil 1 yanvardan Sun Yat Sen o'z Prezidentlik vazifasini bajarishga kirishdi. Millat majlisi vaqtincha qabul qilingan Konstitutsiyada barcha fuqarolarning tengligi va turli demokratik erkinliklar e'lon qilinsa-da, dehqonlarning orzu-tilaklarini ifoda etuvchi «yyerga egalik qilishda teng huquqli bo'lish» shiori Konstitutsiyada ham, millat majlisining ko'rgan chora tadbirlarida ham o'z aksini topmadi. Lekin dehqonlar o'zlaricha tashabbus ko'rsatib, pomeschchiklarga ijara haqi to'lashdan bosh tortdilar. Chunk! ko'pchilik viloyatlarning rahbarlari inqilobchi demokratlar emas, balki liberal kayfiyatdagi pomeschchiklar va burjuaziya vakillari edi. Ular «Birlashgan lnifoq»qa kirib uning qarorlarini bajarmay, katta salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Bundan tashqari.-Sun Yat Senning ko'plab sodiq safdoshlari ham liberallar tomonga o'tib ketishdi. Sun Yat Senning o'zi ham ularning tazyiqi bilan o'z dasturining asosiy bandidan- yyerga egalik qilishda teng huquqli bo'lish talabidan voz kechdi.

SHanxayda 1911 yil dekabr oyining o'rtalari Pekindagi impyeralor hukumatining boshlig'i Yuan Shikay vakiilari bilan inqilobiy ruhdagi janub dclegatsiyasi o'rtasida mo'zokaralar bo'lib o'tdi. Unga ko'ra, Pekin hukumati inqilobchilarni umumiy avf etishni va mamlakatda konstitutsiyaviy to'zum o'rnatishni

va'da qildi. Qo'zg'olonchi Janub vakillari Sin sulolasini ag'darib tashlashni Respublika e'lon qilishni qat'iy talab qilishdi. Yevropa davlatlari va AQSh 20 dekabrda Shanxayda mo'zokaralar olib borayotgan vakillarga po'pisa qilib, mo'zokaralarda zudlik bilan murosaga kelishni va fuqarolar urushini to'xtatishni taklif qildilar.

CHet el monopolistlari Xiloydagi o'zlarining moddiy manfaatlari va xavfsizligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi bahonasida o'z laklflarini bildirdilar. Ular diplomatik yo'l bilan aralashganlari holda o'z harbiy kemalarini ayni paytda Yansizi daryosiga kiritib, to'plarini inqilobiy Uchan va Xankau shaharlariga to'g'rilab qo'ydilar. Xorijlik bosqinchilar Xitoydagi inqilobni qurol kuchi bilan bostirish maqsadida o'z kuchlarini birlashtirishga yycrishgan edilar.

Rivqjlangan xorijiy davlatlarning Pekin hukumatini qo'llab-quvvatiashidan maqsadi Xitoyning ichki ishlariga o'z bilganicha aralashish edi. Biroq, bu Xitoyda umumiy norozilik mitinglari o'tkazilishiga sabab bo'ldi. Xitoyliklar mitinglarda chet el tovarlarini boykot qilish to'g'risida qarorlar qabui qildilar.

Liberallar Pekin hukumatining Bosh vaziri. reaksion genyeral va yirik amaldor Yuan Shikay bilan bitim to'zdilar. U qal'iyatsiz amalparast kishi edi.

Pekin Saroy ahli unga monarxiyaning homiysi-xaloskori deb qarar edi. Yuan Shikay inqilobiy harakatning tazyiqi bilan 1912 yil 12 fevral kuni Sin sulolasining taxtdan voz kechishiga yerishdi. Buning evaziga u liberallardan o'zini rcspublika Prezidenti qilib saylash haqidagi va'dani oldi. Yuan Shikay Nankinda hukumat to'zdi.

Bu paytda xorijiy davlatlar ham Xitoyning ichki ishlariga aralashib, Sun Yat Senning hukumat «tepasidan» ketishini ochiqdan-ochiq talab qildilar. Liberallar ham Sun Yat Senga oshkora tazyiq o'tkazib, prezidentlikdan Yuan Shikay hisobiga voz kechishni so'radilar. Chunki liberallar inqilobning yana davom elishini xohlamas edilar.Xorijiy davlatlar esa reaksiya kuchlarini quvvatlab turdilar va Xitoyga intyervensiya uyushtirishga oshkora tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Xitoyga qarshi intyervensiya xavfi ostida 1912 yil 1 aprelida Sun Yat Sen prezidentik lavozimini Yuan Shikayga topshirishga majbur bo'ldi.

Hokimiyat «tepasiga» kelgan Yuan Shikay demokratik erkinliklarni «oyoq osti» qilib reaksion yo'lga kirdi. U avval ishni inqilob qo'shinlarini butunlay qurolsizlantirishdan boshladi. Isyonkor dehqonlar qishloqlariga jazo otryadlarini yuborib inqilobehilarni ta'qib qila boshladi. Ishchilarning kasaba uyushmaieri tarqatib yuborildi.Hukumatga qarshi to'zilgan bar qanday guruh a'zolarining taqdiri o'lim bilan yakunlanardi. Mamlakatdan ilg'or fikrli kishilar yashlrin chiqib keta boshladilar. Har bir qishloqda jazo ekspeditsiyasi ish ko'radigan bo'ldi. Reaksiya kuchaydi.

Ayni vaqtda «Birlashgan ittifoq» bilan liberal guruhlar qo'shilib, 1912 yil avgustda Gomindan (Milliy partiya)ni to'zdilar. Partiya boshqaruvi raisligiga Sun Yat Sen saylandi. Gomindan Xitoy pomeschchiklarining hujumiga konstitutsiya ishlab chiqish va parlamenl chaqirish yo'li bilan halaqit berishga urindi. Gomindan partiyasining dasturida dcmokratik talablaryo'q edi.

1912 yilda bo'lib o'tgan prezident saylovlarida Yuan Shikay reaksiya yo'liga o'tib nomzodlarni kamsita boshladi. Konstitutsiyaga ko'ra, Gomindan partiyasi o'z hukumatinK to'zishga haqli edi. Yuan Shikay Gomindanning prezidentlikka nomzod bo'lgan vakili Sun Szyao-CHjenni yashirin qatl ettirib yubordi.

Mamlakatda tyerrorning kuchayishi Yuan Shikayning kimligini oshkor etdi. Aksil inqilobning g'alabasidan ruhlangan Yuan Shikay o'zini rivojlangan xorijiy davlatlar qo'liab-quvvatlashi uchun harakat boshlab, yubordi. Uning diklatura o'rnalishga bo'lgan birinchi qadami parlamentni tarqalib yuborish bo'ldi. So'ngra millat majlisiga po'pisa qilib, o'zini besh yil muddalga Prezidenl qilib saylashga majbur qildi. Aprelda Yuan Shikay rivojlangan monopolistik davlatlar bilan yangi asoratli qarz to'g'risida shartnoma imzoladi. Shundan so'ng xorijiy davlatlar Xitoy Respublikasini tan olganliklarini ma'lum qildilar. Xiloyning iqlisodiy ahvoli og'irlashdi. Sun Yat Sen Xitoy xalqini qo'zg'olon boshlashga undadi. 1913 yi) yozida Xiloyning janubida hukumatning reaksion siyosatiga qarshi «Ikkinchi inqilob» deb nomlangan qo'zg'olon boshlanib ketdi. Qo'zg'olonga Sun Yat Sen boshchilik qildi. Biroq kuchlar teng bo'Imaganligi, qo'zg'olonchilar zamonaviy qurollar bilan ta'minlanmaganliklari tufayli, chet davlatlardan harbiy madad olgan hukumat qo'shinlari tomonidan «Ikkinchi, inqilob» harakati tor-mor etildi.

1914 yil mart oyida Yuan Shikay Konstitutsiyaviy kengash chaqirdi. Unda «Yangi Xitoy Konstitutsiyasi» qabul qilindi. To'plangan odamlar lining so'zini «ikki» qilmaydiganlar edi. Yuan Shikay Prezident sifatida eheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Harbiy diktatura o'rnalildi. Respublika boshqaruv organlari tugatildi. Bu hoi amalda 1911 yilgi «Sinxay inqilobi»ning mag'lubiyati edi.

Yuan Shikay diktaturasi armiyaga va eski davlat ma'muriy idoralarining vakillariga suyandi. Sun Yal Sen Yaponiyaga ketib u yyerda «Xitoy inqilobiy» (CHjun Xua -gomindan) partiyasini to'zdi. Boshlanib ketgan birinchi jahon urushi Xitoyning Yaponiyaga qaramligini kuchaytirdi. Buning ustiga Yuan Shikayning xalqqa qarshi siyosati Xitoyda qator qo'zg'olonlarga sabab bo'ldi. Chunki, Yuan Shikay imperatorlik tojini kiyib, Xitoyda podsholik to'zimini o'rnatishni o'ylab qolgan edi.

NAZORAT SAVOLLARI:

- 1.XIX asr oxiri Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli
2. Xitoyning xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari va tashqi siyosati.
- Xalq qo'zg'olonlari va utarning bostirilishi
- Ijtimoiy harakat. Sun Yat Sen.
5. Xitoyga xorijliklarning inlyycrvenlsiyasi
6. Xitoyda manjurlar hukumronligining urnatilishi.
7. Tsinn imperiyasining davlat to'zimi.
8. Maxfiy jamiyatlar va diniy sektalar faoliyati.
9. Birinchi afyun urushi uning sabablari, borishi va oqibatlari.
10. Nankin shartnomasining asosiy shartlari.
11. Taypinlar qo'zg'olonining shart-sharoitlari.
12. Taypinlar davlatining ichki va tashki siyosati.
13. Xun Syutsyuan va uning diniy ta'limoti.
14. Taypinlar harakatining borishi va boskichlari.
15. Ikkinchi aryun urushining kclib chikish sabablari.
16. Tyantszin sulh shartnomalari va ularning oqibatlari.
17. Rus-xitoy munosabatlari va Aygun shartnomasi.
18. Ikkinchi afyun urushining yakuni va Pekin konventsiyasi.
19. Taypinlar qo'zg'olonining bostirilishi va oqibatlari.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., “Sharq”, 1998.
2. Karimov I A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma`naviyat”, 2008.
3. Karimov I A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., “O`zbekiston” 2009.
4. Tayninskaya vosstanie, 1850-1864: Sb. dokumentov. M. 1960
5. Vasilev L.S. Istoriya Vostovka. V2t. M. 1998. Tl-2
6. Ilyushechkin V.P. Krestyanskaya voyna taypinov. M.1998
7. Fan Ven Lan Navayaisskoriya Novaya istoriya Kitaya. M., Nauka, 1972.
8. Vneshnyaya politika Gosudarstva Tsinn. M., Nauka, 1977

Mavzu. XVVI-XX ASR boshlarida Hindiston.

Reja:

1. Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va davlat to'zumi.
2. Ingliz mustamlakachiligining o'rnatilishi va uning oqibatlari.
3. Hindiston xalqining milliy-ozodlik kurashi, Sinohiyalar qo'zg'oloni.
4. XIX asr oxirida Hindiston
5. Hindiston Milli Kongressi partiyasining to'zilishi. Tilak va uning inqilobiy faoliyati
6. XX asr boshlarida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

TAYANCH IBORALARI:

Boburiylar yoki Buyuk muo'g'ullar davlati. Davlat to'zumi. Feodal yer egaligining shakllari. Jagirdor. Zamindor. In'omdor. Vaqf. Jamoaa yer egaligi. Mind qishloq jamoasining xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi. Ost-Hindiston savdo kompaniyasi. Kompradorlar. Anglo-Fransuz raqobati. Spohiyalar qo'shini. Ingliz mustamlakachiligi. Inglizlarning soliq tizimi. /amindori. Rayatvari. Hunarmandchilik. Savdo. Sanoat. Ingliz mustamlakachiligining oqibatlari. Milliy-ozodlik harakati. Sipohiyalar qo'zg'oloni. Qo'zg'olon markazlari. Qo'zg'olonning oqibatlari. Ingliz mustamlakachilik tizimi. Soliqlar asorati. Milliy-ozodlik kurashi. Hindiston milliy Kongressi. Musulmonlar ligasi. Siyosiy oqimlari. Tilak. Kyerzon qonunlari.

Bengaliyaning bo'linishi. Svaraja. Svadeshi. Boykot qilish.

HINDISTONNING IJTIMOTY-IQTISODIY AHVOLI VA DAVLAT TO'ZUMI

XVIII-asr o'rtalarida shimoliy va markaziy Hindiston hududlari Boburiylar yoki «Buyuk mo'g'ul'lar» (Yevropaliklar noto'g'ri ravishda Boburning kelib chiqishi mo'g'ullardan deb u asos solgan davlatni «Buyuk mo'g'ullar» davlati deb nomlaganlar) davlati tarkibiga birlashtirilgan bo'lib, bu davlatda Hindiston aholisining 2/3 qismi yashar edi. Shuningdek Boburiylar davlati janubida musulmon sulolalarining hukumronligida bo'lgan Bidjopur va Golkonda sultonliklari bilan shimoliy-sharq va sharqdan Nepal kinyazliklari, Tibet va Assam bilan chegaradosh edi.

Boburiylar davlatida yashovchi bengallar, maratxlar, gujaratlar, panjobilarda asta-sekin bo'lsa ham o'nik-madaniy jamoalar shakillanayotgan edi. Biroq hindlardagi kastachitik tizimi va mamtakat xolisligini 1/10 qismini musulmonlardan iborat ckanligi umumdavlat miqiyosida aholining diniy va siyosiy hamjihatligiga tusqinlik qilmoqda edi.

Boburiylar davlati harbiy-feodal davlat bo'lib, uning hukumdori «podshoh» deb yurililgan. Mamlakatning soliq, ma'muriy, harbiy va sud hokimiyati podshoh qo'lida jamlangan. Podshoh xazina ishlari buyicha-devon, harbiyboshliq qilishi va oliy sudga' rahbarlik qiluvchi-qoziga tayangan holda davlatni boshqargan. Sud ishlari islom shariati asosida yuritilgan.

Podshoh Avrangzeb (1658-1707) hukumronligi davrida davlat 19-ta viloyat-sublarga bo'linib, ularni podsho tomonidan tayinlanadigan noyiblar-subadorlar boshkargan. Har bir viloyatlardagi ma'muriy, harbiy va sud hokimiyati subadorlarga tegishli bo'lgan. Ular ixtiyoridagi ma'lum mikdorda harbiy qushin bo'lib, bu qo'shin yordamida subadorlar viloyal aholisini podshohga tobcylikda saqlagan. Viloyat devonlariga yer solig'i va boshqa to'lovlarni yigishda yordam bergan. mazkur viloyatlarda sud yukmlarining ijrosini ta'minlagan, okruglarning (viloyat okruglariga, okruglar esa volostlarga bo'lingan) boshqaruvchilari bo'lgan-laksillar, volosllarning boshqaruvchilari bo'fgan-parkanalari tayinlangan va ularni na/orat qilgan. Deyarli barcha oliy lavozimlar musulmonlar qo'lida bo'lib, ularni ijtimoiy va etnik kelib chiqishi turli xil bo'lgan. Hukmdorlar. harbiy boshliqlar va bir qism oddiy harbiy askarlar turkiylardan, qo'shin askarlarining ko'pchiligi afgonlardan iborat bo'lib. ma'muriyatda shia mazhabiga e'tiqod etuvchi eroniylar va ruhoniylar orasida esa arablar ko'pchilikni tashqii qilgan.

Podshoh mamlakatdagi barcha yerlarning oliy feodal mulkdori bo'lgan. Shu sababli ishlov beriladigan hamma yerlardan davlat foydasiga soliq va majburiyatlar yig'ilgan. Yerlarning kata qismi jag'ir, zamindor, in'om va vakf kabi feodal yer mulklaridan iborat bo'lgan. Jag'irlarning egalari-jagirdorlar deb atalgan, ular feodallarning hukumron qatlamini lashkil qilganlar. Bular harbiy boshliqlar bo'lib, davlat oldidagi xizmatlari uchun unvon va mansabining katta va kichikligiga qarab ma'lum bir hududdagi yer soliqlarini o'zlashtirish xuquqiga ega bo'lganlar. Avrangzeb hukmronligi vaqtida mamlakatda jag'irdorlarni soni 4 ming kishiga etgan. Jag'irdorlar daromadining bir qismini harbiy unvonga mos ravishda ma'lum maqsadda o'langan qo'shinni ta'minlashga sarflangan. Jagirdorlik naslidan nasliga myeros o'tgan. Jagirdorlarning aksariyat qismi musurmonlardan iborat bo'lgan jagirdorlardan farqli ravishda zamindorlar yollanma harbiy harajatlarni ta'minlash majburiyatidan xoli bo'lganlar. Ular ma'lum bir hududdagi dehqonlardan podsho xazinasiga yer soliqlarini yigish bilan shugullanib yigilgan soliqning 10%ni xizmat uchun o'zlashtirganlar. Zamindorlar o'zlariga tegishli yer mulkni myeros qoldirish huquqiga ega bo'lganlar. Ba'zan zamindorlarga yer soligidan ozod etilgan yer mulklari ham bycrilgan. /amindorlar asosan hind feodal asilzodalaridan iborat bo'lgan.

Xizmatlari uchun yoki iltifoti ramzi sifatida ayrim kishilarga in'om qilingan yer in'om mulklari deb atalgan. Ko'pincha podshohlar musulmon ruhoniylarga ana shunday yer-mulklarini in'om etganlar, bu feodal mulklardan olinadigan yer solig'i to'liq ravishda in'omdor ixtiyorida qoldirilgan in'om yerlari ham nasldan-naslga myeros o'lgan.

Vakf yerlari bu musulmon dini masalalariga tegishli yer mulklari bo'lib ulardan olinadigan daromad machil va madrasa va bokazolar ta'minotiga ishlalilgan.

Hindistonning so'ngi o'rta asr va mustamlaka davriga agrar tizimning ijtimoiy iqtisodiy asosini qishloq jamoaaasi tashkil qilar edi. Yerga jamoaa bo'lib egalik qilish jamoaa ichida dehqonchilik bilan hunarmandchilik uyg'unlashivi jamoa doirasida mehnatni o'zaro taksimlashini dehqonchilik va hunarmandchilik kabi ishlab chiqarshi sohalarini bir biridan mustaqilfigi va ularni tovar almashuvidagi

o'zaro munosabati, asosan, natural soliqlarni olishi turli ko'rinishlagi kasta jamoalarini mavjudligi, jamoa nazorati ostidagi xizmat kursatish va hunarmandchilik tizimini biqirligi bu hind qishlog'i jamoasini asosiy belgilari edi.

Hind qishloq jamoalarining ijtimoiy tarkibi bir xil emas edi. Ularning har birida turli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan eng kamida 3 xil toifadagi aholii mavjud bo'lgan ularning orqasida oila toifani jamoa yicrlari va boshqa mulklarga egalik qilgan oilalar guruhi tashkil qilgan. Teng huquqli jamoachi oilalarni har biri me'ros uchun ishlov beriladigan yer uchastkalariga ega bo'lgan jamoaga solingan davlatning yer va boshqa feodal soliqlari jamoachi dehqonlar tomonidan umumiy kafillik asosida to'langan jamoa panchaya,-deb .nomlangan. Qishloq kengashi boshqargan panchayatga jamoaning yer solig'ini tulovchi dehqonlar kirgan va unga ishlovchi ok saqoli «patel» rahbarlik qilgan

Jamoa ma'muriyatining boshqa bir vakillik va boshliq mirzasi-«patvapi» edi. U jamoa yerlari bilan bog'lik bo'lgan hisob kilob ishlarini yuritgan. Oqsoqol (patel) va mirzo (kotib) (patvari) mansablari avloddan avlodga meros o'tgan.

Hind qishloq jamoasining tarkibiy qismlaridan birini jamoachi hunarmandlar va xizmatkorlar tashkil etgan. Ular temirchi, duradgor, etikdo'z, cho'pon va x.k kabi kasbiy kastalarga kirganlar ular xizmatlar evaziga belgilangan miqdorida hositning bir qismiga. ba'zan esa hatto yer mulklariga ega bo'lganlar unda yer uchastkasiga egalik qilish va hunarmandchilikning mazkur turi bilan shug'ullanish huquqi ham meros o'tgan.

Qishloq jamoasi davrasida jamoa yerlarini vaqtincha merosiy ijaraga olib mehnat qiluvchi ijtimoiy qatlam ham mavjud edi. Mazkur qatlam vakillarining eng quyi kastalarga tegishli ckanligi jamoada ularning yarim qul holatini ta'minlagan. Jamoaaalar yetishtirayotgan hosilning teng yarimi yer solig'i sifatida davlat xazinasiga to'lanlar. Bundan tashqari jamoa davlat foydasiga turli xil mehnat majburiyatlarini ham o'tagan.

INGLIZ MUSTAMLAKACHILIGINING URNATILISHI

VA UNING OQIBATLARI

XVII asrdayoq hind shaharlardagi mulkdor va savdogorlarning yYevropalik savdogarlar bilan aloqalari kengaydi. Hind mahsulotlarining tug'ridan-tug'ri yYevropa bozorlariga chiqishi haridorlarini oshirdi. Yevropa savdogorlari savdodagi moliyaviy zaruriyat lufayli tez-tez hind hamkasblariga murojat qilib turganlar. Masalan: inglizlarning "Osl-Hindiston" (Indiya) kompaniyasi ulardan katla niqdorlardan moliyaviy qarz olib tungan bunga javoban kompaniya ham o'zining Surat, Bombay, Madrasdagi savdo faktoriyalaridan mulkdor hindlar uchun siyosiy panox bergan. Shu tariqa Hindistondagi «Kompradorlar» deb atalgan alohida savdogarlar qatlami shakillangan. Ular hind feodaliariga xizmat qilib, chet el kapitali va ajnabiy ma'muriyati bilan ham teng ravishda hamkorlik qilganlar.

Hindistondagi Yevropva savdo kompaniyalari orasida eng muvoffaqiyatli faoliyat yuritayotgan bu Angliyaning 1600 yilda asos solingan "Ost Hindiston" kompaniyasi edi. Qirolicha Yelezavetaning maxsus yorlig'i bilan mazkur kompaniya Yaxshi Umid burinidan sharqda joy lash gan mamlakatlar bilan bo'ladigan savdoga o'z manapoliyasini o'rnatgan edi. XVIII asrga kelib "Ost-Hindiston" savdo kompaniyasi Bombay, Madras va Kalkuttada mustahkam faktoriyalarga asos solgan edi.

Hindistondan ushbu kompaniya asos solgan paxla, ipakdan tayyorlangan matolar chiqargan. Hatto katta mikdorda hind gazlamalarining Angliyaga kiritilishi ingliz manufakturachilarining noroziligiga sabab bo'lgan. Kompaniya hind gazlamalarini nafaqat. Yevropaga balki, Osiyo va Afrika mamlakatlariga ham chiqargan. Kompaniyaning savdo mollarini Hindistondagi ichki boj va tulovlardan ozod qilinishi haqidagi farmonning chiqishi ham savdo suratlarini o'sishiga sabab bo'ldi. Biroq bu Yevropalik va Hind savdogarlarining munosabatlarini murakkablashtirdi bu davrga kelib hind savdo kapitali faqat haridorlik faoliyati bilan cheklanib qolmasdan tayyor mahsulot yoki xom-ashyo uchun oldindan pul to'lab qiyish bilan ishlab chiqaruvchini o'ziga iqtisodiy jihatdan qaram qilib ko'ya boshladi. XVII asrning oxiri-XVIII asr boshlarida Hindistonda dastlabki manufakturalar paydo bo'ldi, usha vaqtdayoq ingliz va shakillanayolgan hind burjuaziyasi o'rtasida dasllabki ziddiyatlar ham boshlandi jag'irdor va zamindorlarning ko'pchiligi o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida o'z boshimchalik bilan soliqlar miqdorini oshirdilar, mahsulot bilan olinadigan soliqlarni pul bilan olish tartibini joriy qildilar, jamoa yerlarini tortib oldilar yig'ilgan yer soliqlarini o'zlashtirdilar. Natijada mamlakat aholisining ahvoli og'irlashib xalqning norozilik harakatlari kuchaydi, hazina bo'shab qolganligi bois Hindistonda markaziy hokimiyat zaiflashib qoldi. Fcodallar va noiblarning alohida mustaqil davlat to'zish uchun urinishlari avj oldi. Boburiylar davlatida birn-ketin viloyatlar mustaqil davlatlar sifatida ajralib keta boshladi."

Bunga Avrangzebning qattiq qo'llik siyosati ham sabab bo'ldi. Garchi uning davrida Bejanur va Gongkonda (1686-1687) ko'shib olingan bo'lsada ochiqcha soliqlar hundularning davlat ishlaridan Uzoqlashtirilishi, ibodatxonalarning mulkini talon-taroj qilinishi islom dinini majburan qabul qildirilish natijasida norozilik kuchaydi va hind rojalari undan tobora yuz ugirdilar. Boburiylarning Dekan noibi 1724-yilda mustaqil Haydarobod knyazligiga asos soldi. 1739-yil Eron shoxi Nodirning Dehliga qilgan talonchiHk yurushi Boburiylarning davlatini parchalanishini kuchaytirdi. 1740-yilda Bengaliya noibi, 1747-yil Aud noibi o'z mustaqilligini e'lon qildilar 1747-yil Afgon davlatining asoschisi Axmadshoh Durroniy Hindistonga yurush qilib, Panjopni egalladi. XVII asrning 40-yillarida Hindislonda inglizlarning Frantsuzlarga qarshi kurashi oqibatida hind yerlarining inglizlar tomonidan bosib olinishi boshlandi Angliyadan oldin bu yerga Portugaliya, Daniya, Gollandiya kabi davlatlar bostirib kelgan edilar ammo inglizlar ularni siqib chiqarib yubordi ularning asosiy raqibi, Fransiya bilan kurash boshladilar va ularni tormor etdilar. Frantsuz "Ost-Hindiston" kompaniyasiga tegishli bo'lgan Panjshyer shahrt gubernatori Dyupleks hindlarni harbiy xizmatga yollab ulardan sipoxiylar qushinini to'zdi. Avstriya merosi uchun bo'lgan urush davomida frantsuzlarning Hindistondan siqib chikarishga uringan ingliz qo'shinlariga qarshi janglarda sinohiylar qo'shinidan frantsuzlar Hindistonda o'zlarining siyosiy hukmronligini ta'minlashda va Dekanda hududiy bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda foydalandilar. Bengaliya uchun bo'lgan anglo-Frantsuz kurashi 1757-yilda Bengaliya navabi (knyazlik) taxtiga inglizlar vakili Mir Jafarning utirishi bilan Angliya foydasiga hal bo'ldi.

Etti yillik urush (1756-1763) yakunlangan Parij sulhiga kura frantsuz "Ost-Hindiston" kompaniyasining Hindiston bilan savdo huquqi saqlab qolingani. Panjshyer va boshqa bir qator shaharlar uning ixtiyorida qoldirilib, Fransiyaning Hindistonda harbiy qushin saqlashi ta'qiqlandi. Shunday qilib etti yillik urush ingliz "Ost-Hindiston" kompaniyasini nafaqat savdo, balki harbiy va ma'muriy uyushmaga aylantirdi-ki, aynan shu davrda Sharqda Brilaniya impyeriyasiga asos solindi. 1756-yil Boburiylar davlati va Aud navabligida mustaqil ravishda yer soliqlarini yig'ish va uni moliyaviy boshqarish huquqini qu'lga kiritdi. Aud navabligi inglizlarning Ollohobod va Kor okruglarini berib, 5 mln. rupiya to'ladi. Shu tariqa inglizlar Bengaliya navabligi aholisini yer soliqdari asosida asoratga'soldilar. Yer solig'i inglizlar Bengaliyadagi asosiy daromad manbayi bo'lib qoladi. 1773 yilda "Ost-Hindiston" kompaniyasi bar besh yilda, keyinrok esa har yili Bengaliya okruglarining har biridan yig'ilishi lozim bo'lgan yer solig'ining miqdorini belgilab borgan, "Os(-Hindiston) kompaniyasining gcnycral-gubernatori Uorren Xeystings (1773-1784) 1775-yilga kelib Bengiliyadan yig'iladigan soliqlar miqdorini 3 barobar ko'paytirishga muvofiq bo'ldi. Kompaniya daromadlarining yana bir manbayi bu tuzga urnatilgan ingliz monopoliyasi edi, ishlab chiqarilayotgan tuzning hammasi omborlarga keltirilib, kim oshdi savdosiga qo'yib sotilgan. Aholining o'z extiyoji uchun tuz olish taqiqlangan, unga amal qilmaganlar qatliq jazotanganlar.

Hind hunannandlari ham inglizlar tomonidan shafqatsiz ravishda ezildi. Xeystingis buyrugiga ko'ra hind xunarmanl-tuquvchilari kompaniyaning buyurtmalarini bajarish shart edi. Hunarmandlar o'z mahsulotlarini cho'ga sotib yubormasligi uchun ularga maxsus qorovullar qo'yilgan.

Bundan tashqari kompaniya noiqtisodiy zo'rovonlik usullari bilan hind savdogarlarini xunarmandcbilik mahsulotlarini sotib olishdagi monopoliyasidan mahrum qilib, ularni ijaradorlik va sudxo'rlik faoliyati bilan shug'ulanishiga majbur qildi. Oqibatda Bengaliya qishloq hujaligi va xunarmanchiligi tushkunlikka yuz tutdi, aholisi soliq zulmi ostida qolib, qashshoqhkda yashashga mahkum qilindi. Ingliz savdo-sanoat burjuaziyasini "Ost-Hindiston: kompaniyasining monopoliyasiga qarshi kurashi oqibatida 1773 yil Hindistonda genyeral-gubernatorlik lavozimi joriy qilindi. Ushbu lavozimga nomzodni kompaniyaning direktorlar palatasi tavsiya etgan. Genyeral-gubernator vakolatl 4 kishidan iboral kengash bilan cheklangan. Ingliz burjuaziyasining talabi bilan Pitt boshlik hukumat 1784 yilda impyeriya hududlarini boshqaruvi tug'risida qonun qabul qildi. Unga kura Hindistonni boshqarish qirol tomonidan tayinlanadigan 6 kishilik nazorat kengashi ixtiyoriga berilgan.

1786 yil Hindiston genyeral-gubernatori lavozimiga o'tirgan Kornuollis yer solig'i tizimini o'zgartirdi. Unga ko'ra 1793 yil Bengaliyadagi yer mulklariga doimiy yer solig'i joriy etildi, rayyatning yerga meroslik huquqi zamindorlar xisobiga tugatilgan. Ularning ixtiyoriy hosilning zamindorga to'langan rentadan ortgan qismigina qoldiriladi. Natijada soliqni tulay olmagan dehqonlarning yerlari zamindorlar quliga utdi. Soliq •solishning bu yangi tizimi «zamindorlik» tizimi, deb atalgan.

Madras viloyatida dehqon yerlarini zamindorlar foydasiga tortib olish uchun bo'lgan urinishi rayyatning qarshiligiga sabab bo'idi. Natijada mustamlakadagi hokimiyat «rayyatvari» deb atalgan soliq

tizimini joriy qildi. Unga muvofiq lalmikor yerlardan olinadigan xosilning yarmi, sugoriladigan yerlardan esa hosilning 3/5 qismi miqdorida yer solig'ini tulash sharti asosida yer egalarining meroslik huquqi e'tirof etildi.

XIX-asrning 70-yillarida inglizlar Hindistonda yer solig'ini hosilning darajasiga qarab faqat ishlov beriladigan yerlarga emas, balki mavjud yer maydonlarning barchasiga joriy qilganlar.

XIX-asrning boshlarida ingliz sanoati ayniqsa, paxtani kayta ishlash sohasi tez rivojlandi. 1787-1812 yillarda AngHyaga kiritilayotgan paxtaning jami 52 dan 194 mln f.st.ga oshdi. Angliya burjuaziyasining xom ashyoga va tayyor mahsulotlarini sotish uchun bozorga ehtiyoji katta edi. Burjuaziyaning talabi bilan ingliz parlamenti 1813-yilda "Ost-Hindiston" kompaniyasini Hindistondagi savdo monopoliyasi huquqidan mahrum qildi. Natijada, Hindistonda kup mikdorda ingliz sanoat mahsulotlari birinchi navbatda fabrikada tayyorlangan ipkalavalari keltirila boshladi. Arzon va pishiq bo'lgan ingliz ip-kalavalarini hind to'qimachilari xunarmandlarini xonavayron qildi. Ingliz bug kemalari hind kemasozlarini, metall va melall buyumlarni keltirilishi esa hind tog'-rudachilik sohasini kasod qildi.

HINDISTON XALQINING MILLIY-OZODLIK KURASHI VA SIPOHIYLAR QO'ZG'OLONI

Inglizlar bosib olgan hududlarda dastlabki davrlardayoq hind xalqining mustamlakachilarga qarshi kurashi boshlandi. Biroq u XIX asrda uzluksiz tus oldi. 1816-yil Shimoliy Hindiston xalqning kuchli norozilik chiqishi bo'ldi. Bareyli aholisi mahalliy politsiya la'minoti uchun inglizlar joriy etgan soliqni tulashdan bosh tortdilar.

XTX-asrning 20-yillarida Shimoliy Hindistonning musulmonlardan iborat aholisi orasida vahhobiylar harakati paydo bo'ldi. Bu harakatga Muhammad Ismoil va Said Ahmad Barelvilar rahnomolik qildilar. Ular nafaqat sof islomga qaytishni balki, musulmon dehqonlari xunarmand va savdogarlarini g'ayridin inglizlar tomonidan asoratga solinishtga qarshi targibot ishlarini olib borish, xalqni muqaddas urush-jihodga chorlaganlar.

XIX-asrning 30-50-yillarida Bombey, Madras va Bengaliya viloyatlari aholisining ozodlik va antifeodal qo'zg'olonlari davom etdi. Bu qo'zg'olonlarni eng yirik 1855-1857 yillardagi Santal qabilalarining qo'zg'oloni edi. Soliqlarni to'lay olmagan santallarning yerlari inglizlar tomonidan tortib olinib bengaliyalik zadogonlar va sudxo'rlarga xususiy mulk" sifatida sotilgan. Inglizlarning soliq talonchiligi va politsiyaning zo'ravonligi oqibatida mazkur qo'zg'olon boshlangan. Birok UK-yoy va nayza bilan kurollangan qo'zg'olonchilar Bombeydan chaqirilgan inglizlarning yaxshi qurollangan muntazam qo'shini tomonidan shafqatsiz ravishda tor-mor etilgan.

1839-1842 yillardagi anglo-afgon urushi munosabati bilan ingliz qo'shinlari Sind amirligi hududiga kiritildi. Biroq urush tugagandan keyin ham ingliz qushinlari Sind hududiga qolaverdi. Sind amirining ingliz qushinlarini Sinddan olib ketish haqidagi talabi 1843 yil Sind va "Ost-Hindiston" kompaniyasi o'rtasidagi urushga sabab bo'ldi. Inglizlarning harbiy ustunligi amirni mag'lubiyatiga va Sindni kompaniya mulkfariga qo'shib olinishiga olib keldi.

Endi inglizlar Panjobdagi Sikk feodal davlatini bosib olishga kirishdilar. 1845-1846-yillardagi birinchi va 1848-1849 yillardagi ikkinchi anglo-sikk urushlarida sikk qushinlarining mag'lubiyati oqibatida Panjob ham inglizlarga bo'ysindiriladi. 1849 yilda Panjobni va 1856 yilda Aud knyazligini "Ost-Hindiston" kompaniyasi mulklariga qo'shib olinishi bilan amalda butun Hindiston xududi ingizlarga tobe ettirildi.

Ingliz mustamlakachililarining yuz yillik talonchiligi oqibati Hindistonda 1857 - 1859 yillardagi xalq ko'zgaloni kutarildi. Ingliz manbalarining guvohlik berishicha mazkur ko'zgalon arafasida utgan besh yil davomida ingizlar ikki mingdan ziyod in'om va jigarlarini tortib oldilar. Aud, Nagpur, Jxansi va boshqa bir qator yirik hind kinyazlarini bosib oldilar. Natijada nafaqat dehqonlar va xunarmandlar, balki soliqni tulay olmaslik oqibatida yer mulklaridan mahrum qilingan zamindorlar, maosh tulanadigan politsiya va sinohiylar harbiy qushini tashkil qilinishi oqibatida xizmatlari uchun berilgan yer mulklaridan ayrilgan jagirdorlar ham ingliz mutsamlakachilik tuzumidan aziyat ehekmoqda edilar. Hullas, Hindistonda inglizlarning talonchilik va zuravonliklari xalq kuzg'alonini keltirib chikardi. Kuzg'alon 1857 yilda 140 ming kishidan iborat bo'lgan Bengaliya sipoxiylar qushinida boshlandi. Bengaliya armiyasi asosan musulmonlar, braxmanlar va rejputlar kabi hukumron tabaka vaqillaridan iborat bo'lib. ular kuzg'alon arafasida o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy hukumronlik makomini yuqotgan va inglizlarning soliq talonchiligiga duchor bo'lgan edilar. Kuzg'alonning muhim markazlaridan bo'lgan Kanpurda ingiz mutsamlakachiligi urnatilgandan to 1840 yilgacha merosiy yer mulklari 35% ga kamaydi, savdo-

sudxurlik katsasi bo'lgan - baniya vakllarining yer mulklari esa 43%ga ko'paydi.

Bundan tashqari Bengal sipohiylari noroziligining bir katoq boshka sabablari ham mavjud edi. Masalan, Bengaliya provino'iyasidan o'zga xududlarda xizmat uchun sipohiylarning maoshiga qo'shib berilgan "bitta" deb nomlanuvchi kushimcha maoshni bckor qilinishi, armiyaga yollanuvchilar uchun Hindislondan tashkarida va xalto dengizda xizmat qilish majburiyatini joriy qilinishi, sipohiylarni ingliz ofitsyerlari tomonidan taxkirlanishi va boshka shular jumlasidandir.

Ingliz qumondonligi sipohiylar armiyasini ut otar miltiqlar bilan qurollantira boshladi. Sipohiylar orasida miltiq patronlari uralgan kogozlarni chuchqa va sigir yog'lariga. botirganligi tug'risida mish-mish tarqaldi. Sipohiylar patronlarni miltiqqa joylash uchun kog'ozlarni tish bilan yirtar va gunoxga botgan sanalar edilar. Bengaliya sipohiylarining chiqishlariga ayni voqelik baxona bo'ldi.

Kuzg'alon 1857 yil 10 mayda Dexli yaqinidagi Mirut harbiy garnizon joylashgan shaharchada boshlandi. Sipohiylar shahar kambag'allari va shahar atrofidagi qishloqlarning dchqonlari yordamida ingliz amaldorlari va ofitsyrlarini qirib tashlab, xibsdagilarni ozod qildilar. Ko'zgalonchitar Dcbliga yo'l olib, 11 may kuni Dehlini egallashga muaffaq bo'ldilar.

Sipohiylar Boburiylar davlatining hukmdori ingliz ma'muriyalining nafaqaxuri Baxodirshoxdan inglizlarga qarshi xalqni umumiy kurashga chakirishni va bu kurashga rahbarlik qilishni talab qildilar. Bir oy davomida Dehlidan Patnagacha bo'lgan hududlar deyarli ko'zgalonchilar quliga o'tdi. Panjobdagi Bengal armiyasi qurolsizlantirildi, ayrim quzg'alon kutargan polklar esa aholi tomonidan qullab quvvatlandi.

Madras va Bombeydagi sipohiylar armiyasi Bengal sipohiylaridan farqli xolda ingliz ma'muriyatiga sodiq qoldilar. Buning bosh sababi mazkur hudud sipohiylarning quyi kastalardan chiqqanligi edi. Chunki harbiy xizmat uchun beriladigan maosh ularning ochlikdan o'lmasliklarining yakkayu-yagona katblati va yashash manbai edi. Madras va Bombey sipohiylarini qo'zgalon ko'tarmaganligi o'z navbatida Dekan aholisini umumxalq kurashigajalb qilmadi.

Shunday qilib mazkur quzg'alonda feodal asilzodalar ham ishtirok etdilar . Ular ko'zgalonda o'zlarining siyosiy hokimiyatini tiklash vositasini ko'rib, inglizlardan ozod qilingan hududlarda o'zlarini hokimiyatini urnaldilar yoki urnatishga harakat qildilar. Shu tariqa Dehli, Kanpur va Audda milliy ozodlik kurashining mutsaqil markazlari shakllandi.

Dehlida Bahodirshoh hokimiyati tiklangach, ta'bib Hakim Axsanul vazirligida-hukumat to'zildi, shahzoda Mirza Mo'g'ol bosh qumondon qilib tayinlandL Bengal armiyasining tajribali ofitsyerlari Baxtixon raisligida ma'muriy palata (parlament) luzildi.

Kanpur qo'zgaloniga Maratx knyazligining merosxo'ri bo'lgan Pana Sohib boshchilik qildi. Kanpur qo'zgalonchilari armtyasiga esa braxman oilasidan chiqqan ajoyib sarkarda Tantiya Topi qo'rnondonlik qildi.

Aud milliy-ozodlik urushiga Ahmad shoh nomi bilan mashhur bo'lgan Mavlaviy Axmadulla qumondonlik qildi. Uning harbiyotryadi Poxlxanga xujum qilgan ingliz qo'shiniga qarshi muvaffaqiyatli ravishda partisan urushini olib bordi. Ingliz qushinlarining bosh qo'mondoni bo'lgan Qolen Kempbell uning boshi uchun 50 ming rupiya mukofot e'lon qildi. Aud feodallaridan biri mukofotni olish maqsadida 1858 yil 5 iyunda Ahmad shohga xiyonat qilib uni uldirdi.

1857 yil iyun oyida Jxansi knyazligida ham sipohiylar ko'zgaloni kutarilib, knyazltk inglizlardan ozod qilindi. Kinyaginiya Lakishmi Bay o'zini Jxansi hukmdori deb c'lon qildi. Qo'zgalonni botsirish maqsadida yuborilgan ingliz qo'shinlariga Lakishmi Bay markaziy, Hindiston hududlarida partisan urusblarini olib bordi. Tantiya Topi ham bir hind zamindorining xiyonati oqibatida 1859 yilning aprelida osib ushlab olindi va o'ldirildi.

1857-1859 yillarda ingliz mulsamlakachiligiga karshi Hindistonda ko'tarilgan sipohiylar qo'zgaloni shafqatsizlarcha botsirildi. Biroq ingliz mustamlakachilari hind xalqiga ayrim yon berishlarga majbur bo'ldi. 1858 yilda "Ots-Hindiston" savdo kompaniyasi tugatildi, soliq asorati yumshatildi, ayrim soliqlar qisqartirildi. Sipohiylar qo'zgaloni mag'lubiyatga uchrashiga qaramasdan Hindiston xalqining ingliz muslamlakachilik zulmidan ozod bo'lishidagi muhim voqelik sifatida ahamiyatlidir.

XIX ASR OX1RIDA HINDISTON

Hindistonning bu davr tarixi jahonda mustamlakachilik harakatining yangi bosqichi, Angliya tomonidan hind xalqini ekspluatatsiya qilishning kuchayishi va milliy-ozodlik harakatining umum

Hindiston miqyosida keng tarqalishi bilan bog'liq kechdi.

Hindiston buyuk Britaniyaning mustamlakasiga aylangan edi. Inglizlar Hindistonni vitse-qirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya apparati yordamida boshqarar edilar.

Ingliz mustamlakachilik istibdodi sharoitiga qaramay, Hindistonda ham sarmoyadorlikka asoslangan mahalliy ishlab chiqarish tizimi yo'zaga kela boshladi. Yirik sanoat korxonalari qurishga kirishildi. 1886 yilda to'qimachilikning 95 ta fabrikasi bor edi, konlar soni 1880-1900 yillarda 56 tadan 286 taga yetdi. Temir yo'l tarmoqlari 1900 yilda salkam 40.000 kmni tashkil qildi. Bu xom-ashyo tayyorlash va tashishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hindistonda sanoatni Angliya o'ziga qulay qilib joylashtirishga harakat qildi. Asosiy sanoat korxonalari dengiz bo'yi port shaharlari yaqinida edi. maqsad Hindiston boyliklarini arzon va oson olib chiqib ketish edi. 1873 yildan 1883 yilgacha Hindiston bilan Angliya savdosi 60 foizga o'sdi. Hindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish zonasiga aylanib qoldi. Ingliz banklaridan Hindistondagi boshqaruv apparati katta miqdorda zayomlar olib turadi. Bu summa 1856 yildagi 4 mln. funt sterlingdan 1900 yilga kelib 133 mln. funt sterlingga ko'tarildi. Britaniya banklari juda katta foiz olardilar. Sanoalga biryoqlama zo'r berilishi qishloq xo'jaligini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Dehqonchilikda agrotexnika rindaniyati past edi. Mustamlakachilik harakati bilan ochilgan sug'orish inshootlari bor-yo'g'i 20 foiz yerni sug'orishga yetar edi. Bu daraja Boburiylar (1526-1858) davridagidan ham kam edi. Qishloqda eski feodal mulkchiligi, yarim qaram dehqonlarni ekspluatatsiya qilish davom etdi. Yerni 60-70 foiz hosilni to'lash sharti bilan dehqonlarga ijruga berildi. Qarz hisobiga ishlab berishga majbur qilish odamlar toifasi tobora kupaya bordi.

Qishloq xo'jaligining eng syerdaromad tarmoqlariga (choy, kanop, paxta) sarmoya solish katta foyda keltirar edi. Bu sohada ingliz ishbilarmonlari ishchilar yollar va ular qul deb atalar edi. Ularni ezishning barcha usullaridan foydalanilardi. Shunday qilib Hindiston XIX, asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi, xolos. Mehnatkashlar ahvoni esa tobora yomonlashdi, qishloq xo'jaligida monokultura vujudga keldi. Bengaliya kanop, Assom choy, Bombay va Markaziy Hindiston paxta, Panjob bug'doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Lekin texnik ta'minotda hech narsa o'zgarmadi. Dehqon yanada qattiq czildi. Zamindorlar, bank egalari, sudxo'rlar dehqonlarni qarzga botirib, oxirgi parcha nonini ham qoldirmas edi. 1870-1890 yillar davomida Hindistonda 20 martadan ko'p ocharchilik bo'lib, unda 18 million odam ochlikdan qirildi.

Sunday ahvot Hindistonda milliy ozodlik va ijtimoiy harkatlarga olib keldi. Dastlab Kalkutta, Bombay, Madras kabi shaharlarda bu harakat uch oqim bo'lib shakllandi. Jumladan, Bombeyda burjua-zamindorlarining konsyervativ «Britaniya-Hindiston assotsiatsiyasi» to'zildi. So'ng nisbatan ilg'or g'oyalar bilan bog'liq (liberal) «Hindiston assotsiatsiya» paydo bo'ldi. Ilg'or (radikal) oqimlar ham bor edi. lekin bu harakatlar keng ommani yetaklashda yirik zamindorlarga xizmat qilardi.

Dehqonlarning stixiyali harakatlari kuchaygan sari Britaniya mustamlakachilari Hindistonda reaksion kuchlar-knyazlar, pomeshchiklar, kompradorlar bilan yaqinlashib. musulmonlar bilan hindlar o'rtasida dushmanlik, nizo «urug'ini» socha boshladilar.

1870-1880 yillarda ingliz mustamlakachilariga, mahalliy zamindorlarga va sudxo'rlar zulmiga qarshi dehqonlar qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Panjobda Baba Ram Singx boshliq yarim harbiy tashkilot qo'zg'olon ko'tardi. 1872-1873 yillarda Patna, Bogra, Sharqiy Bengaliya dehqonlari, 1875 yili Barod hokimligida, Puna, Ahmadnazar rayonlarida qo'zg'olon boshlandi,

1871 yil 1-yanvarda Angliya qirolichasi Viktoriya Hindiston qirolichasi deb e'lon qilindi. Bu tadbir reaksiya kuchiarini bir yyerda to'plashga qaratilgan edi. Mustamlaka ma'murlari turli soliqlarni yanada oshirish, ochlarga yordam fondini qisqartirish, davlat xizmatchilariga beriladigan maoshlar miqdorini kamaytirish yo'lidan bordi. Yangi-yangi qo'zg'olon va g'alayonlar boshlandi. 1871-yili Bombay, Madras, Puna, Suratda ish tashlashlar, 1879 yili Marath dehqonlarining qo'zg'olonlari bo'ldi. Lining boshlig'i Vasudev Phadke mustaqii marath davlati to'zish shiorini qo'ydi. Bir yildan so'ng, 1880-yili inglizlar bu qo'zg'olonni bostirishdi. Phandke osib o'ldirildi, 70 kishi badarg'a qilindi.

1877 yilda Dehlida qirolicha Viktoriyani Hindiston qirolichasi qilib ko'tarish marosirni bo'lib o'tdi. Hindistonning turli burchaklaridan kelgan knyazlar Viktoriyaga sodiqlik haqida qasamyod qildilar. Bu narsa knyazlar bilan ingliz mustamlakachilarini yaqinlashtirish lozim edi. 1878 yilda ingliz ma'muriyati «vitse-qirol» deb atalardi. Hindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida qonun qabul qilindi

va bu qonun bo'yicha barcha gazetalar inglizlar nazoratiga o'tdi. Oradan bir yil o'tgach, o'q otar qurollarni saqlamaslik haqida akt-qabul qilindi va barcha aholining o'q otar qurol saqlashi man qilindi. Ammo, bu narsa yovvoyi hayvonlar ko'p bo'lgan o'rmonlar yaqinida yashovchi dehqonlarning noroziligiga sabab bo'ldi.

Inglizlar shu bilan bir vaqtda o'zlarini mahalliy burjuaziyaga «yon berganday» qilib ko'rsatishga harakat qildilar. Shahar ma'muriyatiga boy hindlar saylansa-da, amalga hokimiyat shahar boshlig'i-ingliz qo'lida edi.

Ingliz vitse-qiroli Kyerzon Hindistonda zo'ravonlik siyosati o'tkaza boshladi. 1883 yili u kumush rupiya pul zarb qilishni taqiqladi. Rupiyaning valyuta qiymatini sun'iy ravishda ko'tarib qo'yib, yangi qiymatga «mos» keluvchi oltin rupiya chiqardi. Shu yo'l bilan Hindistondagi tarixiy pul to'zimidagi barham berdi. Uning chet mamlakatlar bilan an'anaviy savdo aloqalariga zarba berdi. Hindistonni faqat Angliya orqali savdo qilishga majbur etdi.

1885 yili Broche viloyatida Lakx boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Lakx inglizlar hukmronligiga barham berdi. Hindiston mustaqil podsholik deb e'lon qilindi. Inglizlar kuch, bilan qo'zg'olonni bostirib, Lakx va uning ikki safdoshni osib o'ldirdi, 57 kishi surgun qilindi.

HINDISTON MILLIY KONGRESS PARTIYASINING TO'ZILISHI. TILAK VAUNING INQILOBIY FAOLIYATI

Xalq harakatiga boshchilik qiladigan darajada kuchga ega bo'lgan, muayyan dasturi bor siyosiy partiya Hindiston Milliy Kongressi 1885 yilda Bombay shahrida to'zildi. Keyinroq «Musulmonlar ligasi» ham to'zildi va shundan e'tiboran inglizlar hind-musulmon raqobatini kuchaytirib yubordilar. Unga Kalkuttada 1884 yili to'zilgan «Hindiston Milliy ittifoqi» tashkiloti ham qo'shilib ketdi. Delegetlarning yarimi hind yuqori tabaqa ziyolilaridan bo'lsa, yarmi sanoatchilar, savdogarlar va katla yyer egalari edi. O'sha davrda qabul qilingan nizomda mamlakatda O'z-o'zini boshqarishda hindlar bilan inglizlarning lengligi aytilgan edi. Yana bir bandi Hindiston sanoatchilari manfaatlarini ko'zlab, chet eldan keltirilgan mollarga bojxona larifi joriy qilishga bag'ishlaridi.

Dastlabki vaqtlarda Hindiston Milliy Kongressiga ingliz mustamlaka ma'muriyati qarshilik qilmadi. Bunday munosabatni Angliyaning Hindistondagi vitse-qiroli lord Datfyerin: «Milliy Kongress inqilobdan arzonroq» deb izohlagan edi. Chindan ham 1880 yillarda Hindistonda milliy ruh kuchaygan edi. Xalq mustamlaka zulmi azobidan holdan toygan. hukmron doiralari vaziyatni nazorat qilib turishlari qiyin bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham HMK partiyasi to'zilisini inglizlar xayri hoh bo'lib, ular bu liberial tashkilot vaziyatni yumshatib turadi, deb hisoblar edilar. Lekin ingliz ma'murlari biroz vaqt o'tgach, HMK partiyasi tutgan yo'ldan dahshatga tushib, uni parchalab, zaiflantirib qo'yishga harakat qila boshladilar.

HMK partiyasining talablan dastlabki paytlarda juda mo'tadil edi. bu talablar Buyuk Britaniya hukmronligini saqlab qolib, ba'zi islohallarnigina ko'zda tutardi. Masalan, ehetdan keltiriladigan gazlama (tovar)larga bojlarni belgilash, mahalliy vakillik muassasalarining vakolatlarini kengaytirish, hindlarni boshqaruv ishiga jalb etish, texnik ta'limni uyushlirish va-boshqalar edi. Lekin mamlakatda kapitalistik munosabatlar rivojlanib borgan sari metropoliya bilan koloniya o'rtasida kurash, ziddiyat kuchayib hordi. Hind xalqining esa mustaqillikka intilish harakati ham yetilib, ular inglizlarning hiy lanay ran glarini tushunib yetdilar. Tilak va uning inqilobiy faoliyatida, dastlab HMK ning tepasiga turadigan loyiq kuch topilmadi. Nihoyat 1890 yillarda HMK da ilg'or, xalq chil, so'l radikal-demokratik oqim shakklandi uning rahbari Bal Gandrthara Tilak (1856-1920) edi. Maratxlik, ijtimoiy (til, tarix. huquqiy) bilimlar bilan yaxshi qurollangan Tilak mustamlakachilik to'zumi bilan kelishuvchi HMK dan yo'z o'girdi. U Hind xalqining milliy ongini uyg'otish, milliy g'ururini ko'tarish yo'lidan

borib, ayni vaqtda dinga va uning onimani birlashtiruvchi kuchga katta baho berdi.

Uning sevgan qahramonlari Garibaldi va Madzini edilar. Kollejni tugallash paytida butun kuchini, vatan mastaqilligiga sarflashga, sadoqatli bo'lishga qasarayod qildi. Tezda u Puna shahrida maktab tashkil qilib, unda o'quvchilarga mustaqillik g'oyalarini singdira boshladi. 1880 yilda «Kesari» (Shyer) gazetasini tashkil etdi, yoshlar o'rlasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib o'di. Ayniqsa, maratxlar qahramoni, chet ellik bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib borgan Shivaji xotirasiga bag'ishlab xalq bayramlarini tashkil qildi, «Xudo Hindistonni xorijiy mamlakatlarga hech qachon hadya qilgan emas», -degan edi Tilak, bu harakat katta ta'sirga ega

bo'lib, mustamlakachilar undan qo'rqib qoldilar, hatto 1897 yilda Tilak qamoqqa olindi. Biroq xalq talabi bilan u tezda ozod qilindi. Bu voqeamng o'zi Hindistonda mustaqillik harakati jadal rivojlanayotganidan dalolat berar edi.

XX ASR BOSHLARTDA HINDISTONNING IJTIMOIIY IQTISODIYAHVOLI

XX asr boshida Hindistonda kapitalizm yanada o'sdi. 1910 yilda kanop-tola fabrikalari ikki barobar ko'paydi. Paxta xom-ashyosidan surp mato ishlab chiqish o'sdi. Korxonalar soni 215 taga, ishchilar soni 1 mlnga yetdi. Yangi ijtimoiy qatlam bo'lgan bu sinfning soni ko'payib bordi. Inglizlar Hindistonni boshqarishni agentliklar va banklar qo'lga topshirib qo'ygan edi. Agentliklar ingliz kapitalini Hindistonga joylashtirish uchun dallollik qilar edilar. Shunday yo'l bilan mustamlakachilar barcha tarmoqlarni, masalan, ko'mir havzalari, kanop sanoati, choy plantatsiyalari, transport, savdo, sug'urta jamiyatlarini o'z qo'llariga oldilar va bu bilan butun Hindistonda ishlab chiqarish, iqtisodiyot ustidan nazorat o'rnatdilar.

Angliyaning sharqda mustamlakalar orasida eng rivojlangani Hindiston edi. Shu sababli bu yyerda Angliya kapitali tez o'sib bordi. Ular 1893-1907 yillarda temir yo'l 53%, xususi kompaniyalarda 23, banklarda 95 foizga oshdi. 1905 yilda Hindistonda 165 ta chet el Aktsionerlik kompanitlari mavjud bo'lib, ular mamlakatni taladilar, xalqning ahvoli og'irlashdi. 1896-1906 yilda 10 mln odam ochlikdan o'ldi. 1904 yilda 1 mln odam vabodan qirildi. 1899-1900 yilda markaziy viloyatlarda dchqonlar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Inglizlar bu qo'zg'olonni kuch bilan bostirdilar. O'z manfaatlari uchun yangi-yangi qonunlar chiqardilar.

1901 yil Kyerzonning «Kon qonunlari» e'lon qilindi. Unga muvofiq 20 fut chuqurlikdagi yyer osti boyliklari Angliyaniki deb e'lon qilindi. Bu hind mulkini lalon-taroj qilish edi. Soliq tizirni murakkablashdi. 44 funt sterling yig'irlarining 37 mini oylik va nafaqalarga va politsiya uchun sarflandi. 1905 yil Kerzon univyersitetlariga kirish haqini 2 barobar oshirdi, ulardagi huquqshunoslik fakultetlari «yopib» qo'yildi. Xalqchil, demokratik, mustaqillik, vatanparvarlik ruhida tatabalarga Oliy o'quv yurt eshiklari yopildi. Bu qonun irqchilik va milliy kamsitish ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, u xalq nafaratini oshirdi.

Mustamlakachilikda milliy ozodlik harakatini bo'lib tashlash maqsadida, Hindiston hududini parchalab yuborish siyosatini tutdilar. 1905 yili Bengaliya ikkiga bo'lib tashlandi, chunki bu o'lka mustaqillik markazlaridan biri edi, kalkuttaliklardan 100 ming kishi namoyishga chiqdi. Ular «Bande mataram» (Salom senga Vatanim-onam) qo'shig'ini aytib bordilar.

Norozilikning yana bir ko'rinishi xorij mollaridan yo'z o'g'irish-baykot qilish bo'ldi, bundan ingliz kompaniyalari katta zarar ko'rdi.

Inqilobiy harakat. «Svaraj» va «svadeshi» shiorlari.

Tilak va tilakchilar harakati.

1906 yil dekabrda Tilakchilar talabi bilan HMK qaror qabul qilib, unda uch narsa ilgari surildi:

Birinchisi - «Svaryaji» (o'z hokimiyatimiz), ikkinchisi - Svadeshi» (o'z ishlab chiqarishimiz) va Uchinchisi - ingliz mollariga boyqot e'lon qilish.

Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan ham voz kechishga chaqirdi. «Paysa fond» jamiyatini lo'zib, hind sanoati ko'rgazmasini tashkil qildi.

1905 yilda Angliyada hokimiyat tepasiga kelganda ingliz hukumali mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi. 1907 yili qurg'oqchilik va o'latdan 1,5 mln kishi o'ldi. Bengaliya, Ravalpindi, Panjobda qo'zg'olonlar bo'ldi. 1905 yil Bombay da HMK qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda «Mo"tadil» oqim bilan «radikal» oqim o'rlasida qattiq lortishuv bo'ldi. «Mo"tadillar» koloniya bo'lib mamlakatni o'zlari Idora qilmoqchi, Tilak boshliq radikallar mustamlakachilikka qarshi edilar. Radikallar zaldan haydab chiqarildi. Shunday qilib, HMK ikkiga bo'linib ketdi. Qurultoy mustamlakachilarga yon bosuvchi qaror qabul qildi. Asta-sekin boruvchi islohotlar yo'lini tanladi. Tilak va lining izdoshlari «Millatparvar» partiya to'zganliklarini e'lon qilib, ko'plab varaqalar chiqardilar. Ularni butun htnd xalqi quvvatladilar, asosan ishchilar ular tarafida bo'ldilar.

1905 yilda Bombay ishchilari ish tashladilar, martda ularga aloqachilar qo'shildi. Kalkuttada, Madrasda ish tashlashlar boshlanib ketdi. Tijevelli shahrida «Svaraj» harakati tarafdorlari qamaldi.

1908 yil 24 jyunida Tilak qamoqqa olindi va sud qilindi. Sudda so'zlagan nutqida Tilak inglizlarning mustamlakachilik qiyofasini fosh qildi, o'sha nutqi boshdan oyoq mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan edi. U 6 yil katorga ishlariga hukm qilindi. Bombay mehnatkashlari bunga qarshi bosh ko'tardilar, dokyer va boshqa 100 minglab ishchilar Tilakni ozod qilishni, talab qildilar. Ma'murlar yon berishga majbur bo'ldilar, biroq jazoning katorga qismigina olindi-yu, u qamoq bilan almashtirildi, xolos. Xalq kurashi davomi ettirdi, qurollana boshladi.

1906-1908 yillardagi inqilobiy harakat HMK va inglizlarni cho'chitib yubordi. HMK dagi o'ng qanot kelishuvchilari dominionlitkni (o'z-o'zini boshqarish huquqini) berishni talab qildilar. Tilak va uning tarafdorlari to'la mustaqillik nuqtai nazarida turdilar.

Panjob xalqi ham ularni quvvatladi, ayniqsa, ishchilar, dchqonlar ular taratida edifar. HMK Tilakchilarni partiya safidan chiqardilar. Hind zamindorlari, rajalar va yirik moliyachilar bu qo'zg'olonlarni bostirishni talab qildilar va qo'zg'olon bostirildi. Inglizlar hindlar o'rtasidagi bu kelishmovchiliklardan ustalik bilan foydalandilar, ularni bir-biriga qarshi qo'yib, adovat o'tini yoqdilar. Shu bilan birga hindilar va musulmonlar o'rtasida nizo chiqarib, mustaqillik kuchlarini zaiflashtirdilar. Inqilobiy harakat so'ndi. Inglizlarning hukmronligi ta'minlandi va ular Hindistonni talab, boyliklarini tashib ketdilar.

SHunday qilib, birinchi jahon urushi arafasida Hindiston amalda ingliz mustamlakasi sifatida Angliyani zarur xom-ashyo bilan ta'minlovchi o'lka bo'lib qolaverdi. 1909 yil noyabrda «Hindiston kengashlari haqida qonun» qabul qilindi. Unga muvofiq joylardagi kengashlarning a'zolari soni oshirildi, aholining yarim foizi saylov huquqini oidi, xolos. Saylovlar diniy jamoaga qarab o'tkaziladigan bo'ldi. Bu biian ular o'rtasiga nifoq solindi.

1912 yilda mustamlaka ma'muriyati 12 soatli ish kunini joriy qildi, ilgari u 13-19 soat edi. Bu qonun yirik korxonalarni ko'zda tutgan bo'lib, amalda kichik korxonalari ko'p bo'lgan Hindiston ishchilariga hech bir naf bermadi.

Ishchilar harakati o'sib bordi, mustaqillik masalasi nihoyatda o'lkir, ahvol esa tangligicha qoldi.

Bundan cho'chigan mustamlaka ma'murlari hind xalqini chalg'itadigan (ovutadigan) tadbirlarni o'ylab topdilar, masalan, Bengaliya 3911 yilda birlashtirildK lord Kerzon poytaxtni Dchliga ko'chirdi, chunki Kalkutta ozodlik markazi edi.

XX asr boshlarida Hindiston ana shunday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatlar girdobida o'z taraqqiyot yo'lidan ilgaritab borar edi. Milliy ozodlik harakatida muvaffaqiyatsizliklar, orqaga ketish ro'y berdi.

Sarmoyadorlar, savdo, sanoat va moliyachilar har qanday sharoitdan o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar.

Hindiston MK, uning ilg'or qanoati shakllanishi ijtimoiy, milliy ozodlik harakatiga kalta ta'sir qildi. Shu yo'Harda Hindislonda mustamlakachilarga qarshi kurashda o'ziga xos kurash usullariga asos solingan edi.

Nazorat uchiin savollar:

1. Boburiylar. Hindislonning davlat tizirai.
2. Hindistonda feodal yer egalik shakllari
3. Hind qishloq jamoasining xususiyatlari va ijtimoiy-Jqtisodiy tarkibi.
5. Hindistonda anglo-Frantsuz raqobati va uning oqibatlari.
6. "Ots-Hindiston" savdo kompaniyasi va ingliz mutsamlakachiligining o'rnatilishi.
7. Ingliz mutsamlakachilik tizimining takomillashuvi: "rayyalvari", "zamindori" soliq tizimlari.
8. Ingliz mutsamlakachiigining oqibatlari.
9. Sipohiylar qo'zg'alonining kclib chikish sabablari.
10. Qo'zg'alonning boshianishi. borishi va yakuni.
10. Sipohiylar qo'zg'alonining oqibatlari va tarixiy ahamiyati.
11. Inglizlar lomonidan mustamlakachilikning kuchaytirilishi.
12. Ilindiston sanoati.
13. Mamlakat qishloq xo'jaligi.
14. Milliy ozdlik harakati.
15. Dehqonlarning stixiyali kurashi.
16. Ijtimoiy harakatdagi oqimlar.
17. Ilindislon Milliy Kongress partiyasining to'zilishi.

18. HMKdagi o'ng va so'l qanotlar.
19. Bal G.Tilak va uning mustaqillik yo'li.
20. XX asr boshida Hindiston iqtisodiyoti.
21. Vitse qirol lord Kerzonning ichki siyosati.
22. Inqilobiy harakat. Svaryaj. Svadeshi.
23. Birinchi jahon urushi arafasida Hindiston.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., “Sharq”, 1998.
2. Karimov I A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma`naviyat”, 2008.
3. Karimov I A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., “O`zbekiston” 2009.
4. Glazami dro'zey. Russkiye ob Indin. Sbornik. Sots. A.V.Zanadova i E.P.Proxorova. M.1957
5. Alaev I.B Sotsial'naya struktura indiyaskoy dyerevni: (Tyeriloriya) Uattar Pradesha XTX v.M.I 976
6. Antonova K.A Angliykoe zavoevanie Indii v XVIII veke. M. 1958.
7. Osipov A.M. Velikoe vostsanie v Indii. 1887-1859. M. 5957.
8. Pavlov V.I. Cotsial'no-ekonomicheskaya stmktura prom'ilennotsi Indii. Us. Predposilki genezisa kapilalizma konets XVIII sredina XIX v) M. 1973
9. Novaya itsoriya Indii. Otv.red. K.A.Antonova i dr. M. 1961
10. Vasilev A.S.Itsoriya Votsoka. V 2x t. M. 1998.t.2.
11. Novaya istoriya Indii M., Nauka, 1981 god.
12. Levnovskiy A.I. Osobennosti razvitiya kapitalizma v Indii. M., Nauka 1963.
13. Yangi tarix. T., «O'qituvchi», 1969 yil.

Mavzu: XVIII asr -XIX asr o'rtalarida Eron

Reja:

- 1.XVIII asr boshlarida Eronning ijtimoiy-iqtisodiy va davlat to'zumi.
- 2.Afshoriylar va kojariylar hukmronligi davrida Eron.
- 3.XVIII asrning oxiri -XIX asr o'rtalarida Eronning xalqaro ahvoli.
- 4.Bobiylar qo'zg'olomi va Amir Nizom islohotlari.

TAYANCH IBORALARI:

Safaviylar hukmronligi. Davlat to'zumi. Afgonlar hukmronligi. Pyotr 1 ning Eronga yurushi. Nodirshoh Afshor va uning tashki siyosati. Kojariylarning hokimiyatga kelishi. Eronda ingiz-frantsuz raqobati. Birinchi rus-eron urushi. Guliston sulhi. Ikkinchi rus-eron urushi. Turkmanchoy sulhi.A.S.Griboedov boshchiligidagi rus elchiligi. Xirotda yurushlari. Yevropa davlatlari tomonidan Eronning asoratga solinishi. Said Ali Muhammad "Bob" talimoti. Bobiylar harakati. Amir Nizom islohotlari.

XVIII asr boshlarida Eronning ijtimoiy-iqtisodiy va davlat to'zumi.

XVIII asr boshlarida Eron agrar feodal davlat bo'lib, unda Safaviylar sulolasi hukmronlik qildi. Safaviylar davlatiga Eronning azaliy mulklaridan tashqari XVI-XVII asr boshlarida zabt etilgan Kavkaz orli, Kavkazning bir qismi, O'rta Osiyoning Marv shahrigacha bo'lgan qismi, Ilirotda Farrax va Qandahordan iborat Avjonitsonning g'arbiy qismi va Balujitson hududlari kirar edi. Eron iqtisodiyotining asosini dehqonchilik, chorvachilik va hunarmanchilik tashkil qilar edi.

XVII asr oxiri-XVIII asr boshlarida Eronda feodal ishlab chiqarish munosabatlari hukmron bo'lib, yer va suvga feodal mulkchilik mavjud edi. Davlat yurdlari devoniy, shoh xonadoni vakillariga tegishli bo'lgan-xos, saroy va boshqa ma'muriy amaldorlarga xizmatlari uchun vaqtincha berilgan shartli yer egaligi-tiulga va merosiy yer mulki bo'lgan-suyurg'olga egalik qilganlar. Ishlov beriladigan yerlarning kattagina qismi vaqf yerlaridan iborat edi. Atsa-sekin mulk, yoki arbobi, deb ataluvchi xususiy yer egalari ham keng tarqala boshlagan.

XVIII asrning daslabki choragigacha bo'lgan davrda Eron markazlashgan davlatini Safaviylar sulolasidan chiqqan shohlar boshqardi. Shoh mamlakatning mutloq hukmdori edi. Davlat ishilarini boshqaruvchisi bo'lgan bosh vazir va boshqa oliy ma'muriy, diniy, harbiy amaldorlar ham shoh tomonidan tayinlangan. Ba'zan shoh maslahat vazifasini o'tagan Oliy kengash yig'ilishini chaqirib turgan.

Mamlakat ma'muriy jihatdan xoslar va devonlar, deb ataluvchi viloyatlarga bo'lingan. Devonlarni-Beklarbegi, xoslarni esa maksus vazirlar boshqargan. Viloyal boshqaruvchilari ham shoh tomonidan tayinlangan.

Eronning ijtimoiy-siyosiy hayotida ruhoniylar katta nufo'zga ega edi. Ularning qo'llarida nafaqat din ishlari, balki shariat sudlari, vaqf mulklari, maktab va madrasalari ham-jamlangan edi.

XVII asrning ikkinchi yarmida Safaviylar davlatining siyosiy va iqtisodiy tushkinlik davri boshlanib, u XVIII asrning boshlarida ogir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozni yo'zaga keltirdi. Natijada mamlakatni tashqi siyosiy ahvoli yomonlashdi, ichki va tashqi savdosi qisqardi, feodal guruhlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlandi, davlat xazinasida bo'shab qoldi, feodal va milliy zulm kuchaydi. Safaviylarning so'ngi shohi Sulton Husayn (1694-1722) davrida aholidan olinadigan soliq, va yig'imga 2-3 barobar ko'paytirildi. Viloyatlarda xalqning norozilik chiqishlari boshlandi, ayniqsa afg'on qabilalari va Kavkaz xalqlarining milliy ozodlik qo'zg'olonlari avj oldi.

Qandahor atroflarida yashagan afg'on qabilalari Safaviylar davlatining inqirozidan foydalanib, 1709 yilda mutsqaillikka chiqdilar. 1722 yilda Mir-Muhammad boshchiligidagi afg'on qo'shinlari Eronga hujum qildi. Afg'onlar poytaxt Isfahonni egallab, Safaviylarni taxtdan agdardilar. Shu yili Rossiya imperatori Pyotr 1 o'zining "Eron yurushi"ni boshladi, rus qo'shinlari Darbandni va Kaspiy bo'yidagi Eron yerlarini egallagach, Pyotr 1 Alastraxan orqali Petirburgga qaytdi. Erondagi mazkur holatdan foydalangan Turkiya

1723 yilda Kavkaz ortiga yurush qilib, Tiflisni va keyinroq Eronning butun shimoliy-g'arbiy qismini bosib oldi.

AFSHORIYLAR VA KOJARIYLAR HUKUMRONLIGI DAVRIDA ERON

Eron xalq ommasi juda faol ravishda afg'on bosqinchilariga qarshi kurash olib bordilar. Uning markazi Mozandaron viloyati bo'lib, kurashga Eronning turkiy qabilasi bo'lmish afshorlardan chiqqan Nodirxon rahbarlik qildi. U Safaviylar sulolasining so'ngi shohi Taxmats II (1722-1732)ning xizmaliga kirgan. Nodirxon harbiy qo'nondon sifatida Eronliklarning afg'on bosqinchiligi qarshi kurashiga bosh bo'ldi. 1729 yil 29 sentabrda Nodirxon qo'mondonligidagi eron qo'shini Damgon otsonasida afg'onlar uslidan xal qiluvchi galabani kulga kiritdilar va 1730 yilda mamlakat afg'onlardan to'liq ozod qilindi. Shu davrda Nodirxon Eron hukmdori bo'lib qoldi. 1730-1735 yillarda Nodirxon turk qo'shinlariga qarshi muaffaqiyatli urush olib borib, Eron hududini turk bosqinchilardan tozaladi. Afg'on va turk bosqinchilariga qarshi kurashdagi muaffaqiyatlardan foydalangan Nodirxon 1736 yilda quriltoy chaqirib o'zini Eron shohi, deb elon qildi.

Nodirxonning ichki siyosati asosan mamlakat boshqaruvini markaziashtirishga qaratildi. U shi'a ruhoniylari va Safaviylar asilzodalardan tortib olingan yillar soxibiga aylanib davlatning feodal mulkchiligini kengaytirishga yerishdi. Dehqonlar va shaharning mehnatkash aholisidan olinadigan soliq va to'lovlarni ko'paytirdi.

Davlat hududini kengaytirish va xazinani talonchilik tuldurush maksadida Nodirshoh o'zluksiz ravishda bosqinchilik urushlari olib bordi. 1736-1739 yillarda u Sint, Buxoro va Xorazmga ham talonchilik yurushlari amalga oshirdi. 1732-1738 va 1741-1743 yillarda Nodirshoh Omang harbiy ekspeditsiyalar uyushtirdi. 1743-1745 yillarda u Mesopataniya uchun tarkiyaga qarshi muvaffaqiyatsiz urush olib bordi. Uning bosqinchilik yurushlari natijasida yurik bir davlat imperiya vujudga keldi. Unga shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Baluchiston, Armaniston, Ajarbayjon, G'arbiy, Yagiston, Xiva va Buxoro xonliklari kirgan. Doimiy urushlar olib borish oxibatida mamlakat ishlab chikarish kuchlariga putur etdi, soliq zulmi dehqonlar va shahar mehnatkashlarni xonavayron qildi. Mamlakat hududida shoh hokimiyatiga, uning noib va gubernatorlariga qarshi xalq qo'zg'olonlari avz oldi. Nodirshohning qo'zg'olonlarini boshqirishdagi shavkatsizliklari xalq orasidagi nifo'zini tushirib yubordi. 1747 yil iyunida Xurosonda uyushtirilgan suyuqqatda Nodirshoh xalok bo'ldi.

Nodirshohning ulimidan keyin yagona iqtisodiy va siyosiy asosga ega bulmagan uning ulkan davlati mutsaqil feodal mulklarga parchalanib ketdi. Afg'onistonda Axmatshoh Durroniy boshchiligida mutsaqil afg'on davlati tashqil topdi. Xuroson, Atsrabod Mozandaron, Ozorbayjon, Gilon, Isfahonda ham maxalliy feodal hukmdorlari o'zlarining hukmronligini urnatib, xokimiyat uchun o'zaro kurash olib bordi. 1760 yil janubiy Erondagi zend kabilasidan Karinxon Xurosondan tashkari butun Yecron hududini birlashtirib, poytaxti Shiroz shaxr bo'lgan yangi bir davlatga asos soldi. 1779 yilda Karimxonning vafotidan so'ng yana xokimiyat uchun urushlar boshlanib keldi. Bu kurashda kovjar kabilasidan bo'lgan Og'a Muhammad golib chikib 1769 yilda o'zini Eron shohi deb elon qildi. Eronda markaz Texron bo'lgan yangi sulola kojarlarning hukmronligi urnatildi.

XVIII asrning oxiri -XIX asrning o'rtalarida Eronning xalqaro ahvoli

O'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy qolokligiga karamasdan XVIII asr oxirigacha Eron mutsaqil davlat sifatida mavjud edi. Bungacha Yevropa davlatlari Eronga nisbatan savdo imtiyozlari tugrisidagi talablari bilan cheklangan xolos.

XVIII asr oxirlaridan yakin va o'rta shaharda bosqinchilik harakatlari uchun Eronni plasdarmga aylantirish maksadida Angliya va Fransiya uning ichki ishlariga aralashib boshladilar. 1796 yilda Texronga kelgan Fransuz ilchiligi shoxni Rossiya bilan urush boshlashga undadi va shuningdek Erondan Angliyaga qarshi urushda foydalanmokshi bo'ldi. Fransiyaning Hinditsonga xujurn qilish rejasini barbot etish maksadida 1800 yilda Malqolum boshchiligidagi ingliz dilgasiyasi Texron tashrib qildi va savdo shartnomalarai to'zdi. Unga kura Eron o'z hududiga Fransuzlarni kuymaslik va agar Fransuzlar Hinditsonga xujum qiladigan bulsa, Eron qushinlari Afg'onistonga yunaltirish majburiyatini oldi. Savdo shartnomasi Eronda inglizlarni soliqlardan ozod qildi. Eron portlarida erkin harakat qilish bir katorda ingliz mahsulotlarini mamlakatga boj tuiovlarisiz kiritish kabi

imtiyozlari berdi. Bularning barchasi uchun inglizlar Eronni kurol-yarok bilan taminlashni o'z buyniga oldi.

XIX asrning daslabki yillarda Rossiya Kavkaz ortini bosib olishga kirishib, 1801 yilda Gro'ziyani zabt etdi. Rossiyaning Kavkaz ortiga yurushi Eron manfaatlariga zid bo'lib, bu. xolal 1804 yil boshlangan rus-eron urushiga sabab bo'ldi.

1805 yil Angliya va Rossiya Napoliyonga qarshi iitifokchilik qilish tugrisida shartnoma imzolashdi. Shuning uchun Angliya Eronga xech kanday yordam bermadi. Bundan foydalangan Frantsuzlar 1807 yilda 4- mayda Texronda mudofa vaxujum tugrisida franko- eron shartnomasi imzoladi. Bu shartnoma Rossiya va Eronga karalilgan edi. 1807 yil 7- iyulda Fransiya va Rossiya o'rtasida imzolangan Tilzit sulhi xalqaro vazitatni tubdan o'zgartirib yubordi. Eron yana Angliya bilan yakinlashga urindi. Angliya va Fransiyaning Eronga kurol-yarog va moliyaviy yordamiga karamasdan Eronga nisbatan ilgor bo'igan Rossiya rus-eron urushiga birin-ketin galabalarni kulga kiritdi. 1812 yilda Napoleon armiyasining Rossiyaga xujumi ham shox qushinlarining ahvolini axshilamadi. 1812 yil oktyabrda Aslando'z yakinidagi jangda eron armiyasi tormor etilgandan sung sulh mo'zokaralar boshlandi. Mo'zokaralar 1813 yil 12 oktyabrda Rossiya va Eron o'rtasida Guliston sulh shartnomasini imzolanishi bilan nixoyasiga etdi. Bu shartnomaga muvofik Eron, Dogitson, Gro'ziya va shimoliy Azorbayjonga bo'lgan davosidan voz kichib ularni Rossiya tarkibiga kiritilganiigini etirof etdi. Kasbiy dengizida fakat Rossiyagina harbiyflot saklashga ega bo'ldi. Rus va Eron savdogorlarning maskur davlallariga erkin kelishi va savdo ishlarini yuritish kafolatlandi, kyeritilayotgan savdo mollariga 5% bojxona tulovlari belgilandi.

Guliston sulhi Angliyaning Eronni o'ziga buy sundirish rejaiari borobod qildi. Rossiyaning tasirini usishiga yul kuymaslik va shoxni Rossiya bilan yangidan urush chikarish maksadida 1814 yilda inglizlar angilo-eron shartnomasini to'zishga muvaffak bo'ldilar. Bu shartnoma shox saroyini Rossiyadan uch olish kayfayitini kuchaylirdi. 1821-1823 yillarda chegara masalasini Eron va Turkiya o'rtasida bo'lib utgan urushda Eronni galabasi ham ruslarga qarshi kayfiyatni kuchayishiga olib keldi. 1826 yil iyulda shox qushinlari lusatdan ruslarga xujum qilib ikkinchi rus-eron urushini boshladilar. Birok bu urush Eron uchun muvaffakiyatsiz bo'ldi. 1828 yil febralda Rossiya va Eron o'rtasida Turkmanchoy sulh shartnomasi imzolandi. Unga kura bu ikki davlat o'rtasidagi Arakis daryosi buylab chegara belgiladi, sharkiy Armanitson Rossiya tarkibiga kiritildi, Eronga 20 mln rubil tavon puli tulash majburiyati yuklandi. Turkmanchoy sulhi Eronda Rossiyaning tasirini mutsaxamladi. bu esa Anglo-Eron munosabatlarini yanada keskinlashtirdi.

Rossiya bilan bo'lgan urush xajatlarini koplash va tavon puli tulash maksadida shoxning favkulotda soliq va lulovlar joriy qilishi Eron axolisining noroziligiga sabab bo'ldi. Shox saroiyi va ruxoniylar xalk noroziligini Rossiyaga va urushdan sung Rossiyaning Erondagi elchisi qilib tayinlashgan A.S.Griboedovga qarshi yunaltirish uchun qilgan harakati oxibatida 1829 yil 11 febralda gazablangan olamon elchi boshchiligidagi rus missayisini kirib tashladi. Shox Petyerburgga maxsus elchi yuborib mazkur vokrylik yo'zasida o'zur suradi.

qo'llagan hukmron doiralari urushni davom ettirishga va Fransiya dan hech bo'lmaganda, Elzas va Lotaringiyani bosib olishga intilar, urush endi Germaniya uchun istilochilik urushiga aylangan edi.

3. Fransiyaning taslim bo'lishi urush oqibatlari

19-sentyabrda 320000 kishilik pruss armiyasi Parijni qamal qildilar. Muvaqqat hukumat mudofaani tashkil qilolmadi. 173000 askar, yetarli qurol-yarog' va o'q-dorisi bo'lgan fransuz armiyasi yorib o'tishga ham harakat qilmay dushmanga taslim bo'ldi. Hukumat xiyonat yo'lidan bordi. Masalan, Jyul Favr sulh so'rab Bismark bilan uchrashdi. Bu habar xalqqa yetib bordi. Ularning taslimchilik siyosatidan parijliklar voqif bo'ldilar. 31-oktyabr poytaxt aholisi O.Blanki, Delekruz va boshqa sotsialistlar boshchiligidagi Ratushaga bostirib kirdilar, biroq hukumat qo'zg'olonni bostirdi. 28-yanvarda Jyul Favr yarashishini iltimos qilib Versalga -Bismark huzuriga jo'nadi. Bismark Parijni taslim bo'lishini talab qildi. Hukumat xalqqa bildirmay, taslim bo'ldi va xalqqa sezdirmay yarash bitimini imzoladi.

8-fevralda Milliy Majlisga shoshilinch saylov o'tkazildi. Saylangan 750 ta deputatning 450 tasi monarxistlar edi. Ular reaksioner Ter boshliq hukumat tuzdilar. 16-fevralda u ham Bismark huzuriga jo'nadi. 26-fevralda bitim imzolandi. 1-martda Bordodagi Milliy Majlisda bu bitim ratifikasiya qilindi. (549-107) Viktor Gyugo, Leon Gambetta, Jorj Klemanso va boshqa 107 kishi qarshi ovoz berganlar. Germaniya Elzas va Lotaringiyani bosib oldi. Fransiya Germaniyaga 5 mln. frank tovon to'ladi.

4. 18-mart to'ntarishi va Parij Kommunasini

Prussiyaga qarshi urushdagi mag'lubiyat, hukumatning taslimchilik siyosati va hoinona sulh bitimlari xalqning qahr-g'azabini keltirdi. Bu uquvsiz hukumatning xalqqa qarshi siyosati tufayli, mamlakatda ishsizlik (600000\486000), ochlik, o'rta tabaqalarning xonavayron bo'lishi ommani hukumatga qarshi kurashga undadi.

Ter hukumati xalq harakatini bostirishga qaror qildi. Harakat rahbarlarini qamadi. Milliy gvardiyaning harakatini to'xtatdi va uni qurolsizlantirishga buyurdi. Uy-joy to'lovlari vaqtini kechiktirishni bekor qildi, demokratik gazetalarni yopdirdi.

Fevral o'rtalarida Parijda Milliy Gvardiya Markaziy Qo'mitasi tuzildi. Uning ixtiyorida poytaxt ishchilari va mehnatkashlaridan iborat 266ta batalondan 215 tasi bor edi. Hukumat Milliy Gvardiyani tor-mor qilish uchun barcha choralarni ko'rdi.

18-mart tungi soat 3 da Milliy Gvardiya to'plari joylashgan Monmartr tepaligida hukumat qo'shinlari paydo bo'ldi. Ularni Ter hukumati yuborgan bo'lib, gvardiyachilarning to'plarini qo'lga olish buyurilgan edi. Bu to'plar ishchilarning mablag'lari hisobiga yasalgan edi. Qorong'uda boshlangan hujumda zambaraklarning bir necha soqchilari o'ldirildi.

Non do'koniga navbat olish uchun borayotgan ishchilar, asosan, ayollar bu voqeani ko'rib barchani «oyoqqa» turg'azdilar. Xalq to'plandi, generallar xalqqa qarata o'z to'plaridan o'q uzish va ularni tarqatishni buyurdi, ammo askarlar ularga itoat etmadilar va armiyaning bir qismi xalq tomoniga o'tdi.

Xalq, qurollanib, Milliy Gvardiyachilar bilan birga shahar markaziga yo'l oldilar. Ularga Sent-Antuan kvartal(daha) ishchilari qo'shildilar. Hukumat ularga qarshi jandarmeriyani yubordi. Qo'zg'olonchilar jandarmeriya qismlarini yanchib yubordilar. Kunduzi soat 21ga borib shahar markazi, Orlean vokzali va boshqa muhim joylar

qo'lga kiritildi. Ko'p o'tmay kazarmalar, hukumat binolari ishg'ol qilindi. Hukumat tashqi ishlar vazirligi binosiga yashirindi, so'ngra esa Versalga qochdi. U yerda aksi inqilobiy kuchlarning shtabi joylashgan edi. Kechga borib milliy gvardiya poytaxtdagi barcha muassasalarni ishg'ol qildilar. Ratusha binosi ustida g'oliblarning bayrog'i ko'tarildi. Parijda xalq hokimiyatini o'z qo'lga oldi. 1871-yil 18-mart tarixda xalq tomonidan amalga oshirilgan jahonda birinchi davlat to'ntarishi kuni bo'lib kirdi.

Milliy Gvardiya Markaziy Qo'mitasi Parij inqilobchilarining 1-inqilobiy hukumati bo'ldi. Davlat organlariga ishchilar, ziyolilar, inqilobiy harakatning qatnashchilari va yo'lboshchilari boshchilik qildilar.

Milliy Gvardiya MQ mehnatkashlarining eng zaruriy ehtiyojlari uchun 1 mln frank ajratdi, ularning qarzlari va uy-joy to'lovlari muddatini uzaytirdi. Biroq Milliy Gvardiya MQ g'alabadan oxirigacha foydalana olmadilar. Terning muntazam armiya qismlarini poytaxtdan olib ketishga befarq bo'ldi,

Versaldagi aksil inqilobiy kuchlarni yakson qilmadi, Ter hukumati esa bu fursat va imkoniyatlardan foydalanib kuch to'plashga ulgurdi.

Milliy gvardiya MQ Parij kommunasiga saylovlar bilan ovora bo'lib qoldi. 26-martda umumiy va to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan Parij kommunarlari saylandilar. Saylov umumiy saylov huquqi asosida o'tkazildi. Unda asosan poytaxt ishtirokchilari qatnashdilar. Kommuna Kengashiga 86 kishi saylandi, ulardan 21 tasi yuqori tabaqadan bo'lib, ular ko'p o'tmay o'zlarining vakolatlaridan voz kechdilar, shuning uchun 16-aprelda qo'shimcha saylov o'tkazilib, unda 17ta yangi a'zo saylandi.

Kommuna eski armiyani tugatib, xalqni qurollantirdi. Egalari qochib ketgan zavod-fabrikalar ishchilarga topshirildi. Bolalar uchun jinsidan qati'y nazar majburiy, bepul o'qish joriy etildi. Cherkov davlatdan ajratildi, muzey va kutubxonalar xalq, uchun ochildi.

28-martda yuz minglab parijliklar - Milliy gvardiya jangchilari, ishchilari, xotin-qizlar, bolalar bayroqlar ko'tarib inqilobiy qo'shiqlar kuylab, Ratusha tomon yo'l oldilar. Bu yerda Milliy gvardiya MQ si hokimiyatni tanatanali ravishda Parij Kommunasiga topshirdi.

Kommuna Kengashi Parij Kommunasining oliy organi edi.

Uning a'zolari ko'zga ko'ringan arboblari - «Qo'rqmas va oq ko'ngil ritsar» deb nom olgan Gustov Flirans, maorif komissari - jurnalist Eduard Vayyan, prokuror Raul Rigo, moliyachi-tarixchi Tridon, qo'mondon Emil Dyual(general) va boshqalar kirdi.

Parij Kommunasini Fransiyaning yangi hukumati sifatida ish olib bordi.

Kengashning umumiy majlisi oliy qonunchilik hokimiyat organi edi, shuning uchun u ijroiya organ ham hisoblanardi.

Kengash 10 ta komissiyadan iborat edi: moliya, harbiy, adliya, ijtimoiy xavfsizlik, maorif, tashqi ishlar, aloqa, ichki ishlar, sanoat, qishloq ishlari kabi sohalar edi. Tezda zarbxona ishi yo'lga qo'yildi. Ishchi Kamelina uning boshlig'i edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar. Kommuna o'z faoliyatida xalqqa suyanib ish ko'rdi va ularning talablarini bajardi. Masalan uy-joy to'lovlari, muddatini uzaytirish, lambartga garovga qo'yilgan qiymati 20 frankkacha bo'lgan buyumlarni egalari qaytarib berish haqida Dekret chiqaradi. Ishchilarni ish bilan ta'minlash idorasi tuzildi. Mehnat - ayirboshlash komissiyasi tuzildi. Uning raisi Leo Frankel edi.

Xo'jayinlari tashlab ketgan zavod-fabrikalarni ishchilarga topshirish haqida dekret 20-aprelda chiqarildi. Temir yo'llar Kommuna nazoratiga olindi.

Xalq maorifi yangidan tashkil etildi. U majburiy, bepul, dunyoviy ta'lim tamoyillari asosida, asosan mehnatkashlarning bolalari uchun deb e'lon qilindi. Oliy, o'rta ta'lim qayta qurildi. Bog'chalar, muzeylar, kutubxonalar, teatrlar eshiklarini xalqqa ochib qo'ydi.

Fransuz madaniyatining mashhur arboblari: geograf olim Elize Reklyu, rassom Kyurbe, karrikaturachi Andre Jim, shoir E.Pote, Jan Batnet Klemon va boshqalar o'z iste'dodlarini xalqqa bag'ishladilar. Luiza Meshel, Natali Lemel, Yelizaveta Dmitrieva -Tumanovskaya Parij mudofaasi ishtirokchilari sifatida yaradorlarga yordam ko'rsatdilar. Dehqonlarga munosabat Leonel Shanse xitobnomasi Marsel, Leon, Tuluza, Narbon, Krezo va boshqa viloyatlar quvvatladi.

Kommuna baynalmilal tashkilot edi. Kommuna Kengashiga venger Leo Frankel, italyan Leonito Garribaldi saylandi, qo'shinda polyaklar, ruslar, belgiyaliklar bo'lganlar. Polyak Dombrovskiy, ruslardan Ye. Dmitrieva, Anna Pustovoytova va boshqalar jang qilganlar.

Kommunaning yengilishi

Kommuna hukmron tabaqalariga nisbatan to'g'ri yo'l tuta olmadi. Siyosiy va iqtisodiy sohada qo'yilgan xatoliklar mag'lubiyatta olib keldi. Masalan, siyosiy jihatdan hokimiyatni qo'lga olgan kommunalar yonginalari turgan Versaldagi o'z muxoliflarini yenga olmadilar, shu bilan birga o'z tasarruflariga o'tgan bank mablag'lari (2 mlrd. frank)dan to'g'ri foydalana olmadilar, ayniqsa, to'ntarish faqat Parijda bo'lib, boshqa shahar va viloyatlar, eng asosiysi xalq ommasini qo'llab-quvvatlamaganligi va shu kabi boshqa sabablar natijasida Kommuna 1871-yil 27-mayda quladi. Kommuna 72-kun yashadi, xolos. Bu to'ntarish agar xalq, qo'llab-quvvatlamasa, qurol kuchi bilan amalga oshirilgan har qanday harakat, zo'rlik bilan o'rnatilgan hokimiyat uzoq yashamasligini ko'rsatdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fransiya-Prussiya urushining sabablari.
2. Ems muzokaralari.
3. Urushning boshlanishi va borishi.
4. Sedan jangi.
5. 4-sentyabr to'ntarishi.
6. Fransiyaning mag'lubiyati va urush oqibatlari.
7. Parijda 1871-yil 18-mart to'ntarishi.
8. Parij Kommunasi.
9. Kommunaning yengilish sabablari.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq". 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O`zbekiston" 2009.
4. Желубовская Э.А. Крушение второй империи и возникновение третьей Ресгублики в Франции. М., 1956.
5. Керженцев Г.М. История Парижской Коммунн. М., 1959.
6. Yangi tarix III q.,T. «O'qituvchi», 1969.
7. Жорес Э. Франко-Прусская война. М., 1969.
8. Лиссагари П. История Коммунът 1871г. М. 1976.
9. Лурье А.Я. Портреть I деятелей Коммунн. М., 1975.
10. Молок А. Германская интервенция против Коммунъ1 1871 г. М., 1939.

Mavzu. 1871-1914 yillarda Fransiya

Reja:

1. XIX asrning oxirida Fransiyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoli.
Hokimiyat uchun kurash.
2. Fransiyaning tashqi siyosati va ijtimoiy harakat.
3. XX asr boshlarida Fransiya.

Tayanch tushunchalar:

Konstitutsiya. Gersoglar respublikasi. Uchinchi respublika. Eski monarxiyachilar. Ter. Mak-Magon. Vallon. J.Ferri. J. Simon. J. Grevi. Leon Gambetta..Yangi urush xavfi. Fransiya-Rossiya ittifoqi. Mustamlakachilik. Opportunizm. Anarxo-sindikalizm. Dreyfus ishi.

1. XIX asrning oxirida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti

Urush va davlat to'ntarishi iqtisodiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1873-yildagi iqtisodiy inqiroz ham Fransiya iqtisodiyotini izdan chiqardi. Bu inqiroz sanoat, savdo va qishloq xo'jaligini qamrab oldi. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashdi. XIX asr o'rtalarida sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan 2-o'rinda (Angliyadan keyin) turgan Fransiya XIX asrning oxiriga kelib 4-o'ringa, ayrim sanoat tarmoqlari bo'yicha undan ham keyingi o'rinlarga tushib qoldi. Fransiya sanoat o'sishi sur'atlari jihatidan AQSH, Germaniya, Rossiya va boshqa davlatlardan orqada qoldi.

Sanoat taraqqiyotining bunday sekinlashib qolishiga bir qator omillar; 1). 1870-1871 yillardagi urushning mamlakat xo'jaligiga yetkazgan zarari (15 mlrd. frank) 2). Germaniyaga to'langan tovon (5 mlrd frank 3). sanoat taraqqiy qilgan Elzas va Lotaringiyadan mahrum) bo'lishi. 4) ichki bozorning cheklanib qolishi.5). tabiiy boyliklarining taqchil bo'lishi. 6). temirning sifati pastligi o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Shunga qaramay,Fransiyada mayda va o'rta korxonalar ko'pligi sababli ishlab chiqarishning jamlanishi va kapitalning markazlashuvi jarayoni tezlashib bordi. Bu ham industriyaning o'sishiga, monopoliyalar birlashmalarining vujudga kelishiiga olib keldi. 70-yillarda ko'plab aksionerlik kompaniyalari paydo bo'ldi. 1876-yilda qudratli Longvi metallurgiya sindikati tashkil topdi. Shnayder-Krepo harbiy-sanoati tarmoqlari kengaytirildi.

XIX asrning oxirlarida mamlakat qishloq xo'jaligida hamon aholining katta qismi band edi (1872-yilda - 63,9%, 1896-yilda -60,9%). Qishloq aholisining ko'pchiligi mayda dehqonlar bo'lib, ularning qo'lidagi yerlar 75%ni tashkil etgan.Yirik moliyachilar va sarmoyadorlar ko'proq foyda olish payida bo'lib, o'z tovarlarini chet elga chiqarishga harakat qildilar. 70-yillarda fransuz kapitali Ispaniyada temir yo'llar qurilishiga sarflandi. 80-yillarda esa, Polshadagi ko'mir konlariga, Donbass va Krivoy Rog tomonlarga intilar edi.

80-90-yillarda Fransiya kapitali Turkiya, Avstriya-Vengriyaga, Janubiy Amerika mamlakatlariga kirib bordi. Kapitalning ko'p qismi zayomlar borish yo'li bilan eksport qilindi.Bu esa fransuz kapitalining sudxo'rlik qiyofasini ko'rsatar edi.

Bu davrda Fransiya yirik moliya, sanoat va zamindor guruhlar bilan birga faol xalq ommasi, «o'rta tabaqalar», - deb atalgan tabaqa katta o'rin tutardi. Aholi qatlamlarining bunday joylashuvi «Uchinchi respublika»da siyosiy kurashning rivojlanishiga ham ta'sir qildi. Fransiya*da* iqtisodiy inqiroz faqat XX asr boshlaridagina yengib o'tildi.

Hokimiyat uchun kurash. Kommuna tor-mor keltirilgandan so'ng Parij va viloyatlarda reaksiya avj olib ketdi. Kommuna jangchilarigina emas, kommunarlar*ga* xayrixohlik qilgan,deb shubha ostida olinganlar ham qattiq ta'qib ostiga olindilar. «Dyufor qonuni» (1872) kommunarlarga qarshi. Inqilobiy

harakatlarga qarshi kurashuvchi bir qator tashkilotlar paydo bo'ldi.

Germaniya bilan sulh masalasini kurish uchungina vakolat olgan Milliy Majlis sulh shartnomasini imzolaganidan keyin ham o'zboshimchalik bilan o'z faoliyatini davom ettiraverdilar. Har biri taxtga o'z vakilini qo'yishga harakat qilgan uch monarxiyachi partiyaning Ta'xis majlisidagi o'zaro raqobati ularning monarxiyani qayta tiklash rejasini yo'qqa chiqardi, monarxiyachilar respublikaga vaqtincha rozi bo'lib turishga majbur bo'ldilar. Ana shunday sharoitda Kommunanani yo'q qilgan, o'zi aytganiday, «eski monarxiyachi» Adolf Ter respublika Prezidenti lavozimiga juda mos odam edi.

Ter mamlakatda ashaddiy reaksiya tartibini joriy qildi, matbuot erkinligini cheklab qo'ydi. Milliy gvardiyani tarqatib yubordi. O'lpon to'lash uchun ikki marta zayom chiqarildi va belgilangan miqdordan juda ko'p qilib sotib yuborildi. Shu bilan birga, gugurt, temir yo'l biletlari va boshqalarga «egri» soliqlar solindi, bu soliqlar keng mehnatkashlar ommasining zarariga bo'ldi. Fransiya Germaniyaga o'lponni muddatidan oldin to'lab bo'ldi. 1873-yil 16-sentyabrda oxirgi german qo'shini Fransiya hududidan chiqib ketdi.

Milliy majlisda ozchilikni tashkil qilgan respublikachilarni aholining ko'pchilik qismi qo'llab-quvvatlab kelayotgan edi. 1872-1873 yillardagi qo'shimcha saylovlarda respublikachilar katta g'alaba qozondilar. Shu yillar mobaynida Milliy Majlisga yalpi saylangan 150 kishidan 128 tasi respublikachilar edi.

Monarxistlar graf Shamborni Genrix V nomi bilan qirol etmoqchi edilar. Xalqning monarxiyaga xohishi yo'qligini Ter tushunardi, shuning uchun ham u mazmunan reaksiya bo'lgan hokimiyatning respublika tizimi tarafdori bo'lib qolishga majbur bo'ldi. Lekin, respublikachilarning yutuqlaridan tashvishga tushib qolgan monarxiyachi Milliy Majlis Terga mamlakatda «ma'naviy tartib»ni ta'min qilolmadilar degan aybni qo'ydi. 1873-yil 24-mayda Ter iste'fo berishga majbur bo'ldi.

Milliy Majlis Ter o'rniga marshal Mak-Magonni Prezident qilib sayladi. U noshud siyosatchi, ashaddiy reaksiya va monarxiyachi, haddan tashqari johil bir odam edi. Mak-Magon «ma'naviy tartib»ni monarxiyaviy kayfiyatlarni kuchaytirib yuborish ma'nosida tushungan edi. Monarxiyachilar 1873 yil yozi oxirlarida monarxiyani tiklashga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Monarxiyani tiklashga ochiqdan-ochiq tayyorgarlik ko'rish mamlakatda keng qarshilik harakatining boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Respublikachilar bu kurashda o'zlarining butun kuchlarini birlashtirdilar.

Monarxiyachi Milliy Majlis o'z mavqei va kelajak istiqbolini saqlab qolish uchun 1873-yil noyabrda Mak-Magonning vakolat muddatini 7 yil deb belgiladi. Monarxiyachilar Mak-Magon hokimiyatini saqlab qolib, boshqa bir yo'sinda o'z rejalarini amalga oshirishni mo'ljallab qo'ygan edilar. 1875 yil Konstitutsiyasi. Vakolati allaqachon tugagan Milliy majlis Konstitutsiya tayyorlash bilan shug'ullanishga majbur bo'ldi. Milliy majlis monarxiya tuzumini o'rnatolmagani uchun uzoq vaqt bir qarorga kelolmadi. Nihoyat, 1875 yil 30-yanvarda u deputat Vallonning respublika Prezidentini saylash tartibi va uning vakolat muddatini belgilagan tuzatishni, bittagina ko'p (352 ga qarshi 353) ovoz bilan tasdiqladi va shu orqali respublikani e'tirof etdi.

Respublika Prezidenti deputatlar bilan Senatning qo'shma majlisida yetti yilga saylanardi.

Prezident parlament oldida javobgar bo'lgan vazirlarni, oliy ma'muriy va harbiy amaldorlarni tayinlash, qurolli kuchlarga farmoyishlar berish, ajnabiy davlatlar bilan respublika nomidan munosabatlar o'rnatish, shuningdakil urush e'lon qilish, sulh tuzish huquqiga ega edi. Umumiy avf e'lon qilish ham Prezident qo'lida edi.

Deputatlar palatasi va Senatning qarorgohi etib Parij emas, balki Versal shahri belgilandi. Monarxiyachi Milliy majlis Konstitutsiyaning demokratik mazmunini cheklash uchun qo'lidan kelgan barcha choralarni ko'rdi. Respublikachilar 1875-yil Konstitutsiyasini ma'lum darajada yutuq deb bilib, uni keyinchalik qat'iy sur'atda demokratlashtirish lozim deb topdilar.

Senat- (lotincha «seneks» keksa).

1). Qadimgi Rimda oliy hokimiyat organi imperiya davrida o'z ahamiyatini yuqotgan.

2). Ba'zi davlatlarda AQSh, Italiya, Fransiya parlamentining yuqori palatasi.

3).Rossiyada 1711-1917 yillarda oliy hukumat organi.

«Uchinchi Respublika»ning inqirozi. Konstitutsiyaga muvofiq, Fransiya parlament respublikasi bo'lib qoldi. Bu «Uchinchi Respublika» (Fransiyada «Birinchi Respublika» 1797-1804; «Ikkinchi Respublika» (1848-1852;) deb atala boshlandi. «Marseleza» Fransiyaning madhiyasi deb qabul qilindi. Bastiliya ozod etilgan kun - 14-iyul Milliy bayram kuni deb e'tirof etildi. Konstitutsiyada Deputatlar

palatasi umumiy ovoz berish yo'li bilan saylanadi deyilgan edi. Amalda esa bunday bo'lmadi. Xotin - qizlar saylov huquqiga ega emas edilar.

1876 yilgi saylovlarda Deputatlar palatasida respublikachilar, Senatda esa monarxiyachilar kupchilikni tashkil etar edi. Respublikachilar safida bu davrda tabaqalanish yuz berdi. Yuqori doiralarda uch partiyaning ta'siri kuchaydi. Bu Ter rahbarlik qilgan eng konservativ guruh - «So'l markaz», Jyul Ferri va Jyul Simon boshliq « Respublika guruhi» va Leon Gambetta boshliq «Respublika ittifoqi» guruhlar edi. Gambetta respublikachilarning eng mashhur va nufuzli rahbari edi. Gambettaning radikal - demokratik talablaridan voz kechganligi 70-yillarning oxirida respublikachilarning «O'ta so'l» guruhini vujudga keltirdi va keyinchalik uning negizida radikallar partiyasi tuzildi.

Radikal-demokratik islohotlarni tashkil etish, «O'ta sul» guruhlar, ular ko'pincha tubdan keskin choralarning tarafdorlari edilar.

Mak-Magon Senatning yordamiga suyanib Deputatlar palatasini tarqatib yubordi va yangi saylov belgiladi. Saylov vaqtida hukumat tazyiq vositalarini ishga soldi. Respublikaning yashashi jiddiy xavf ostida qoldi. Barcha respublikachi guruhlar yana Gambetta rahbarligi ostida birlashdilar. Xalq respublikani qat'iy yoqlab chiqdi. 1876 yil yanvarda respublikachilar Senatga bo'lgan saylovlarda ham g'alaba qozonganlaridan keyin Mak-Magon kurash olib borishning behudaligiga ko'zi yetib, vakolati tugamasdan iste'fo berdi. «Mo'tadil» respublikachi Jyul Grevi Prezident qilib saylandi. 1877 yil oktyabrdagi saylovlarda monarxiyachilarning barcha harakatlariga qaramasdan, respublikachilarning qo'li baland keldi.

Shunday qilib, monarxiyani tiklashga qaratilgan barcha urinishlar foyda bermadi. Lekin, vazirlar Prezident tomonidan tayinlansa-da parlament oldida javobgar edilar.

2. Fransiyaning tashqi siyosati va ijtimoiy harakat

Bu davrga kelib Fransiyaning tashqi siyosati ancha zaiflashdi. Uning oldingi hukronligiga barham berildi. Germaniyaning 1877-yili, Fransiya hujumga tayyorlanayotibdi, degan ig'vosi natijasida yana «urush xavfi» paydo bo'ldi. 1879 yilda Avstriya-Vengriya – Germaniya ittifoqini tuzilishi natijasida Fransiyaning tashqi siyosati mustamlakalar zabt etish va Germaniya bilan hamkorlik qilishga qaratilgandi. 1881 yili hukumat o'z moliyaviy guruhlarini manfaatlarini ko'zlab Tunisga harbiy ekspedisiya uyushtirdi. 1881 yil 12 mayda Bordo shahrida tuzilgan «shartnoma»ga muvofiq, Fransiya Tunis ustidan o'z protektoratini o'rnatdi. Tunisning bosib olinishi mahalliy qabilalarning qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi, bunday qo'zg'olon Jazoirida ham bo'lib o'tdi.

Protektorat (protektor lotincha «homiy»). Mustamlaka, qaramligi shakllaridan biri. 1- davlat 2- siga xalqaro shartnoma asosida ichki va tashqi siyosatni belgilash, xalqaro huquqi doirasini belgilaydi.

Bismarkning Fransiya Tunisni zabt qilishga undab kelgan mo'ljali to'g'ri chiqdi, anneksiya natijasida Fransiya bilan Italiya o'rtasidagi munosabatlar birdaniga yomonlashib ketdi. 1882 yilda Italiya, Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi. Misr va Markaziy Afrikada Angliya bilan raqobatlashishi natijasida Fransiya xalqaro maydonda yakkalanib Fransiya hukmron doiralari 80-yillar boshidan qattiq turib o'tkazib kelayotgan mustamlakalarni zabt qilish siyosati tasodifiy emas edi. Mustamlakachilik ekspansiyasining kuchayishi Fransiyada sanoatni rivojlantirish sur'atlarining sekinligi va moliya kapitalining tez rivojlanib borayotganligi bilan bog'liq edi.

Mustamlakachilik aggressiyasi. Fransiya 1883-yilda, juda noqulay tashqi siyosiy vaziyatda Shimoliy Vetnamni(Tonkin) bosib olish uchun yangi mustamlakachilik urushini boshlab yubordi. Bundan ba'zi bir moliya guruhlar va ular bilan bog'liq bo'lgan respublikachilar, shu jumladan, Bosh vazir Jyul Ferrining o'zi ham manfaatdor edi. Tonkindagi harakatlar fransuzlar uchun noqulay sharoitda olib borildi, tropik kasalliklardan ko'plab askarlar halok bo'ldi. Mustamlakachilik ekspedisiyasi Xitoyga qarshi urushga aylanib ketdi. 1885 yil martida Long-Song yonida fransuz qo'shinlari uchrashdilar. 1891 yilda Gveniya, 1892 yilda Dagomeya, 1894-1896 yillarda Madagaskar bosib olindi.

«Mo'tadil» respublikachilarning mustamlakachilik siyosatini radikallar juda qattiq tanqid ostiga oldilar. Radikallar, ayniqsa, ularning boshlig'i J.Klemanso «Mo'tadil» respublikachilarni ularning mustamlakachilik siyosati Fransiyaning Yevropadagi mavqeini zaiflashtirdi va Bismark «tegirmoniga suv qo'ydi» deb ayblab, mamlakatdagi o'z ta'sirlarini kuchaytirib oldilar.

Fransiya - Rossiya ittifoqi. 1881 yilda Tunisning bosib olinishi natijasida Fransiya-Italiya o'rtasida nizo kelib chiqdi. Italiya Tunisni Fransiyadan tortib olish maqsadida 1882 yili Avstriya-Vengriya va Germaniya ittifoqiga kirib, agressiv «Uchlar ittifoqi»ni to'ldirdi.

Germaniya Fransiya siyosiy jihatdan yakkalanib qolganidan foydalanib «Uchinchi respublika»ga qarshi yangi urush boshlashga tayyor edi. Rossiyaning Fransiyaning qo'llab-quvvatlashi uni urush xavfidan qutqarib qoldi. Buning evaziga pulga muxtoj chor Rossiyasi fransuz kapitalini ola boshladi.

Bu vaqtda Fransiya bilan Rossiya manfaatlarining birligi, mustamlaka bosib olishda Angliya bilan raqobati ularni yaqinlashtirdi. Aytish kerakki, 1879-1883 yillarda tuzilgan va Germaniya boshchilik qilayotgan «Uchlar ittifoqi» Fransiya ham, Rossiyaga ham qarshi qaratilgan edi.

1887-yildan boshlab fransuz diplomatiyasi Rossiya bilan bitim tuzishga zo'r berib harakat qila boshladi. Biroq, Rossiya hukumati Fransiyaning bitim tuzish to'grisidagi taklifini rad etib keldi.

Ijtimoiy harakat. Bu davrda ham mehnat ahlining ahvoli og'irligicha qolaverdi. Turli ishlab chiqarish sohalarida ish kuni 10-12 soatdan 14-16 soattacha borardi. Tirikchilik tobora og'irlashib borgan bo'lsa ham ish haqi oshirilmadi. 1882-yili Fransiyada iqtisodiy inqiroz boshlanib, 1885-yilgacha davom etdi. Ishchilarning ish tashlashlari va kurashining boshqa shakllari avj oldi. 1882 yilda Monsale-Min, Aion, Lill, Rube va boshqa shaharlarda yirik ish tashlashlar bo'ldi.

«Mo'tadil» respublikachilar hukumati qattiq choralar ko'ra boshladi. 1884 yili Anzen konlarida ish tashlaganlarga qarshi qo'shin yuborildi. 1886 yilda Dekarviladagi ish tashlash vaqtida hukumat yana ishchilarga qarshi qo'shin yubordi. 1880-yilda muhojirlikdan qaytib kelgan kommunarlar - blankichilar o'z partiyalarini tuzdilar, bu partiya rasman «Markaziy inqilobiy qo'mita» deb atalsa-da, aslida blankichilar partiyasi deb nom bilan atalaverdi. Partiyaning yo'l boshchisi, Kommuna zamonidagi maorif komissari Eduar Vayyan ozodlik kurashiga astoydil sodiq kishi edi. Ishchi partiyasi rasmiylashtirilgandan keyin oradan ko'p o'tmasdan uning saflarida keskin ikki kurash vujudga keldi. Partiyada ikki oqim: Ged va Lafarg rahbarligidagi inqilobiy oqim hamda «Bruss hamda Malon rahbarligidagi mayda reformistik oqim» tashkil etardi. Opportunistlar Jyul Ged boshchiligidagi ish tashlashlarni qoralab, iqtisodiy masalalarni hal qilishni, demokratik ozodlikni, taraqqiyparvar islohotlarni, umumiy va majburiy ta'limni joriy qilishni talab qilib chiqdilar.

Sotsialistik partiyaning asosan parlamentchilikdan iborat faoliyatidan qanoatlanmagan ishchilar anarxo-sindikalistlar ta'siriga berilib ketdilar. 90-yillarning oxirida umummehnat konfederasiyasida o'rtnashib olgan yarim anarxistlar asta-sekin kurashning nazariy-amaliy usullarini ishlab chiqdilar.

Bu tizim anarxo-sindikalizm nomini oldi. Anarxo-sindikalizm doktrinasi asosan Bakunin va Prudon g'oyalarining aralashmasidan iborat edi.

Anarxo-sindikalizm tarafdorlari siyosiy kurashning barcha turlarini rad etardilar. Ular stachka, boykot, sabotajni bevosita harakatlarining amaliy usullari deb taklif qildilar, hokimiyat uchun kurashning demokratik usullariga qarshi chiqdilar.

Sotsialistik partiyalarning parlamentdan tashqari siyosiy kurash olib borish vositalarini pisand qilmayottanidan norozi bo'lgan inqilobiy kayfiyatdagi ishchilarning ko'pchiligi anarxo-sindikalizm harakati safiga o'ta boshladilar. Fransuz sindikat - kasaba uyushmalarida a'zo bo'lganlarning soni 1900 yilda 492000 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1910 yilda 977000 kishiga yetdi.

«Dreyfus ishi». 1887 yilgi siyosiy tanglikdan keyin J.Grevi o'rniga Sadi Karno (1887-1894) Prezident bo'ldi. Bulantizm Respublikaga xavf tug'dirdi. Mamlakatda Panama kanali aksionerlarining qallobliklari fosh etildi. Ziddiyatlar keskinlashib turgan bir vaziyatda yashirin kurashni demokratiya bilan reaksiya kuchlari o'rtasidagi ochiq jangga aylantirib yuborish uchun salgina bahona ham kifoya qilardi. 1894 yilda Sadi Karno o'ldirilganidan keyin Kazimir Per'e oz vaqt hokimiyat tepasida turdi. Undan so'ng Feliks For (1895-1899) Prezident bo'ldi.

1894-yilda Harbiy sud Bosh shtab kapitani Alfred Dreyfusni Shayton oroliga umrbod qamoqqa surgun qiladi. A. Dreyfus Yahudiylardan bo'lib, fransuz armiyasining harbiy sirlarini Germaniyaga yetkazishda ayblangan edi. Dreyfusni jazoga tortishdan reaksion unsurlar shovinistik tadqiqot uchun, Fransiyada respublikaga, demokratiyaga qarshi kurashda foydalandilar. Haqiqiy josus, vengr avantyuristi Estergazi o'rniga Dreyfusni ataylab jazoga tortgan edilar. Estergazi esa fransuz armiyasining ofitseri bo'lib olgan va aristokrat jamiyat doiralari unga panoh berib yurardilar. 1897 yidda bu ma'lumotlar matbuotga yetib bordi. 1898 yil yanvarda Emil Zolya respublika Prezidenti F.Forga yozgan maktubini e'lon qildi. Bu maktubda oliy harbiy amaldorlar, Bosh shtab va harbiy sud begunoh kishini ataylab jazoga

tortgani aytilgan edi. Mashhur yozuvchining maktubi portlagan bomba singari ta'sir qildi.

Avantюра –(fransuzcha avente «sarguzasht») mavjud shart-sharoitlarni hisobga olmasdan, tavakkal ish tutish va uni barbod bo'lishi.

Reksion militaristik guruh Zolyaga qarshi hujum boshladilar. Fransiya shon-shuhrat keltirgan yozuvchi sudga berildi. Uch hafta sud bo'lganidan keyin Zolya o'z vatanidan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Reksion millatchi bandalar Parij va boshqa shaharlar ko'chalarida demokratlarni va «Dreyfus ishi» ni qayta ko'rish tarafdorlarini urib, o'zboshimchalik qildilar. 1898 yilning fevralida F. For to'satdan vafot etdi. «Mo'tadil» respublikachi Emil' Lube (1899-1906) Prezident etib saylandi. U «Dreyfus ishi» ni qayta ko'rish tarafdori edi. 1899-yil 2-iyunida yangi hukumat tuzildi, bu hukumat o'zini «respublikaga homiy hukumat» deb atadi, unga Valdek Russo boshchilik qildi. Kommunistlarni «qonga botirgan» jallod, general Galife bu hukumatda harbiy ministr bo'lib qoldi, respublika tarixida birinchi marotaba sotsialist Mileran savdo ministri qilib taklif etilgan edi. Mileran respublikani himoya qilish, islohotlar o'tkazish uchun harakat qilaman deb ta'kidladi.

Valdek Russo hukumati demokratiya kuchlariga yarim- yorti yon berish taktikasini ham qo'llab keldi. Dreyfusning gunohi kechirildi. Galifening armiyaga bergan buyrug'ida «mojaro tugatildi» deb e'lon qilishgan edi.

Valdek Russo, Mileran hukumati mamlakatda keskinlashib boryotgan siyosiy vaziyatni biroz yumshatib, burjuazianing mamlakat siyosiy hayotidagi rahbarlik pozitsiyalari mustahkamlanib olishiga yordamlashdi.

XX asr boshlarida Fransiya

90-yillarning o'rtalaridan boshlab Fransiya sanoatida yuksalishi boshlanib, u Birinchi jahon urushigacha davom etdi. Temir ruda qazib chiqarish 1900-yildagi 5,4 mln tonna 1913-yilda 22 mln tonnaga yetdi. Bu sohada Fransiya, Germaniya, AQSH va Belgiyadan o'zib ketdi. Sanoatning yangi tarmoqlari-elektro texnika, avtomobil, kimyo ancha rivojlandi. 1912 yilda aholining 40% qishloq xo'jaligida, 36% sanoatida band edi.

Fransiyaning 1909 yildagi eksportda tovarning qimmatligi jihatidan jun birinchi uringa chiqib oldi. Ip-gazlama ikkinchi o'ringa, shoyi gazlama uchinchi o'ringa, fransuz vinolari to'rtinchi o'rinda turardi. Kimyo sanoatining mahsulotlari sakkizinchi va avtomobillar sotish to'qqizinchi o'rinda edi.

Ammo ishlab chiqarish konsentrsiyalashishi darajasi jihatdan Fransiya, AQSH va Germaniyadan orqada qolayotgan edi. Fransiya kredit-pul kapitali tez o'sib katta qudratga ega bo'ldi. XX asr boshlarda u bir necha bank-moliya tizimi ustidan hukmron bo'lib qoldi. 1914 yilda banklarga qo'yilgan 11 mlrd. frank pulning 8 mlrd. 5 ta bankda to'plangan edi. Qog'oz pullar chiqarishni esa 4 ta bank-Lion kredit, Milliy hisoblash idorasi, Bosh jamiyat, Parij Niderlandiya banki egallagan edi. Chetga kapital chiqarish bo'yicha Fransiya jahonda Angliyadan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Agar 1900 yilda chetga 487 mln. frank kapital chiqarilgan bo'lsa, 1914 yilga kelib bu raqam 1 mlrd. 329 mln. frankka yetdi.

Moliya kapitali Fransiya iqtisodiyotida asosiy o'rinni egallab, mamlakatning siyosiy hayotida katta ta'sir o'tkazdi. Moliya oligarxiyasining yuqori tabaqasi – de Vandeli, Shneyder, Lende, Malle, Vogyue, Roshild va boshqalar birjani mustamlakalar bilan bo'ladigan aloqani, transportni, matbuotni o'z qo'llarida tutib turdilar.

Hukumatning ichki siyosati. Fransiya ijtimoiy harakat. Radikallarning eski siyosiy guruhlarini 1901 yilda birlashib, respublikachi radikallar va radikal - sotsialistlar partiyasini tuzdilar.

1902 yildagi saylovda radikallar Deputatlar palatasida birinchi marta ko'p o'rin oldilar. Radikallar sotsialistlarning bir qismi bilan birgalikda «So'l blok» deb atalgan ittifoq, keyinchalik shu blokka tayanib, Emil Komb (1902-1905) boshchiligidan hukumat ham tuzdilar.

Komb hukumati «Dreyfus ishi» dan saboq olib armiyaning eng reksion monarxiyachi zobitlardan tozalash tayyorgarligini ko'rdi. Shu maqsadda zobitlar to'g'risida ma'lumotlar yig'ilib, mahfiy «ishlar» ochildi. «O'ng» partiyalar bundan norozi bo'lib shovqin-suron ko'tardilar.

Komb hukumati 1905-yil yanvarda iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. «O'ng» radikal Ruve cherkovni davlatdan ajratish to'g'risida Komb tayyorlagan qonun loyihasini to'xtatib qololmadi. Bu loyihasi 1905-yil iyunda har ikkala partiyada qabul qilindi va kuchga kirdi. Shu yilgi ikki yillik harbiy xizmat to'g'risidagi qonun ham qabul qilindi.

1905 yil martida Ruve hukumatni radikal Sarrenga topshirdi. Sarren hukumat tarkibiga ko'zga ko'ringan «taraqqiyotchilar» Puankare va Barte a'zo bo'lib kirgan edi. Hukumat tarkibida birinchi marta Jorj Klemanso Ichki ishlar vaziri etib tayinlandi. 1906 yilgi saylovlarda radikallardan parlamentga 250 ga yaqin deputat saylandi. Ushbu saylovlar mamlakatdagi ijtimoiy kayfiyat «So'lga burilganini» ko'rsatdi.

Vazirlar kengashining yangi raisi, radikallar partiyasining boshlig'i Jorj Klemanso o'z hukumatining oldinigi hamma hukumatlardan farqi borligini uqtirishga harakat qildi. «Dreyfus ishi»da nom chiqargan general Pikar harbiy vazirlikka rahbar bo'ldi. Dreyfus va Pikar bundan oldinroq, 1906 yilda batamom «oqlangan» edilar.

1907 yilda ijtimoiy harakat keskinlashdi. Parijda mart oyida elektr sanoati ishchilari ish tashladilar. Hukumat ularga qarshi qo'shin yubordi. Iyun oyida hukumat poyafzal sanoati ishchilarining chiqishlari kuch bilan bostirildi. Yozda janubiy hududlardagi vino tayyorlovchi dehqonlar orasida harakat boshlandi. Tokzorlarga kasal tegib, uzum hosili nobud bo'lganligi dehqonlarga katta zarar yetkazdi. Natijada mamlakatda soxta, arzon vino ko'payishi ularni xonavayron qildi. Uzumchi dehqonlar ahvolini yaxshilashga hukumatning aralashuvini talab qildilar. G'alayonlar bo'layotgan tumanlarga qo'shinlar yuborildi.

Mahalliy aholidan iborat 17-polk dehqonlar tomoniga o'tdi. Hukumat katta qurolli qo'shin yuborib, bu polklarni qurolsizlantirdi. Harakatni bostirdi. 1908 yil iyulida Klemanso hukumati iste'fo berdi. Mamlakat tepasida «mustaqil sotsialist» A.Brian (1909-1911) hukumati keldi.

1911 yili radikallaridan Monis va Kayo tuzgan qisqa muddatli hukumat hokimiyat tepasiga chiqib olib, «O'ng» siyosat o'tkazdi. Monis hukumati Umummehnat konfederasiyasi tayinlagan 1-may namoyishini taqiqladi. Shampandagi vinochi dehqonlar harakati ham zo'rlik bilan bostirildi.

Puankarening ichki va tashqi siyosati. Xalqaro ahvol tobora keskinlashdi. Bir-biriga qarshi turgan qudratli davlatlar urushga faol tayyorlandilar. 1910 yilda Brian rahbarligida harbiy-dengiz floti qurishning katta dasturi qabul qilingandi. Yirik burjuaziyaning «Qattiqqo'l hokimiyat» tuzishga intilish yanada kuchaydi. 1912 yil yanvarda Kayo hukumati «quladi». Raymon Puankare hokimiyatni qo'lga oldi. 1913 yil yanvarda Prezident saylovlari bo'ldi. Prezident qilib Puankare saylandi.

1913 yil dekabrda radikal-sotsialistlar Bartunini «O'ng» hukumatini ag'dardilar va Dumerg boshchiligida hukumat tuzdilar.

1914 yilgi saylovdan oldin Moliya vaziri Kayoga qarshi kurash boshladilar va Kayo iste'fo berishga majbur bo'ldi. 1914 yil mayida o'tkazilgan saylovlarda «So'l partiyalar ko'p ovoz oldi.

Sotsialistlar partiyasining rahbari Jan Jores urush xavfidan xalqni ogoh etdi. Biroq, Fransiya dunyoga qayta bo'lib olish uchun boshlangan urush girdobiga tortilgan edi. J. Jores urushga qarshi nutqlari uchun 1914 yil 31 iyulda yovuzlarcha o'ldirildi.

Mustamlakalari:

1893 yil-Sahroi Kabirdagi Xartumni bosib oldi va Laos ustidan protektorat o'rnatdi.

1897 yil-Xitoyning Guanchjoun viloyatini

1899 yil-Shimoliy Afrika va Sudan

1912 yil-Marokash ustidan protektorat o'rnatildi.

1914 yilda bu mamlakatlarda 100000 fransuz bor edi.

Bizning nazarimizda Fransiya - insoniyat ruhi ulug'vorligi va aql ziyosi ramzi, jahonda ko'plab atoqli arboblarning yetkazib bergan buyuk mamlakatdir. Fransiya faqat noyob madaniyat va nafis san'at mamlakati, yuksak ma'rifat, turmushning dono falsafasi, insonparvarlik bilan yo'g'rilgan adabiyot va she'riyat mamlakatigina emas, bizning nazarimizda Fransiya jahonda ilk bor erkinlik, tenglik va birodarlik singari oliy maqsadlarini in'om etgan zamonaviy demokratiya vatani hamdir.

Islom Karimov

Nazorat uchun savollar:

1. Urushdan keyingi yillarda Fransiya sanoati.
2. Fransiya qishloq xo'jaligining ahvoli.
3. Hokimiyat uchun kurashning borishi.
4. 1875 yilgi Fransiya Konstitusiyasi.
5. Uchinchi Respublikaning inqirozi.

6. Gersoglar Respublikasi.
7. Fransiyaning tashqi siyosati.
8. Mustamlakachilik agressiyasi.
9. Fransiya-Rossiya bitimi.
10. Ijtimoiy harakatning mohiyati.
11. Opportunistlar va anarxo-sindikalistlarning qarashlari.
12. XX asrda Fransiyada sanoat yuksalishi.
13. Fransiyaning 1 Jahon urushiga tayyorlanishi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., “Sharq”. 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat” 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo’llari va choralari. T., “O`zbekiston” 2009.
4. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O`zbekiston» 1998.
- 5.. Всемирная история в 12 томах. т. 6-12. М. 1960.
6. История Франция. в 3 томах. М., 1972-1973 гг. 1-2 т.
7. Желубовская Э.А. Крушение второй империи и возникновение Третьей республики во Франции М., 1956.
8. Jahon tarixi. T., «Meros» 2004.
9. Yangi tarix III-q. T., «O`qituvchi» 1969.

Reja:

1. Germaniyaning birlashtirilishini tugallanishi. 1871 yilgi imperiya Konstitutsiyasi.
2. Germaniyaning Yevropadagi siyosati. Germaniyaning mustamlakachilik ekspansiyasi.
3. Iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy harakat.
4. Stachkachilik harakati va Sotsial demokratik partiyadagi ahvol.

Tayanch iboralar:

Germaniya imperiyasi. 1871 yilgi Germaniya Konstitutsiyasi. Prussiya gegemoniyasi. Shtatgelder. Landtag. Bundesrat(ittifoq kengashishi). Reyxstag. «Uch imperator shartnomasi». «Koalisialar dahshati». «Uchlar ittifoqi». «Kulturkamf». Kaprivi - liberal kansler. Vilgelm II - bosqinchilik siyosatining jarchisi.«Sharqqa yurish».«Iso qabrini ziyorati». «Bag'dod temir yo'li». «Qora moviy blok». Marokash janjali. Germanlashtirish.

Germaniyaning birlashtirilishini tugallanishi

Fransiya-Prussiya urushi davom etayotgan bir paytda, ya'ni 1871 yilning 18-yanvarida barcha German davlatlarining monarxlari Versalga to'planib, Prussiya qiroli Vilgelm I ni Germaniya imperatori deb e'lon qildilar. Ilgari shimoliy german ittifoqiga kirgan davlatlarga yana to'rtta Janubiy german davlatlari qo'shildi, bularning eng yirigi Bavariya edi. Shunday qilib, reaksion Prussiya monarxiyasi rahbarligida Germaniyaning birlashuvi tugallandi. Yagona va yaxlit Germaniya imperiyasi barpo qilindi.

1871 yil aprelida Ta'sis Reyxstagi umum german Konstitutsiyasini qabul qildi. Germaniya imperiyasi ittifoqchilar davlati bo'lib qoldi. Imperiya tarkibiga o'zining qiroli yoki knyaz sulolasi bilan 22 monarxiya va 3 erkin shahar: Lyubek, Bremen va Gamburg kirdi. Elzas va Lotaringiya imperiyaga hokim (shtatgalter) tomonidan idora qilinadigan «maxsus imperiya viloyati» bo'lib kirdi, bu hokimni imperatorning o'zi tayinlardi. Imperiyaga kirgan ayrim davlatlar o'z konstitutsiyalari, vakillik muassasalari(laydtaglari)ni saqlab qoldilar. Davlat bajargan vazifalarning faqat ba'zi bir qismi - cherkov faoliyati, ma'rifiy ishlar, «to'g'ri» soliq solish, ma'muriyat ishlari ularning o'z sho'lida qoldirildi. Bavariya armiyasini idora qilish uchun cheklangan huquqqa ega bo'lib qoldi. Imperiya konstitutsiyasida ittifoqchi davlatlarda xalq vakolatini kengaytirish nazarda tutilmagan edi.

1871 yilgi Konstitutsiyaga muvofiq, ittifoq miqyosida qonun chiqarish huquqiga ega bo'lgan umum imperiya hokimiyati Imperator va Imperiya kansleri qo'lida to'plangan edi. Imperiyaning oliy vakolatli muassasalari Ittifoq Kengashi (Bundesrat) bilan Reyxstag edi. Imperiya Konstitutsiyasi shunday tuzilgan ediki, unda yangidan birlashgan Germaniyada Prussiya gegemonligi mustahkamlangan edi. Imperator imperiyadagi barcha Qurolli kuchlarga Bosh qo'mondon bo'lib, o'zi urush e'lon qilar, sulh tuzar, xalqaro munosabatlarda Imperiya nomidan ish ko'rardi. Imperator o'z ixtiyori bilan Reyxstag va Ittifoq Kengashi sessiyalarini chaqirish, ochish, tarqatib yuborish yoki muddatni cho'zish huquqiga ega edi.

Germaniyaning birinchi Imperiya kansleri Otto Bismark edi. U davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo'lmagan Vilgelm I ni o'ziga tamomila bo'ysundirib olib, deyarli 20 yil davomida (1871-1890) mamlakatda cheksiz hokimlik qildi.

Germaniya Konstitutsiyasida ko'rsatilganidek, umummiy saylov huquqi faqat nomigagina umumiy edi. Harbiy xizmatchilardan tashqari, 25 yoshga to'lgan erkaklarga saylov huquqidan foydalanar edilar. Xotin-qizlar saylov huquqidan mahrum edilar. Qonun chiqarish tashabbusi Reyxstag qo'lida edi. Lekin ittifoq kengashi va Imperator Reyxstag qarorlarini tasdiqdamaslikka huquqli bo'lganlaridan,Reyxstag tashabbusi e'tiborsiz qolardi.

Germaniyadagi katolik ruhoniylar ayniqsa uning qo'l ostidagi Polsha, Elzas va Lotaringiyada Bismarkning prusslashtirish siyosatiga qarshi harakatlar kuchayganligi uchun Bismark 1872 yil mayda ruhoniylar faoliyatini cheklaydigan qonun chiqarib oldi. Katoliklar cherkovi va ularning organi "Doychland" gazetasi unga qarshi kompaniya boshladi. "May qonunlari" ularni sindirish uchun qabul qildi. Bu konunga muvofiq ruhoniylarning maktablar ustidan nazorati bekor qilindi.Ularning tashviqot, da'vati ta'qiqlandi. Ularni tayyorlash davlat tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi. Cherkov nikoh,tug'ilish va o'lim holatlarini qayd etishi bekor qilindi va davlatga o'tkazish uchun Bismarkning katolik cherkoviga qarshi kurashish tarixda "Kulturkemor" "madaniyat uchun kurash" deb nom olgan. Izeutlar va itoasiz ruhoniylarga qarshi kurash ana shu nom bilan atalgan.

Germaniyaning Yevropadagi siyosati. Mustamlakachilik ekspansiyasi

Germaniya xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytirish Bismark o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. 1873-yilda Germaniya, Rossiya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq to'g'risida shartnoma - «Uch imperator shartnomasi»ni tuzdi. Bismark 1875 yilda Fransiya 1871 yildagiga nisbatan ham ko'proq qaramlikka olish va uni Germaniya vassali holiga tushirish uchun unga qarshi urush boshlashga tayyor turgan edi. Bismark yangidan vujudga kelgan fransuz armiyasini tortib olingan Elzas va Lotaringiya uchun qasos oluvchi armiya deb bilib, Fransiya hali batamom mustahkamlanib olmasdan, u bilan urush boshlashga shoshilmoqda edi. Rossiya bilan Angliya Germaniyaning kuchayib ketishini istamas edilar, shu sababli Bismarkka Fransiya yangidan tor-mor keltirishga yo'l qo'ymasliklarini bildirib qo'ydilar. Germaniya chekindi.

Germaniya ikki frontda urush qilishdan qo'rqardi. U «kaolisiyalar dahshati» tinchimni buzayapti, deb, ayniqsa, Rossiya bilan urushishdan cho'chirdi. 1879 yilda Germaniya Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi. Bismark Rossianing Fransiya bilan yaqinlashuviga xalaqit berish niyatida 1881-yili «Uch imperator ittifoqi»ni tiklashga muvaffaq bo'ldi. 1882-yilda Avstriya-Vengriya - Germaniya ittifoqiga qo'shimcha qilinib, Germaniya va Avstriya-Vengriyaning Italiya bilan ittifoqi tuzildi. Italiyaning ittifoqqa kirishiga sabab, Fransiya bilan munosabatlarining keskinlashuvi edi. Chunki, Fransiya Italiya da'vo qilib yurgan Tunisni 1881-yilda bosib olgan edi. Avstriya-Vengriya imperiyasi esa bu vaqtda Bolqon yarim orolida Rossiya bilan raqobatlashmoqchi edi. Shunday qilib, uchta teng maslakdosh kuchlar birlashib, 1882 yili harbiy ittifoq, «Uchlar ittifoqi»ni tuzishga erishdilar.

Endilikda Germaniya Fransiya va Rossiyaga qarshi qaratilgan koalisiyaga bosh bo'lib oldi. Bismark o'z siyosiy rejalarini amalga oshirish yo'lida Rossiyani asosiy g'ov deb bilar, qanday bo'lmasin Rossiyaga zarar yetkazishni mo'ljallardi. Shu maqsadda Angliya bilan Turkiyani Rossiyaga qarshi gij-gijlay boshladi.

Bismark bir vaqtda ikki frontda, ya'ni ham Fransiya ham Rossiyaga qarshi kurashish oson emasligini anglardi. Karl XII va Napoleon I kabi mashhur sarkardalar ham Rossiyada mag'lubiyatga uchratganini yaxshi bilardi. U shuningdek, chorizm Rossianing taraqqiyotiga g'ov bo'layotganini ham tushunardi. Shuning uchun qulay payt kelganda Rossiyadagi reaksiya unsurlari qo'llab-quvvatlashiga harakat qilardi. Uning ishini davom ettirgan Kaprivi Germaniyaning tashqi siyosatiga juda muhim o'zgarishlar kiritdi. Kaprivi sanoat egalari siquvi ostida Avstriya-Vengriya bilan savdo shartnomasini tuzdi. 1894 yili Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan ham shunday shartnomalar tuzildi. Mamlakatga qishloq xo'jalik mahsulotlari keltirishdan olinadigan bojlar birmuncha kamaytirildi. Kaprivi siyosati va ayniqsa, Rossiya bilan savdo shartnomasining tuzilishi yunkerlarni g'azablantirib yubordi. Ular nima bo'lsa ham «Liberal» kanslerni olib tashlashni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ydilar. 1893 yilda katta yer egalari tomonidan tuzilgan «Qishloq xo'jayinlari ittifoqi» se'yzida yunkerlar Kaprivining «yangi» yo'lga qarshi norozilik bildirdilar. 1894-yilda Kaprivi iste'fo berdi.

1891 yilda shovinistik tashkilot - German ittifoqi tuzildi. «Qirol Prussiya ustida, Germaniya ustida, Germaniya dunyo ustida» -degan shior ilgari surildi.

Germaniya Yevropa urushiga tayyorlanishi bilan birga yirik German kapitalining talabiga ko'ra mustamlakalar bosib olishga kirishdi. 1882-yil Bremen savdogarlari Afrikaning janubi-g'arbiy sohilidagi Angra-Peken buxtasiga keldilar. Ular 200 ta eski miltiq va 2000 marka badaliga yerli qabila boshlig'idan anchagina hududni sotib oldilar. Germaniya bu yerni 1884 yil aprelda o'z protektorati deb e'lon qildi. Afrikaga amaldorlar va soldatlar yuborildi. Ularning Yangi yerlarni bosib olishga urinishi mahalliy xalqning qattiq qarshiligiga uchradi. Mustamlakachilar qurol ishlatdilar. Nemis qo'shinlari afrikaliklar manziliga to'satdan hujum qilib, aholini vahshiylarcha qirdilar.

1884 yil yozida Germaniya Afrikaning o'rta qismidagi Togo va Kamerun hududlarini, 1884 yil avgustda Gvineyaning shimoliy qismini va unga yondosh orollarni bosib oldi. 1885 yilda esa Afrikaning sharqiy qismidagi hududlarni va Zanzibar orolini zabt etdi. Bu hudud «Germaniya sharqiy Afrikasi» degan nom oldi.

XIX asrning 90-yillarida Germaniyaning tashqi siyosatida Yangi davr boshlandi. German hukmron doiralari o'z hududlarini kengaytirish uchun urushga tayyorlana boshladilar. Imperator Vilgelm I davrida Bismark imperiya siyosatini teng huquqli rahbari edi. Vilgelm I ning nabirasi Vilgelm II taxtga o'tirgach, ko'p narsa o'zgardi.

Vilgelm II Germaniya hukmron doiralari bosqinchilik siyosatining «jarchisi» va faol amalga oshiruvchisi bo'lib chiqdi. Sotsial-demokratlarga qarshi kurashda Bismark usullarining muvaffaqiyasizlikka uchraganligi, tashqi siyosatda, ayniqsa rus-german munosabatlarining yomonlashuvi Bismark siyosatiga qarshi kuchlarni yuzaga keltirdi. Qat'iyroq mustamlaka siyosati yurgizishni talab qilgan yirik burjuazianing harakati bilan 90-yillarning oxirida Xitoyning Szyaochjouvan ko'rfazi va Shandun yarimorolining bir qismi bosib olindi.

O'sha vaqtdayoq Germaniya Tinch okeanidagi Karolina, Marianna orollarini va Samoa orolining bir qismini egallagan edi. Bundan oldin, 1885 yilda u Marshall orollarini qo'lga kiritgan edi.

1900-yilda Germaniya boshqa g'arb davlatlari bilan birga Xitoyda milliy ozodlik harakatini bostirishda ishtirok etdi. Xitoyda German jazo qo'shinlari general Valderze boshchiligidagi deyarli qurollsiz bo'lgan xitoyliklarga nisbatan mudhish yovuzliklar qilib, ayollar va bolalarni o'ldirdi. Imperator Vilgelm II Xitoyga qo'shin yuborar ekan, yuzsizlik bilan shafqat qilmaslikni, asir olmaslikni tavsiya qildi, «toki bundan buyon, hatto ming yildan keyin ham Xitoy nemisga ola qarolmaydigan bo'lsin» dedi. Chunki, Xitoyda nemis vakili Ketteler o'ldirilgan edi. 1895 yil Shimoliy dengizni Boltiq dengizi bilan tutashtirgan Kil kanali ochildi. 1898 yilda Reyxstag harbiy flot qurishning keng dasturini qabul qildi.

Afrikada «bizni quruq qoldirishdi» deb hisoblagan German hukmron doiralari «qo'ldan ketganlarning» o'rmini Yaqin Sharqda to'ldirmoqchi bo'ldilar. Ular Sharqqa intilganlarida Kichik Osiyo, Suriya, Mesopatamiya va Falastinda joylashib olmoqchi edilar, chunki bu yerda dunyodagi eng boy neft konlari, g'alla va paxta xom ashyosi bor edi. Nemis bankiri Simens tashabbusi bilan Berlinni Fors qo'ltig'i bilan bog'lovchi temir yo'l qurish rejasini tuzildi.

Germaniya Sharqqa, Turkiyaga, slavyan xalqlariga yurishini Sharqqa yurish» shiorida ifodaladi. 1898 yilda Vilgelm II «Hazrati Iso qabri»ni ziyorat qilish bahonasi bilan Falastinga bordi. U safar vaqtida Turkiya sultoni bilan uchrashib, reja orqali Bosfordan Kichik Osiyo orqali Bag'dodga va undan Fors qo'ltig'igacha temir yo'l qurish to'g'risida kelishib oldi. Bu yo'l «Bag'dod temir yo'li» deb ataladigan bo'ldi. 1903 yilda Turkiya bilan Germaniya o'rtasida bu to'g'rida yakunlovchi bitim imzolandi.

Angliya Germaniyaning Turkiyaga yaqinlashuvidan tashvishga tushib qoldi, chunki uning o'zi Arabiston bilan Mesopatamiyani bosib olish niyatida edi. Bundan tashqari, nemislarning Fors qo'ltig'iga chiqishi Angliyaning Hindistondagi manfaatlarini xavf ostida qoldirardi. Angliya «Bag'dod temir yo'li»ning Fors qo'ltig'iga chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun 1901 yilda Quvayt ustidan protektorat o'tkazdi.

Nemis hukmron doiralarning rejaları qudratli davlatlar -Fransiya va Rossiya o'rtasida keskin nizo chiqishiga olib keldi. Germaniya zo'r berib qurollanishni boshlab yubordi. Armiya soni keskin kuchaytirib yuborildi. Reyxstag katta harbiy kemalar qurishga va suv osti floti uchun yangidan-yangi mablag'larni tasdiqlab turdi.

Iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy harakat

Germaniyaning birlashtirilishini tugallanishi yagona ichki bozorni vujudga keltirdi. Sanoatning o'sishiga Germaniya Fransiya dan olgan 5 mlrd. frank kontribusiya(tovon)erdam berdi. Ko'p sonli korxonalar Germaniyadan oldinroq industrilashtirish yo'liga o'tgan davlatlardagiga qaraganda ancha mukammal, yuqori unumli eng yangi texnika bilan bilan qurollantirildi. Sanoatning tez rivojlanishi hamda ishlab chiqarishning tobora yirikroq korxonalarda tezlik bilan to'planishi jarayoni iqtisodiyotning eng xarakterli xususiyatlaridan biridir. Masalan, Germaniyada 1895 yilda har mingta sanoat korxonasidan 6 tasi yirik, ya'ni 50dan ortiq ishchisi bo'lgan korxona edi.

1907 yilda Germaniyada ming va undan ortiq ishchisi bo'lgan korxonalar 586 ta edi. Jami ishchilar sonining qariyb o'ndan bir qismi (1,38 mln.) bug' va elektr kuchlarining qariyb uchdan bir qismi shu korxonalarda edi. Moliya kapitali va banklar bir xovuch eng yirik korxonalarining bundan ustunliklarini tag'in ham oshirib, millionlab mayda va o'rta korxonalarni bir necha yuz «millioner» moliyachilarga qaram qilib qo'ydi.

Germaniya qudratli industrial davlat bo'lib qoldi. Moliyaviy guruhlar yana ham ko'proq foyda olishga harakat qilib, o'z kapitallarini rivojlanayotgan sanoatga sola boshladilar. Ko'mir qazib chiqarish, cho'yan va po'lat eritishning deyarli barchasini 4 ta monopoliya nazorat qilardi. Monopolistlarning ikkita guruhi deyarli butun Kime sanoatini, yana ikkitasi elektr sanoatini nazorat qilardi.

1914-yilga kelib Germaniya 1871-yilga qaraganda sanoat mahsulotlarini deyarli 7 barobar ko'p ishlab chiqarmoqda edi. Sanoat ishlab chiqarishning hajmi bo'yicha u Fransiya ortda qoldirdi. XX asr boshlarida esa u Angliyadan o'zib ketib, jahonda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

Qishloq xo'jaligida haydov yerlarining 25%igacha ega bo'lgan pomeschiklar yollanma ishchi kuchidan, eng Yangi mashinalar va o'g'itlardan foydalana boshladilar, kam yerli dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning yarim feodal usullaridan voz kechilib, zamonaviy munosabatlar joriy etildi.

XX asr boshlarida Germaniyada ishga yaroqli aholining asosiy qismi sanoatda band bo'lib, ishchilar sinfining ko'pchiligini tashkil etar edi. Mehnat unumdorligi 40 yil ichida deyarli ikki baravar oshdi. Lekin ish haqi bor yo'g'i 15% o'sdi. Umuman, yollanma mehnatchilar bilan yirik "mulkdorlar o'rtasidagi har tomonlama ziddiyat chuqurlashib boraverdi.

Monopolistik kapital hukmronligi ishchilarning ahvolini yanada yomonlashtirdi. Nemis ishchilarining ish haqi Ingliz va Amerika ishchilarining ish haqidan ancha past edi. Germaniyada 1900-1903 yillarda yuz bergan inqirozlar ishchilar ahvolini og'irlashtirdi va katta ishsizlikka sabab bo'ldi.

Germaniya ishchilarining korxona egalari qarshi qattiq kurashlari natijasida ish haqini bir qadar oshirishga va ish kuchini bir oz kamaytirishga erishildi.

1900 yilda ish kuni 11-12 soat davom etgan bo'lsa, 1904-1914 yillarda ish kuni 9,5 soatga tushirildi. Ayniqsa, ayollar, o'smirlar, bolalar qattiq ezib ishlatilar edi. Ular erkaklarga qaraganda 30-50% kam ish haqi olar edilar.

Ishchilar turmush tarzining yomonlashuvi mamlakatda noroziliklarning o'sishiga sabab bo'ldi, ayniqsa, 1905-1907 yillardagi Rossiyadagi inqilob nemis ishchilar harakatiga ta'sir etdi. Ish tashlash va boshqa noroziliklar kuchaydi.

1900-yilda keksayib qolgan kansler Gogenloe (1894-1900) o'rnini F.Byulov (1900-1909) egalladi. U Prussiyada saylov tizimini demokratlashtirish haqidagi talabni qat'iyon rad etdi. 1902-yilda yunkerlarga xushomad qilib, Reyxstag tasdig'idan yangi bojxona ta'rifini o'tkazib oldi. Bu ta'rif sotsial-demokratlar tomonidan «sudxo'rlik ta'rif» deb ataldi. Joriy qilingan bojxona ta'rif yunkerlarga kamida qo'shimcha ravishda 1250 mln. marka foyda keltirardi. Nemis mehnatkashlariga yirik pomeschiklar foydasini ko'zlab yangi o'lpon solindi. Reaksion prusschilik ruhi Byulovning milliy siyosatida ayniqsa, yorqinroq namoyon bo'ldi. Shlezvig va Polsha

viloyatlarida milliy maktablar yopib qo'yildi. Muassasalarda va jamoat joylarida daniyaliklar va polyaklar tilida gaplashish taqiqlandi, shaharlar va qishloqlarning azaliy nomlari o'zgartirildi.

Polyaklarning yerini majburan tortib olib, nemislarga berish haqida qonun chiqarildi. 1906-yilda 100000 dan ortiq polyak bolalari norozilik sifatida maktablarga borishdan bosh tortdilar. Polyak o'quvchilariga qarshi qatag'on boshlandi. Elzas va Lotaringiyada qattiq tartib o'rnatildi. Bu yerda nemis ma'murlari fransuzlarning milliy or-nomusini, madaniyatini tahqirladilar. Byulov kanellerligi davrida ommaviy ijtimoiy harakatning yanada yuksalishidan xavotirlanishi yunkerlar va yetakchi partiyalar ni yanada yaqinlashtirdi.

Byulov iste'fosidan so'ng imperiya kansleri qilib, prussiyalik amaldor Betman Golvel (1909-1917) tayinlandi. Betman Golvel kanslerligining dastlabki yillarida Reyxstagda markazning konservatorlar bilan «qora-moviy bloki»ga tayanib ish ko'rdi. bu reaksiyon blok qanday islohotlarning dushmani edi. 1907 yilgi rus -ingliz bitimi imzolanganidan so'ng ingliz, fransuz, rus polisiyasi vujudga keldi. Tashqi siyosiy vaziyat mutlaqo Germaniya foydasiga emas edi. Mamlakat ichidagi hukmron sinflar ham daxshatli voqealar arafasida turardi. Ichki ziddiyat tobora keskinlashayotgan va xalqaro ahvol jiddiy tus olayotgan bir paytda German hukmron doiralari yangi mustamlakalar bosib olish uchun ochiqdan-ochiq harakat boshladilar. 1911 yil yozida ikkinchi Marokash janjali boshlandi. Fransiya bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar shunchalik keskinlashdiki, hatto urush xavfi paydo bo'ldi. Faqat Angliyaning do'q-pupisasigina Germaniya hukumatining chekinishiga majbur etdi.

Ikkinchi Marokash janjalidan keyin xalqaro ahvol yanada keskinlashdi. Kundan-kunga jahon urushi xavfi o'saverdi. Germaniya o'zining Antanta ittifoqidagi raqiblarini tor-mor etishga tayyorlana boshladi.

Ikkinchi Marokash janjalidan keyin xalqaro ahvol yanada keskinlashdi. Bundan foydalangan hukumat Reyxstag orqali tinch davr uchun armiya tarkibini yangidan ko'paytirish haqidagi qonunni tasdiqlatib oldi. 1913 yilda rekrut kontinenti yana 29000 kishiga ko'paytirilib, ikkita yangi armiya korpusi tashkil etildi. Shu bilan birga Reyxstag 8ta linkordan iborat uchinchi eskadra tashkil etishga qaror qildi.

Bu narsa dengiz kuchlari harajatini 107mln. markaga ko'paytirardi.

1914-yilda Germaniyaning dretnoutlari soni 21taga yetdi. Nemis suv osti floti, yangi qal'alar qurila boshlandi, eskilari ta'mirlandi, armiyani qurollantirish kuchaytirildi. Katta harbiy harajatlarga mablag' topish uchun hukumat Yangi soliklar joriy qilina boshladi.

Stachkachilik harakati va Sotsial demokratik partiyadagi ahvol

Moliya oligarxiyasining zo'ravonligi sharoitida XX asr boshlaridan e'tiboran Germaniya sotsial-demokratlar partiyasi xalqning ahvolini yaxshilash, mamlakat hayotini demokratlashtirish uchun reaksiya va militarizmga qarshi chiqishlarini kuchaytirdi. Partiya a'zolarining soni 1900-yildan 1913-yilgacha taxminan 3 baravar ko'payib, 1 mln. kishiga yetdi. GSDP ko'proq kasaba uyushmalari va kooperatorlarga tayanardi.

1912 yilda Reyxstagda bo'lgan saylovda saylovchilarning 34,8%i GSDPni yoqlab ovoz berdi. Reyxstagdagi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlaridagi sotsial-demokratlar soni ko'paydi.

1905-yilda mehnat sharoitini yaxshilashni talab qilgan eng yirik ish tashlash o'tkazildi. Rur konchilari ishtirokida 1906-yilda Gamburgda mehnatkashlarning huquqlari cheklanishiga qarshi mamlakatda birinchi marta ommaviy-siyosiy ish tashlash bo'lib o'tdi. Saksoniya va Prussiyada namoyishchilarning polisiya bilan to'qnashuvlari yuz berdi. Ko'mir qazuvchilarning ommaviy ish tashlashi kengaydi. Qurolli kuchlarning ko'paytirilishiga va urush xavfiga qarshi butun mamlakat bo'ylab miting va stachkalarning qudratli to'liqini bo'lib o'tdi.

XX asrning dastlabki yillarida Germaniyada boshlangan ommaviy ishchilar harakati 1905-yilgi rus inqilobi ta'siri ostida yanada kuchayib, 1914 yilgi jahon urushiga qadar tugatildi. Nemis mehnatkashlari monarxiya asoratiga qarshi demokratiyani kengaytirish, Prussiyada umumiy saylov huquqini joriy qilish uchun tobora keskinroq kurash olib bordilar. 1910 yil martida Berlinda ana shu talablarni qo'ygan katta namoyish bo'lib o'tdi. Otliq polisiya namoyishchilarni qilich bilan chopa boshladi. Ishchilar bu kunni Prussiyaning «qonli yakshanba»si deb atadilar.

Shu yili Germaniyaning Moabit rayonidagi «Kuper» ko'mir firmasi ishchilar soatbay to'lanadigan ish haqini oshirishni talab

qilib ish tashladilar, ularni qo'shni fabrika va zavodlarning ishchilari qo'llab-quvvatladi. 1912 yil Rur viloyatidagi kon ishchilarining 250000 kishilik stachkasi bo'lib o'tdi. Ishchilar 8 soatlik ish kunini joriy etishni, ish haqini oshirishni, xo'jayinlarining mehnat birjalarini tugatishni talab qildilar. Hukumat Rurni polisiya va jandarmlar bilan to'ldirib, to'qnashuvlarda ko'plab ishchilar o'ldirildi va yarador bo'ldi.

Elzas va Lotaringiyada zo'rlik bilan «germanlashtirish» aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. 1913 yil noyabrda o'tkazib kelingan milliy kamsitish siyosati va pruss harbiylarining qo'polli Elzasning Ka Sabern shahri aholisining g'azabiga sabab bo'ldi. Shahar qamal qilinib, elzasliklarni qamali keng avj oldi. u harakatlar umumgerman siyosiy inqiroziga o'sib o'tish darajasiga o'tgan edi.

Nazorat uchun savollar:

1. Germaniya imperiyasi va 1871 yilgi umumgerman Konstitusiyasi.
2. Bismarkning imperiyani mustahkamlashdagi faoliyati Sotsialistlarga qarshi qonun. «Kulturkampf»
3. «Uch imperator ittifoqi».
4. Germaniyaning Yevropadagi siyosati.
5. Mustamlakachilik ekspansiyasi.
6. Vilgelm I ning taxtga o'tirishi va Bismarkka qarshi kuchlar. Sharqqa yurish.
7. Iqtisodiy taraqqiyot.
8. Germaniyada ijtimoiy harakat. Stachkachilik.
9. Germaniya sotsial-demokratiyasi.
10. Umummilliy inqirozning oshishi.
11. 1-Jahon urushiga tayyorgarlik.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq". 1998.

2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat” 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., “O`zbekiston” 2009.
- 4.. Ерусалимский А.С. Внешняя политика и дипломатия германского империализма в конце XIX в. М.,1951.
5. Кучинский Ю. Очерки истории Германии. М., 1952.
6. Бисмарк О. Мысли и воспоминание. М.,1991.
7. Галкин И.С. История германской империи М. 1986.
8. Хрестоматия по новой истории. Под ред. А.А Губера, А.В Ефимова. В 3т. М., 1965.
9. Ерусалимский А.С. Бисмарк. Дипломатия и милитаризм. М.. 1968.
10. Нарочницкая Л.И. Россия и войны Пруссии в 60-х годах XIX в за объединение Германии «сверху». М., 1960.
11. Yangi tarix. III q. T., «O`qituvchi». 1969.

Mavzu: 1874-1914 yillarda Buyuk Britaniya . 2 soat

Reja :

- 1 Angliyaning iqtisodiy sohada orqada qolishi.
2. Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik siyosati.
3. Irlandiya muammosi- ijtimoiy harakat. Tred -yunionlar.
4. Ijtimoiy -iqtisodiy taraqqiyot.
5. Angliyaning tashqi siyosati .
- 6.Angliyadagi siyosiy partiyalar faoliyati. Liberallar partiyasining tuzilishi.
- 7.Irlandiyadagi siyosiy inqiroz.

Tayanch tushunchalar:

Gladston hukumati sanoatda yetakchilik. 70 -yillarda inqiroz mustamlaka-larga bo'lgan siyosat. Angliya - Rossiya ziddiyatlari. Afg'oniston urushlari. Kipr mojarosi. Angliya - bur urushi. Misrni bosib olinishi. Solsberi hukumati. Transilvaniyani bosib olish. Irlandiya muammosi. Irlandiya fenilari. Parnell. Yer- suv ligasi. Parnell xoinligi. Ishchilar partiyalari. Tred - yunionlari. Ishchilarning chiqishlari. London jahon moliya markazi. Sanoat rivoji . Balfur- Kempbell. Lloyd Jorj. Tashqi siyosatda yon berishlar. Antanta bitimi .

Angliyaning iqtisodiy sohada orqada qolishi.

XIX sarning 70 -yillarida Angliyada Gladston boshchiligida hukumat (1864-1874) rahbarlik qilib , u Angliyaning jahonda yetakchiligi o'zgarmasdir, degan tamoyilga asoslanib tuzilgan edi. Bu davrda sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan boshqa mamlakatlardan hali ham ancha ustunligini saqlab qolgan edi. U Grrmaniya , AQSh , Fransiya uchasi ishlab chiqargan metallardan ham ko'p metal eksport qilardi. Angliyaning iqtisodiy qudrati va mustamlaka bozoridan foydalanishi boshqa mamlakatlar 1873-1874 yillarda boshidan kechirgan yangi inqirozning boshlanishini bir qadar orqaga cho'zishga imkon berdi.

Garchi . 1874 yilda Angliyaning eksporti kamaya boshlagan , baholar bir qadar pasayib ishsizlik ko'paygan bo'lsa ham Angliyada inqiroz 1874-1879yillarda ro'y berdi.

Lekin , 1878-1879 yillardagi inqiroz ketidan biron bir kattaroq sanoat yuksalishi bo'lmasdan , 1882 yil oxiriga borib , Angliya iqtisodiyoti navbatdagi inqirozga tortila boshladi .

Angliya iqtisodiyotida tez -tez takrorlanib turgan inqirozlar Angliyaning sanoat sohasidagi hukmronligiga chek qo'yilishini tezlashtirdi .AQSh 1886 yilda po'lat eritish jihatidan 1890 yilda cho'yan ishlab chiqarish 1892 yilda paxta yetishtirish , 1899 yilda ko'mir qazib chiqarish jihatidan Angliyadan o'zib ketdi. Qo'shma shtatlar o'zining ichki bozoridan siqib chiqardi , Germaniya esa tashqi bozoridan va hatto ichki ingliz bozoridagi raqobatdan unga zarbalar berdi. 20 yil mobaynida ya'ni 80 -yillardan tortib XX sar boshlarigacha Germaniya eksporti 41 % ga ko'paygan : AQSH eksport qilish esa ikki martadan ham ziyodroq oshgan holda, ingliz eksporti bor yo'g'l 8 % ga ko'paygan.

XX sarning 70 -90 - yillarida uzoq davom etgan agrar inqiroz Angliyaga jiddiy ziyon yetkazdi.

Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik siyosati .

XIX sardan boshlab Angliya dunyoning barcha qifalarida juda katta hududlarni bosib oldi va ularning o'z mustamlakasiga aylantirdi. 1870 yillarda Angliya mustamlakalarining aholisi 200 mln kishi bo'lgan bo'lsa , XIX asr oxiriga kelib qariyb 370 mln kishiga yetdi. Bu davrda bosib olingan hudud 20 mln kv.km dan 33 mln.kv.km ga yetdi. Mamlakatlardan keladigan daromadlar olinadigan foydaning katta qismini tashkil etardi.

70 - yillarda konservatorlar partiyasi mustamlaka yerlarini kengaytirishning asosiy vazifa deb e'lon qilindi . B . Dizraeli boshchilik qilgan (1874-1880 y) konservatorlar hukumati Osiyoda Belujistonni bosib oldi va Afg'onistonni bo'ysundirishga urindi . Angliyaning maqsadlaridan biri Turkmanistonga va o'rta Osiyoning boshqa viloyatlariga suqilib kirish edi Ammo uning niyatga Rossiya to'sqinlik qilardi . Angliya bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar o'rta Osiyo masalasida Turkiya va Bolqon yarim orolini o'z ta'siriga yuritish uchun kurash olib boorish tufayli g'oyat keskinlashdi.

Turkiyadagi Kipr orolini takab qildi va uni 1876 yilda Angliya anneksiya qildi 1878 yil kuzida konservator hukumati Afg'onistonga qarshi mustamlaka urushi bo'ldi .

Ikkinchi afg'on urushini boshlab yubordi. 1879 yil bahorida Afg'onistonni tutqunlikdagi saqlovchi Gandamak shartnomasini qabul qilishga majbur etdilar. Lekin Afg'onistonda xalq qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Qabuldagi ingliz rezidenti barcha xodimlari va qo'riqchilari bilan qirib tashlandi.

Bu qo'zg'olon afg'onlarning mustamlakachilarga qarshi xalq urushiga aylandi . Biroq , 1880 yilda ingliz mustamlakachilarining " qo'li baland keldi" 1877 yilda Angliyaning Transvaal va Oranj Respublikasini anneksiya qilganligi e'lon qilindi. Natijada burlar qo'zg'olon ko'tardilar. 1881 yilda Zulus qabilalaridan Majub - Xill yonidagi mag'lubiyatga uchrashi inglizlarni Afrikani istilo qilishi bir muncha vaqt kechektirdi. 1879 yilda Dizraeli hukumati Janubiy Afrikada zuluslarga qarshi navbatdagi qirg'in tadbirlarini o'tkazdi.

1880 yilda hokimiyat Gladiston boshliq liberallar qo'liga o'tdi.1882 yilda Angliya Misrni bosib oldi . Bu mamlakatning bosib olinishi Angliyaning Suvaysh kanali ustidan hukmronlik qilishda uning Afrikada yangi mustalakalarga ega bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Inglizlar Sharqiy Sudanni istilo qilish uchun janubga yurdilar. U yerda mahalliy arablarning qarshiligiga duch keldilar. 1885 yilda Sudanliklar Xartumni ishg'ol qilgan inglizlarni qurshab olib qirib tashladilar. Angliyaning faqatgina 1896-1898 yillarda, ya'ni konservatorlar hukumati davrida "Fashoda inqirozi" da g'olib chiqib, Sudanning sharqiy qismini bo'ysindira oldi.

80 — yillarda Transvalda oltin koni topildi. Ingliz kapitalistlari olmos va oltin qazib chiqarishga kirishildi. 1886 yil hokimiyat tepasiga Solsberi boshliq konservativ hukumatga chiqib oldi va bosqinchilik harakatlarini qo'llab - quvvatladi.

Bu davrda g'arbiy va Sharqiy Afrikada Nigeriya va Somalini zabt etish tamomlagan edi. Ulardan Angliyaga qoramol va Yung keltirib turilardi. 1888 yilda Shimoliy Boneo ustidan protektorat o'tmatildi. 1890 yilda S. Rods Kap koloniyasi ministri bo'ldi. U "Uch k" g'oyasini ilgari surdi. (Keyptaun - Qohira - Kalkutta temir yoli loyihasi)

Shu yili Gvenyaning janubiy sharqiy qismi bosib olindi. Afrikada esa Keniya bilan Tanganika zabt etildi. 1890 yilda Uganda ishg'ol qilindi. Solsberi hukumati 1890 yilcla liberallar hukumatiga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Angliya 1895 yilda mag'lubiyatga uchrab, 1899 yilda Bur respublikasiga qarshi agressiyani yana boshlab yubordi. o'zini himoya qilgan Transval hukumati 1899 yil 9 oktyabrda Angliyaga qarshi urush e'lon qildi. 11 oktyabrda unga Oranj respublikasi qo'shildi. 1900 yil yozida Angliya 50 ming burlar armiyasga qarshi 50 ming qo'shin olib keldi. Iyun oyida burlar hukumati urush tamom bo'ldi deb e'lon qildi. Ammo urush harakatlari 1902 yil 1 iyungacha davom etdi. Shunday qilib burlar urushi (1899-1902) Angliya foyda-siga hal bo'ldi.

Irlandiya muammosi.

Angliyaning ichki siyosati keskin masalalardan biri Irlandiya muammosi edi. Irlandiyaning ijaraga yer olib kun ko'ruvchi dehqonlar nihoyatda muhtojlikda yashardilar. Chunki yerlarni XVLL asrdayoq ingliz pomeshchiklari o'zlariniki qilib olgan edilar. Irlandiya bir necha marta ocharchilik bo'lib, minglab irlandiyaliklar ochlik o'ldi. Ko'pchilik irlandiyaliklar tirikchilik qo'yida Amerikaga ko'chib ketdilar. Ochlik, o'lim va ko'chib ketish natijasida aholi 1851 yildagi 6,5 mln kishidan **1900 yilga** kelib 4,5 mln kishiga kamayib ketdi.

60 yillarda oxirida Irlandiya masalasi yana siyosiy masalaga aylandi. Irlandiyada fenilarning tor-mor keltirilishi milliy harakatda irlan burjuaziya sining gegimonlik roli ko'tarilishiga yordam berdi. Irlandiya harakati boshida olsterlik protestant pomeshchik Parnel turdi. 1875 yil Parnell ingliz parlamentiga deputat bo'lib olib, Irlandiya-ga mustaqil idora qilish huquqini berilishini (gomrul) talab qildi.

Parnell muxolifati 70 -yillar oxirida nufuzli kuchga aylandi, bu vaqtda irland dehqonlarining "Yer-suv ligasi" (1879 yil) degan ommaviy tashkiloti shu muxolifatga tyanch bo'lib turgan edi. Saflarida 250 mingdan ortiq a'zosi bo'lgan bu tashkilotga ishchilar orasidan chiqqan Maykl Devid degan sobiq feni rahbarlik qilardi. Icharachilar yerdan haydalisiga javoban "Yer-suv ligasi" Irlandiyadagi ingliz pomeshchiklariga qarshi ommaviy terror boshlab yubordi. Pomeshchiklarning qarshi uyjoylariga o't qo'yildi, erkinlari payhon qilindi. Kurashning lendlordlarga va pomeshchiklar yerdan haydab yuborilgan ijarachilarning yerlarini ijaraga olishga jur'ati yetganlarga baykot qilish singari usullar juda keng rasm bo'lib ketdi.

"Irlandiya inqirozi" ning yangidan paydo bo'lishi Angliya hukumatining ahvolini yana yomonlashtirib yubordi. Hukumatning taklifiga muvofiq parlament ikkita favqulotda "qonun" Xabeas korpusi aktini bekor qilish va qurol-yarog' qidirib shubha bilan tintuv qilish uchun politsiyaga huquq berish to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Gladston irlandlarga gomrul o'rnini "Yer-suv aktini" (1881 yil) taklif qildi. Bunda 15 yil muhlatga renta miqdorini adolat bilan belgilaydigan va ijarachi o'z yer uchastkasini boshqa bir shaxs o'tkazish huquqini beradigan komissiya tuzilishi ko'zda tutilgan edi. Hukumat lendlordlar yerini sotib olish va uni irlandlarga sotish huquqiga ega bo'lib oldi. Bundan faqat pomeshchiklar manfaat ko'rardi: ular yerni juda shartlar bilan davlatga sotardilar yoki qishloq xo'jalik mahsulotlarning bahosi tobora kamayadigan sharoitda 15 yil muddatga renta oldilar. Irland "Yer ligasi" - bu qonunga javoban baykotni kuchaytirib pomeshchiklarini qo'rqitish kompaniyasini boshlab yubordi. 1881 yil oktyabrda Parnell bilan tuzilgan bitimga muvofiq Irland ijarachi dehqonlari pomeshchiklarga renta to'lashni davom ettirishlari va baykotning to'xtatishlari, pomeshchik esa ijarachilarning to'lovlarini "kechib yuborishlari" lozim edi. Bu bitim bilan Irlandiya liberal burjuaziyasi Parnell qo'li bilan dehqonlar harakatiga Irlandiyaga ozodlik harakati negiziga xiyonat qildi.

1882 yil bahorida Irlandiya inqirozi yangi kuch bilan boshlanib ketdi. "Parnellning xoinligi"

Irlandiyadagi mayda terrorchi guruhlarini faollashtirib yubordi.

XIX asrning oxirida jahon agrar inqirozi natijasida ingliz lendlordlari Irlandiyadagi faqat agrar mamlakat holiday saqlab qolish siyosatini o'tkazganiga qaramay, Irlandiyaning shimoliy viloyati Olsterda sanoat rivojlana bordi. Ozodlik kurashchilarining safi kengaydi, ishchilar harakati kuchaydi, kasaba uyushmalari tuzila boshladi. 1898 yili Irlandiya sotsialistlar partiyasi tuzildi. Partiyaning rahbari ziyoli Jeyms Konnoli mustaqil Irlandiya Respublikasi tuzish ishlarini boshladi.

Ijtimoiy harakat. Tred yunionlar .

70 -yillar boshida iqtisodiy yuksalish yillarida ishchilarning o'z binokorlik uyushmasi tuzildi. Ular o'z hukmronlik sinfrariga qarshi kurashda tashabbuskorlik ko'rsatdilar. Ammo ularning kurashidan natija chiqmadi, lekin 1871 yilda Angliyaning shimoliy-sharqiy rayonlaridagi mashinasoz ishchilari kurash boshladilar. Ular dastlat tarqoq holda ish ko'rgan bo'lsalar moddiy ahvolini yaxshilash uchun kurash olib borishlariga qulay sharoit yaratib berdi. Bunda 9 soatlik ish kunini talab qilib, ham keyinchalik 9 soatlik ish kuni uchun bozor konyukturasining baland darajada turganligi, shimoliy - sharqiy sohalaridagi ishchilarning liberal rahbarlardan yuz o'girayotganligi ko'rinda boshladi. Sotsial demokratik federatsiya (SDF) ning ayrim a'zolari ingliz ishchilarining ish tashlash ko'rinishidagi kurashiga katta e'tibor berdilar. Ularning faoliyati natijasida 1887 yil oktyabrida Shimoliy Angliya sotsialistlar federatsiyasi (10 bo'limdan iborat) tuzildi, bu federatsiya bir ozdan keyin SDF ga qo'shildi.

1890 yil Angliyada mustaqil ishchilar partiyasi paydo bo'ldi. 1892 yilgi saylovda Mustaqil ishchilar partiyasi tarafdorlari parlamentga uch nomzodni: Keypr Gardi, Jon Berns Vilyanskiyni o'tkazdilar. 90 -yillarning ikkinchi yarmida ingliz burjuaziyasining mehnatkashlar chiqishlariga harakati mag'lubiyatga uchradi. 80 yillarning oxirida ish tashlashlar birdaniga kuchayeb, bu kurasgadastlab uyushgan ishchilar, mashinasozlar, quruvchilar va to'qimachilar sanoatida turli kasbda ishlovchilar, ko'mir qazuvchilar, po'lat qo'yuvchilar va mashinistlar tortildi. Bu kurash shotland kon ishchilarining katta - katta va uzoqqa cho'zilgan ish tashlashlari ishchilarning mustaqil siyosat yurgizishi uchun tashviqotni kuchaytirishga juda qulay zamin yaratib berdi. Tred - yunionlar kongressi ichida muxolifat eski kasaba uyushmalari arboblardan parla-mentda 8 soatlik ish kunini qonun bilan mustahkamlash uchun kurash olib borishni talab qildi. Muxolifatga sotsial - demokratlar federatsiyasining a'zolari Tom Mann va Liverpulda bo'lgan kongressida muxolifat tegishli qaror (rezolyutsiya) chiqartirishga muvaffaq bo'ldi.

Ishchilar harakati boshlangan burulishning asosiy jihati malakasiz ishchilarni ish ko'lamida tortib ularning tred - yunionlarga kirishini uyushtirishdan iborat bo'ldi. Ist - Enddagi (Londoning kambag'allar yashaydigan rayon) gugurt fabrikasida ishchi ayollarning 1888 yilda bo'lgan ish tashlashi bu harakatni boshlab berdi. Bu harakatning muvaffaqiyatli bo'lishiga sabab shu ediki ishchi ayollartred - yunionlarga birlashgan edilar. 1899 yil boshida Ist - Enddidagi gaz zavodida g'alayonlar boshlandi. 8 soatlik ish kuni talab qilgan gaz sanoati ishchilariga Tom Mann bilan Jon Byorns yordamida keldilar. Ular ishchilarni uyushishi zarurligiga o'z kasaba uyushmalarini tashkil qilishlari tashviqot ishlarini boshqa korxonalari ko'chirish zarurligiga qarata talabnoma yozdilar (8 soatlik ish kuni), seminar soninikamaytirish va ish haqqini oshirishi to'g'risida, uchta gaz kompaniyasi ishchilarning talabiga ko'nishga majbur bo'ldi. Ishchilar uyushqoqlik bilan harakat qilinishining kuchini o'z ko'zlari bilan ko'radilar.

1889 yil London portida ishlovchi dokerlardan 10 ming kishi ish tashlash boshlab, qafiy saqlangach ish haqqi to'lashni, ayniqsa ish haqqi to'lashni va ishchilarni yollanganda aniqlangan eng kam ish soati belgilanishini talab qildilar. Tred - yunion a'zolarining umumiy soni 1888 yildan 1892 yilgacha teng baravar oshdi va 750 ming kishidan 1, 500000 kishiga yetdi.

Ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyot .

XX asrning boshida Angliya jahondagi eng qudratli va eng boy davlatlardan bo'lib, hali ham jahon savdosida birinchi o'rinni egallar edi. Okeandagi kemalarning deyarli yarmi Britaniya imperiyasi bayrog'i ostida suzardi. London jahonning moliyaviy markazi bo'lib, Angliyaning funt-sterling jahon savdosidagi hisob - kitob uchun ishlatiladigan pul hisoblanardi.

Angliya sanoati XIX asrning so'ngi o'n yillaridagiga nisbatan tez rivojlandi. Sanoatning yangi tamoqlari kimyo va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarish ayniqsa tez o'sdi. Chunonchi 1900-1903 yillarda cho'yan eritish 14,5%, ko'mir qazib chiqarish esa 30 % ga o'sdi. 1910 -yilda chet ellardagi ingliz kapitali qariyb 3,7 milliard fund sterlenga yetdi. Bu kapital Angliyada juda katta daromadlar keltirardi. Chetda kelayotgan daromadlar 1912 -yilda 176 ming fund sterlingni tashkil etdi.

Birinchi jahon urushi arafasida Angliyada 12 ta yirik bank barcha bank kapitalining 70 % o'z qo'Miga

olgan edi. Angliya o'z ehtiyojlariga katta mablag' sarfladi, u XX asrning dastlabki 14 yili moboynida 3 baravar ko'paydi. Kasaba uyushmalarining faollashganligi va son jihatdan o'zganligi ishchilar harakatida siljish yuz berganini ko'rsatdi. Tred - yunionlarga a'zo bo'lganlarning soni 1900 yilda 1.955.700 kishi bo'lgan bo'lsa, 1913 yilda kelib 3.987.100 kishiga yetdi.

Birinchi jahon urushigacha ishchilar ahvoli og'irligicha qolaverdi. Ishchilar mustamlakachilik siyosatiga va Angliyaning urushda ishtirokida keskin qarshilik bildirdilar.

Angliyada kapitalizm konsentratsiyasi bilan mamlakat siyosiy hayotida reaksiya kuchaydi. Solsberining konservativ hukumatida (1895-1902) mustamlakalar vaziri lavozimiga Jozef Chamberling tayinladi. U xalq ommasini Britaniyaning mustamlakalariga ega bo'Mishi ingliz mehnatkashlariga foydali, degan asoslash fikrga o'rirlidir.

Konservatorlar hukumati 1900 yil sentabrda parlamentni tarqatib yubordi va burlarga qarshi urushni muvaffaqiyat bilan ta'minlaymiz, degan shoir ostida o'tkazilgan saylovlarda g'alaba qozondi. Tred - yunionlarning 1900 yilda Sadderschilda bo'lgan kongressni Angliyaning janubiy Afrikada olib borayotgan urushni qoraladi. Urush tamom bo'Mgach ingliz burjiaziya saflarida kurash kuchayib ketdi.

Bosh vazir Solsberi iste'fo berdi. 1902 yil iyulda uning o'rnini olgan Balfur Chamberlen g'oyasiga hayrihoh, bo'Msada uni amalga oshirishga botina olmadi.

Liberallarning taktikasi o'z samarasini berdi. 1906 yil dekabrda parlament saylovlarida liberallar ko'p ovoz oldilar. Hokimiyat KompbellBannerman boshchiligidagi liberallar qo'liga o'tdi. 1906 yili hukumat ishchilar harakatining tazyiqi ostida Taff vodiysining ishi yuzasidan chiqarilgan qarorni parlament orqali bekor qildi. Shu bilan birga ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar bo'lgan taqdirda ishchilarga haq to'lash to'g'risidagi oldingi qonunning amal qilish doirasini kengaytirdi. 1908 yilda yer ostida ishlayotgan konchilar uchun 8 soatlik ish kuni joriy qilish to'g'risida qonun va keksa ishchilar uchun nafaqalar to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra 70 yoshga yetgan ishchilarga nafaqa beriladigan bo'Mdi.

Keksa va kasal bosh vazir Kempbell Bannerman 1908 -yilda iste'fo berdi. Uning o'rniga liberal Askvit hokimiyatni boshqardi. Liberallar hokimiyat tepasida 1916 -yilgacha turdilar. Moliya vaziri lavozimini Lloyd Jorj egalladi. 1910 -yildagi saylovlarda ham liberallar g'alaba qozondilar.

Angliyaning tashqi siyosati.

Liberallarning mustamlakachilik siyosati 1905-1911 yillardagi Erondagi inqilobni bostirdi. Xitoyda 1911 -yilgi inqilobga qarshi chiqqan reaksiya kuchlarini qo'llab -quvvatladilar.

Hukumat Hindiston xalqlarining milliy ozodlik kurashini shavqatsizlik bilan jazoladi. 1906-yilda Hindiston Milliy Kongressi partiyasi Hindistonga o'z -o'zini boshqarish huquqini berishni talab qildi. Uning davati bilan ingliz tovarlariga baykot e'lon qilindi. Bu ingliz kapitalistlariga katta zarar yetkazdi. Hind xalqiga qarshi terror siyosati kuchaytirildi. 1907 -yilda Hindistonda yig'Milishlar va matbuotga qarshi qafiy qonunlar qabul qilindi. Yig'ilish qatnashchilarini jazolash kuchaytirildi.

1909 -yilda Hindistonda qonun chiqaruvchi kengashlarning tarkibi kengaytirildi. Hind burjuaziyasining vakillari kengashi tarkibiga kiritildi. Angliyadagi ko'chib borgan inglizlar joylashgan mustamlakalardan Kanada -Avstriya, Yangizellandiya, Janubiy Afrikada mustamlakani olgan milliy burjuaziyaning tazyiqi ostida hukumat bu mustamlakalarga o'z -o'zini -dominionlik huquqini berdi. Bu huquqqa 1866 yilda Kanada erishgan edi.1900 yilda yangi Zellandiya, 1910 yilda Janubiy Afrika ittifoqi dominionlik huquqini oldi. 1901 -yilda Panama kanali masalasida AQSH ga "Yon berish" va AQSH -Kanada chegara masalalari hal qilindi. 1902-yilga kelib, Yaponiya bilan shartnoma imzolandi va unga katta moliyaviy yordam ko'rsatildi. 1904-yili Angliya bilan Fransiya o'rtasida shartnoma tuzilib, u Antanta nomini oldi. Angliya va Fransiya Misr-Marokash masalasi bo'yicha kelishib oldilar. 1907-yil 31-avgust Angliya - Rossiya bitimi tuzildi. O'rta sharq va Erondagi ziddiyat hal qilindi. 1912-yilga kelib Angliya va Fransiya Yevropada urush hafi ro'y bergan taqdirda maslahatlashib harakat qilishga kelishdilar.

Mamlakat ijtimoiy harakatida ikki yo'nalish: inqilobiy va opportunistik kuchlarning kurashi ommaviy harakat yuksalgan sharoitda kuchayib ketdi. 1905-yilning yozida mamlakatda ommaviy metingchilar to'lqini yoyildi, ish tashlashlar harakati kuchaydi. 1905-yilda 93 ming kishi ish tashlashgan bo'lsa, 1906-yilda ularning soni 217 ming kishiga yetdi. 1907 -yil to'qimachilarning, temiryo'Mchilar va mashinasozlarning ish tashlashi yuz berdi. 1910 -yilda ish tashlashning yangi to'lqini boshlandi. Shu yil yozida ish shimoliy sharqiy tumanlaridagi temiryo'Ichilarning, Shodlandiyadagi kemasozlik korxonalari ishchilarining, Lankasher to'qimachilarining, Janubiy Uels konchilarining ish tashlashlari bo'lib o'tdi. Bu

chiqishlar shiddatli tus olib, qo'shini bilan qonli to'qnashuvlar yuz berdi. 1911 -yilda dokerlar ish haqini oshirishni talab qildilar. Iyunda boshlangan kurash avgustda xo'jayinlar tomonidan talabni qondirish bilan tugadi va dokerlar o'z ishlariga qaytdilar. 1912 yilga kelib o'tgan konchilarning zabostobkasi ingliz ishchilarining eng katta chiqishi bo'ldi. Ularga ko'mir qazuvchi ishchilar ko'maklashishdi. Bu harakatda har ikki tomondan bir milliondan ortiq ishchi ishtirok etdi. 1912 -yildan so'ng to'urush boshlangunga qadar Angliyada ishchilar harakati o'sishi davom etdi. Ijtimoiy harakatning keng yo'nalish va yanada yuksalishi natijasida ishchilar ommasini liberallar partiasidan chekina boshladi. Tred yunionlarning 1899 —yilda Plimutda bo'lib o'tgan navbatdagi kongressibundan buyon parlamentga tagMn ham ko'proq ishchilar, deputatlar o'tkazishi yo'llari va vositalarining qidirishi masalasidan maxsus konferensiya chiqarishga qaror qildi.

Angliyada siyosiy partiyalar. Liberallar partiyasining tuzilishi

1900 -yilda Londonda chiqarilgan maxsus konferensiya ishchi deputatlarini parlamentga saylash tashkil etmoq uchun ishchi vakillari qo'mitasini tuzdi. 1905 -yilda qo'mitaning nomi o'zgartirilib unga ishchilar Liberallar partiyasi deb nom berildi. Liberallar 1905-yil parlament saylovida 29 deputatni parlament a'zolariga kiritdilar. Liberallar partiyasiga ta'sir kuchli bo'lgan va Askvit hukumatida moliya vaziri lavozimi egallagan Lloyd Jorj liberallar hukumatining ishchilarga oid siyosatni o'tkazilishining tashabbuskori edi. U liberalistlar partiyasining tuzilishini liberallar hukumatining hatosi deb hisobladi. Kambag'al o'qituvchi oilasida tug'ilgan tog'asi tomonidan tarbiyalangan Lloyd Jorj ingliz -burlar urushi xususida hukumat siyosatini tanqid qilib, mamlakatga tanilgan edi. 1907-yilda Lloyd Jorj byudjet loyihasini parlament tasdig'iga kiritdi. 1911 -yilda Askrit bu palatani ham byudjetini qabul ko'ndirdi. Qirol Eduard vafot etganligi va Georg V taxtga o'ttirganligi munosabati bilan 1910 yil mayida har ikkala partiya liberallar va konservatorlar o'zaro yarashdilar va kelishib ishlashga intildilar. 1910 -yil sentabrda yangi saylovlar bo'ldi, lekin saylovlar umumpalatadagi kuchlar nisbatini o'zgartirmadi. 1911 -yil mayida umumpalata parlamenti isloh qilish to'g'risidagi billni qabul qildi. Liberallar hukumati boshlig'i Askvid (1908-1916) lortlarning qarshiligini yengish uchun yuqori palatasida yangi qonunni yoqlab ko'pchilik ovoz berishini ta'minlaydigan maqsadda yangi lortlar tayinlash to'g'risida qiroldan rozilik oldi. Lordlar bu xavfni ko'rib chekinishga va islohat to'g'risidagi bitimnitasdiqlashga qaror qildi, shu bilan Bill qabul qilindi hamda Georg V uni imzoladi. Yangi qonun lordlar palatasining huquqlarini cheklab qo'ydi.

Irlandiyadagi siyosiy inqiroz

Liberallar o'z o'rinlari konservatorlarning yo'lini tutib, Irlandiyada shavqatsiz zulm siyosatini o'tkaza boshladi. Angliya hukumati Irlandiyani faqat agrar jamiyat holida saqlab qolish siyosatini o'tkazganligiga qaramay Irlandiyaning shimolidagi Olsterda sanoat rivojlana boshladi. Ishchilar harakati o'sdi, kasaba uyushmalari tuzildi. 1911 -yilda Irlandiya temiryo'lichilarining kata ish tashlashi yuz berdi. Bu ish tashlashga Irlandiyada transportchilarning katta 1908 -yilda tuzilgan kasaba uyushmasi boshchilik qildi. Dublin tramvaychilarning 1913 yilda ish tashlashlari ham shiddatli tus oldi . Irlandiya ishchilarining boshqa guruhlar ham bu ish tashlashlarga qo'shildilar. Irlandiya burjuaziyasining savdo sanoat doiralari manfaatini ko'zlovchi guruhi Irlandiyaning iqtisodiy mustahkamligini ta'minlashga qatarildi. Bir muncha kekin talablar qoyildi. Ushbu guruhning rahbari Griffit 1905-yili "Shin feyn" ("Biz o'zimiz") partiyasini tashkil etdi. Mustaqil Irlandiya parlamenti tuzish Irlandiyani iqtisodiy jihatdan darhol ozod qilish yuzasidan tashviqot boshlab yubordi. Feynchilar Angliyani "yon berishga" majbur etish uchun ingliz tovarlarini baykod qilish shiorini ko'tarib chiqdilar. Konservatorlar Irlandiyada yashovchi inglizlardan jangovor guruhlar tuza boshladilar. O'z navbatida Irlandiyaliklar mustaqillik uchun kurashga qo'zg'alib, qurollana boshladilar. Irlandiya fuqarolari urush arafasida turardi. 1914-yilning yozida irlandiyaliklar bilan inglizlar o'rtasida birinchi jang bo'ldi. Angliyada ish tashlash harakatining kuchayib ketganligi Irlandiyada fuqarolar urushi yaqinlashganligi Angliya-Germaniya munosabatlarining keskinlashuvi ularning hammasi Angliyada siyosiy inqiroz boshlanganligini ko'rsatadi.

Nazorat uchun savollar;

- 1 XIX asr oxirida Angliyaning sanoat sohasida orqada qolishi.
- 2 XX asr boshida sanoat yiriklashuvi.
- 3 Milliy ziddiyatlar va ozodlik kurashi.
- 4 Irlandiya muammosi

- 5 Angliya tashqi siyosati.
- 6 Angliya - Rossiya munosabatlari.
- 7 "Antanta bitimi"
8. 1-Jahon urushi arafasida Angliya

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq". 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O`zbekiston" 2009.
4. Vebb S Istoriya tred -yunionizma L.,1974
5. Tarle E .V " Istoriya Anglll v XIX v " M., 1978
- 6 Kol D " Istoriya rabochego dvijenll v Anglll" M.,1980
7. Marton A.L " Istoriya Anglll" M.,1980
8. Yangi tarix LLI qism ., Toshkent 1969
9. Jahon tarixi
10. Usov G .A " Kolonialnaya politika Anglll v nachale XX v" M., 1990
11. Chernyak E . B " Dublinskoe vosstaniye " M.,1985
12. Eradiyev N .A " Ocherki istorll Anglll 1815 1917 " M.,198523 - Mavzu : XIX asr oxiri -XX asr boshlarida

M'ARUZA: XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSH.

REJA:

1. AQSH ning iqtisodiy taraqqiyoti va uning sabablari.
2. AQSH ning ijtimoiy va siyosiy ahvoli.
3. AQSH ning Amerika qit'asi va Tinch okeandan hukmronlik uchun kurashi.

Tayanch tushunchalar:

Sanoat ishlab chiqarishdagi yetakchilik. Raqobat kurashi. Monopoliyalar. Qishloq xo'jaligida rivojlanishning "Amerikacha yo'li". Demokratik erkinliklar. AQSH – Lotin Amerikasi munosabatlari. "Monro -doktrinasi". AQSH –Ispaniya urushi. "Panama" kanali. "Ochiq eshiklar" siyosati. "Teng imkoniyatlar". "Dolor siyosati". "G'arbiy yarim shar politsiyasi". "Katta to'qmoq".

AQSH ning iqtisodiy taraqqiyoti va uning sabablari.

1776 yil 4-iyulda mustaqillikka erishgan AQSH, 1787 yildagi Konstitutsiya asosida demokratik yo'l bilan taraqqiyot sari odimladi. 1861 -1865 yillardagi fuqarolar urushi va qulchilikning bekor qilinishi mamlakatni yana ilgari rivojlanishi uchun yo'l ochib berdi. Buning ustiga AQSH ning o'z hududlarini ancha kengaytirib olgani (1822 yilda Flaridani sotib olinishi, 1848 yilda Meksikadan Texas Nyu-Meksika va boshqalarni tortib olinishi, 1867 yil Alyaskani qo'lga kiritilishi) natijasida bitmas, tuganmas yer osti va yer usti boyliklariga ega bo'ldi.

Ishlab chiqarish kuchlarining tez taraqqiy qilish uchun yangi sharoit vujudga keldi. Bu davr AQSH da kapitalizm tez suratlar bilan rivojlanganligi va sanoat to'ntarishi sodir bo'lganligi bilan harakterlanadi. 1894 yilga kelib, AQSH sanoat ishlab chiqarish jihatidan 1 -o'ringa chiqib oldi. Ilgari Angliyaning mustamlakasi bo'lgan bu o'lka jahondagi eng rivojlangan industrial –agra mamlakatga aylangan.

40 yilda, ya'ni 1899 yilga kelib korxonalar soni 3 marta, ishchilar soni 4 marta, maxsulot ishlab chiqarish 7 marta, ishga solingan sarmoyalar 10 marta ko'paydi. XX asr chegarasida AQSH da sarmoyasi 1 mln. dollordan ortiq bo'lgan 447 korxona bor edi.

Shiddatli raqobat kurashi 1873, 1884, 1893 yillardagi iqtisodiy inqirozlar natijasida juda ko'p mayda korxonalar sinib ishlab chiqarish yiriklashdi.

J.Rokfellerlarning neft maxsulotining 90 % ga ega bo'lgan "Standart oyl" (1870), Julius Spekser Morganning "Tamaki" trest (1884) lari keyin "Amerika paxta moyi", "Milliy zig'ir moyi", "Qand –shakar

trest”lari XX asr boshlarida (1901 yil) tuzilgan. Yana o`sha Morganning 66 % po`lat nazoratida “Po`lat tresti” Dyuponning “Kimyo tresti”, Fordning 1902 yil “Ford motor” kompaniyasi, u traktor, tenis, samalyot va boshqa ishlab chiqargan “Jeniral Motors”dan so`ng 2 o`rinda turadi. Uning tarkibida xarbiy texnika asosiy o`rinni tashkil etadi. Avtambulsozlik nafaqat AQSH da balki jahonda nufuzi katta edi. Morganiyada moliya guruhining ilk banki “Morgan granti tresti” kompaniyasi (1861) bo`lib, u Nyu Yorkda tashkil etildi. Uning 20,4 milliard yuqoridagi bankka tegishli. “Jeneral Mortos”, “Jeneral elektr”, “Yunayted Stats Stil”, “Amerika telefon va telegraf” va boshqa korparatsiyalarni shuningdek ko`mir, to`qimachilik, neft, kimyo va boshqa tarmoqlarni o`z ichiga oladi. Guruh AQSH siyosiy hayotida muhim o`rin tutadi.

1903 yilda Morgan va Rokfeller kompaniyalari AQSH dagi 22 milliard dollor kapitali bo`lgan 112 ta bankni nazorat qilib turgan.

AQSH da kopitalistik ishlab chiqarishning rivojlanishi sabablari:

1. Taraqqiyotga g`ov bo`lgan qulchilikka barham berildi.
2. AQSH da yer –mulk davlat qo`lida edi, xalaqt beradigan qirol ham, zamindor zadagon ham, yer mulki bo`lgan ruhoniylar ham yo`q edi. Masalan, 6,048111.608 akr yer, ya`ni mamlakat butun yer maydonining yarmidan ko`pi hukumat qo`lida bo`lib, u sanoat egalari va bankarlarga suv tekinga berardi; fermerlar ham yer osti boyliklarini arzon narxda sotib olish yoki ijaradan foydalanish imkoniga ega.
3. Hindularning yerlari tortib olindi.
4. AQSH kapitalistlari katta-katta hududlarni bosib olib, yer rentasi to`lamadilar va boyib ketdilar.
5. Tabiiy resurslar ko`mir, temir, o`rmon, neft, mis va boshqa boyliklar ko`p edi.
6. Yevropa mamlakatidan kapitalidan unumli foydalandi.
7. Immigratsiya natijasida qo`shimcha arzon, ishchi kuchi mavjudligi, shu sabab aholi sonining oshganligi.
8. Qishloq xo`jaligida kapitalizm taraqqiyotlarining “Amerika yo`li” g`alabasi.
9. G`arbning tezlik bilan kolonizatsiya qilinishi va temir yo`llar qurilganligi.
10. AQSH mustaqillik va dehqonlar urushidan so`ng urushsiz va katta harajatlarsiz rivojlanish imkoniga ega bo`ldi.

AQSH ning ijtimoiy –siyosiy ahvoli.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida AQSH murakkab ijtimoiy muammolarga duch keldi. Bulardan eng yiriklari mahalliy hindular, negirlar bilan bog`liq bo`lib, milliy masala otkiriligicha qolayotgan edi. Sanoatning tez rivojlanishi yerli hindularda tortib olingan yerlarni mumkin qadar tezroq o`zlashtirish, Sharqiy shtatlar bilan G`arbiy hududlarni qo`shish, undan ishlab chiqarilgan maxsulotlarni bozorlarga sotish, ko`plab temiryo`llar qurishni talab qilardi. Mamlakatda aholi soni tez o`sdi. “Ko`hna dunyo”dan “baxt” qidirib kelganlar bu yerda mashaqqatli mehnatga duch keldilar. Kasaba uyushmalari zaif, milliy ishchilar ittifoqi 6-7 yildan so`ng tarqab ketdi. Ishchilarni himoya qiladigan kuch yo`q edi.

Ishchilar noroziligi ko`payib bordi. 1877 yilda AQSH temir yo`lchilari ish tashladi va u 17 shtatga tarqaldi. Ularga qarshi armiya, politsiya tashlandi. Amalda bu “kichik” fuqarolar urushiga aylandi. Pitsburgda ishchilar hukumat qo`shinlarini yengib, 7 kun shaharga ega bo`ldilar. Sent –Luistda ham ishchilar ikki hafta hukumron bo`ldilar. Nyu York, Ogayo, Indiana, Illinoys shtatlarida qurolli qo`zg`alonlar bo`ldi.

1886 yil 1-mayda Chekako ishchilaridan 350 mingtasi ish tashladi. Ular 8 soatlik ish kuni talab qildilar. 3-mayda ular Senno maydoniga mitingga to`plandilar, ammo politsiya namoyishchilarni o`qqa tutdi,. Bu hunruzlik ommaviy mitinglar namoyishlarni yanada kuchaytirdi. Hukumat ko`plab ishchilarni qamoqqa oldi. 1887 yil 11-noyabrda ishchi rahbarlaridan 4 kishi Parsons, Fisher, Engel, Shpis dorga osildi. Shpis so`ngi so`zida: “Bizning sukunatimiz nutqlarimizdan ham dahshatli bo`ladi” degan edi.

Bu qonli o`ch olish dunyoni larzaga soldi. Jahondagi ishchilar Chekago ishchilari bilan hamkorlik bildirib, shu kunni ishchilarning birdamlik ramzi sifatida nishonlaydigan bo`ldilar. G`arbdagi ba`zi mamlakatlarda bu kunni hozir ham birdamlik kuni sifatida bayram qilib kelishyapti.

1886 yilda AQSH da kasaba uyushmalari “Amerika mehnat federatsiyasi” tahkil topdi. 1867 yilda fermerlarning grenjerlar tashkiloti tuzildi. Uning safida 1,5 million a`zosi bo`lib, 32 shtatda bo`limlari

bo'lgan. XIX asrning 60 yillar oxirida O'rta - G'arbdagi agrar shtatlarda fermerlarning harakati boshlanib ketdi. Bu harakat tarixda Grenjerlar harakati deb nom oldi. "Grensh" – "fermer" degani AQSH da qishloq xo'jaligida noroziliklar fermerlar harakati ko'rinishida bo'lib o'tgan agroshtatlar Illinoes, Vesponsin, Ayova, Minnisota, ko'p o'tmay grenjlar harakati grinbeklarga bo'shatib berildi. Grinbek – "ko'k yelka" dollorining orqa tomoni degan ma'noni anglatadi. Fuqarolar urushidan so'ng mamlakatda 450 milliard qog'oz pul chiqarilgan. Uushdan so'ng bu pullarning kursi 50 % ga tushib ketdi. Bankerlar va omonatchilar uni bekor qilishni talab etdi. Hukumat 1875 yil uni tillaga ayirish va sekin –asta mulklarga chiqish yo'lini tutdi. Ammo fermerlar bunga qarshilik ko'rsatgan edilar. 1875-1876 yillarda grinbeklar ittifoqi tuzilgan edi. Hatto ular 1878 yil saylovlarda 1 mln. Ovoz va kongresda 15 o'rin olgan edilar. Ammo keyin sayovlarda bu partiyaning ta'siri ham, 90 yillarga kelib o'zi ham yo'qolib ketgan edi.

AQSH siyosiy partiyalarinign hukmronligi quyidagicha sodir bo'ldi:

AQSH prezidentlari (1865-1913 yy)

17 –Endryu Jonson (1808-1875, 1865-1869) tikuvchi, senator, respublikachi

18 – Ulyss Grand (1822-1885, 1869-1877) harbiy, senator, respublikachi.

19 – Ratterford Xeyls (1822-1885, 1877-1881) yurist, senator, respublikachi.

20 – Jeyms Garfild (1831-1881, 1881-1x) yurist, senator, respublikachi

21 – Chester Artur (1829-1886, 1887-1885) yurist, senator, respublikachi

22 – Grover Klivlend (1815-1889, 1885-1889) yurist, demokrat.

23 – Benjamin Garrison (1883-1908, 1889-1894) yurist, respublikachi

24 – Uilyam Makkinli (1843-1901, 1897-1901) yurist, respublikachi

25 – Teodor Ruzvelt (1858-1919, 1901-1909) yozuvchi, respublikachi, "Nobel" mukofoti berilgan.

26 – Uilyam Taft (1857-1930, 1909-1913) yurist, respublikachi.

27 – Vudro Vilson (1856-1924, 1913-1921) o'qituvchi, demokrat, Prinston

Universitetining tarix va huquq professori, rektori. Vilson prezidentligi davrida bojlarni 10 % ga kamaytirdi. (Unlervud qonuni), daromadlarning oshib borishiga qarab qo'shimcha soliq joriy etildi, Senatorlarni oldin shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari saylagan bo'lsa, endi xalq saylaydigan bo'ldi, mahalliy banklar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi zahira bank tashkil etildi, 1914 yilda trestlarga qarshi Kleyton qonuni kuchga kirdi. Unda ish yashlash davrid yetgan zararni kasaba uyushmalari talab qila olmasligi ko'rsatilgan edi.

Vielson ham AQSH ning jahonda hukmron bo'lishi uchun katta hissa qo'shdi. U shunday deyishni yaxshi ko'rgan: "Biz yangi davr arafasida turibmiz, bu davrda amerikaliklar dunyoni idora qilishlari kerak". V.Vilson yirik monopolyalarga sadoqat bilan xizmat qildi. U nobel mukofotini olgan.

AQSH ning Amerika qit'asi va Tinch okeanda hukmronlik qilish uchun kurashi.

O'z mamlakatining juda katta resursalarini va Rossiyadan sotib olgan Alyaskani (1867 yil Aleksandr II 7,2 mln. dollorga sotgan) o'zlashtirish bilan band bo'lgan AQSH sarmayadorlari mustamlakalar va o'z ta'sir doiralari qo'lga kiritishga boshqa Yevropa mamlakatlaridan kechroq kirishdilar. Ularning e'tibori Kariib havzasi va Tinch okean mamlakatlarga qaratildi. Bu yo'ldagi birinchi qadam Tinch okeanining Markaziy Osiyoga olib boradigan strategik jihatdan muhim bo'lgan dengiz yo'llari kesishgan joydagi Gavayi orllarini 1898 yilda bosib olinishi bo'ldi. AQSH ning Tinch okeanda hukmronlik kurashi XIX asrning 60 yillarida, aniqrog'i fuqarolar urushidan so'ng boshlandi. 1866, 1867, 1871 yillarda Koreyaga bir necha marta hujum qildi. Nihoyat 1882 yilda u bilan tengsiz shartnoma tuzdi, bu shartnomaga muvofiq Koreya 3 ta portini AQSH savdosi uchun ochib qo'ydi, diplomatik vakillarini qabul qildi va Koreya AQSH fuqarolari uchun daxlsizligini tan oldi. Shunday qilib bu yerga Amerika maslahatchilari, missionerlar, o'qituvchilari va albatta kapitali kirib kela boshladi.

AQSH Samoa orollarini 1889 yilda (Sharqiy Samoani) bosib oldi. Gavaya orollari uchun uzoq kurash olib bordi. U bilan 1875 yil savdo shartnomasi tuzildi. Ammo inglizlar va fransuzlar ham bu strategik qulay joyga ega bo'lishga intildilar. AQSH faol harakat qilib, Gavaya bu shartnomada o'z yeriga uchinchi bir davlarni kiritmaslik majburiyatini oldi. Bu orolda qand ishlab chiqarilardi. Amerikalik qand zavodlari egalik qilib oldi. AQSH bu muhim joyni batamom qo'lga kiritishga qaror qildi. 1893 yil Gavayaga "Dengiz peyodalari" tushurildi, monarxiya ag'darib tashlandi, "amerikacha inqilob" g'alaba qildi, respublika e'lon qilindi va hukumat tuzildi. AQSH shu tarzda va Gavayani zab etdi. 1898 yili Gavaya arxenologi anneksiya qilindi. Qishloq xo'jaligida asosiy tarmoq 1 mln. ga ekin maydoni bor.

Shakarqamish (1 mln. tonna qand), ananas, banan, kofe, gulchilik, sholi, chorvachilik rivojlangan.

XIX asr oxiriga borib AQSH kapitalislari Meksika va Markazi Amerika mamlakatlaridan ancha manfaatdor bo'lib qolgan edilar. AQSH Lotin Amerikasidagi siyosati asosida "Hamma Amerika manfaatlari bitta" degan g'oya yotar edi.

1889 yilda AQSH davlat Departamenti tashabbusi bilan Vashingtonda Panamerika konferensiyasi bo'ldi. Lotin Amerikasi mamlakatlari delegatlari AQSH dan qo'rqanligi va unga ishinchsizlik ko'zi bilan qaraganligi, AQSH ning Amerika davlatlari bojxona bitimini tuzishga qaratilgan harakatini yo'qqa chiqardi. O'zaro qulaylik tug'dirish masalasida ham umumiy bitimga kelinmadi. Birinchi Panamerika konferensiyasining birdan –bir aniq natijasi xalqaro Amerika Respublikalari se'zdi degan asotsiasiya tuzishdan iborat bo'ldi. AQSH ning g'arbiy yarim shardagi mamlakatlar ustidan tanho hukmronlik qilishga qaratilgan bosqinchilik siyosati shu tariqa paydo bo'lgan. 80 yillarda Venesuela bilan Britaniya Gveniyasi o'rtasidagi ziddiyat juda kuchayib ketganda, AQSH "Monro doktrina"sig a tayanib, bu janjalni bartaraf qilishda o'z vositachilik qilmoqchi bo'lganligini Amerikaga taklif qiladi. Janubiy Amerika xususidagi Angliya – Germaniya ziddiyati, Uzoq Sharq Angliya –Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi Angliyani AQSH ga yaqinlashtirdi. 1899 yil Venesuela masalasi hal qilindi.

XIX asr oxirida AQSH nihoyatda qudratli davlatga aylandi. Hokimiyat tepasida mahkam o'mashib olgan guruhlar mamlakatda hukmronlik qilish bilan qanoatlanmay qoldilar. AQSH jahonni hududiy jihatdan bo'lib olishdan ancha kechikkanligi sababli putuxdan ketgan Ispaniya monarxiyasida mustamlakalarni tortib olishni mo'ljalladi. Ispaniyaga qarashli Kuba oroli Amerika kapitalistlarining havasini keltiradi, chunki AQSH ning iqtisodiyotiga ancha kapital sarlagan edi. AQSH Ispaniyaga qarshi urushga tayyorlana boshladi. AQSH fuqarolarining manfaatini himoya qilish bahonasida Kuba sohillariga 1898 yil 15-fevral kechasi Amerika "Meyn" kreseri harbiy kemasi yuborildi. Bu harbiy kema Gavana reydid a turgan joyda noma'lum sababga ko'ra portlab ketdi. Natijada 260 kishi halok bo'ldi. 100 ga yaqin yarador bo'ldi. AQSH hukumati bo'lgan hodisa aybini Ispanlarga qo'ydi va 1898 yil aprel oyida Ispaniyaga urush e'lon qildi. Bu dunyoni qaytadan bo'lib olish boshlagan birinchi urush edi. Urush atiga 3 oy davom etdi va mag'lub bo'lgan Ispaniya monarxiyasining ichidan chiriganligini ko'rsatdi. 1898 yil 10-dekabrda Parijda imzolangan sulh shartnomasiga ko'ra Filippin orollarini AQSH Puerto-Riko, Guvam orollarini oldi. Kuba AQSH ga qaram bo'lib qoldi. Pilippin uchun 20 million dollar pul berdi.

1901 yilda AQSH Angliyani bu hududda egallaganini tan olganligi haqida shartnoma tuzishga majbur bo'ldi. Kanal qurilishidan shug'ullanayotgan fransuzlar bankrotga uchradi va AQSH Fransuz aksionerlik jamiyatining kanalini qurish bo'yicha barcha aksiyalarni sotib oldi. Shu yo' bilan AQSH kanal qazish, foydalanish va boshqarish huquqiga ega bo'ldi. Biroq bu hudud Kolumbiyaga tegishli bo'lib, Kolumbiya senati AQSH ni bu yerdan chiqib ketishini talab qildi va shartnomani ratifikatsiya qilmadi. Shundan AQSH Panamada isyon uyushtirdi va isyonchilarga yordam berish uchun Panama sohiliga harbiy kreyser yubordi. Kolumbiya qo'shinlarining yo'li kesildi. Panama "mustaqil" deb e'lon qilindi, AQSH esa uni darhol tan oldi. Panama hukumati AQSh bilan shartnoma tuzib, kanal va boshqa inshootlar qurish huquqini unga topshirdi. Buning evaziga 10 million dollar pul oldi va yiliga 250 ming dollar renta olib tiradigan bo'ldi. Kanal qurilishi 10 yil (1904-1914 y.y) davom etdi. 1914-yil 15 – avgustda birinchi ishchi kema so'zib o'tdi. 1920-yil 12- iyunda kanal rasman ochildi. Kanal uzunligi 81.6 km. Kema kanalni 4-8 soatda suzib o'tadi. 1 sutkada 36 tacha kema o'tadi.

AQSH XX asr boshlarida jahonda ekspanseya siyosatini kuchaytirib yubordi. 1899 yil sentabrida AQSh davlat kotibi Xeyni Angliya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Fransiyaga yuborildi. U "Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" siyosatini targ'ib qila boshladi.

"Dollar diplomatiyasi" AQSH ning Lotin Amerikasini asoratga solishga qaratilgan siyosati.

"Yordam berish"

"Katta to'qmoq"

"G'arbiy yarim sharning politsiyasi" AQSH Lotin Amerikasi mamlakatlarida tanho hukmronligini o'rgatish uchun kurash olib bordi. Bunda u Monro doktrinasiga tayanib ish ko'rdi. AQSH Prezidenti Teador Ruzvelt (1901 -1909) "Katta to'qmoq" siyosatini ishlab chiqdi va uni o'tkazdi. BU yo'lga muvofiq kongresda "Amerika mamlakatlaridan birida tartibsizliklar ro'y bersa xalqaro politsiya rolini bajarish AQSH ning burchidir" degan so'zlarga amal qildi. Shu bilan AQSH moliya va sanoat kapitalining Lotin Amerikasi mamlakatlariga bostirib kirishiga yo'l ochib berdi.

1907 yilda San-Damengoni tengsiz shartnoma tuzishga majbur qildi. Unga muvofiq bojxona va moliya

nazorati AQSH ga o'tdi. Huddi shu tartib 1911 yil Meksikada joriy etildi. Shu yil oxirida AQSH ning Meksikaga sarflangan kapitali 1,5 milliard dollorga yetdi. Gvatemala, Kosta –Reka, Naharagua asoratli zayonlar bedi. Ularning ichki ishlariga aralasha boshladi.

AQSH iqtisodiy –moliyaviy diplomatik va harbiy tazyiq o'tkazish usullarini sekin –asta ishlata borib, Markaziy Amerika mamlakatlarini yarim mustamlakaga aylantirdi, ular AQSH ga hom-ashyo yetkazib beradigan agrar mamlakatga aylandilar.

“Ochiq eshiklar” siyosati kabilar XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi AQSH diplomatsiyasi siyosatini asosini tashkil etdi.

XX asr boshlariga kelib xalqaro maydonda kuchlar joylashishida yangicha o'zgarishlar bo'ldi. Ilgari iqtisodiy jihatdan ilg'or bo'lgan Angliya, Fransiya bir muncha yosh davlatlar Germaniya, AQSH, Yaponiya tomonidan asta –sekin qisib qo'yila boshladi. Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida Manjuriya masalasida tortishuv kelib chiqdi. Yaponiya bu masalada Angliya bilan bitim tuzmoqchi bo'ladi. Angliya bilan Yaponiya har qanday sharoitda bir –biriga yordam berishga kelishib oldilar. Rossiya –Yaponiya o'rtasida 1903 yil 30-iyunda Tokioda muzokaralar boshlandi. Ruslarning murosa tomon intilishini hisobga olmay, Yaponiya 1904 yil 24-yanvarda muzokaralar to'xtatib, urush e'lon qilmasdan urush boshladi. Urush Xitoy va Koreya hududida avj olib ketdi. Birinchi zarbani Port –Arturga berdilar. Yaponiya –AQSH, Angliya –Yaponiya yordamida urushga yaxshi tayyorgarlik ko'rdi. 1904 yil 20-dekabrda Port –Artur yaponlarga taslim bo'ldi. Qal'ada 17 ming kishi o'ldirildi.

1905 yil Rus floti Sutsima yonida mag'lubiyatga uchradi. Chorizm siyosiy jihatdan zaiflashganligi va harbiy muvofaqiyatsizliklarga uchraganligi tufayli Rossiya –Fransiya ittifoqi Fransiya uchun ahamiyatini bir muncha yo'qotdi. Ana shunday bir vaziyatda Fransiya bilan Angliya “til topishdi”lar. 1904 yil 8-aprelda ular o'rtasida bitim tuzildi. 1907 yil ularga Rossiya qo'shildi. Shunday qilib “Uchlar bitimi” – Antanta degan bitim imzolandi. 1905 yil 23-avgustda AQSH ning Port-Smut shahrida Yaponiya bilan Rossiya o'rtasida sulh tuzildi.

XX asr boshlariga kelib, monopolistik rejalar tashkil topishi jarayoni ko'paydi, bu birlashmalar xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlarini o'z ichiga oladi va mamlakat AQSH prezidenti T.Ruzvelt vositachiligida AQSH ning Port-Smut shahrida sulh muzokaralari bo'ldi. Rossiyadan Soxalin orolining bir qismini Yaponiyaga berishga va Yaponiyaga 1,2 mlrd. ien tovon to'lash talab qilindi. Lekin rus qo'mondonligi bunga ko'nmadi. Faqat Saxolinni bir qismini Yaponiyaga berishga rozi bo'ldi. Bitimga ko'ra Koreya Yaponiyaga o'tdi. Port Artur Yaponiya ijaraga berildi.

1910 yil Yaponiya Koreyani to'la istilo qilib oladi. Yaponiya Birinchi jahon urushiga tayyorlana boshladi.

Nazorat uchun savollar:

1. AQSH ning iqtisodiy taraqqiyoti sabablari.
2. AQSH da monopoliyalarning vujudga kelishi
3. AQSH da ijtimoiy muammolar.
4. Ishchilar harakati,
5. AQSH ning siyosiy ahvoli.
6. AQSH ning Amerika qit'asi va Tinch Okeanida hukmronlik uchun kurashi.
7. “Ochiq eshiklar siyosati”
8. AQSH ning tashqi siyosati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “O'zbekiston buyuk kelajak sari” T. 1988 y.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., “Sharq”. 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat” 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., “O'zbekiston” 2009.
5. Foster U. Негритянский народ в истории Америки. М. 1955 г.
- 6 Foster U. Очерк политической истории Америки. М. 1955 г.
- Бимба А. История Американского рабочего класса. М. 1930 г
- Зубок Л.И. очерки история США. (1877-1918) М. 1956 г.
- Заславский Д.О. Очерк истории США XIX в. М. 1931 г.

Кучиниский Ю. История условий труда в США.
Фонер Ф. История рабочего движения в США. М. 1969 г.
Tursunov X. Amerika prezidentlari. T. "Istiqlol" 2004 y.
Yangi tarix. III qism. T. 1969 y.
Новая история стран Европы и Америки. М. 1998 г.
Хрестоматия по новейшей истории. М. 1969 г.

ma'ruza: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Avstriya - Vengriya.

Reja:

1. XIX asrning oxirida Avstriya - Vengriya iqtisodiyoti va XX asr boshida sanoat yirilashuvi va o'sishi
2. Avstriyada milliy ziddiyatlar va ozodlik kurashi .
3. Avstriya - Vengriyaning tashqi siyosati.
4. Urush arafasida Avstriya - Vengriya .

Tayanch tushunchalar:

Avstriya - Vengriya iqtisodiyoti. Sanoat yiriklashuvi. Chexiya sano-ati. Monopoliyalar. Banklar. Chet el sarmoyalari . Liberal partiya. Vatikan konkardati . Kuriyalar. Milliy ziddiyatlar. Chexiyada milliy kurash . Vengriyada siyosiy kurash . Slavyan xalqlari ozodlik harakati. Gabsburglar monarxiyasi . Xalqlar zindoni. " Uch imperator ittifoqi". Reyxshtad bitimi. Bosniya , Gersogovina anneksiyasi. Reaksiyon siyosat. Uchlar ittifoqi. Iqtisodiy krizis . Jahon urushining tayyorlanishi . Urushga bahona .

XIX asrning oxirida Avstriya - Vengriya iqtisodiyoti va XX asr boshida sanoat yirilashuvi va o'sishi

Gabsburglar sulolasi Avstriyada XIII asr (1282 yil) dan beri hukmronlik qilgan . Bu davrda Avstriyaga Chexiya va g'arbiy Vengriya qaram edi. XVIII asrga kelib butun Vengriya , Transilvaniya, Xorvatiya, Banot, Slavakiya , Bosniya , Buxovina , va Polshaning bir qismi bosib olindi. XVIII asr oxirida Avstriya inqilobiy Fransiya qarshi kurashdi.

1804 yilda Frans II o'zini Avstriya imperatori deb e'lon qilgan. Napoleonga qarshi koalitsiyalarda qatnashdi , ammo yengildi.(1809 yil Vagram) va Triset, Istriya , Kraynya Slovakiya Gabsburgdan ajraldi. Hatto Frans II qizi Mariya - Luizani Napolionga berishga majbur bo'ldi. (1810) va 1812 yil Fransiya bilan bitim tuzdi. Napoleonning mag'lubiyatidan so'ng Avstriya yanada kuchayib ketdi. Oldingi yerlarini qaytarib oldi.

1848 1849 yillar inqilobi davrida Gabsburglar monarxiyasi o'z qudratini saqlab qoldi. Milliy masala hal etilmadi. Inqilob yengildi. 1867 yilda avstriya hukmron doiralari Vengr pomeschchiklari bilan bitim tuzib (Vengriyaga mustaqillik berib) dualistik Avstriya - Vengriya konstitutsionmonarxik byurokratik davlatini tashkii etdi. Avstriya hukmdori endi Avstriya- Vengriyaning imperatori bo'lib qoidi. 1879 yilda Avstriya Vengriya , Germaniya ittifoqi, 1882 yil " Uchlar ittifoqi" (Avstriya- Vengriya , Germaniya , Italiya) tuzildi. Bu shartnomalar avvalo Rossiya va Fransiya qarshi tuzilgan edi.

XIX asrning 60 -70- yillarida Avstriya -Vengriya Yevropadagi eng qoloq mamlakatlardan biri edi. Feoda! ishlab chiqarish munosabatlari hukmronligi sanoat taraqqiyotini sekinlashtirdi . XIX asrning 90 -yillarida ham hali agrar davlatligicha qolgan , aholining 2 \ 3 qismi qishloqlarda yashar, dehqonlar ustidan pomeschchiklar hukmronligi saqlanib qolgan edi . Avstriya -Vengriyaning turli hududlarida rivojlanish turlicha bordi . Masalan, Chexiya bilan Qo'yi Avstriya sanoati ko'proq rivojlangan bo'lsa , Galitsiya , Bukovina va boshqa hududlarda rivojlanish sust kechdi. 70 -90 -yillarda Chexiyada cho'yan eritish yuqori o'rinda turdi . Imperiyada olingan cho'yanning 86% I Chexiyaga to'g'ri kelardi, temir yo'l qurilishi tezlashdi . Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari: laviagidan , qand ishlash , vino qaynatish , pivo pishirish tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotida katta rol o'ynardi . Chexiya imperiya to'qimachilik sanoatining markazi edi. Mamlakatda 134 ta yirik ip gazlama fabrikasining 67 tasi Chexiyada edi . Chexiya Gabsburglar dinastiyasining eng rivojlangan sanoat markaziga aylanib bordi .

1867 yilda tuzilgan Avstriya - Vengriya bitimi Vengriyaning iqtisodiy rivojlanishi uchun ma'um

darajada turtki bo'ldi. Vengriya ko'miri bazasida sanoatning metallurgiya va metall ishlash tarmoqlari rivojlana boshladi. Lekin, Vengriyaning asosiy sanoat tarmog'i oziq-ovqat sanoati bo'lib qolaverdi. 1898 yilda Vengriyaning un tortish, vino pishirish, qand va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi 47,3 % edi.

Avstriya -Vengriya iqtisodiy ko'proq chet el kapitaliga (nemis, ingliz, fransuzlarga) qaram edi.

XX asr boshiga kelib ham Avstriya - Vengriyada sanoat rivojlani-shi Yevropadagi ilg'or mamlakatlardan orqada edi. 1905 -1907 yillarda aholi jon boshiga AQSH da 4,87 t, Germaniyada 3,36 t, ko'mir qazib chiqarilgan bo'lsa Avstriya Vengriyada 0,8 t. ko'mir qazilgan. Cho'yan AQSH da 350 kg, Germaniyada 168,5 kg, Avstriya -Vengriyada esa 29,6 kg ni tashkil etgan xolos.

Shunga qaramay, Qo'yi Avstriya va Chexiyada sanoat yiriklashu-vi va monopoliyalar vujudga keldi. 1912 yilga kelib yirik korxonalarsoni 0,50 % ga oshdi. Aksionerlik jamiyatlari 1885 yildagi 380 tadan 1910 yilda 587 taga etdi. 1912 yilda 200 ta kartel bor edi.

Kapital jamg'arishda Vena banklari: Milliy bank, "Kreditanshtalt" va boshqalar sanoat, qishloq xo'jaligi, aloqa va boshqa sohalarni nazorat qilgan.

Ammo mavjud resurslardan foydalanish yomon darajada, aloqa yo'llari yomonligi savdo va yuk tashishda muammo to'g'dir.

Germaniya va Fransiyaning moliya magnatlari hukmron edilar. Masalan, Germaniyaga "Simens" elektronika, to'qimachilik, oynasozlikda, Fransiya temir yo'l, ko'mir, cho'yan zavodlari, "Shkoda" korxonalari qarashli edi.

Imperiyadagi qadimgi viloyatlar: Vengriya, Galiisiya, Serbiya, Xorvatiya, Slovakiya, Bosna - Gersogovina va boshqalar yarim mustamlaka bo'lib, ularning boyliklari Avstriya - Vengriya banklarini boyitardi.

60 -70- yillarda Avstriyada iiberallar partiyasi hukmronlik qilardi. Shu yillarda bir qancha burjua islohatlari o'tkazildi. Auersperg huku-mati (1871 -1879) Vatikan bilan tuzilgan konkardatni bekor qildi. (?Con-

^arfat kuknmat bitan ^Ritn papasi o'rtasida tuzitQan sfiartnoma). Fuqarolar nikohi joriy qilindi, ruhoniylarni muallimlik huquqlaridan mahrum etdi. 1873 yil saylov reformasi o'tkazildi. Deputatlar 203 tadan 353 taga oshdi, Kuriya -kuriya bo'lib saylash joriyetildi: Avstriyaning hamma aholisi to'rtta kuriyaga bolingan edi: 1. Yirik yer egalari, 1\53 2. Savdo palatasi (yirik sarmoyadorlar), 1\24, 3. Umum - shahar kuriyasi, 1\4000, 4. Qishloq jamoalari kuriyasi 1M2000 ga bo'limdi.

Avstriyada milliy ziddiyatlar va ozodlik kurashi.

Avstriya - Vengriya imperiyasini tuzish to'g'risidagi 1867 yil bitimidan keyin avstris millati uzil-kesil tarkib topdi. Aholining 50 mlnnidan 30 mln o'z huquqlari uchun qahramonona kurashgan slavyan xalqi bo'lsa ham avstris millati ikki davlatdan iborat yagona monarxiyada hukmron bo'lib qoldi.

Chexiya yerlarida milliy kurash anchagina keng quloch yoydi. Chexiyani avtonomiyadan tamomila mahrum qilgan 1867 yil konstitutsiyasi, Vena hukmdorlarining markazlashtiruvchi siyosati chex yerlarida norozilikka sabab bo'ldi. Chexlar harakati ikki oqimda: dvo-ryanlarga ko'z tikkan Palatskiy va Rigir boshliq kekxa Chexlar 1 -oqim, aka -uka Greqramlar va sladkovskiy boshliq yosh chexlar - 2-oqimga bo'linib, chexlar siyosiy huquqlar berifishini talab qildilar. Hukumat ta'qib choralarini kuchaytirib, 1868 yilning 7 oktabrda qamal hoati joriy qilindi. Chexlar harakati kuchayib ketdi. Chexlarning milliy harakati bilan bir qatorda polyaklar harakati ham katta rol o'ynaydi. Bu harakat maktablarda plyak tilini o'qitishni, mamlakatni boshqarishda avtonomiya berilishini, Galitsiyada mustaqil polyaklar ma'muriyati joriy qilishni talab etdi.

Galitsiyada ukrain aholisi ham milliy zulm ostida kun ko'rdi. Avstriya hukumati Galitsiyadagi hukmron sinf bilan polyak pomeschchikla-ri bilan bitim tuzib, o'lkani idora qilishda ularga rahbarlik rolini berdi. Ukrain dehqonlari, kosiblari, ziyolilar tobora kuchayotgan zulmga qarshi kurashdilar, norozilik namoyishlari uyushtirdilar. 1867 yil bitimidan keyin Vengriyada ssssiyosiy kurash boshlani ketdi. Bunga sabab, Avstriya - Vengriya bitimi Vengriyaning o'z ichida siyosiy mustaqillikni qonunlashtirgan bo'lsa ham, lekin aslida, ikki davlatdan iborat yagona monarxiyada hukmronlik vaziyatini saqlab qolgan edi.

Vengriyada 1868 yil 30 noyabrda " Millatlar haqida " qonun qabul qilindi. Bu qonun aslida Vengriya hududida yashovchi slavyan xalqlari bilan ruminlarni oddiy siyosiy huquqlardan mahrum etgan edi. Faqat madyar tili davlattili deb e'lon qilindi. Madyar (vengr tili).

XIX asrning so'ngi o'n yilligida milliy zulm kuchayib , Zakarpateyadagi ukrain aholisi vengrlashtirildi . Ukrainlar Avstriya -Vengriyaga qarshi namoyish qilib chiqdi.

Xorvatiya ham Avstriya - Vengriya zulmi ostida edi . Bu yerda 1848 yil xotiralarining ta'siri kuchli edi , 1868 yilda yangi bitim tuzilib, Xorvatiya o'z parlamenti (sobori) va Xorvat bankidan iborat mustaqil ijrochi hokimiyatga ega bo'lish imkonini berildi . Lekin bu bitim Xorvatiyaning Vengriyaga qarqmligini o'zgartira olmadi . Xorvatiya byudjetining 56 % Vengriyaga o'tkazilardi. Xorvatiya doim xarbiy va " favqulotdda " holatda turardi , aholi noroziligi qattiq ta'qib bilan bostirilardi . Slovyanlar ham vengirlar zulmi ostida edi . 60 -yillar oxirida slovaklar 1848 yil inqilobida qo'lga kiritgan barcha huquqlaridan mahrum bo'ldilar . 1867 yil bitimidan so'ng Slovakiyada ha vengrlashtirish siyosati olib borildi . Slovaklarning milliy ozodlik harakati kuchayib ketdi .

Avstriya - Vengriyadagi gabsburglar monarxiyasi xalqlar zindoni edi. 1890 yili Vena kelishuvining barbod bo'lishi bilan milliy harakat yanada kuchaydi . Bazen hukumati (1895 - 1897) hatto chex tiliga davlat maqomi berishga majbur bo'ldi (1897). Ammo nemis shovinistlari turli yo'llar bilan bunga to'sqinlik qilardilar.... Bazening vorisi gauch (1898 -1899) til to'g'risida qonunni bekor qildi . Endi navbat chex deputatlariga o'tdi.

Kerber hukumati (1900-1904) Chexiyani chex va nemislar rayoniga bo'lmoqchi edi , ammo " yosh chexlar" suron ko'tardilar, til tengligi talab etildi. Parlament ishi barbod bo'ldi. Hech ish qila olmagach Kerber isteToga chiqdi.Galitsiya polyak - ukrain munosabatlari keskinlashdi . Italiyaning Tirol viloyati ularga qo'shildi. Vengriya seymi mustaqillik talab qildi: armiya , moliya (bank , bojxona , ta'lim). Xorvat - Vengir munosabatlari yomonlashdi . Xorvatlar o'z haqqi huquqlari uchun kurash boshladilar.

Avstriya - Vengriyaning tashqi siyosati.

Avstriya - Vengriyaning XIX asrning so'ngi uch choragida olib bor-gan tashqi siyosati Germaniya bilan yaqinlashish bo'ldi .

1873 yil Avstriya - Vengriya , Germaniya va Rossiya bilan " Uch imperator ittifoqi" degan bitim tuzdi. 1876 yil 6 iyulda Rossiya bilan Avstriya -Vengriya o'rtasida reyxshadt bitimi tuzildi. Unga ko'ea ruslar bilan turklar o'rtasida urush chiqib qolsa, Avstriya - Vengriya Rossiyaga betaraf turishi bekgilandi .

Avstriya esa Rossianing betaraf turishi evaziga Xorvatiyaning bir qismini , Bosniyaning ba'zi yerlarini olishi lozim edi.

1878 yildagi Berlin kongressida Avstriya hukumati Bosniya va Gersogavina okkupatsiya qilishga Yevropa davlatlarining roziligini oldi va ularni aneksiya qildi . Bu Avstriyani Rossiya bilan munosabatlarini yomonlashtirib qo'ydi . Natijada 1879 yil 7 oktabrda Avstriya , Vengriya Germaniyaning Rossiyaga qaratilgan yashirin bitimi imzolandi. Italiya Tunisni deb Fransiya bilan janjallashib qolganidan so'ng " Uchlar ittifoq "iga qo'shildi.

Avstriya - Vengriyada milliy ziddiyatlarning kuchayishi, hukmron doiralarga o'ta ketgan reaksion elimentlarning qo'li baland keldi. Frans- losifning shahsiy do'sti graf Eduart taaffe ministriligi davrida (1879-1893 yillar) Avstriyada reaksion siyosat kuchaydi . Eduart Taaffe o'z yoniga groxalskiy boshliq Polyaklar klubi , Riger boshliq chexlar klubi , qolgan millatlar vakili Gogenvart guruhidan " Temir halqa" tashkilotini tuzib , mamlakatdagi demokratik harakatlarni ayovsiz bostirdi.

1912 yilda Avstriya - Serbiya munosabatlari keskinlashdi. Ammo urush ancha keyin boshlandi.

Urush arafasida Avstriya - Vengriya

1 - jahon urushi arafasida slovyan xalqlari kurashi kuchaydi . Serbiya bu kurash markazi edi. U yagona slovyan davlati tashabbus-kori bo'lib chiqdi. Ruminlar harakatga qo'shildi.

Sharqiy Galitsiya polyak shlyaxtasiga , Zakarpatey Vengriyaga qarshi qo'zg'aldi . Ularga qarshi ja'zo - ta'qib choralari qo'llandi. 1911yili avstriyalik ma'murlar Drogobichda qirg'in uyushtirdi. Ishchilar namoyishi o'qqa tutilib , 100dan ortiq kishi o'ldirildi .

Ishchilarga dehqonlar qo'shildi . Ular ham o'qqa tutildi. **1913 yilda sud** hukmi bilan ukrain aholi uzoq muddatli qamoqqa tashlandi.

Venaning o'zida narxlar oshib ketishiga qarshi namoyishlar boshlandi (1911 yil 17.09) qo'shin . otish , o'lim - yarador. Praga , Krakov, Ibobda namoyishlar.

1912 yili iqtisodiy krizislar ro'y berdi. Ko'plab savdo va sanoat korxonalari sindi. Birjada vahima . Ishsizlik, **ochlik**__ 1913 yil stachkachilik (438 ta - 40 ming kishi).

Ishtvan Tissa hukumatiga qarshi harakati.

Avstriya - Vengriya Serbiya va undan kelib chiqib , Avstriya -Vengriya - Rossiya munosabatida yomonlashdi.

Avstriya - Vengriya dualizmi krizisli xolatga kirdi. Slavyan bur-juaziyasi " Trializm" ni talab qildilar, ya'ni mamlakatni federativ-tenglik asosida birlashtirishni talab qildi. Xatto shaxzoda Frans-Ferdinandning " Harbiy partiya " si " Trializm " loyihalarini quvvatladi . Ammo Avstriya - Vengriya hukmron doiralari slavyanlar kuchayib ketishidan qo'rqib "trializm " g'oyasini rad etdilar. Aksincha jazoni kuchaytirdi .

Shtyurgk hukumati 1913 yil 26 iyulda Chexiya konstitutsiyasini bekor qildi. Chexiya seymi tarqatildi. Vengriya Ishtvan Tissa qo'liga topshiril-di, u imperator noibi etib tayinlandi.

Konrad fon gessendorf boshliq Avstriya bosh shtabi urushga tayyorgarlikni boshladi. Armiya va floti uchun mablag' ajratildi. 1913 yil kuzida safarbarlik o'tkazildi . 1914 yil martda oppozitsiya kuchayganligi uchun reyxerstni (parlamentni) tarqatib yubordi .

Shunday qilib . amalda hokimiyat reaksiyoner Shtyurgk hukumati qo'lida bo'lib , ular urushga bahona qidira boshladilar.

Bahona topildi . 1914 yil 28 iyunda Sarayevodagi qotillik urushga bahona bo'ldi. Avstriya - Vengriyada harbiy diktatura o'matildi. Imperiya urushga kirdi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.XIX asr oxirida Avstriya - Vengriya iqtisodiyoti .
- 2.XX asr boshida sanoat yiriklashuvi.
3. Avstriyadagi milliy ziddiyatlar.
4. Vengriyadagi ozodlik kurashi.
- 5.Polyak va ukrainlar ahvoli .
- 6.Avstriya - Vengriyaning tashqi siyosati.
- 7.1-jahon urushi va Avstriya.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar :

1. I.A. Karimov " o'zbekiston buyuk kelajak sari" Toshkent 1998 yil
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq". 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
5. Galkin I.S " Avstro - Vengriya I Italiya v 1870 -1914 g" Moskva 1952
- 6.Mnuxina R.S " Podyom rabochego dvijeniya v Avstrii v 1905 -1907 g " Moskva 1955
- 7.Pisarev Yu . A" Natsionalno - osvoboditelnoye dvijeniye v Yugislavii" Moskva 1957
8. PristerYE. " Karotkaya istoriya Avstrii" Moskva 1952
9. Yangi tarix Illqism Toshkent 1969
10. M.Lafasov va boshqalar" Yangi tarix " Toshkent 2004

Mavzu: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya

Reja:

1. Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.
2. Chorizmning ichki siyosati. Ijtimoiy harakat.
3. Rossiyaning tashqi siyosati.
4. Rossiyaning chekka o'lkalardagi siyosati.

Tayanch tushunchalar:

Jahon agrar inqirozi. Qishloq xo'jaligi rivojida "Prusscha yo'l". Sanoat rivojlanishi bosqichlari. Chet el kapitalining kirib kelishi. Monopoliyalar. Bozor munosabatlariga o'tish. "Mehnatni ozod qilish guruhi." G. V. Plexanov.

9 yanvar 1905 yil-"Qonli yakshanba". Rus-turk urushi. San-stefano sulhi. Rus-yapon urushi. Port-Smut sulhi. Rossiyaning mustamlakachilik siyosati.

Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti

XIX asrning oxirlarida yuz bergan jahon agrar inqirozi Rossiya qishloq xo'jaligiga qattiq ta'sir etgan bo'lsada, mamlakat xalq xo'jaligi 80-90 - yillarda yana asta-sekin rivojlana boshladi. Og'ir sanoat tezlik bilan ilgariladi. Mayda sanoat ishlab chiqarish va manufaktura o'sa bordi. Temir yo'llarning uzunligi oshib bordi. Sanoat o'zgarishi tugallangan edi. Binobarin, bu vaqtda mexanizatsiyalashgan fabrika ishlab chiqarishning xalq xo'jaligidagi salmog'i 60-70 - yillardagiga qaraganda ancha baland edi. Chet el kapitali mamlakatga tez kirib kela boshladi. Ishchilar soni o'sdi. Sanoatning rivojlanishini ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich, 1881-1892 yillarni, ikkinchi bosqich, 1893-1900 yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda qishloq xo'jaligi jahon agrar inqirozidan katta zarar ko'rgan edi. 1891-1892 yillarda ocharchilik yuz berdi. Temir yo'l qurilishi qisqarib ketgan bo'lsada, og'ir sanoat o'sadi. Donetsk havzasi va Krivoy Rog o'rtasida bunyod qilingan temir yo'l metallurgiya rivojlanishiga yordam berdi.

Ikkinchi bosqichda Rossiya tarixida katta sanoat yuksalishi yuz berdi. Sanoatning barcha tarmoqlari qatori og'ir sanoat o'sdi. 90-yillarda mamlakat xo'jaligi ham iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda bank kapitalining roli oshib ketdi. 90-yillardagi sanoat yuksalishi davri umuman olganda Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy tarixida yangi davrni boshlab berdi. 80-90 - yillarda shuningdek, qishloq xo'jaligi ham taraqqiy etdi. G'alla narxining pasayishi to'xtadi. Qishloq xo'jalik taraqqiyotining ikkita xususiyati bor edi:

Birinchidan, qishloq xo'jaligining rivojlanishi "Prusscha yo'l"dan borayotgan edi. Ikkinchidan, dunyo bozorida g'alla narxining pasayib borishi Rossiya qishloq xo'jaligiga qattiq ta'sir ko'rsatadi. 70-yillardan 90-yillargacha qishloq xo'jaligidagi ahvol agrar inqiroz nomini oladi.

Rossiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chetga chiqarish o'sa boradi. Biroq, g'alla asosiy chetga chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'lib qolaverdi.

80-90-yillarda Qozog'iston cho'llariga asosan rus va ukrain dehqonlarini ko'chirish dehqonchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Rossiya qisqa vaqtda 1898-1901 yillarda neft qazib chiqarish bo'yicha AQSHdan o'tib ketdi va dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Chet elga asosan kerosin chiqarilardi. Yuksalish yillarida cho'yan eritish uch barobar oshdi. Metall eritishda dunyoda to'rtinchi o'rinni egalladi. Sanoat yuksalishi yillarida mashinasozlik taraqqiy etdi. 80-yillarda mashinasozlik, temir va metallurgiya sanoati yuksalgan bo'lsa, 90-yillarda bu o'sish temir yo'l, parovoz va vagonsozlikda davom etdi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi mashinasozligi vujudga keldi. Shu bilan birga hali chet eldan ko'plab qishloq xo'jaligi mashinalari keltirish davom etar edi.

90-yillarda iste'mol buyumlari ishlab chiqarish og'ir sanoatga nisbatan sekin o'sdi.

Bu davr Rossiyaga chet el kapitali juda ko'p solinganligi bilan xarakterlanadi, ya'ni bu ko'rsatkich uch barobar oshib, XX asr boshlariga kelib 911 mln. rublga yetdi. Ayniqsa, Frantsiya, Belgiyaning kapitali ko'plab kirib kelgan. Chet el kapitalining asosiy qismi ko'mir, metallurgiya, neft sanoati va mashinasozlikka sarflandi.

Rossiya sanoatida ishlab chiqarish yiriklashdi va ichki jihozlar bilan uskunalandi. 80-yillarda 1-sindikati bitimlari tuzildi. Masalan, 1886 yilda mix sindikati, 1887 yilda qand sindikati tuzilgan. Ular Rossiyadagi monopoliyalar taraqqiyotining dastlabki bosqichi bo'lgan.

XX asrga kelib monopolistik birlashmalar tashkil topishi jarayoni kuchaydi. Metallurgiyada—"Prodamet", "Truboprodaja", uysozlikda "Krovlya", rangli metallurgiyada — "Med", ko'mir sanoatida — "Produgol" sindikati, neft sanoatida — "Nobel-mazut" karteli, tog'-kon sanoatida "Prodrud" sindikati (1907), temir yo'l sohasida "Prodparovoz", "Prodvagon" (1901) kabi monopoliyalar paydo bo'ldi.

1909 yilda 45 sanoat tarmog'ida 140 ta monobirlashma bor edi. Ularning eng yirigi "Prodamet" va "Produgol" edi.

Rossiya sanoati yuksalishi bilan birga chet elliklar mamlakatdagi ko'p foyda beradigan tarmoqlarni aksiyalarini sotib ola boshladilar, Masalan, Londonda 1908 yili tashkil etilgan "Lena-Goldfilde" jamiyati Lena oltin konlari joylarining egasi bo'lib olgan.

Rus sanoatiga qo'yilgan chet el sarmoyalari orasida frantsuzlar 1-o'rinda turgan, undan so'ng inglizlar, nemislar turganlar.

Qishloq xo'jaligida kapitalizmning ko'rinishi shu ediki, bunda ekinlar ekish ixtisoslashib borgan.

Krepostnoylik qoldiqlari hukmron bir sharoitda, qashshoq va savodsiz rus dehqoni ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilinib, sanoat burjuaziyasining changaliga tashlangan. Janubiy hududlar asosan g'allachilikka ixtisoslashtirilgan, chet o'lkalar, masalan, O'rta Osiyo paxta yetishtiriladigan hududga aylantirilgan.

Chorizmning ichki siyosati. Ijtimoiy harakat

Rossiyada yuz bergan bozor munosabatlari o'tish bilan sodir bo'lgan o'zgarishlar dvoryanlarning iqtisodiy ahvoriga putur yetkazdi. Pomeshchiklarning olgan vikuplari ham sarflanib ketdi. Kambag'allashayotgan dvoryanlar eski feodal tartibni xohlar edilar. Ular chorizmning tayanchi edilar. Rossiya monarxiyasi feodal-dvoryanlar davlati edi, Korxonalarda ish soatlari 12-13, to'qimachilikda esa 13-14 soatni tashkil etardi. Kavkaz, Qozog'iston, O'rta Osiyo ishchilari ahvoli yanada og'ir edi. Ayni paytda ishchilar manfaatlari uchun kurashadigan harakat yuzaga keldi. 1883 yilda G. V. Plexanov "Mehnatni ozod qilish guruhi" ni tuzdi. Xuddi shunday guruh Sankt-Peterburgda Bolgar talabasi Dmitriy Blagoev tomonidan tuzilgan edi. 1885 yili P. Tochisskiy guruhi ham faoliyat ko'rsatgan. Brusnev guruhi ham ishchilarning himoyachisi bo'lgan. Shuningdek 80-90-yillarda ijtimoiy harakat milliy o'lkalarga ham yetib bordi va Ukraina, Boltiqbo'yi, Kavkaz orti, O'rta Osiyoga tarqaldi. Bu harakat O'rta Osiyoda jadidchilik ko'rinishida namoyon bo'ldi.

1904 yilda ijtimoiy harakat Piterda qayta jonlandi. 250000 ishchi bo'lgan poytaxt fuqarolari urushga qarshi qo'zg'aldi. Ular non, ish talab qildilar. Chor oxrankasi tavsiyasi bilan ruhoniyyat Gapon "Sankt-Peterburg shahrining rus fabrika-zavod ishchilari yig'ilishi" degan jamiyat tuzdi. U ishchilarni kurashmasdan, podshoga "iltimosnoma" bilan murojaat qilishga chaqirdi. Unda ta'lim majlisini chaqirish, demokratik erkinliklar berish, urushni to'xtatish kabi talablar yozilgan edi.

1905 yil 9 yanvar kuni yuz minglab ishchilar xotin-bolalarini olib, podshohga arz qilishga jo'nadilar. Ammo imperator ularni o'q bilan qarshi oldi. 5000 dan ortiq kishi o'ldi va yarador bo'ldi. "Qonli yakshanba" deb tarixga kirgan bu xunrezlikdan butun mamlakat ishchilari, Moskva, Riga, Varshava, Boku va boshqa joylarda ish tashladilar.

1905 yil 12 mayda Ivanovo-Voznesenskda yirik ish tashlash bo'ldi. 1905 yil yozda Qora dengiz flotida matroslar qo'zg'oloni bo'ldi.

Podsho qo'rqib, Dumaga saylovlarga ruxsat berdi. Ammo Dumalarga saylovlar natija bermadi. Duma tarqatib yuborildi. 1907-1912 yil Rossiya tarixida chor hukumati raisi Stolipin nomi bilan reaksiya yillari deb ataladi.

Rossiyaning tashqi siyosati

XIX asr oxirida Rossiyaning G'arb davlatlari bilan munosabatlari yomonlashdi. Rossiyaning tashqi siyosatdagi obro'siga putur yetgan, harbiy qudrati zaiflashgan edi. Xalqaro munosabatlarda, Yevropa siyosati masalalarini hal etishda Rossiyaning roli pasaya boshladi. Bunga sabab Rossiyani Bolqon yarimorolidagi ustunligidan mahrum etilishi bo'ldi.

Qora dengiz va Bolqon masalasi Rossiya-Turkiya munosabatlaridagi ziddiyatlarning bosh sababi Serbiya-Turkiya urushi 1876-1877 tugab, 1877 yil fevralida Turkiya bilan tuzilgan sulh shartnomasiga Serbiya imzo qo'ydi. Chernogoriya esa urushni davom ettirdi. Mart oyida G'arb davlatlari Rossiyaning tashabbusi bilan Turkiyaga armiyada demobilizatsiya va islohotlar o'tkazishni taklif qildilar. Rossiya aynan bir vaqtda demobilizatsiya o'tkazish haqida munozara boshlash uchun Peterburgga Turkiyadan o'z vakillarini yuborishni va Bolgariya, Bosniya, Gertsegovinaga ozodlik berishni so'radi. Ammo Turkiya bu taklifni rad qildi. 1877 yil 12 aprelda Aleksandr II Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Plevna va Shipka uchun bo'lgan janglar ayniqsa, shiddatli bo'ldi. Usmon podsho 43 ming turk soldati va ofitseri bilan taslim bo'ldi. Dekabr oyida Turkiyaning ahvoli og'irlashdi. 2 dekabr kuni Serbiya unga qarshi urush boshladi. Chernogoriyaliklar bir qancha muvaffaqiyatga erishdilar va 23 dekabrda Sofiyani ishg'ol qildilar.

1878 yil yanvarda butun front bo'ylab rus qo'shinlarining umumiy hujumi boshlandi. Turklarning Sulaymon podsho qo'mondonligidagi qo'shinlari tor-mor qilindi. Qarshilik ko'rsatishga kuchi qolmagan Turkiya sulh so'rashga majbur bo'ldi. Yarash sulhi tuzilgandan keyin rus armiyasi Istanbulga qarab yurishni davom ettirdi. Bu esa Turkiyani bosib olinishidan xavotirlangan Angliya va Avstriya-Vengriyani tashvishga soldi. Ular sulh tuzishni talab qildilar, ayni paytda ingliz floti Marmar dengiziga kiritildi, bunga qo'shimcha ingliz hukumati Rossiya bilan "diplomatik aloqani uzamiz" deb do'q urdi.

Rossiyaning ahvoli ham yaxshi emas edi, armiya bazalaridan uzoqlashib ketgan qurol-yarog', oziq-ovqat,

kiyim-kechak tanqisligi vujudga kelgan, turli kasalliklar avj olgan bir sharoitda Rossiya sulh tuzishga rozi bo'ldi. 1878 yil 19 fevralda San-Stefanoda sulh tuzildi. Sulhga muvofiq Turkiya hukmronligi ostidagi ko'plab xalqlar ozodlikka erishdilar. Bu masala ikkinchi marta 1978 yil iyunda Berlin kongressida qayta ko'rib chiqildi. Ruminiya, Serbiya, Chernogoriya, Bolgariya mustaqil bo'ldi. Rossiya, Janubiy Ukraina, Bessarabiya, Qrim, Shimoliy-G'arbiy Kavkaz, Kavkazning Qora dengiz bo'ylari, janubiy-g'arbiy Gruziya, Shimoliy Armanistonga ega bo'ldi.

Rossiya Uzoq Sharq masalasiga katta e'tibor berardi. Ayniqsa, Amurbo'yi va Primorega qiziqish kuchaydi. Bu hudud garchi Xitoyga qarasada, unda birorta ham Xitoy fuqarosi yashamasdi. Shuning uchun Rossiya Amurbo'yi va Ussuri o'lkasini bosib oldi. XIX asr 70-yillari boshida Rossiya-Yaponiya munosabatlari yaxshi edi. Hatto ruslar yaponlarga qarshi AQSH-Angliya-Fransiya ekspeditsiyasida ishtirok etmadi. Rossiya Saxalinga egalik qilish uchun harakat qilardi. 1875 yil aprelda Peterburgda Saxalinga egalik qilish uchun, Kuril orollarini Yaponiyaga berish to'g'risida shartnoma imzolandi. Ammo XIX asr oxiri XX asr boshidagi kapitalistik mamlakatlar o'rtasidagi dunyo bozorlari uchun kurash bu ikki davlatni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'ydi.

Rossiya-Yaponiya o'rtasida urush xavfi paydo bo'ldi. Chor hukumati Manjuriya va Xitoy masalasida yon berishiga qaramay Yaponiya muzokaralarni to'xtatib, 1904 yil 24 yanvarda urush boshladi.

Rossiya va Yaponiya o'rtasidagi bu urush Yaponiyaning Rossiyaga qarshi urushini manfaat deb bilgan davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli sodir bo'ldi.

Urush adolatsiz, talonchilik, bosqinchilik urushi bo'lib, u asosan Xitoy va Koreya hududida avj olib ketdi. Chor Rossiyasi urushga tayyor emasdi. Uzoq Sharqda uning 100000 ga yaqin qo'shini bo'lib, Vladivostok va Port-Arturda taxminan bittadan diviziya turardi xolos.

Yaponiya ham ancha zaif edi. Biroq uni Angliya va AQSH quvvatladi.

Yaponiya asosan dengiz janglarida, to'satdan hujum orqali ustunlikka erishdi, masalan, Port-Arturga 1904 yil 27 yanvar kechasi hujum qilib, ikkita brononsets va bir kreyserni portlatdilar, Ertasi kuni admiral Togo eskadrasi shaharni bombardimon qildi, 17 iyuldan boshlab qamal qilindi va qamal 157 kun davom etdi. General R.I. Kondratenko boshliq himoyachilar yaponlarning generali Nogi boshliq armiyasi hujumlarini barchasini qaytardilar.

1905 yil fevralda general Nogi Mukdenga hujum boshladi. Bu jangda ham ruslar yengildi.

1905 yil 15 mayda Tsusima yonidagi jangda rus floti tor-mor qilindi. "Varyag", "Admiral Makarov" va boshqa rus kemalarining matroslari mardlarcha jang qilishiga qaramasdan, Rossiya urushda to'la mag'lubiyatga uchradi. Mamlakatda norozilik boshlandi.

Rossiyaning ichki va tashqi siyosatidagi ahvoli yomonlashdi. Chorizm Germaniya bilan yaqinlashishga intildi.

1905 yil mayda Port-Smutda sulh imzolandi. Unga ko'ra Rossiya Port-Arturva Dalniy portlaridan, Sharqiy Xitoy temiryo'li va Saxalinning janubidan mahrum bo'ldi.

Rossiyaning chekka o'lkalardagi siyosati

Rus hukmron doiralarining zulmi ko'p millatli Rossiya xalqlari yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushdi. Chorizm milliy madaniyat muassasalarini yo'q qilib, "ruslashtirish" siyosatini o'tkazdi.

Polshada milliy bank yo'q qilindi, u "Visla bo'yi banki" deb ataladigan bo'ldi. Maktablarga emas, butun ma'muriy tashkilotlar "ruslashtirildi".

Finlyandiyada Fin pochtsi tugatildi.

Ruslashtirish siyosatiga zo'r berildi. Hatto Buxoro va Xivaning man-man degan amaldorlari Rossiyaga borib, o'qib kelishga majbur qilingan edi, "Rus-tuzem" maktablari tuzildi, ularda rus dasturi va tili asoslarida ta'lim berilardi.

Umuman XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ahvolga nazar tashlarkanmiz, jahon maydonida eski kuchlar o'rnini yangilari egallaganini ko'ramiz, jumladan, ilgari iqtisodiy baquvvat va ilg'or bo'lgan davlatlardan Frantsiya, Angliya, yosh davlatlar - Germaniya, AQSH, Yaponiya tomonidan qisib qo'yila boshlandi.

Natijada, yuqorida qayd etilganidek, Angliya-Frantsiya davlatlari 1904 yilda bir-biri bilan yaqinlashdilar. 1907-1914 yillardagi xalqaro vaziyatning xususiyati shundan iborat bo'ldiki, mehnat bilan kapital o'rtasidagi, rivojlangan davlatlar bilan ularning mustamlakalari kapitalistik davlatlar o'rtasida o'zaro ziddiyatlar keskinlashib ketdi. Chorizmning Yaponiyadan yengilishi natijasida Rossiyaning Uzoq Sharqdagi bosqinchilik rejalari barbod bo'ldi. Eron, Afg'oniston, Turkiyadagi ta'siri kamaydi.

1907 yil 13 avgustda Peterburgda Rossiya bilan Angliya o'rtasida Eron, Afg'oniston, Tibetdagi

manfaatdor doiralar chegaralarini belgilash to'g'risida bitim imzolandi. Angliya-Rossiya bitimidan ko'zlangan maqsadlardan biri Osiyo xalqlarining o'sib borayotgan ozodlik harakatiga qarshi, eng avvalo, Eron inqilobiga qarshi kurashmoq uchun ingliz-rus kuchlarini birlashtirish edi. Shu yili ularga Frantsiya ham qo'shildi. Bu bitim Yevropaning bir-biriga qarshi turgan ikkita harbiy-siyosiy blokka "Antantaga"-Rossiya, Angliya, Frantsiya va ularning ittifoqchilari Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiyaga bo'linishini tugalladi. Bu birinchi jahon urushiga olib borgan yo'ldagi "muhim" bosqich bo'ldi. Shunday qilib Rossiya birinchi jahon urushiga tayyorlana boshladi.

Nazorat uchun savollar:

1. XIX asr oxiridagi jahon inqirozining Rossiyaga ta'siri.
2. Rossiya sanoati yuksalishi bosqichlari.
3. Rossiya qishloq xo'jaligining xususiyatlari.
4. Rossiya sanoatidagi o'zgarishlar.
5. Rossiyada ishlab chiqarishning yiriklashuvi.
6. Rossiyada ijtimoiy harakat.
7. Ishchilar harakati va guruxlari.
8. 1905 yil 9 yanvar "Qonli yakshanba" voqealari.
9. Stolipin islohotlari.
10. Rossiyaning ichki siyosati.
11. Chorizmning tashqi siyosati.
12. Rus-turk urushi. San-Stefano sulhi.
13. Rus-yapon urushi. Port-Smut sulhi.
14. Rossiyaning chekka o'lkalardagi siyosati.
15. Rossiya-Angliya bitimi. Antanta.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq". 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
4. Istoriya Rossii. V 10 t. Moskva, 1963-1970.
5. Terentev M.A. Istoriya zavoevaniya Sr. Azii. V 3 t. Sankt-Peterburg, 1966.
6. Xrestomatiya po novoy istorii. Moskva. 1956.
7. Novaya istoriya stran Yevrop i Ameriki. Moskva. 1988.
8. Jahon tarixi. Toshkent. 2004 yil.
9. Yangi tarix. Toshkent. 1969 yil.

Mavzu : XIX asr oxiri -XX asr boshlarida

Yaponiya.

Reja :

- 1 . Yaponiyada kapitalistik bozor munosabatlarining rivojlanishi.
2. Ijtimoiy siyosiy harakatlar.
3. Parlamentning tuzilishi va Knstitutsiyaningqabul qilinishi.
- 4.Yaponiyaning tashqi siyosati.
- 5 Rus- Yapon urushi va Rossiya - Yaponiya munosabatlari.

Tayanch tushunchalar:

Segunlikni tugatilishi. meydzi islohoti. Kapitalistik bozor munosabati. Ijtimoiy - siyosiy harakatlar. Konstitutsiyaning qabul qilinishi. Parlamentning tuzilishi. Yaponiya davlati tizimi . Iqtisodiy taraqqiyotning xususiyatlari. Koreyaga hujum . Yaponiya - Xitoy urushi. Simonoseki. Rus - Yapon urushi. Portsmut sulhi.

1. Yaponiyada kapitalistik bozor munosabatlarining rivojlanishi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yaponiyada feodal ishlab chiqari-rish munosabatlari bilan kapitalistik munosabatlar o'rtasida qarama qarshilik kuchaydi.

XIX asrning so'nggi choragi Yaponiya tarixida arVanaviy fiodal mulkchilik bilan yangi, bozor munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish davri bo'ldi. Yaponiya yangi tarixining ikkinchi bosqichi bo'lgan 1868-1878-yillarda bo'lib o'tgan davlat to'ntarishi Tokuva syogunligi va imperator qo'sh hokimiyatchiligini tutgan, Yaponiya imperatori yakka hukumdorga aylangan edi. Birinchi bosqich XIX asr-ning 40-50 yillarida o'z ichiga olib, bu davr syogunlikning inqirozi davri edi. Shimoldagi yirik yer egalari eski feodal tartiblarni saqlash uchun kurash boshladilar. Tub o'zgarishlar tarafdori bo'lgan, savdo sanoat rivojlangan janubiy Yaponiya bu kurashda yengib chiqdi. Tokugacheva xonadoni qo'lida bo'lgan syogunlik boshqaruvi barham topdi.

Mamlakatda "Meydzi islohatlari" deb atalgan bir qator jiddiy iqtisodiy islohatlar o'tkazildi. Aholining tazyiqi va noroziligi tufayli 1867 yilda syogun o'z lavozimidan voz kechdi. Bu bilan nafaqat Tokugava syogunlarining, balki Yaponiyada 700 yildan ortiq davrda hukm surgan harbiy siyosiy rejimga chek qo'yildi. III asrda Yamata qabilalar ittifoqitashkil topdi. U o'zini "Tenno" - "Imperator" deb atadi. 1192 yilda Yoritomo Minamoto Xonsyuming Shimoliy sharqiy hokimiyatni qo'lga olib, o'zini syogun (sarkarda) deb e'lon qilgan. Bu so'z o'sha paytda Yaponiya hukumdori ma'nosini anglatgan. Shunday qilib "qo'sh hokimiyatchilik" kelib chiqdi. 1603 yil lehsu Tokugacheva (1542 - 1616) syogun bo'ldi va 1868 yilgacha mamlakatni boshqardi. Yaponiya tarixida butunlay yangi davr boshlandi. Endi Yaponiya imperatori o'ziga xos va sharaflı lavozimning to'laqonli egasiga aylandi. o'shanda imperator Musixita (1854-1913) taxtga o'tirganda 14 yoshda edi, u mamlakatni 45 yil boshqardi. Tarixda imperatorning yangi boshqaruv tizimi Meydzi ("Maorifparvarlik idora qilish usuli") nomi bilan ataldi.

Bu voqea Yaponiya tarixida "Meydzi inqilobi" nomi bilan yuritiladi.

Darxaqiqat, Yaponiya qisqa muddatda o'tkazilgan barcha sohalarini islohatlar natijasida ilg'or, sanoati rivojlangan davlatlardan biriga aylandi. Yaponlar hato taraqqiyot sohasida o'z ustozlari bo'lmish **g'arbliklarni** ham lol qoldirdilar.

Gap shundaki. yaponlar g'arb ilm-fani va texnologiyasini ijodiy o'zlashtirishlari bilan birga o'zlarining eng yaxshi, asrlar davomida shakillanib kelgan udumlari va arVanalarini saqlab qoldilar. Albatta bu o'zgarishlar o'z-o'zidan vujudga kelgani yo'q. g'arb davlatlarining birin-ketin bostirib kirishi, ularning zamonaviy qurollari qarshisidayaponlar butunlay himoyasiz edilar. Hayotning achchiq saboqlari ona Vatanga bo'lgan cheksiz fidoiylık, sadoqat, muhabbat, milliy istiqlol tuyg'usi, milliy totuvlikka o'rgatdi. Barcha vatanparvarlar, Yaponiyaning ilg'or kishilar, ziyolilari, davlat arboblari imperator Musixita atrofida jipslashdilar. Yaponiyaning rivojlangan g'arb davlatlari kabi zamonaviy parlament faoliyat ko'rsata boshladi va imperator bilan bir qatorda mamlakat siyosiy hayotida tobora nufuzi ortib bordi.

Eski feodallar toifasi dayme barham topdi. Yangi Konstitutsiyasiga muvofiq mamlakatda hukumat vaqt tizimi joriy etilib, parlament ikki palatadan iborat bo'lib, quyi palata a'zolari tayinlanar edilar. Yaponiya ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berdi: huquqshunoslik, ijtimoiy va aniq fanlar jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Yapon yoshlari-dan iqtidorlilari tanlab olinib ular nufuzli universitetlarida o'qishga yuborildi. Ular o'z vatanlariga yetuk mutaxassislar bo'lib qaytar edilar va Yaponiyaning ravnaqi uchun barcha imkoniyatlarini ishga solar edilar.

Shunday qilib, yaponlar yangi davrning 200 yildan ko'proq vaqti-da o'zlarini tashqi dunyodan to'sib qo'ysalarda, ammo milliy mustaqilligini saqlab qoldilar. 200 yil o'tgach, yana "o'zliklarini" xorijliklarga "ochib", qisqa vaqt ichida jahon hamjamiyatidan o'rin olib, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylandi. Natijada, jahon xalqlari orasida taraqqiyotning "yaponcha modeli" vujudgakeldi.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojiga to'sqinlik qiluvchi qonun va tartiblar bekor qilindi. 1868-1878 yillarda Yaponiya hukumati yangilandi. Yangi hukumat boshlig'i Arisugava Yaponiyada bozor munosabatlari taraqqiyoti tarafdori edi. 15 yoshli yangi imperator Mu-sixito parlamentga o'xshash Davlat Kengashi tashkil qilishga va'da berdi.

Ayrim-ayrim hokimlar chegaralaridagi bojxonalar va boshqa to'siqlar olib tashlandi. Bu tadbir mamlakat miqiyosida savdo-iqtisodiy aloqalarga yo'l ochdi. Yo'llarda dehqonlarning shaharga qochib ketishiga qarshi, ularni tutib joyiga qaytarish uchun qo'yilgan poyloqchilar manzillari tugatildi. Chunki,

sanoat qishloqdan ishchi kuchi " oqib" kelishidan manfaatdor edi . Bu tadbirlar Yaponiyada ichki bozorning sanoat tarmoqlarining rivojiga xizmat qila boshladi. 1869 yilda " to'rt tabaqa" haqidagi qonun bekor qilindi. Feodal zamindor samurai , dehqon , hunarmand va savdogar tabaqalar rasman teng huquqli deb e'lon qilindi .

1871 yili huquqsiz (pariylar) quyi tabaqa haqidagi qonun bekor qilindi. Barcha tabaqa vakillari kasb tanlashda erkin , tadbirkorlik ishlariga haqli bo'lishdi. Mamlakatda alohida feodal mulklar tizimi, hokimliklar tugatilib, 75ta prefektura - viloyat tuzildi. Natijada markazlashgan hukumat boshqa-ruvida yuzaga keldi . 1872 yilda yalpi harbiy xizmat haqida qonun qabul qilindi.

1877 yilda haqiqiy harbiy xizmatda bo'lmaganlar uchun qilich taqib yurish bekor qilindi . Bu narsa samuralarning izzat - nafsiga tegdi va Saydo Takamori boshchiligida qo'zg'olon bo'ldi . Ammo bu harakat bostirildi. 1871-1878 yillarda qishloq xo'jaligi sohasida islohatlar o't-kazilib, yerni erkin oldi - sotdi qilish , istagan turdagi ekinlarni ekishga ruxsat berildi . Hosildan hissa ko'rinishidagi soliq , pul solig'i bilan almashdi . Yerning mayday bo'laklarga bo'linib ketishiga qarshi qonun chiqarildi .

1877 -1900 yillar Yaponiya sanoat yuksalishi davrida bo'ldi. Bu davr ikki bosqichga monopoliyalashuvga va monopolistik kapitalizm bosqichlariga bo'linadi . Xususan , XX asr boshlarida Yaponiyada rivojlanishining o'ziga xos harbiy feodal imperiya ko'rinishi vujudga keldi.

Islohatlar qanchalik ilg'or ruhda bo'lmasin , ular yirik yer egalari, sanoatchilar uchun xizmat qildi . Yangi sanoat korxonalarida va qishloq xo'jaligida oddiy mehnat ahlining ahvoli og'irligicha qoldi.

Sharoit qanchalik og'ir bo'lmasin , Yaponiyada kapitalistik munosabatlar tez rivojlana boshladi. Yaponiya kapitalizmi Yevropa tajribalaridan sharqda birinchi bo'lib foydalandi . Yevropada uzoq davom etgan yuzaga keltirgan ilg'or sanoat texnikasini Yaponiya tayor holda olardi. Bu sohada Yaponiyaga Germaniya, Angliya, Fransiya kabi yirik kapitalistik davlatlar yordam berishdan manfaatdor edilar. Yaponiya davlati esa, kapitalistik ishlab chiqarish keng yulga qo'yish uchun homiylik qilish yo'lidan bordi. Birinchi galda Yaponiya to'qimachilik sanoati tez rivojlandi. 1890 yilda u

barcha sanoat tarmoqlarining 45 % ini tashkil etadi . 1868-1885 yillarda 1300 sanoat korxonasi qurildi . Ular dastlab badavlat sanoat-chilarga ijaraga berildi . Keyinroq esa sanoat korxonalari o'z narxini yarmini , hatto 10-15 % iga xususiy qilib sotiladigan bo'ldi. Natijada puldor bank egalari Misui va Misubisi , Sumitoma , Yaasida , Furikava , Kawasaki , Tanaka , Asano kabi bank egalari yirik sanoat korxonalari-ning egalarga aylandilar. Yaponiya sanoat va kapital jamg'arish sohasida o'sha davrdagi Rossiyadan o'n barobar tezroq rivojlanmoqda edi . Yapon kapitalizmi ko'proq bank kapitalizmi tusini oldi.

Sanoat markazlashuvi va ixtisoslashuvidan ko'ra bank sarmoyalari-ning markazlashuvi tezroq bordi . Islohatlar davri , sanoat yangilanish jarayoni , kapital jamg'arish bilan barobar davom etmoqda edi . Mablag'larini savdo , transport va banklarga solish ko'proq foydali bo'lib qoldi. Chunki , hali kapital bilan ishonchli ta'minlanmagan sanoat pul qarz berish katta daromad edi . Lekin yanada kapitalizm taraqqiyoti g'arb davlatlariga nisbatan ancha orqada edi .

Yaponiyada yangi islohatlar tezkorlik bilan ro'y berdi. Lekin arTanaviy munosabatlar hali katta ta'sirga ega edi. Shunga qaramay, sanoat rivoji o'z natijasini ko'rsata boshladi . Kapitalizm taraqqiyoti dehqonlarning terdan ajralishi bilan birgalikda bordi . 1883 yilda 33 ming dehqon yeridan ajralgan bo'lsa , 1885 yilga kelib , bu raqam 108 mingga yetdi .

Natijada ular shaharga ketib , yollanma ishchilarga aylandilar. Ishchilar ma'lum ijtimoiy qatlam bo'lib shakillandilar. Sanoat egalari yangicha , ilg'or ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yib , mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa boshladilar. Sanoat korxonalarining soni yildan yilga ko'payib bordi . Agar 1868-1877 yillarda 489 ta yangi korxona qurilgan bo'lsa , 1878-1885 yillarda 800 ta yangi sanoat korxonasi foydalanishga topshirildi . Bu jarayon iqtisodiy - ijtimoiy sohalarida sanoatda ishlaydigan mehnat ahlini himoya qiladigan qonun va amaliy vositalar yo'qligi sababli qattiq ekspluatatsiya , mehnatkashlarni ezish hisobiga davom etdi . Ishchilar ish haqining juda pastligi , ish vaqtining 15-18 soat davom etishi , korxona qonunchiligi , texnika xafsizligi uchun javobgarlikning yo'qligi, bolalar va ayollar mehnatidan beshafqat foydalanish - blar Yaponiyaning yangi davr taraqqiyotiga xos belgilardi. Buning ustiga Yaponiya ishchilari va mehnatkashlarining turmush ahvoli og'ir edi . Ular na siyosiy , na ijtimoiy huquqlardan foydalanar edilar. Bunday sharoit albatta noroziliklarga sabab bo'lar edi.

2 Ijtimoiy - siyosiy harakatlar .

Dastlab ijtimoiy harakatlar bir korxona doirasidan chetga chiqmagan bo'lsa ham , tashkiliy jihatdan maxsus rejalashtirilmagan , turli norozilik ko'rinishida edi. Lekin , 1881-1896 yillar orasida Yapon mehnatkash-larining bir qator kasaba uyushmalari: suvoqchilik , toshyorarlik , yer qazuvchilik va boshqa kasb tashkilotlari paydo bo'ldi . Bularga baliqchilik , hammol (yuk tashuvchilari), rikshalar (aravalarda odam tashuvchilar) qo'shilishdi. Lekin bu uyushmalarning dastlab maqsadlari noaniq va rejasiz edi. Masalan : baliqchilar matorli qayiqalarda baliq ovlash ma'n qilishni, rikshalar esa tramvayning shaharlarga olib kelishiga qarshi edilar. Yapon ishchilarining ijtimoiy uyushmalari g'arb mamlakatlaridagi kasaba tashkilotlari darajasiga yetolmadi . Ular hali hunarmandchilikning o'zaro jamoatchilik hamkorligi , uyushmasi kabi ishko'aredi. Shunga qaramay , ularning ishga yollanishida vositachilik aralashuviga , nazoratchilar zulmiga , ish vaqtining qo'shilishiga , ish haqqining kamayishiga qarshi harakatlari ba'zan ozmi - ko'pmi ta'sirga ega edi.

Yaponiyaning XIX asr oxiridagi hayotida turli ijtimoiy g'oyalar mavjud edi . ArVanaviy Yapon jamiyatining rihiy xususiyatlari buddizm g'oyalari bilan bir qatorda ba'zi ilg'or g'oyalar ham paydo bo'la boshladi. Bular ba'zi hollarda partiyalar tuzilishiga ham asos bo'ldi . Masalan , "Sharq sotsialistik partiyasi" (1882 y), " Sharq ozodlik partiyasi", "Ij-timoiy muammolarni o'rganish jamiyati" kabilar.

Ijtimoiy harakatning ikkinchi " qanotida " ilg'or fikrli burjuaziya vakillari, yoki ular manfaatini ifodalovchi oqim turgan edi. Ular 1872 -1882 yillarda vakolatli parlament tuzumini o'rnatish uchun kurashdilar. Hukumat 1878 yilda profektura - viloyatlarda mahalliy o'z-o'zini boshqaruvini joriy qilishga majbur bo'ldi. 1881 yilda imperator parlament tuzishga va'da berdi.

3. Parlamentning tuzilishi va Konstitutsiyaning qabul qilinishi .

Iqtisodiy islohatlar burjuaziyaning o'sishi va siyosiy kuchayishiga sabab bo'ldi. Burjuaziya davlatga rahbarlikni o'z qo'liga olishni da'vo qila boshladi. Mamlakatda imperatorning mutloq hokimiyatini cheklay-digan konstitutsiya joriy qilish uchun harakat kuchaydi.

Hukumat biroz yon berishga qaror qildi. Nihoyat 1889 yil 11 fevralda Yaponiyaning 1 - Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitut-siya amalda Prussiya Konstitutsiyasi asosida tuzilgan edi. Mamlakatda ikki palatadan : yuqori (perlar) va qo'yi (vakillar) palata-dan iborat parlament tuzildi . Parlamentning yuqori palatasi a'zolaridan bir qismi mulkdorlardan 7 yilga saylanib qo'yilar, qo'yi palatasi esa 4yilga saylov orqali saylanardi. Saylov huquqiga Yaponiyaning 1 % aholisi ega edi.

Konstitutsiya imperatorning mavjud barcha huquqlarini nafaqat saqlab qoldi , balki unga yanada keng huquqlar berdi . Masalan : u par-lamentni chaqirish , ochish , tarqatib yuborish , qonunlar o'rniga oily farmonlar chiqarish , qo'shinlarning Oliy Bosh qo'mondoni bo'lish, urush e'lon qilish , sulh tuzish kabi huquqlarni o'zida saqlab qoldi . Konstitut-siyaga ko'ra Vazrlar Kengashi faqat imperatorga hisobot beradi.

Imperator xonadoni vakillaridan iborat davlatmandlar perlar pala-tasida asosiy ko'pchilikni tashkil qiladi . Fuqaro huquqlari sohasida bu konstitutsiya g'oyat kuchsiz edi. Parlamentning barcha qarorlari imperator huzuridagi yashirin kengashidan o'tish zarur edi . Saylov huquqipul senzi bilan , saylovchilar yoshi esa 25 yosh qilib belgilandi. Albatta , Yaponiyadek qoloq , feodal arTanalarga boy mamlakatda Konstitutsiya qabul qilinishi katta voqea bo'ldi. Lekin , u jamiyatni barcha a'zolari manfaatiga xizmat qila olmadi.

4 . Yaponiyaning tashqi siyosati.

Kapitalistik taraqqiyot yo'liga kirishi bilan Yaponiyaning tashqi harbiy rejalari paydo bo'ldi . Harbiy zavodlar qurish , ko'plab qurol aslahalar ishlab chiqarish boshlandi.

1870 yillarda Yapon ichki bozori juda " tor" edi . Shuning uchun sanoat uchun xom - ashyo va tashqi bozor kerak edi .

Yaponiyaning bosqinchilik maqsadlari Koreya , Xitoy , Tinch okean havzasiga qaratildi. Bir guruh samuraylar hech kechektirmay urush boshlash tarafdori bo'ldilar. Saygo Takamori tomonidan ko'tarilgan isyon ko'p qon to'kilishiga sabab bo'ldi . Hukumat samuraylar nafaqasini bekorqilib , ularga bir yo'la tovon puli belgiladi. Tovu puli zayom obligatsiyalari bilan beriladigan bo'ldi. Samuraylarning qilichtaqib yurishi taqiqlandi . Ana shular isyon ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Samuraylar isyoni hukumat tomonidan bostirildi , XIX asrning 70 -yillarida Yaponiya bosqinchilik yurishlari yo'liga kirdi . 1874 yili Tayvan oroliga bostirib kirdi . Lekin Yaponlar uchun bu urush omadsiz bo'ldi . 1872-1879 yillarda Yaponiya Xitoyning noroziligiga qaramay , Ryukyu orolini bosib oldi . AQSh 1875 yilda Yaponiyani tan olib , u bilan dip-lomatik aloqa o'rnatdi . Yaponiya Janubiy Saxalin hisobiga Kuril orolini Rossiyadan

ajratib , o'ziga qo'shib oldi .

1875 yil sentyabr oyida Yaponiya Koreyaga hujum qildi va Koreya bilan uni kamsituvchi bitim tuzildi . Yaponlar uchun Koreya " ochiq " mamlakat deb e'lon qilindi . Yapon mollari bojsiz sotiladigan bo'ldi. Mamlakat portlari Yaponiya uchun ochib qo'yildi. Shu yo'I bilan Koreya , Xitoy ta'siridan ajratib olindi. Yaponiya - Xitoy munosabatlaridagi ziddiyat 1894-1895 yillarda urushga olib keldi. 1893 yili yapon qo'shinlari Koreyaga bostirib kirdi. Dehqonlarning Tonkax boshchiligida qo'zg'olonini bostirish bunga bahona buldi. 1894 yil iyulida Yaponiya Seulda Saroy tuntarishi qilib, Yaponparast hukumat tuzdi va poytaxt garnizonini qurolsizlantirdi. 1894 yil avgustida Yapon-Xitoy urushi boshlandi. Xitoy xarbiy flotining transport kemalari chuktirikdi , shu bilan paral-lel ravishda yapon qo'shinlari urush e'lon qilmasdan Koreyada turgan Xitoy xarbiy kuchlariga xujum qildilar. 1894 yil Xitoy qushinlari E.Chjichao boshligida Pxenyan yonida geografik jixatdan yaqinligi va raqobat qiluvchi yirik davlatlarning uzoqligidan foydalanib , uzoq Sharqdan ustunlikka ega bo'lishiga yo'I ochdi. Yaponiyaning zamonaviy qurollar bilan ta'minlangan harbiy kuchlari ham quruqlikdan , ham dengizdan xujum uyushtirib,Xitoy harbiy qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. 1895 yil 17 aprlda Simonoseki sulhi tuzildi. Xitoy Koreyaning mustaqilligini tan oldi , Lyaudunni' tayvanni , penxu (Peskador) orolini Yaponiyaga berdi. Shuningdek , Yaponiya katta miqdorda tovon to'lashga majbur etildi.

Teng bo'lmagan shartnomaga ko'ra , Yaponiya o'z savdosi uchun Xitoyni " ochib" qo'yish , Xitoy hududida yangi sanoat korxonalarini qurish va ularning foydalanish huquqini oldi.

Yaponiya - Xitoy urushi Yaponiyaning monopolistik kapitalizm yo'liga olib kirdi. Uzoq Sharqda uning harakatlari erkinlashdi . Shu bilan birga g'arb davlatlari bilan Yaponiya o'rtasida no teng iqtisodiy bitimlarni bekor qilinishiga olib keldi.

Bu davrda Yaponiyada monopolistik unsurlar bilan chirmashib ketdi. Bu jihatdan Yaponiya Rossiyaga o'xshab ketadi, chunki pomeschchiklar va monarxiya aloqalari juda kuchaygan edi . Ko'pgina Yapon konserinlari feodalizm davrida tashkil topgan savdo sudxo'rlik guruhlaridan "o'sib " chiqdi . Yapon burjuaziyasiga mehnatkashlarni eks-pluatatsiya qilishning kapitalizmga xos bo'lgan usullar , ya'ni bolalarva xotin - qizlarni yarim turma shaklidagi yotoqxonalariga joylashtirib , ular mehnatidan foydalanishni davom ettirdi.

Angliya , Fransiya , AQSh dan farqli o'laroq , Yaponiyada hokimi-yat burjuaziya qo'lida bo'lmay , balki pomeschchik - burjuazuya bloki qo'lida edi . Bu narsa ishlab chiqarishda davlat rolini kuchaytirdi .

Yaponiya Xitoydan Konstitutsiya tariqasida olgan katta miqdordagi tovon pulini armiya va flotni kuchaytirishga sarfladi. Harbiy buyurtmalar yuzaasidan qilingan hisob -kitoblar natijasida bu mablag'lar yirik sanoatga vat emir yo'llarga sarflanadigan bo'ldi.

Yaponiya hukumati og'ir industriyani rivojlanishiga alohida e'tibor berdi. 1900-1903 yillarda sanoat ishlab chiqarishi AQSH da 85 % , Germaniya 54 % , Fransiya 51 % , Angliyada 25 % o'sgan boisa , Yaponiyada 181 % o'sdi. U ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiyadan o'zib ketib , Fransiya yaqinlashdi . Mamlakatda sanoat, savdo - stiqva banklar konsentratsiyalashib , imperialistik monopoliyalar vujudga keldi.

Ilgaridek , pomeschchik yer egaligi va dehqonlarning asoratli ahvoli saqlanib , qolaverdi . Ota - onalar o'z bolalarini fabrikalarda ishlatish uchun sotishar edi . Qashshoqlanib borayotgan Yapon dehqonlari va shahar ishchilarining bir qismi Yaponiya sanoati tavarlarining sotib ololmas edi. Yapon imperialistlari mol sotiladigan yangi bozorlar uchun kurash olib borib , bosqinchilik siyosati yurgizdilar.

Mamlakat aholisining turmush sharoiti og'irlashib boraverdi. Yapon hukumati aholi to'g'risida hech qanday g'mxo'rlik qilmay , o'z e'tiborini zo'r berib qurollanishga qaratdi . Yaponiya uzoq Sharqda o'z mavqeyi-ni tiklash uchun reaksion siyosat olib borishdan qaytmadi, Yaponiyaning uzoq sharqda kuchli davlatga aylana borishi g'arb mam-lakatlarining mustamlakachilik siyosatida muhim burilishlarga sabab bo'ldi. AQSh , Angliya , Germaniya , Fransiya o'zlarining uzoq Sharq va Janubiy - sharqiy Osiyodagi siyosatlarida Yaponiya bilan ittifoqdosh bo'lishni o'ylab qoldilar. Rossiya esa o'zining Uzoq Sharqdagi manfaatlarini himoya qilish bahonasida Yaponiyaga qarshi harakatlar boshladilar.

Yaponiyada Rossiya bilan urush boshladi. Manjuriya va Kreyadan uni " quvib chiqarish " tarafdorlari ko'p edi. Rossiyada ham Yaponlarning " adabini berib qo'yish " tarafdorlari kam emas edi.

1895 yili Xitoy bilan urushda yengib chiqqan Yaponiya 10 yillik qurollanish dasturini qabul qildi. Bundan maqsad Rossiyaga qarshi urush boshlash edi. Harbiy sanoat tez o'sa boshladi. Metalurgiya zavodi

qurildi.

1894-1903 yillarda temir yo'llar 2,8 barobar, tashqi savdo hajmi 3,5 barobar, sanoatda ishchi o'rni 326 mingga ko'paydi.

5. Rus -Yapon urushi va Rossiya _ Yaponiya Munosabatlari.

Yaponiya xalqaro miqyosda zo'r berib diplomatic muzokaralar olib bordi. Masalan , 1902 yili Angliya bilan 5 yillik shartnoma tuzib , Xitoyda , Angliya - Yaponiya manfaatlarini belgilab oldi. 1902 yil bitimi, bosqinchilik bitimi edi . AQSh bo'lajak urushda Yaponiyani quvvatlashini bildirdi va Germaniya , Fransiyan ham shunga chaqirdi. Shunday qilib , muqarrar bo'lib qolgan urushda Rossiya yolgizlatib qo'yildi.

1903 yil iyul oida Yaponiya Rossiya bilan muzokaralar boshlab , Koreyada uning erishgan muvaffaqiyatlarini tan olishni talab qildi. Buning evaziga Rossiya Manjuriyada temir yo'llar qurish huquqini oladigan bo'ldi . Qator masalalarda bitimga kelish ataylab chalkash yo'lga solindi. Nihoyat , Yaponiya o'z maqsadlariga yaqinroq yo'I tutib , 1904 yil 5 fevralda Rossiya bilan diplomatic aloqani uzdi . Qo'shin va flotga esa Imperator nomidan yashorin xat yo'llab , Rossiya Yaponiyaga xavf solmoqda deb tushuntirildi.

Yapon kemalari 1904 yil fevralda Port Artur va Chumulpo port-laridagi rus kemalariga to'satdan hujum qildi . " Varyag " kreyseri cho'ktirildi. " Koreys " kemasi portlatildi . Shu bilan rus - yapon urushi boshlandi. Koreya qirg'oqlariga Port-Arturga , Lyadunga to'rt yapon armiyasi tushirildi. Ruslar Lyadun yarim oroliga chekindilar. Mukden (1905 yil fevral - mart) operatsiyada rus qo'shinlari son jihatdan ko'p bo'lishiga qaramay , qo'mondanlarning o'quvsizligi tufayli yengildi. . Rus dengiz qo'mondonligi Boltiq dengizidan Rojdestvenskiy - Neboga-tov eskadrasini Yaponiyaga jo'natdilar. .Bu reja xato edi . Chunki , eskadra kemalarining tezligi yapon kemalarinikidan kam , bronyasi (zirxlari) esa yuqa edi. Buning ustiga yaponlar eskadraning yo'lgachiqqanini bilishar , unga qarshi zarur kuchlarni yig'ib , tayyorlab qo'yishgan edi. Susima dengizi jangida bu rus eskadrasi muqarrar halokatga uchradi . (1905 yil 27-28 may)

Rossiya urushda uzil - kesil yengildi . Buning sabablari ko'p edi . Eng , rus davlati XX sar boshlarida o'lgan hududlarini birlashtirib olgan , iqtisodiy qoloq va mo'rt tuzilgan davlat edi . Yaponiya esa zamonining ilg'or harbiy sanoati texnikasini o'zida toplagan , bosqinchilikni shior qilib olgan davlatga aylangan davlat edi.

1905 yil 9=29 avgust kunlari Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida AQSh Prezidenti T . Ruzvelt vositachiligida AQSh Portsmut shahrida sulh muzokaralari bo'ldi . Rossiyadan Saxalin orolining bir qismini Yaponiyaga berish va Yaponiyaga 1,2 mird . iyen tovon to'lash talab qilindi. Lekin rus qo'mondonligi bunga ko'nmadi , faqat Saxalining bir qismini Yaponiyaga berishga rozi bo'ldi. Bu Yaponiya diplomatiyasi va AQSh Prezidenti uchun kutilganidan ham katta muvaffaqiyat edi. Gap shundaki, muzokaralar to'xtab urush davom etadigan bo'lsa , Yaponiyaning uni davom ettirishga kuchi va imkoniyatlari yetmas edi. Rus imperatori Nikolay II , uning Portsmut sulh muzokaralari vakili biron Vitte AQSh Prezidenti nayranglaridan vahimaga tushib qolgan edi. Bitimga ko'ra , Koreya Yaponiyaga o'tdi . Xitoy Sharqiy ten'mir yo'lining janubiy qismi to'liq Yaponiyaga topshirildi . Port Artur yaponlarga " ijara" ga berildi. . Rossiyaning Oxota dengizi qirg'oqlari bo'ylarida Yaponlar baliq ovlash huquqini olishdi . Saxalining 50-paralleldan janubiy ham Yaponiyaga tegdi. Yaponiya Rossiyaning Tinch okeanga chiqish yollarini berkitib , urushdan yanada zo'rroq bo'lib chiqdi . Qurollanishni va mustamlakachilik rejalarini yanada kuchaytirdi .

Rossiya - Yaponiya urushi dunyoning hududiy jihatidan qaytadan bo'lib olish uchun eng yirik kapitalistik davlatlartomonidan qilingan dastlabki bosqinchilik urushlaridan biri edi. Rus-yapon urushidaRossiya mag'lubiyatga uchragach , 1905 yil 5 sentabrda Portsmut (AQSH) da sulh shartnomasi imzolandi . Unga ko'ra , Rossiya Koreya va Janubiy Manjuriyada Yaponiyaning hukmronligi tan oldi . Bundan foydalangan Yaponiya o'zining harbiy kuchlarini Koreyaga kiritdi .

Rossiya homiyligidan mahrum etilgan Koreya Yaponiyaga qarshi qo'zg'olon boshladi . Biroq yapon bosqinchilari qo'zg'alonni zudlik bilan bostirishga erishdilar. 1910 yilda Yaponiya Koreyaning istilo qilinganini rasman e'lon qildi . Yaponiya hukumatining talabi bilan Koreya imperatori o'zining butun hokimiyatini " abadiy , batamom " Yaponiyaga topshirdi. Koreyada ma'muriy mansablarning barchasini yaponlar egallab oldilar.. Yapon mustamlakachilari Koreyaga kirib kela boshladilar. Koreys xalqining milliy madaniyati paymol qilindi. Maktablarda koreys tilida o'qitish taqiqlandi . koreyada ko'rilayotgan

yapon sanoat korxonalarida koreyslar qattiq eksplutatsiya qilinardi . Har qanday norozilik chiqishlarida o'nlab , yuzlab koreyslar qirilar, chopilar edi. Butun mamlakatda Yaponiya hukmronligi o'z kuchini ko'rsata boshladi.

Yaponiya endilikda barcha e'tiborni Xitoyga qaratgan edi. Chunki, Yevropa davlatlari va AQSh ning Xitoy boyliklaridan foydalanish uni ham Xitoy mulkidan foydalanishga undar edi. Rossiya bilan urush davomida Yaponiya qiyin moliyaviy ahvolda qoldi . Soliqlar miqdori to'rt barobar oshdi. Oziq - ovqat mahsulotlariga soliqlar miqdori mamlakat soliq yig'imlarining 56 % ini tashkil etdi. Bu mehnat ahlining turmushi og'irligini ko'rsatar edi . Yaponiya o'zining qiyin moliyaviy ahvolini Tayvanni , Koreyani talash hisobiga yaxshilashga o'rindi. Angliya AQSh dan olingan tashqi qarzlarni ham urushdan keyingi qiyinchilikka sabab bo'ldi.

1907-1908 yillardagi iqtisodiy inqirozdan keyin Yaponiya sanoati mablag'solishni yanada kengaytirdi . 1905 - 1912 yillarda bu mablag' 3,8 milliard iyenga yetdi. Shundan 63 % I yangi korxonalar qurishga ishlatildi. Shunday qilib , sanoat qurilishining sur'ati bo'yicha Yaponiyailg'or kapitalistik mamlakatlardan o'zib ketdi . Umuman Yaponiya XX asrning dastlabki o'n yilida sanoatda jiddiy sifat o'zgarishlarga erishdi. Metallurgiya , mashinasozlik kabi muhim tarmoqlar asosan davlat ixtiyorida bo'ldi. Kapital konsentratsiyasi tezlashdi . Ammo , sanoat konsentratsiyasi sekin bormoqda edi .

Iqtisodiy ahvolning og'irligi sanoat va qishloq xo'jaligida mehnatkash ommani haddan ziyod ezib , ishlatish ma'um ijtimoiy harakatlarga sabab bo'ldi . Kotoku rahbarligidagi sotsialistlar harakati yapon burjua - pomeschik monarxiyasini tashvishga soldi . Kotoku va uning 12 safdoshi ig'vo bilan qamalib , sud qilindi va osib o'ldirildi. Lekin mamlakatda ijtimoiy harakat davom etdi . Masalan , 1912 yilda Sudzuki millioner Sudziava mablag'l yordamida islohotchilik g'oyalarini targ'ib qiluvchi " do'stlik jamiyati" nomli jamiyat tuzdi . Kasaba uyushmalari harakati ham qisman iqtisodiy o'zgarishlar talab qilish bilan cheklanuvchi yo'l tutdi. Lekin tub ijtimoiy o'zgarishlar tarafdori bo'lgan Sen Katayama umumiy saylov huquqi uchun kurashdi. . Ijtimoiy harakatlar Yaponiyada birinchi jahon urushi arafasida yanada kuchaydi . Bu davrga kelib Yaponiyaning AQSh va Angliya bilan munosabatlari yomonlashdi. Chunki , Yaponiya Uzoq Sharqda " xvfli raqib" ga aylangan edi . Rossiya bilan Mo'g'iliston va Manjuriyada " ta'sir zonalarini" ni bo'lib olish haqidagi bitimlar (1907-1912) Uzoq harqdagi kuchlar nisbatini Yaponiya foydasiga keskin ravishda o'sgartirib yubordi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Yaponiyada " Meydzi islohati".
- 2.Yaponiyaning kapitalistik bozor munosabatlariga o'tishi.
3. Ijtimoiy - siyosiy harakatlar.
- 4 Imperator hokimiyati.
5. Parlamentning tuzilishi .
- 6.Konstitutsiyaning qabul qilinishi .
7. Yaponiyaning tashqi siyosati.
- 8.Yaponiya - Xitoy urushi.
- 9 Rus-Yapon munosabatlari va Rossiya -Yaponiya urushi.
- 10.Yaponiyada sotsial -demokratik harakat.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar :

- 1 Karimov I.A. " o'zbekiston buyuk kelajak sari" T., " o'zbekiston" 1998, 669-bet. " Yaponiya mintaqamizning murakkab muammolarini- xavfsiz va barqaror tinchlikka erishish , atrof-muhit muhofazssi masalasini hal etishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda"
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq". 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
5. Narochitskiy A.L " Kolonialnaya politika kapitalisticheskix derjav na Dalnem Vostoke (1860 -1895)" M., Nauka 1973.
6. Yaponiyaning yangi tarixi "M .,Nauka 1972.

MAVZU: XVIII-XX ASR BOSHLARIDA AFG'ONISTON.

REJA:

1. Afg'oniston milliy davlatining tashkil topishi.
2. Afg'onistonning xorijiy davlatlar bilan munosabatlari .
3. Birinchi ingliz –afg'on urushi.
4. Ikkinchi ingliz –afg'on urushi.
5. XX asr boshlarida Afg'oniston.

TAYANCH TUSHUNCHALARI.

Boburiylar imperiyasi gizoilyar, durroniylar, safaviylar, afshoriylar, Nodirshoh, Ahmadshoh, Shojoilmulik, ingliz-rus raqobati "Doimiy do'stlik va tayanch" bitimi. Do'stmuhammadxon 1-ingliz-afg'on urushi. O'rta Sharq 2- ingliz-afg'on. Dyurand chizig'i. Pushtunlar. Afg'on xalqining so'zg'alonlari . Rossiya –Afg'on munosabatlari. Ingliz –rus ziddiyati.

1. AFG'ONISTON MILLIY DAVLATINING TASHKIL TOPISHI.

XVII asrning ikkinchi choragidan boshlab Afg'oniston Boburiylar sulolasi hukumronlik qilayotgan hindiston davlati tarkibiga kirar edi. Hirot va Sandahor esa safaviylar sulolasiga qarashli Eronning mulklariga aylangan edi.

XVIII asr boshlarida Boburiylar imperiyasi parchalanib ketayotgan bir paytda afg'onlarning ko'chmanchi ikki qabilasi gizoilyar va durroniylar safaviylarga qarshi urush boshladilar. 1722 yilda bu qabilalar Janubiy- Sharqiy Eronga bostirib kirib safaviylarni taxtdan ag'dardilar. 1736 yilda Turkmanlarning afshor qabilasidan bo'lgan Nodirqul "Nodirshoh" nomi bilan Eron taxtiga o'tirdi va 1738 yili Afg'on qabilalarini Erondan haydab chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Nodirshoh o'z qo'shinlari safini Afg'onistonda yangi kuch (otryad) lar bilan to'ldirib Hindistonga yurish uyushtirdi. 1747 yil nodirshoh qatl etilgandan so'ng , uning imperiyasi inqirozga yuz tutib , parchalanib keta boshladi.

1747 yilda Afg'oniston tarixida birinchi marta milliy mustaqil davlat vujudga keldi. Mazkur davlatning asoschisi durroniylar qabilsining yo'lboshchisi , iste'dodli harbiy qo'mondon Ahmadshoh bo'ldi. Bu davlat tarkibida Afg'onistondan tashqari Xuroson 1748-1761 yillarda bosib olingan Kashmir , Sind va Panjob kiradi.

1773 yili Ahmadshoh Durroniy vafot etgach, uning taxt vorisi , o'g'li Temur va nevarasi Zamon hukumronligi davrida Afg'on davlatining tushkunlikka yuz tutishi boshlandi.

XIX asr boshida o'zaro urushlar va dehqonlar qo'zg'alonlari natijasida Afg'oniston davlati ancha zaiflashdi. Bu paytda mamalakatni Ahmadshohning nevaralaridan biri Shujoumulkelliklar kirib kela boshladilar. Ingliz- rus arqobati ham mamalakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

AFG'ONISTONNING XORIJIY DAVLATLAR BILAN MUNOSABATLARI.

1800 yil so'ngida rus podshohi Pavel I napaleonga maktub bildirdi. Napoleon ham bunga javoban o'zining Hindistonga yurishini O'rta Osiyo orqali , quruqlikdan o'tish haqidagi rejalarini ma'lum qildi. Bu rejaga ko'ra fransuz-rus qo'shinlari Afg'oniston yerlaridan o'tib, Hindistoga hujum qilish lozim edi.

Ammo 1801 yilda rus podshohi Pavel I ning o'ldirilishi va uning o'rniga taxtga o'tirgan Aleksandr I ning tutgan siyosati tufayli bu rejalar amalgam oshmay qoldi. Aleksandr I Napoleon bilan Til'zitda uchrashgandan keyin (1807 yil) bu masala yana ko'tarildi. 1808 yilda napoleon Eronga geniral Gordonni jo'natdi. Bundan hadiksiragan ingliz maxsus missiya yuborildi. 1809 yili yozida (17 iyul) Ingliz va Afg'on hukumatlari Napoleonga qarshi o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar

" Doimiy tinchlik va do'stlik to'g'risida" gi bu o'ziga xos bitimni tasdiqlagan Afg'oniston hukumdori Shujoumulk keyinchalik tarix taqozosi bilan mamlakatdan quvildi va "Ost-Ind" komissiyasidan panohtopdi.

Bu davrda taxti uchun kurash olib brogan hukumdor orasida Do'stmuhammadxon o'z

idorasi, tadbirkorligi va jasurligi bilan

shuhrat qozondi. Qobul amri Do'stmuhammadhon (1826-1863) Uzoq kurashdan so'ng, ikkinchi bora 1826 yili Qobulni qo'lga kiritdi va shu yili Afg'on amiri tojini kiydi.

Ingliz mustamlakachilari Do'stmuhammadhon davlatiga qarshi sikxlarni, so'ngra Eronliklarni gij- gijladi. Lekin, shunga qaramay Do'stmuhammadhon Afg'on yerlarini katta qismini o'z amirligiga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi.

BIRINCHI INGLIZ - AFG'ON URUSHI.

Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida ziddiyatlar birinchi ingliz-afg'on (1838-1842) urushini keltirib chiqaradi. O'z navbatida inglizlar amir Do'stmuhammadhonning o'rniga o'z "odamlari Shujoulmulkni taxtga ko'tarib Afg'onistonni shu yo'l bilan qaram qilib olmoqchi edilar.

Inglizlarning bosqinchilik intilishlari amir Do'stmuhammadhonni tashvishga soldi va u bu intilishlarga zarba berishda Rossiya va Eronda yordam olishga umid bog'lab, ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Ammo Rossiya yaqin Sharq masalalari bilan band bo'lganligi tufayli Afg'oniston masalasida Angliyaga yon bosdiva Afg'oniston bilan diplomatic aloqalar o'rnatishga to'sqinlik qildi.

Birinchi ingliz-afg'on urushida Angliya harbiy jihatdan ancha ustun ekanligiga qaramay, muvaffaqiyat qozonolmadi. Chunki Afg'onlar Ingliz bosqinchilariga qarshi milliy mustaqillik, umumxalq urushini olib bordilar. 1841 yili Shujoulmulk o'ldirildi. Inglizlar tor-mor qilindi. Pirovardida Angliya Afg'oniston bilan sulh bitimini imzolashga va bu davlatning milliy mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Amir Do'stmuhammadhon 1840-1860 yillar davomida Afg'oniston hududini Qandahor, Hirot, Balx, Qunduz, Andxoy va Hilm muzofotlarini bosib olish hisobiga ancha kengaytirildi. Uning vafotidan so'ng taxtga o'g'li Sheralexon (1863-1879) o'tirdi.

Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi, Angliyaing O'rta Sharq jumladan, Afg'onistonga suqilib kirishi xalqaro vaziyatni ancha keskinlashtirdi. Rossiya va Angliya o'rtasidagi mustaqil Afg'oniston hukumati qatnashtirilmagan muzokaralar (1869-1873) natijasida Afg'oniston va chor Rossiyasi chegaralari Amudaryo sohillari bo'ylab belgilanadi.

IKKINCHI INGLIZ - AFG'ON URUSHI.

1878 yilda inglizlar Afg'onistonga yana hujum qildi. Sheralexonning o'g'li yoqubxon (1878-1880) taslimchilikdan iborat Gandamak bitimini imzoladi. Unga ko'ra Afg'onistonning tashqi siyosati Angliya nazorati ostida bo'lishi lozim edi. Bunga qarshi Qobulga Afg'on qoshinlari va aholi 1879 yilda qo'zg'alon ko'tardi. Ingliz rezindensiyasi egallandi. Inglizlar qaytadan Qobulga hujum qildilar. Amir Yoqubxon ularga asir tushdi. G'azablangan xalq va qo'shinlar undan yuz o'girdilar va partizanlik urushi boshlandi.

1880 yil boshida qo'zg'alonchilarga bosh bo'lgan Dostmuhammadhonning nabirasi Sardor Abdurahmon qo'shinlari Qobulni o'rab oldilar. Abdurahmon inglizlari yengib, Shimoliy Afg'onistonda (Afg'on Turkistonda) hukumron bo'lib oldi. Shu asmoda, siyosat maydoniga Sheralexonning o'g'li Ayubxon chiqdi.

U 1880 yil yozida Mayband yonida inglizlarni tor-mor qilib Qandahorni egalladi. Shundan so'ng inglizlar asosiy kuchlarini olib kelib janga tashladilar. Ayubxon yengilib Hirotga chekindi. Ammo Abdurahmon boshliq aholi va Afg'on qo'shinlari inglizlarni ham chekinishga majbur qildi. Ular Qandahorni tashlab chiqdilar. Shunday qilib ikkinchi ingliz-afg'on urushi inglizlarning mag'lubiyati bilan tugadi.

Endi Abdurahmon Ayubxon bilan "hisob-kitob" qilishi kerak edi. 1880 yil kuzida Hirot yaqinida bo'lib o'tgan jangda Abdurahmonning qo'li baland keladi. Amir Abdurahmon (1880-1901) Afg'oniston hukumdori bo'lib qoldi.

Ammo Amir Abdurahmon ham ba'zi masalalarda inglizlarga yon berishga majbur bo'lgan, masalan 1893 yildagi Dyurand bitimi bilan u Afg'oniston janubida inglizlar ustunligini tan olgan.

XX ASR BOSHLARIDA AFG'ONISTON.

1901 yilda Amir Abdurahmon vafot etgach, o'rniga uning o'g'li Habibullo (1901-1919) amir bo'ldi. U Angliya bilan yaqinlashish tarafdori edi. 1904 yilda Angliya Qobulga Den missiyasini yubordi va Afg'onistonga savdo nazoratini berishni taklif qildi. Bundan tashqari Afg'onistonga temir yo'l qurish masalasini qo'ydi. 1907 yilda bu bitim imzolandi va Afg'oniston Angliya manfaatlari mintaqasi deb e'lon qilindi.

XX asr boshida garchi zavod-fabrikalar bo'lmasada qishloq xo'jaligi mamalakati bo'lib qolayotgan Afg'onistonda savdo rivojlandi. Qishloq xo'jaligida "ixtisoslashuv" ro'y berdi. Shaharlarda aholi ko'payib kengaydi.

Biroq, nochorlik shunday darajada ediki soliqlarni pul bilan olishning iloji bo'lmaganidan, natura –mahsulot tarzida soliq to'lanardi. Temir yo'l haqidagi rejalar amalga oshmadi. Afg'oniston qoloq, agrar, yarim mustamlaka mamakatligicha qolaverdi.

Boshqaruv va madaniy o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, ma'muriy va harbiy xodimlar maktabi ochildi. Kitob chop etish yo'lga qo'yildi. gazeta ("Siroj ul axbori Af'oniya"- Afg'on xabarlari chirog'i) chiqqa boshladi. Bularga Muhammad Tarziy boshchilik qildi.

Muhammad Tarziy "Yosh afg'onlar" harakatining boshlig'i bo'lib, mamlakatda respublika tuzimini uchun kurash olib bordi. Ularning dasturida maktab- maorif, madaniyat, fan, texnika sohalarini rivojlantirish asosida mamlakatni qoloqlikdan olib chiqish, konsititutsiya qabul qilish, mahsulot solig'ini bekor qilish, ichki to'lovlarni yo'qotish, qabilalar tengligiga erishish va boshqa ilg'or qarashlar ilgari surilgan edi. "Yosh Afg'onlar" butun umidlarini amir Habibullohning o'g'li Omonullohonga bog'ladilar, chunki u "Yosh Afg'on" lar ro'hida tarbiyalangan edi. Keyinchalik 1919-1929 yillar amir bo'lgan Omonulloh Sovet Rossiyasi bilan yaqinlashib, inglizlarga qarshi siyosat yurgazdi. U Afg'onistonda G'arb avvalo Rossiyadagi yangiliklarni qo'llamoqchi bo'lib, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Natijada 1929 yilda Afg'on qabilalari boshliqlarining Bachai Saqqo rahbarligidagi qo'zg'aloni bilan yosh Afg'onlar hukumati ag'darib tashlandi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Afg'oniston Boburiylar hukumronligi ostida.
2. Afg'oniston Afshoriylar davlati tarkibida.
3. Afg'oniston davlatining vujudga kelishi.
4. Afg'onistonda Durrioniylar hukumronligi.
5. Afg'onistonda ingliz-rus raqobati.
6. Afg'onistonning xorojiy davlatlar bilan munosabatlari.
7. Birinchi va ikkinchi Afg'on urushlari.
8. Amir Abdurahmon davrida Afg'oniston.
9. XX asr boshidagi Afg'onistondagi
10. Afg'onistonda "Yosh Afg'onlar" harakati.
11. Muhammad Tarziy faoliyati.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq". 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" 2009.
4. Hidoyatov G.A. Из истории Англо- русских отношений в Средней Азии. Т. Фан. 1969.
5. Рейснер И.М.Развития и образования государсва у афганцев. М., Наука, 1964.
6. Ганковский Ю.В.Империя Дуррани. М., 1958.
7. Халфин Н.А. Провал Британской агрессии в Афганистане. XIXв начало XX в М., 1959.
8. Массон В.М., Рамадин В.М. История Афганестана. М., Нака, 1964.
9. Фармонов Р, Содиқов О. Жахон тарихи. Т., "Мерос".2004.
10. Nafasov M va boshqalar. Jahon tarixi. T., "Meros".

MAVZU: XIX ASR BOSHLARIDA JANUBIY – SHARQIY YEVIROPA MAMLAKATLARI.

Reja:

1. 1870 – 1900 yillarda Bolgariyaning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti.
2. 1870 – 1900 yillarda Serbiya va Chernogoriya.
3. 1870-1900 yillarda Ruminiya.

Tayanch tushunchalari:

Rus – turk urishi. V. Botev, G. Rakovskiy. Bolgariyaning mustaqilligi. Dondukov – Korsakov. Milliy armiya. Bolgariya Konstitutsiyasi. A. Battenberg, F. Kouburg Serbiya agrar – industrial davlat. Iqtisodiy inqiroz. Yagona ichki bozor. Bank (chet el) kapitali. Avstriya – Vengriya hukmronligi. Obrenovichlar dinastiyasi. Timok qo'zg'oloni. Serbiya – Bolgariya urushi. qirol Milan va Aleksandr. Chernogoriya mustaqilligi. Knyaz Nikolay. Isloqatlar. Skupo'ina. Rumiya davlat to'ntarishi. Siyosiy inqiroz. Katarjiu hukumati. Ruminiya mustaqilligi. Sanoatni rag'barlantirish.

1. 1870 – 1900 yillarda Bolgariyaning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti.

Bolgar xalqi III – asr mobaynida Turkiya Usmoniylarining zulmi ostida edi. XIX asr 70 – yillardan mamlakatida Turklarga qarshi qo'zg'olonlari boshlandi, gayduklar (xalq qasoslari) harakati keng quloch yoydi. 1876 yilda bolgar xalqining juda katta xalqining ozodlik kurashi Georgiy Rakovskiy, Vasil levskiy, Xristo Botev kabi vatanparvarlarni etishtirdi.

1877 – 1878 yillardagi Rossiya – Turkiya urush natijasida Bolgariya Turklar zulmidan ozod qilindi va bolgar davlatchiligi yangidan vujudga keltirildi. Urush boshlarida rus armiyasi qumondonligi huzurida grajdan boshqarmasi tuzilgan edi. Bu boshqarmaning vazifasi turklar zulmidan ozod qilingan Bolgar hududlarida davlat tuzilishini barpo qilish edi. Bolgar erlarida gubernalar tashkil qilindi. Uning raqbarlari rus gubernalari edi. Bolgariyadan rus qo'shinlari chiqib ketgandan so'ng, bu gubernatorlar vazifalari ta'sis etilib, bolgarlardan gubernatorlar tayyorlab borilgan edi.

Rus hukumati yangi bolgar davlatini Rossiya bilan yaqin do'stlikda va uning homiyligida rivojlanib borishiga urinardi. Urush tugagach Bolgar davlatini tuzishga rahbarlik ishlari rus podshosi komissari knyaz Dondukov – Korsakovga yuklangan edi, u shu bilan birga Bolgariyadagi rus qo'shinlarining qumondoni sifatida egallab turgan hududlarida 9 oy ichida, mamlakatning davlat tuzilishi tugallandi.

Bolgar milliy armiyasi tuzildi. Armiyani Ruslar qurol – yarog' bilan ta'minlardi. 1878-yil Sofiyada bolgar ofitserlari tayyorlaydigan g'arbiy maktab ochildi. Bolgariya armiyasini tashkil etishda rus armiyasidan nusxa olib ko'chirilgandi.

Yangidan vujudga keltirilgan bolgar davlatining davlat tuzimi 1879 yilning aprelida Tirnovodagi Ta'sis majlisida qabul qilindi. Bolgar knyazligi konstitutsiyasida (Tirnovo konstitutsiyasida) uzil – kesil rasmiylashtirilgan edi. Konstitutsiya loyiqasi dondukov – Korsakovning topshiriqiga muvofiq rus yuristi S. I. Lukyanov raqbarligida ishlab chiqildi. Ta'sis majlisida konsertorlar va liberallar partiyasi qatnashdi.

Konservatorlar partiyasi vakillari yirik er egalari, sudxo'rlar, savdogarlar bo'lsa, liberallar demokratik ko'pchilikni tashkil etardi. Natijada liberlarning qo'li baland keldi. Tirnovo konstitutsiyasi qabul qilindi. Undi ko'ra, Bolgariya knyazligi xalqdan vakil saylanadigan, meros bo'lib qoladigan va yashirin ovoz berish yuli bilan saylanadigan bir palatali xalq majlisi ta'sis qilindi.

Xalq majlisi qonun chiqarish tashabbusiga va ijrochi qokimiyat ustidan siyosiy nazorat qilish ququqiga ega edi. Konstitutsiyada fuqarolik va siyosiy ququqlar qam erkinliklar, so'z erkinligi, matbuot, majlislar, tashkilotlar erkinligi e'lon qilingan edi. Xususiy mulk ququqi daxlsiz deb e'lon qilindi. O'z davrida Tirnova Konstitutsiyasi yangi, mustaqil Bolgariya uchun katta aqamiyatga ega edi.

Mustaqil Bolgariyadavlatiga Rossiya va Evropa davlatlari o'z ta'sirlarini o'tkazishga o'rindilar. Bu qol Bolgariyaning siyosiy qayotida ta'sir o'tkazdi. Buyuk xalq majlisi bolgar taxtiga prus ofitseri, ru imperatoriasining jiyani Aleksandr Battenbergni saylagan edi. Uni Aleksandr II tavsiya etgan va Evropa davlatlari qam ma'qullagan edilar. (1881 – 1887 y)

1887 yil Bolgariya xalq majlisi nemis shaxzodasi Ferdinand Koburgsskiyni Bolgariya podshosi etib sayladi.

2. 1870 – 1900 yillarda Serbiya va Chernogriya.

XIX asrning so'nggi choragida endigina mustaqil bo'lgan Serbiya va Chernogoriya hali rivojlanish cho'qqisiga ko'tarilmagan edi. 1900 yilda Serbbiyaning 2.5 mln aqolisidan 14% shaqarlarda yashardi. Serbiyada dastlabki fabrkalar 80 – yillarda paydo bo'ldi. 1900 yilda mamlakatda 200 ta sanoat korxonalari bor ei.ularda 10 ming ishchi ishlardi. Bu korxonalarining ko'pchiligi qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi korxonalar edi. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqilgan sanoat yo'q edi.

Birinchida temir yo'l Belgrad – Nisha

Birinchi temir yul Belgrad – Nisha temir yo'li 234 km bo'lib, 1884 yil qo'rilgan edi. 1900 yilga kelib 570 kmga etdi. 1898 yilda sanoatni Avstriya – Vengraya raqobatidan chiqarish, rivojlanish uchun chiqarilgan qukumat qonunlari natijasiz qoldi.

Serbiya iqtisodiyotida 1900 yillarda hunarmandchilik ishlab chiqarishi katta rol o'ynardi. Unda 10 mingga yaqin kosib ishlardi. Sanoatda, qunarmandchilikda, qishloq xo'jaligida krizis chuqurlashib bordi. 1880 – 1897 yillarda ersiz va eri oz dehqonlar 17 – 22% edi. Serbiya aholisining 77% i o'qish va yozishni bilmasdi. qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida xukumat kooperativ harakatlarni 1894 yildan 500 taga etkazdi.

XIX asrning oxirida Serbiya yagona ichki kapitalistik bozor vujudga keldi.

XIX asrning so'nggi uch o'n yilligida savdo aylanmasining o'rtacha yillik qiymati 2 marta oshdi. Serbiya eksportining asosiy qismi ilgaridek qishloq xo'jaligi mollari: chorva, don. Meva edi. Serbiya eksportining 90% i Serbiya uchun juda noquloy bo'lgan 1882 –1892 yillardagi savdo shartnomalariga ko'ra Avstriya – Vengriyaga yuboriladi. Serbiyada birinchi bank 1869 yilda ishga tushgan bo'lsa, 1900 yilda banklar soni 83 taga etdi.

Mamlakat iqtisodida chet el kapitali, asosan, Avstriya kapitali zo'r berib kirib kelishi. Serbiyaning qarzlarning 422 dinorga etishiga olib keldi. Natijada Serbiya Avstriya – Vengriyaning agrar xomashyo bazasiga aylandi.

XX asr boshlarida Avstriya – Vengriya kapitali Serbiya iqtisodiga egalik qila boladi. Bu kapitali Serbiyaning tabiiy boyliklarini va arzon ish kuchini shafqatsiz ekspluatatsiya qila boshladi.

Berlin kongressidan so'ng Serbiya faqat iqtisodiy jihatdan emas siyosiy jihatdan qam Avstriya – Vengriyaga qaram bo'lib qoldi. Serbiya hukmron sinflarining Avstriyani yoqlab yurgizib kelgan tashqi va ichki siyosati iqtisodiy va siyosiy ahvolini mustaqkamlashiga asoslangan edi. hukmron obrenovichlar dinastichsi vakillari zo'r berib Avstriya ta'sirini mamlakatga o'tkazishga qarakat qildilar. 1881 yil knyaz Milan Avstriya – Vengriya bilan yashirin konventsiya tuzdi. Serbiyadagi obrenovichlar dinastiyasini qullab – quvvatlash evaziga, Serbiya Bosniya va Getsogovinadan, Novilazar sanjakidan voz kechadigan bo'ldi. Serbiya Avstriya – Vengriya roziligisiz qo'shni davlatlar bilan siyosiy shartnomalar tuza olmas, o'z territoriyasiga qo'shni davlatlarni kiritma olmas edi.

1889 yil Avstriya bilan Serbiya o'rtasidagi shartnoma muddati cho'zilib, Chernogoriyaga qarshi qaratilgan yangi moddalar bilan to'ldirildi. Milan o'z qokimiyatini mustaqkamlash niyatida 1882 yil 6 martda serbiyani korollik deb e'lon qildi. Natijada mayda burjua radikal partiyasi, yirik savdo va sudxo'rlik burjuaziyasi manfaatlarini ifodalagan liberrallar va napryadnyaklar (progressiv) partiyasi o'rtasida qokimiyat uchun kurash avj oldi.

1883 yil parlament saylovlarida radikallar partiyasi qalaa qozondi. Radikal partiya Rossiya bilan yaqinlashish siyosatini tutib, xalq deqqonlari orasida qalaba qozondi. qukumat deqqonlardan tuzilgan xalq qo'shinini qurolsizlantirish qaqida chiqargan farmoniga qarshi 1883 yilda Timok kraynasi territoriyasida deqqonlar qo'zqoloniga sabab bo'ldi. Sababi, bu deqqonlar 1876 – 1878 yillardagi urushda eng ko'p zarar ko'rgan edi. qo'zqolon shafqatsizlik bilan bostirilgan bo'lsada, obranovichlar dinastiyasi mavqeiga zarar etkazdi.

1885 yil 1 noyabrda Bolgariyaga qarshi urush boshladi. Urushga Serbiya xalqi qarshi edi. Serbiya engildi. 1886 yil Avstri – Vengriya qistovi bilan Buxarest sulqi tuzildi. 1888 yil yangi Serbiya konstitutsiyasi qabul qilindi, unga ko'ra Serbiya qukumati parlament oldida siyosiy jihatdan javobgar bo'lishi belgilandi va ya'ni yashirin ovoz berish, parlament (skupshchini)ga qonun chiqarish ququqi berildi. Saylovda xotin – qizlar qatnashmasdi.

1889 yil Milan taxtdan voz kechib taxtga baloqatga etmagan o'qli Aleksandrni taxtga (1889 - 1903) o'tkazdi. Skupshchina (parlament)ga 1892 yil partiyasi kelib, mamlakatda terror rejimini o'rnatdilar. 1893 yil Aleksandr o'zini baloqatgaetgan deb qisoblab mamlakat idorasini o'zi boshqara boshladi. Regenlar va ministrlar qamoqqa olindi. Radikallar va progressistlardan iborat qukumat tuzildi. Lekin Aleksandr mamlakatni shu vavqtgacha qufiya boshqarib kelayotgan otasi Milanni 1894 yil qarbiy ministr qilib tayinladi. Natijada mamlakatda yana istibdod idora usuli o'rnatildi. 1888 yil konstitutsiyasi bekor qilindi va 1869 yilgi

1884 – 1889 yillar boshlarida Nisha ishchilarining aqvoli juda oqir, meqnat to'qrisidagi qonunlar yo'q ish kuni 12 – 18 soat, ish qaqi oz edi. Ishchilar qarakatiga Andra Bankovich raqbarlik qilib 1895 yilda Belgradda ishchilar jamiyati 1896 yilda 1- kasaba soyuz tashkiloti tuzdi. 1899 yil yil Serbiyada favqulodda qolat e'lon qilindi va ishchilar qarakati to'xtatildi.

Chernogoriyaning mustaqil deb e'lon qilinishi va uning teritoriyasida ikki martadan qam ko'payishi munosabati bilan xo'jaligining rivojlanishi uchun yanada qulayroq shart-sharoit yaratiladi. Mamlakat

qishloq xo'jaligi bilan shugullanish uchun qulay tekis krlarga va dengizga chiqiladigan yo'lga ega bo'lib qoldi.

Yangi shaxarlar Podgoritsa, Bar va Ikshich shaxarlari, mamlakat iqtisodiy taraqqiysining markazlari bo'lib qoldi.

XIX asr oxirida borib qishloq xo'jaligida uzumchilik, tamakachilik, zaytun va tut daraxtlari o'stirish singari tarmoqlarini rivojlanishda ba'zi bir yutuqlarga aylanib borayotgan edi. Shu asosda ichki va tashqi savdo rivojlanib borayotgan edi. XX asr boshlariga qadar Chergoriyada sanoat deyarli yo'q edi. Mamlakat sanoati boshqa davlatlar sanoati bilan raqobat qilolmasdi. qishloq xo'jaligida er juda qoloq qurol – asboblari bilan ishlanardi. Italiya va Avstriya kapitali zo'r berib kirib kela boshladi. 1876 – 78 yildagi urushdan so'ng Chernogoriya tinch rivojlanish yo'lga kirdi. 1880 – 1890 yillarda mamlakatda muqim ichki reformalar o'tkazildi. 1879 yil senat tugatildi, o'rniga davlat kengashi tuzildi, ministrlar kabineti tashkil qilindi. Kengash a'zolari va ministrnlarni knyaz tayinlandi. Chergoriya territoriyasi 10 okrugga bo'lindi. Sud organlarini qayta tashkil etildi. 1888 yilda mol – mulk ququqlari qonunlarining yangi majmuasi tashkil etildi. Maorif, fan soqasida reforma o'tkazildi. qariy reforma asosida Chernogoriya armiyasi tuzilib, qadrlar rus maktablarida tayyorlanadi, qurol yaroq bilan Rossiyaning qar yili beradigan puli qisobidan ta'minlandi.

Chernogoriya knyazi Nikolayning o'tkazgan reformalari (1860 - 1881) patriarxal uruqchilik munosabatlarining ancha – muncha qoldiqlari saqlanib qolgan ishtimoiy tuzumdan kapitalistik munosabatlar hukmron bo'lgan yangi ishtimoiy tuzumga o'tish protsessi taqozosi bilan qilingan reformalar edi. Bu reformalar Chernogoriya qokimlarining markaziy qokimiyatini mustaqamlashi edi. Lekin XIX asr oxiridagi burjua taraqqiyotining yangi sharoitlarida knyazlar mustamlakachilik siyosati mamlakatni rivojlanishda to'siq bo'lib qoldi. 26 yil davomida 1879 yildan 1905 yilga qaar knyaz skupshchina chaqirmadi. Bu qol Chernogoriyada Monarxiya tuzumi hukmronligi kuchliroq ekanligidan dalolat berardi.

1866 yildagi davlat to'ntarishidan keyin Ruminiya siyosiy qayotida tez – tez krizislar ro'y bera boshladi. 1866 yildan 1871 yilga qadar o'n qukumat almashdi.

Ruminiya pomeschchiklari va burjuaziyasi qam bir siyosiy tashkilotlari yo'q edi. Korol I frantsuz burjuaziyasi bilan boqlangan pomeschchiklari va urjuaziyaning bir qismi manfaatlarini qimoya qilib, Avstriya – Vengriya, Germaniya bilan bitim tuzdi. Ruminiyada qamma soqada, temir yo'l kompaniyalarida qam nemis kapitaligining zo'ravonligidan norozi xalq 1871 yilning martida Buxarestda german imperatorining tuqilgan kuniga uyushtirilgan marosimni bo'zishdi. Natijada Korol I davlat apparatini mustaqamlash maqsadida L. Katarjiu boshliq yangi qukumat tuzdi, bu qukumat mamlakatda diktatura rejimini o'rnatdi. Katarjiu qukumati (1876 - 1871) yillarda zamindorlar manfaatini qimoya qilardi. 1875 yil u rumin iqtisodiyoti bilan qisoblashmasdan Avstriya – Vengriya bilan savdo bitimi tuzdi. Bu bitimga ko'ra Avstriya – Vengriya sanota mollari uchun Ruminiya ichki bozori ochib berildi. qali zaif bo'lgan rumin sanoati raqobatga dosh berolmasdi. Buning evaziga Ruminiya Avstriya – Vengriyaga qishloq xo'jalik mollari etkazib berib turardi. Bu bitimning vayron qiluvchi oqibatlar tez namoyon bo'ldi. Shu vaqtgacha faol bo'lgan rumin tashqi siyosati tez tushib ketdi. (1877 yil) tashqi savdo oboroti 1881 yilda 481.3 mln ley bo'lgan bo'lsa, savdo defitsiti 68.2 mln oltin leyni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish kamayib va o'rta korxonalar yopilib ketdi. qatto Ruminiya buqdoyi Avstriya tergirmonida tortiladigan bo'ldi. 1875 yilgi bitim Avstriya – Vengriyani Ruminiyada ustunlik qilishiga va boshqa davlatlar bilan savdosi qisqarib ketishiga olib keldi. Ruminiyaning muvaffaqiyat bilan rivojlanib kelayotgan Galts va Braila portlari oboroti 1875 yilgi bitimdan so'ng qisqarib ketdi, so'ngra Germaniya bilan qam shunday bitim tuzilishi Ruminiyani nemis davlatlariga iqtisodiy qaram qilib qo'y di.

Ruminiyaning chet davlatlardan qarzi oshib ketdi. Katarjiu qukumati siyosati mamlakatda norozilikka sabab bo'ldi. 1876 ylda qukumat iste'fo berdi va shu yili liberal partiya qukumat tepasiga keldi.

1876 yil aprel oyida liberallar partiyasi vakili I. Bratianu qokimiyat tepasiga kelgan Turkiya – Serbiya, Chernogoriya va Turkiya, Rossiya va qar davlatlari o'rtasidagi nizolardan foydalanmoqchi bo'ldi. Lekin Ruminiya xalqi Rossiya bilan ittifoqi tuzishni turklar hukmronligidan ozodj bo'lishini yagona yuli deb bilganligi uchun 1877 yil Rossiya Ruminiya ittifoqi tuzildi. Unga ko'ra rossiya qo'shinlari Ruminiya tuproqidan bemalol o'tishlari, transport, ta'minot kabi masalalarda yordam berishlari va'da qilindi.

1877 yil 21 mayda Ruminiya to'la mustaqil deb e'lon qilindi. Ruminiya mustaqilligini Rossiyadan boshqa davlatlar tan olmadi. 1877 – 1878 yilgi San – Stefano sulqi va berlin traktati Ruminiyani mustaqilligini

tasdiqladi.

Rumiya hukmron doiralarining tashqi siyosatida Avstriya – Vengriya, Germaniya bilan tuzgan bitimlari Rumiyaning kuchlar ittifoqiga maqkam boqlab quydi. Buni Korol I qam xqlagan edi. Shu maqsadda u Vena va berlinga maxsus safar qildi. 1864 yilgi agrar reformadan keyin, asosiy eksport qilinadigan ekin – bo`qdoy ekish uchun o`rmonlar kesilib, 184 yildagi 893065 gektarga etdi. Lekin meqnat unumdorligi oshmadi. 1866 yil “qishloq xo`jalik shartnomalari” to`qrisidagi qonun e`lon qilinib, unda maqalliy qukmndorlar zimmasiga deqqonlarni pomeshchikliklar uchun ishlashga majbur etish, 1872 yilda esa deqqonlarni pomeshchiklar bilan tuzgan tutqinlik shartnomalarini bajarishga majbur qilish qarbiylar zimmasiga yuklandi. Deqqonlar aqvoli oqirlashib ketdi. Ochdan o`lmaslik uchun zo`rqa ishlardi.

1888, 1889, 1892, 1900 yillarda Rumiya qishloqlarida, Buxarestda deqqonlarning qalayoni bo`lib o`tdi. 1885 yilga kelib, proteksionistik siyosat olib borgan liberal qukumat Avstriya bilan tuzilgan savdo bitimini dononsatsiya qilgandan so`ng, Rumiya sanoatida sezilarli siljish yuz berdi. 1887 yil “Vatan sanoatini raqbarlantirish to`qrisida” qonun qabul qilindi. qonunga ko`ra, yangi qurilgan masho`ina – asboblarga ular chetdan keltirilsa boj to`lmaslik, o`z tovarlarini sotishda boj to`lmaslik, o`z korxona eqtiyojlari uchun temir yo`llarda foydalanilganda qaq to`lmaslik, bino qurish, er sotish olishda imtiyozlarga ega bo`ldilar. Bu qol rumin sanoatining tez rivojlanishiga, yangi fabrika va zavodlar qurilishga neft konlari, shaxtalar, temir yo`llar qurildi. Oziq – ovqat, o`rmon va neft sanoati rivojlandi. Chet el, nemislar kapitali Rumiyaadagi asosiy tarmoqlarga kirib keldi va Rumiya sanoatini bir tomonlama rivojlanishiga, Rumiyaning rivojlangan mamlakatlarga xom ashyo bazasiga aylantirishdan manfaatdor edi. Rumiyaada ishchilar sinfi shakllandi va 1872 yilda ishchilarning birinchi yagona tashkilo tashkil topdi.

1876 – 1888 yillarda I. Bratianu quumati ichki siyosatda reaksion ish yurgizdi. U parlamentning konstitutsion ququqlarini buzdi, qokimiyat xazinasini suiste`mol qildi. Korruptsiyaga keng yo`l ochib berdi. Bu qol burjua siyosatchilarini, meqnatkashlarni, ishchilarni qukumatga qarshi chiqishga olib keldi. 1886 yil I. Bratianuga qarshi, 1888 yil Buxarest aqolsi Korol majbur etdi. qokimiyat uchun kurash 1889 – 1895 yillarda bir necha marotaba qukumat almashinuviiga siyosiy krizisga olib keldi. 1895 yilda liberallar partiyasidan D. Sturdda qokimiyatiga kelib, 1899 yilgacha boshqardi.

1899 yil konservatorlar partiyasi qokimiyat tepasiga keldi. Rumin hukmron doiralarining birortasini o`z siyosiy programmasi, maqsadlari bo`lmaganligi ularning qammalari qokimiyat uchun kurash bilan band bo`lganliklari, ular qokimiyat tepasiga kelganlaridan keyin mamlakatni rivojlanishga aqamiyat bermasliklari XX asr boshlariga kelib Rumiyaada ijtimoiy va iqtisodiy ziddiyatlarning juda keskinlashib ketishga olib borgan eng muqim sabablardan biri bo`ldi.

Nazorat uchun savollar

1. Bolgariyaada ozodlik qarakati va uning etakchilari.
2. Bolgariyaning mustaqillikka erishishi.
3. Bolgariyaning birinchi konstitutsiyasi.
4. XIX asr oxirida Serbiya iqtisodiyoti.
5. XX asr boshida Serbiya.
6. Chernogoriya va Serbiya Avstriya-Vengriya.
7. Serbiya va Chernogoriyaning siyosiy taraqqiyoti.
8. Rumiya Avstriya-Vengriyaning xom ashyo bazasi.
9. Rumiya iqtisodiyoti.
10. XIX asr oxirida Rumiya ijtimoiy-siyosiy aqvoli

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., “Sharq”. 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T., “Ma`naviyat” 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo`llari va choralari. T., “O`zbekiston” 2009.
4. Bolgariya tarixi . M. 1954
5. Istoriya Yujno`x i Zapadno`x clavyan. M. 1957
6. Yangi tarix. 11-111 t. T . 1969.

7. Pogodik A.L. Istoriya Serbii .M. 1976.
8. Zamo`shkin M.N. Pometika neytraliteta pravayahix krugov Rumonii v 1875-1876gg. M..1957.
9. Roller M. Istoriya Ruminii. M. 1950.
10. Istoriya Bolgarii. t 1-2 M. 1954-1958.

MAVZU: XX ASR BOSHLARIDA XALQARO MUNOSABATLAR

REJA:

1. XX asr boshlarida rivojlangan davlatlar o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi.
2. 1904 yildagi Angliya-Fransiya bitimi.
3. 1807 yilgi Angliya-Rossiya kelishuvi.
4. Birinchi jahon urushi arafasida Yevropa.

Tayanch tushunchalari:

Rivojlangan davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar. AQSH-Ispaniya urushi. AQSHning «Ochiq eshiklar doktrinasini». Rossiya-Yaponiya qarama-qarshiligi. Fransiya-Germaniya munosabatlari. Xitoyning asoratga solinishi. Rus-yapon urushi. Italiyaning «Uchlar ittifoqi»dan chiqish. Misr-inglizlar ta'sir doirasida Marokash krizisi. Ingliz-rus bitimi. Bolqon urushlari. Serbiyada ozodlik harakati. Serbiyadagi qotilliq. Birinchi jahon urushining boshlanishi.

XX asr boshlarida rivojlangan davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi

XX asr boshlarida kelib dunyoning rivojlangan davlatlari o'rtasida bozor va hududlar masalasida o'zaro ziddiyatlar kuchayib ketdi. AQSH Ispaniyaga qarshi urush qilib, uning ustidan osongina g'alaba qozondi. Ispaniya Filippin orollarini, Puerto-Riko va Kubani AQSH ga berishga majbur bo'ldi. Ispaniya-Amerika urushi dunyoni qayta bo'lib olish yo'lidagi birinchi talonchilik urushi edi.

AQSH hukmron doiralari Xitoyni Amerika kapitalining istiqbolidagi muhim bozor deb qarardilar. Ammo, Xitoy boshqa yirik davlatlar tomonidan «ta'sir doiralari» allaqachon bo'lib olingan edi. Shuning uchun AQSH 1899 yilda davlat kotibi Xey orqali Xitoyda «ochiq eshiklar doktrinasini», ya'ni Xitoyda iqtisodiy sohada erkin «kirib borish» va barcha davlatlar kapitalining faoliyati uchun teng imkoniyatlar yaratishni e'lon qildi,

AQSH hukumati Rossiyani o'zining Xitoydagi asosiy raqibi deb hisoblardi. Shuning uchun AQSH ham ingliz hukumati kabi Rossiyaga qarshi Yaponiyani ko'llab-quvvatladi.

Ilgaridan mavjud bo'lgan xalqaro ziddiyatlar monopolistik kapital tufayli yanada keskinlashib ketdi.

Fransuz hukmron doiralari Elzas va Lotaringiyaning Germaniya bosib olgan qismini qaytarib olmoqchi bo'ldilar. Germaniya esa Fransiya qo'lida qolgan Bris va Longvi havzalarini bosib olmoqchi bo'ldi. Germaniyaning Fransiya qarshi kurashi o'z navbatida uning Yevropada gemonlik qilish uchun kurashi ham bo'ldi. Angliya bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlar XX asr boshlaridagi xalqaro urushga sabab bo'ldi.

Angliyada yuz bergan inqiroz tufayli taraqqiyot bir muncha orqaga ketdi. Germaniya kapitali esa Yevropada ingliz kapitalini siqib chiqara boshladi. Natijada ingliz-german munosabatlari keskinlashdi. Germaniya imkoni boricha Angliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakat qila boshladi. Raqobatchilik janubiy Afrikada kuchaydi. Bu yerda Germaniya Angliyaga va uning Bur respublikasiga qarshi kurash boshlandi.

Vilgelm II ning 1898 yilda Konstantinopolga borgani, Turkiya sultonining nemis kapitalistlariga Bog'dod temir yo'lini konsessiyaga berishga va'da qilishi Angliya hukmron doiralari u yerdagi manfaatlariga xavf soldi. Chunki Germaniyaning harbiy dengiz floti qurishga kirishilganligi inglizlarning xavotirlanishiga asos edi. Buning ustiga ingliz dengiz flotining nemis flotidan «orqada» qolayotgani ma'lum bo'lib qoldi. Uzoq Sharq Rossiyaga qarshi kurash va Afrikada mustamlakachilik masalasida Fransiya bilan ziddiyatlarning mavjudligi Angliyani ma'lum vaqt Germaniya bilan murosqa qilib turishga majbur qildi. Hatto, Rossiya Port-Artur egallagach, 1898 yilda Angliya Germaniya bilan ittifoq tuzish

to'g'risida muzokaralar olib bordi. Chunki 1899-1902 yillarda ingliz qo'shinlari Bur respublikasida urush bilan band edi.

1900 yili sakkizta kapitalistik davlatning Xitoyni asoratga solishiga qarshi xalq ko'zg'oloni boshlanib ketdi. Qo'zg'olonchilar Pekinni bosib oldilar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Angliya, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiya va Italiya, Avstriya-Vengriya xalqaro jazo korpusi yubordilar.

1900 yil 15 avgustda bu xalqaro korpus Pekinni ishg'ol qildi va qo'zg'olonni shafqasizlik bilan bostirdi. Pekindagi saroy va ibodatxonalar ajnabiy bosqinchilar tomonidan talandi. Shahar va qishloqlar to'pga tutildi. G'olib davlatlar Xitoyni yangi asoratli shartnomalari tuzishga majbur qildi.

Xitoy hukumati milliy manfaatlariga putur yetkazuvchi shartlarni qabul qilishga majbur etilib, G'arb davlatlariga «qo'zg'olon natijasida chet elliklar ko'rgan zarar evaziga» o'lpon to'lashga, Xitoyga qurol olib kirishni man qilishga rozilik berdi.

